

Azim SUYUN

Tanlangan asarlari

IV

10-48291 | 2020/114-A 34

4/4

Suyun, Azim

Tanlangan asarlar

T. 2020 - 296 b.

2020/114 - A 34

UDK 821.512.133-1

KBK 84(5a) 6

598

Suyun, Azim.

Tanlangan asarlar: 7 jildda / A.Suyun. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.

J. 4. Tug'dona. (Nasr). 2020. – 296 bet.

Rivoyat qilishlaricha, tog' qo'ynidagi yurtlarning biriga yov yurish qilganda xabarchilar barcha qishloq, ovul odamlarini xatardan ogoh etib, jangga chorlaydi. Odamlar shu atrofda tog'-toshda, qoyalarda o'sadigan daraxtdan kaltaklar va cho'qmorlar yasab, Vatan uchun hayot-mamot jangiga kirishadi. Hatto qariyalar-u bolalar ham qo'llarida novdalarni bayroq kabi boshlari uzra baland ko'tarib, hayqirgancha jangchilarga madad berishadi. Birgalashib yovni butunlay mag'lub etgan el og'ir kunlarida madad bo'lgan daraxtni e'zozlab, tug'dona – bayroq daraxt, deb ataydi. U daraxtlar ichida muqaddas, kamyob hisoblanadi, o'zi juda qattiq, mustahkam. Tikka o'sadi. Sershox. Barglari arratish, qirrador. Mevasi shifobaxsh. Tug'dona yog'ochidan yasalgan do'mbira sadolari insonga beqiyos kuch-g'ayrat, shijoat, orom bag'ishlaydi. Azim Suyun ijodi shu tug'donaga qiyos qilgulikdir.

UDK 821.512.133-1

KBK 84(5a) 6



ISBN 978-9943-6106-3-7

© Azim Suyun
© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi,
2020

**NEVARALARIM UCHUN
HIKOYALAR**



KERAGATOSH KAKLIKLARI

Tog' qishloqlarida har bir joyning o'z nomi – ataması bo'ladi. Aytaylik, men tug'ilib o'sgan Nakurtning Kamarovul, Lolahovuz, Qizilolma, Ulfatan, Bodomchali, Qo'shilish, Yorishgan, Qorong'ulsoy, Qarisoy, Kumushlisoy, To'ptol, Kattaqamishloq, Kichikqamishloq, Tuyatosh, Cho'chqalisoy, Alqorsoy, Qo'chqoro'ldi, Bulbulsoy, Oqbuloq, Bellisoy, Kattaqorasoy, Kichikqorasoy, Katakli, Momotosh, Suvlisoy, Yo'ltushgan, Beshtaram, Uzunmo'la, Dovtepa, Qiziljar kabi tarmoq qishloqchalari, daralari, kamarlari, buloqlari, soylari, tog' qoyalari, cho'qqilari, yaylovlari, o'tloqlari, suvloqlari, sayhonliklari, adirlari, qirlari bor. Ular o'z joyidagi o'zgarmas belgilarga qarab nom olib kelgan.

Shunday joylarimizdan biri Yetimhovuz. Yetimhovuz deb atalishining sababi, u yerda yolg'iz, g'aribgina buloq suvlaridan paydo – hovuz bo'lgan. Ana shu hovuzning oftobchiqar tomoni – balandlik. Keragatosh degan tizma qoyalar tuya karvonlari yanglig' salobat bilan tiz cho'kkan. Keragatoshda kakliklar anchagina. Undan bir chaqirimda Gilloybuloq deb atalmish buloq taram-taram eshilib oqadi. Keragatosh kakliklari shu buloqdan suv ichishadi.

Ota makonimizda, Ona yurtimizda, tog'larimizda kakliklar ko'p. O'sha bolalik chog'larimda ham mo'l edi. Ular qora qosh, tumshug'i, oyoqlari qizil. Xo'rozining peshonasi qora, bosh tepasi kulrang, qizg'ish shu'lali, jig'ildoni bilan ko'kragi och havorang, tag qismi sarg'ish bo'ladi. Ikki yonidagi patlarida qora-qo'ng'ir tusli ko'ndalang yo'llari bor. Oyoqlari pixli, makiyoni esa to'q kulrang, oyoqlari pixsiz, jussasi xo'rozidan kichikroq.

Kakliklar in-uyalarini o'zlarini himoyalash qulay bo'lgan pana joylarga – toshlarning ostiga, har xil butalar, daraxtlar, shuvoqlar tagiga qo'yishardi. Kakliklarning makiyoni apreldan iyungacha tuxum qo'yadi. Tuxumlari besh-oltitadan yigirmatagacha bo'lishi mumkin. Ular xol-xolli, ya'ni xoldor.

Men mulla Suyunning singlisi Qizmon ammamdan ajoyib she'r-terma eshitganman. Uni yozib olib qolganman. Mana u:

Bo'g'in-bo'g'in bo'g'inchak,
Tugun-tugun tugunchak.
O'ttiz elning enasi
Halda (halı ham) bo'lsa kelinchak.

Bu yerda "o'ttiz elning enasi" deganda, o'ttizta jo'jasi nazarda tutilayapti. Tuxumlarini xuddi tovuq kabi ona kaklik, ya'ni makiyoni bosib yotadi va jo'ja ochadi. Jo'jalari tuxumdan chiqqanidanoq ota-onasiga ergashib ketishaveradi.

Xullas, poda boqib, zerikib yurgan paytlarimda kakliklarga ishqiboz bo'lib qoldim. Kakliklar tushga yaqin Gilloybuloqqa kelishlarini kuzata boshladim. Bu odat tusiga aylandi. Ular buloqqa kelgunlaricha dumbul o't-o'lan, ko'kat-maysalarni cho'qib-uzib, yulqib, chog'at, jona-qiyalik, qumlarini titkilab, "g'at-g'at"lab oziqlanishadi. Keragatosh qirlarida chigirtkalar, qurt-qumirsqalar, jazirama paytida jizildovuqlar mo'l-ko'l bo'ladi. Ularni chaqqonlik bilan tutishadi. Hatto uchgan chigirtkani qanot yoyib, yugurgilab borib, osonlikcha yutishadi.

Ko'pincha oila boshlig'i – xo'rozi biror ayiqbosh cho'qqimi, qoyami yoki anchayin balandroq g'adir-budir tosh ustiga chiqib oladi-da, to'lib-toshib, goho o'qtin-o'qtin sayrashga tushadi. Uning ovozi uzoqlarga taraladi. Aytaylik, siz pastda – daralarda, jarliklarda yuribsiz, lekin uning yuqorida turib sayrayotganini bemalol eshitasiz. Sayrayotganda tomoqlari bulkullaydi. Goho xo'rozi oldida makiyoni paydo bo'lib qoladi. Unga uzib-uzib jo'r bo'ladi. Biroq makiyoni ovozinig shashti sust. Ishtiyoqsiz sayrayotganga o'xshaydi. Nimagadir unlgandayroq kakirlaydi. Ba'zi jo'jalari ular oldiga chiqib-tushib yurishadi. Doim ota-onasi yonidagi bolalarday yayrashadi.

Qorin qayg'usidan qutulgan kakliklar tushlikka yaqin "pat-pat"lashib, "g'iyt-g'iyt"lashib, buloq boshiga enishadi. Buloq boshiga yaqinlashishdan oldin u yoq-bu yoqni sergaklanib kuzatishadi. Ayniqsa, xo'rozi hushyor. Suvni mırqib, shoshmasdan ichishadi. Bir yutum-bir yutum tomoqlarga oladi-da, boshlarini yuqoriroq ko'tarib yutishadi, tag'in navbatdagi yutumni olib bu holatni chanqoqlari bosilguncha takrorlashadi.

Bir kuni Shunday bo'ldi. Ishqibozlik ortib, kakliklar jo'jasidan bir-ikkitasini tutib, uyimizda, qafasda boqmoqchi bo'ldim. Bir tesha-cho'tni o'zim bilan oldim. Podalarni katta kamarga haydadim-da, Gilloybuloq boshiga keldim. Hovuchlab suv ichdim. Chanqog'im bosildi. O'ynab-o'ynab o'yladim. O'ylab-o'ylab o'ttiz-qirq qadam naridan o'zim bemalol joylashadigan chuqurcha-xandakcha qazidim. Har xil butalarni, shuvoqlarni, xas-xashaklarni to'pladim, xandakcham qoshiga uydım. O'zim xandakcha ichiga tushib olib, ularni ustimga yopdim. Tirqish ochib, kakliklar kelishini kuta boshladim. Bir so'z bilan aytganda, xonaki, jaydari "ovchi"ga aylandim.

Kakliklar asta-asta, ohista-ohista kelishdi. Ammo xo'rozi nimagadir buloq boshidan ancha narida turib qoldi. Qolganlari bexavotir o'zlarini suvga urishdi. Xo'roz xavotirda-yu, lekin jim...

Ona kaklik va jo'jalari suv ichib bo'lgach, buloq boshidagi do'lana daraxti tagiga, tuproqqa ag'nay-ag'nay ketishdi. Qanot yoyib, o'mganlarini chag'otning mayda tosh-qumlariga bulashdi. Kichkina tugmachaday ko'zlarini suzib-suzib oromlashdi. Birdan xo'roz men umuman eshitmagan g'alat ovozda chinqiribmi-qichqiribmi yubordi. Seskanib tushdim. Endi vaqtni boy bermaslik kerak edi. Men ustimdagi lash-lushlarni otib yubordim-da, jo'jalar tomon intildim. Yo'rg'alab qochayotgan jo'jalarni quvib yetdim. Men bilamanki,

suvga to'ygan kakliklar, ayniqsa, ularning bolalari tez yugurolmaydi, daf'atan uchib ketolmaydi. Hash-pash deguncha ikkitasini tutib oldim.

Xo'roz Keragatoshni yoqalab uchdi. Makiyoni ham o'rga biroz yo'rg'aladida, Yetimhovuz tarafga qarab parvoz qildi. Jo'jalarning bir qismi yuqorilab ketdi, bir qismi esa butalar, shuvoqlar, toshlar orasiga berkindi. Men boshqa quvmadim ham, izlamadim ham. Qat-qat tosh ustiga o'tirdim, nafas rostdladim. Qo'limdagi jo'jalarga tikildim.

Ko'p o'tmay ota-ona kaklik – xo'roz va makiyonlarning zorlanib, bolalarini chorlagan ovozlari eshitildi.

Men ikki jo'jani uyga yetkazolmadim. Ularni qo'llarimda ushlab yunib, o'ldirib qo'ydim. Ha, parranda-yu darranda ham erkinlik-ozodlik farzandi. Qushlar ko'kda, baliqlar suvda, jayronlar-u kiyik, marollar, alqorlar tog'da, odamzod adolat-u haqiqat erkinligida yashovchan.

2001-yil

ONA KAKLIK

Hayot murakkab. Unda umr kechirish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Ammo qiyinchilik, og'irchiliklardan, xatarlardan qo'rqavermaslik kerak. Inson aql, tafakkur chirog'i har qanday zulmatni yoritishga qodir, yo'lingizdagi ko'ringan-ko'rinnmagan to'siqlarni, g'ovlarni surib tashlashda sobit.

Insonni qo'yaturaylik, tabiatdagi har bir jonzot ham tiriklik uchun kurashib yashaydi. Tirikchilik – tirriqchilik, degan aytimlar behuda yaralmagan.

Kaklik sodda qush. Lekin uning sodda bo'lib qolishga haqqi yo'q.

Irg'ayli darasining chog'atli qir-adirlarida mol boqib yurgan kezlarim bunga o'zim guvoh bo'lganman.

May oyi o'rtalarining birida ona kaklik tuxum bosib yotganiga duch keldim. Uning uyasi bir tup shuvoq ostida edi. Bolalik ekan-da, uni tutmoqchi bo'ldim. Unga qarab yo'naldim. Ona kaklik noxushlikni tez payqadi. Birdan uyasidan otilib chiqdi va pastga – qiyalik bo'ylab dumalay ketdi. Ha, u aynan dumalab borardi. Orqasidan quva boshladim, yetay deganimda dumalashni tezlatdi. Quvaverdim. Yana yetay-yetay dedim. U yana tezlatdi. Quvib-quvib daraning ichiga tushib qoldim. Va shunda ona kaklik dumalashdan lahzada turdi-da, uch-to'rt qadamcha yugurgiladi-yu, uchib ketdi.

Ko'rdingizmi, sodda qush deganimiz, ona kaklik menday bir aqlli cho'pon bolani qanday chalg'itib, tuxumlarini, bo'lajak jo'ja-bolalarini asrab qoldi. U ayyormidi, yo'q, degim keladi bugun, ona kaklik aqlli, oqila edi.

Men o'shanda, tag'in ortimga qaytib, uning tuxumlarini olib ketishim mumkin edi. Ammo, birinchidan, men uyadan ko'p uzoqlab ketgan edim. Ikkinchidan, tuxumlarni olib, nima ham qilardim. Mol boqib yursam, mol boqish esa oson emas. Qolaversa, birorta kurk tovuq tayyor emaski, tuxumlarni bostirsam, jo'ja ochtirsam. Uchinchidan, otamning o'giti yodimdaydi: "Qush uyasini buzma, tuxumlarini sindirma, polaponlariga ozor yetkazma, hatto ilon bolasini ham o'ldirma!"

Men podalar o'tlab yurgan sayhonlik sarı ketdim.

KAKLIK DUSHMANLARI

Kakliklarning dushmanlari ko'p. Tulki – ayyor qaroqchi. U hamisha kakliklarni poylagani-poylagan. Payt yetdi deguncha, ularga xavf soladi. Ayniqsa, qishning qahraton kunlari. Odatda, tog' malikalari bu chog'lar gala bo'lib yashaydi. Tunlari qoyalar bag'rida to'dalashadi, g'uj bo'lib olishadi. Tulki, ko'zlari yonib, ularga tashlanadi, kakliklar patirlab, o'zlarini duch kelgan tomonga urishadi. To'zib ketishadi. Qor gurtiklariga botib, ucholmay qolishadi. Ko'plari "qaroqchi"ga yem bo'lishadi.

Kakliklarning yana bir dushmani ko'bra, ya'ni ko'zoynakli ilon, uni kapcha ilon ham deyishadi. U rangdor. Kaklik esa ranglarni yaxshi ko'radi. Ko'bra ranglari tuzoq bo'lishi mumkinligini bilishmaydi.

Nurota tizma tog'larida ko'bralar juda ko'p bo'lmasa ham, tez-tez uchrab turadi.

Baland toshsupa ustida nar kaklik o'z ovozigacha o'zi mast bo'lib sayrardi. Men undan ko'p uzoq bo'lmagan nayza qoya tagida yonboshlab, uni tomosha qilib, sayrashini tinglab yotardim. Kaklik birdan jimib qoldi. Nima bo'ldi ekan deb, tikroq turdim-da, kaklikka qaradim. U bir nuqtaga tikilgancha tek qotib turardi.

Ko'zlarim o'tkir edi, bir nigoh-la har qanday narsani ilg'ardim. Keksayibroq qolgan ovchi Dehqonboy bobomning bir g'alati gapi esimda: "Nabiram Azimboy – mening ko'zlarim!" Chunki bobom nimanı so'rasa, aytaylik, "Azimboy, Murtak kamarni bir qarab ko'r-chi, biror narsa ko'rinmayaptimi?.." "Ha-ha, – derdim men, – bir toshto'rg'ay tumshug'ini toshga ishqayapti, biror narsa tutib, egan bo'lsa kerak..." "Uni so'ramayapman, alqorlardan gapir, alqordan... kaklik bo'lsa ham mayli, ovlab ketishimiz kerak..." va hakoza.

Xullas, bir qarashdayoq yarim tik turgan ko'brani ko'rdim. Ko'bra kaklikni rom qilib, bir lahza ham undan ko'zlarini uzmay, juda ohista u tomon siljir edi!

Siljir edi... ohista... siljir edi... ohista... ohista... Kaklik tamoman maftun... jodulangan... sehlangan... Ko'bra yaqinlashib qoldi... Hademay, kaklik tamom... butun vujudim jimirlab ketdi... yo'q, bo'lmadi, iring'ib turdim-da, bir toshni qo'lga olib, ko'brani ko'zlab otdim!

Kaklik bir seskandi-yu o'zini toshsupadan pastga tashladi. Hademay ko'kka ko'tarildi.

So'ng... ko'rganlarimni otamga, cho'liqqa, so'ng... qo'shib-chatib qo'ni-qo'shni bolalarga aytib yurdim...

Xo'sh... kaklikning eng ashaddiy dushmani – bu ovchi!

Ovchilar kaklikni, asosan, go'shti uchun ovlaydilar. Ovlash usullari talaygina. Birinchisi, albatta, ov miltig'i bilan ovlash. Miltiq bilan kakliklarni yugurgilab ketishayotganda yoki uchib, ko'kka ko'tarilganda otishadi. Ikkinchi bir usul – bu tuzoq-jela qo'yib ov qilish usuli. Bunda miltiq ishlatilmaydi. Xonaki – qafasdagi bir sayroqi kaklik to'lib-toshib sayraydi, qavmdoshlarini yoniga chorlaydi. Yonida esa jela. Jela qo'ygan jaydari "ovchi" uzoqroqda panalab-pisib yotadi. Uchib kelgan kakliklar ixtiyorsiz jelaga tushaverishadi. Undan qutulib ketmoq uchun potirlashib, harakat qilaverishadi. Ammo jela battar ularni chirmab olaveradi...

Tag'in bir usul bor. Ammo bu usul qonun yo'li bilan taqiqlangan. Bu usul, asosan, qishda qo'llaniladi. Bu usulchilarning miltiq ko'tarib yurishlari shart bo'lmaydi.

Qish kakliklar uchun o'ta xatarli fasl. Ayoq. Qahraton. Qalin qor. Bunday paytlarda ular emak topolmay, soy-yu buloq bo'ylariga tushadi. Tog' qishloqlari atrofiga yaqinlashib enishadi.

Shunday vaqtlarda har xil toifadagi xonaki ovchilar ko'payadi. Qish kunlari, deyarli, bekorchilik. Shuning uchun ular to'da-to'da bo'lishib, tog'ning bir kamaridan u kamarga, unisidan bunisigacha quvlashadi. Bunday kezlarda kakliklar tez toliqadi, charchab, uzoqqa uchisholmaydi, qorlarga botib qolishadi. Qarabsizki, tayyor luqma!

Kakliklar hamisha himoyaga zor. Ularning tag'in bir dushmani qirg'iy.

Avliyobuloqqa tutashib ketgan qir-adirlarda mol yoyib yurardim. Bu yerlarda turli-tuman butalar, to'p-to'p bodomchalar o'sib yotadi.

Har-har joyda yoyilib o'sgan kovullar uchraydi. Kovullar anor gullariday qip-qizarib gullagan. Bir tup kovulning gullarini tomosha qilib turardim, shiddat bilan havoni to'liqlantirib, bir gala qush o'zlarini men turgan joyga urdi. Bu Shunday tez ro'y berdiki, hech narsani anglay olmay, qo'rqib ketdim. Jon-jahdda ko'kka qaradim, bir qirg'iy qiyqirgancha ko'zdan yo'qoldi. So'ng kovulga qaradim, ne ko'z bilan ko'rayki, uning ostida bir gala kaklik jo'jalar ko'zlarining o'ti chiqib, menga tikilib turishardi. Birpasdan so'ng ular ham, men ham o'zimizga keldik. Jo'jalar birin-ketin kovulning u yer-bu yeridan chiqdi-da, o'r tomonga yo'rg'alay ketishdi. Ular meni qora tortib, omon qolishgan edi.

Ko'p o'tmay bir burum tarafdin ona kaklikning bolalarini o'z yoniga chorlovi eshitildi.

ALQORLAR

Alqor noyob jonivor. Uni tog' qo'yi deb ham atashadi. Haqiqatan ham, u qo'yga o'xshaydi. Ammo alqor kuchli, shiddatli, yugurik-chapog'on, o'ta ziyrak, hushyor, ko'zlari qop-qora. Uning orqa va ikki yonidagi junlari jigar-qo'ng'irnamo. Bo'ynining tagi, qorni, chovlari oqish. Qo'chqorlarining shoxlari burama-burama. Burama shoxlarining uchlari yon tomonga qarab yo'nalgan. Urg'ochilarining shoxlari esa kalta, orqasiga qayrilgan.

Alqorlar Nurota tog' tizmalarining Qoratorv silsilasida yashaydi. Oqtov taraflarda kamdan-kam uchraydi. Ular sero't tog' yonbag'irlarida, yovvoyi daraxtzor – tog' o'rmonlari oralarida yoyilishadi. Ayniqsa, buloqli, soyli kamarlar – daralar ularning suyumli joyi.

O'tlash uchun qoyalar tagidan, panalaridan ochiq ko'katzorlarga, dara qirlariga chiqib kelishadi. Sahar mardondan soat o'n-o'n birgacha o'tlashadi, so'ngra soya-salqinlarda – daraxtlar, qoyalar tagida dam olishadi. Kechga yaqin, to qorong'u tushguncha, ba'zan tunda tag'in yoyilishadi.

Alqor qo'chqorlari suruvdan aprel-may oylarida ajralishib chiqishadi. Chunki bu paytda urg'ochilari qo'zilagan bo'ladi. Asosan, ular bitta tug'adi, egizagi kam. Urg'ochi alqorlar qo'zichoqlari va voyaga yetmagan qo'chqorlari bilan birga yuradi. To'rt yoshdan boshlab, voyaga yetgan rosmena qo'chqorlari esa ayrim-ayrim yoki bir qanchasi to'p-to'p bo'lib yurishadi.

Men tug'ilib o'sgan Nakurt qishlog'idagi Qarisoy darasining to'ri – Beshbarmoqota, Parrandozota cho'qqilarining janubiy-shimoliy tomonlari alqorlarga eng qulay maskan.

Bolalik paytimda alqorlar hatto podaga qo'shilishib, o'tlashib yurishardi. O'zim guvohman. Ovchilar ko'p edi, ammo bir oz bo'lsa-da insofli edi chog'i. Ularning qo'chqorlaridan – erkaklaridan bitta-ikkita otishardi. Yolg'on bo'lmasin, olchoq-ochofat ovchilar ham yo'q emasdi! Shodiboy ismli bittasini bilar edim. U bizga yaqin qarindosh edi.

O'shanda to'qqiz-o'n yoshlarda edim. Yigirma chog'li alqor – bir suruv bo'lib yurardi. Bu suruvning sardori ulkan buramashox qo'chqor, ayrica salobatga, mahobatga ega edi. Nigohlari, qandaydir o'tkir ko'zlari bamisoli yonardi. Mulla Suyun ovchilarga bu alqorni otmasligini ko'p uqtirardi. U ilohiy qudratga ega, derdi u.

Yo'q, betavfiq Shodiboy sardor qo'chqorni otdi. Go'shtlarini kimlar xomtalash qilganligini bilmayman. Lekin Shodiboy ko'p o'tmay to'shakka mixlandi. Shol bo'lib qoldi. Qirq yildan ortiq azob-uqubatda yashab o'tdi.

Tabiat haqiqati Shunday! Tabiat intiqomi Shunday!

Yillar o'tdi. Qancha tog' qorlari suv bo'lib oqdi. O'sha podachi cho'liq bola shoir bo'ldi. Taassuroti tiniq shoir bo'ldi. She'r yozdi:

Alqorlar

Nurota tog'laridan
ketib borar alqorlar,
Ketib borar bo'zlashib
sarsari va sargardon.
Bu tog'larga zargardek
ko'rk edi ko'pdan ular,
Chin oshiq-shaydolarga
fatton ko'zlari armon.
Bugun bunda ko'klamning
zangori toshqinlari,
Oh, na bo'lg'ay alqorlar
shu bag'irga qaytsalar.
Maysalarga burkangan
hatto qushlar inlari,
Lekin tutib qololmas
hech qandayin maysalar.
Yo'q, ushlab qololmagay
bezavol buloqlar ham,
Fozilmonota ko'lin
bo'sh qoldi so'qmoqlari.
Axir, jannat emas, ha,
ushbu yer, ushbu olam
(Aylangaydir jannatga,
ammo bahor chog'lar!).
Rost, bitta joy iqlimi
jonga tegar gohida,
Lekin ular joniga
tegmagan edi bu joy.
Ayozlarda saqladi
g'orlar o'z panohida,
Faqat tuban ovchidan
saqlay olmadı bu joy.
Ko'ksida o'q izlari
ketib borar alqorlar,
Bormisan sayyod ko'zi
tushmagan jonbaxsh makon?..
Alqorlarni qaytargay,
endi men aytsam, do'stlar,

Bexato, tikka uchgan
o'qlargina bu zamon!
O, agar, qaytar bo'lsa
o'qlar dastidan faqat,
Rost bo'lsin, tog'larimni
mangu tark etganlari.
Rost bo'lsin, sayyodlarga
osib ming tavqi la'nat,
O'q yetmas manzillarga
bosh olib ketganlari!

2010-yil

ALQORLARNING CHO'PONI

1954-yilning kuzi.

Bodomchali qishlog'idan kelgan ikki xonaki ovchi va Dehqonboy bobom mulla Suyunni hol-joniga qo'ymay ovga undadi. Mulla Suyun istar-istamas hangi eshagiga mindi. Men ham boraman, deb turib oldim. Maqsadimga erishdim. Ular bilan yo'lga tushdim. Alqor ovi qiziq-da, axir! Bundan tashqari, men o'ta hangomatalab bolaman. Ovga ishtiyoqmandman. Alqorlarga, kakliklarga ishqibozman.

Havo salqin. Tog' o'rmoni junjikkandek, nimadandir xavotirga tushgandek. Do'lanalar, itburunlar, uchqatlar mevasi nam tortgan. Archalar vazminlashgan. Dara-kamar bo'ylab ketgan yong'oqzor barglari turli tusda: yashil, sariq, qo'ng'ir... yuzlari xoldor. Ular soyni to'ldirib yuborgan. Shu bois suvlar sizilib oqadi. Sizilib oqqan suv tip-tiniq.

Beshbarmoqota qoyalariga yaqin joyda to'xtadik. Shig'il mevali, katta qizil do'lana ostida o'rnamshib oldik. Bu yerdan alqorlar chiqadigan qoyalar yaqqol ko'rinib turadi. Ovchi bobolarimning niyati shu yerdan turib ov qilish.

Hali quyosh chiqmagan. Ammo ovchilarning ko'zlari katta qoyada. Men ham unga tikilganim tikilgan. Alqorlarni, albatta, men birinchi bo'lib ko'rishim kerak. Shunday bo'ldi ham. Ko'p o'tmay oftob nurlari tog' ortidan qoyalarni shu'lalantira boshladi.

– Ana, alqor chiqdi, katta qo'chqor ekan, – dedim hayratimni yashirolmay.

Haqiqatdan ham, qo'chqor qoyada sergak, bel bo'lib turardi. U biz turgan tarafga mag'rur ko'z tikdi. Ammo hech narsani payqamadi.

Asosiy ovchi Dehqonboy bobom sekin o'rnidan yarim turdi. She-riklariga “qimirlamanglar, men boraman” ishorasini qildi. Shunda, kutilmaganda katta otam mulla Suyun ukasi Dehqonboyga shivirlab maslahat berib qoldi:

– Dehqonboy, – dedi u, – bu qo'chqor go'shtini uvol qilma. O'qni qo'chqorga otma, yoniga ot. Shunda alqor qoyadan o'zini pastga tashlaydi. Yoningga tushadi. So'yib olasan. Axir otib, go'shtni buzib nima qilasan...

Bu gap mergan bobomga ma'qul keldi, shekilli, “xo'p” ishorasini qildi va deyarli emaklab qoya tomon ilgarilab ketdi.

O'q gumbirladi. Kutilganiday qo'chqor jon holatda bir sakrab, o'zini pastga otdi. Havoda muallaq kelar ekan, chaqqonlik bilan burama shoxlarini – boshini aylantirib pastga qaratib oldi. Va boshi bilan bir zarbda yerga urildi. Dara jaranglab ketdi. Hamma bir zum tek qotib qoldi.

Voh-h... Qizig'i bu yoqda bo'ldi. Dehqonboy mergan o'ljasi tarafga chopganida... qo'chqor sakrab turib, dara enishi bo'ylab yelday yugurib ketdi.

Mulla Suyun qah-qah otib yubordi.

– Dehqonboy, yugur, chop-chop, mergan, – dedi u baralla. Havaskor ovchi sheriklar nima bo'lganini hali anglamay lol-u hayron.

O'sha kuni katta otam Suyun bilan Mirzaqo'rg'onga qaytib kelib qo'ydik. U yo'lda kelayotganimizda menga:

– Buni bilardim, bolam, qo'chqor alqorni aytayapman, uning tirik qolishini bilardim. U alqorlar suruvining boshchisi, to'daboshisi edi. Agar otilganda suruv yo'l boshchisiz qolardi. Shundoq ham urush tufayli (Ikkinchi jahon urushi nazarda tutilmoqda) sanoqli qolgan suruv sochilib ketardi... Sodda Dehqonboy bobongni bir bopladik-da, – deya kulib-kulib, o'zidan mamnun-mamnun gapirib keldi.

Bugun bobom dunyoda yo'q. Ammo o'tib ketgandan keyin ham uni ko'rgan-bilganlar "Mulla Suyun katta ilm egasi bo'lishi bilan birga, tovdagi alqorlarniyam cho'poni edi-da", deya menga ko'p bor gapirishgan.

2015-yil

SHOXDOR

Ko'klam keldi deguncha barcha qoramollarni, ya'ni podalarni tog'ning yuqoriroq qismiga haydardik. O'tloq, dara-kamarlarni, sayhonliklarni egallardik. Ko'pincha ularni o'sha yerlarda qoldirib, o'zimiz Mirzaqo'rg'onga qaytib kelib qo'yardik. Bir-ikki kundan so'ng tag'in xabar olardik. Men sakkiz yoshga kirgan bo'lsam ham, hali maktabda o'qimasdim. Otamga ergashib go'yoki cho'liqlik qilardim. Bir gal otam podadan xabar olish uchun menga bildirmay ketib qolibdi. Lekin qaytib, kutilmaganda bir gap aytib qoldi:

– Bizning podalar bilan bir alqor qo'chqori qo'shilib, o'tlab yuribdi. Katta shoxdor qo'chqor. Suruvidan adashib, ajralib qolganmi yoki biror ovchi o'qidan qochib, qoramollarga qo'shilib qolganmi... bilmadim, deb qoldi.

Yuragim hapriqib ketdi. Ertasigayoq saharlab, podalarni qoldirgan kamarimizga yetib bordim. Ha, otamning gapi chippa-chin. Ikki shoxi ikki buram bo'lib ketgan, bellarining juni qizg'ish-qoramtoib, ko'zlarining ichi chiroq piligiday yonib turgan qo'chqor podalar orasida bemalol o'tlab yurardi. U tarafdan qarab, bu tarafdan qarab rosa tomosha qildim. Bo'yinlaridan quchoqlab olgim keldi. Shoxlaridan ushlab o'ynagim keldi. Ammo oldiga yo'latmasdi. Kundan-kun yaqinroq borib tomosha qilaman, katta-katta qora ko'zlariga tikilaman. Ayniqsa, uning silliq tanasining mayin tuklari quyosh nurlarida ajib yaltirardi, qandaydir chatnagandek uchqunlanardi. U goh-gohi old oyoqlarini yerga tars-tars urib qo'yardi. Go'yoki, menga nimadir aytmoqchi bo'layotgandek...

Men qo'chqorga "Shoxdor" deb nom qo'yib oldim. Unga o'rganib qoldim, u ham mendan yotsiramay qo'ydi. Bir-birimiz bilan qadrdonlarga aylanib qoldik. Kamarda men o'zimga chayla qurib oldim. Har ikki kunda uyga borib, qotirma zog'ora, non-pon olib kelaman.

Oh, bir kuni hammasi tamom bo'ldi. Tushga yaqin Mirzaqo'rg'onga borib qaytsam... bir zabardast yigit Shoxdorimni bo'rilarga qo'yiladigan qopqonga tushirib o'tiribdi. Allaqachon bo'g'zidan pichoq ham tortilgan, qora qon yer bag'irlab uyub qolgan. Titrab-qaqshab yigitga baqirib ketdim, – uni ikki-uch marta ko'rgan edim. Qorang'ul dara-kamarlik Xo'rozboy degan amakitob yigit edi. Qo'llarimga tosh oldim, ammo unga otolmadim...

– Bu senlarning alqoring emas, xudoning alqori, ko'pdan buyon qochib yurgan edi, qopqonga chap berib, – dedi u, – go'shtidan bir sonini beraman, uyingga olib borasan...

– Olmayman! Kerak emas! – dedim keskin.

– O'zing bilasan!.. Lekin bilib qo'y, o'likning ko'zidan yosh chiqadigan zamon hozir. Oyog'im uzun, ko'rpam kalta. Bola-chaqalar och, urushning tugaganiga ko'p bo'lgani yo'q. Muhtojlik algorni emas, odamni ham qonga belantiradi. Katta bo'lganingda buni tushunib olasan. Aytmoqchi, o'lan-qo'shiq aytarmishsan...

Ha, yillar shuvillab o'tib ketdi. Tosh ostida alaf bo'lib qolib ketmadim. "O'lan-qo'shiq" aytib-aytib, shoir bo'ldim. Xo'rozboy amakimni ham tushunganday bo'ldim. Ammo hamon Shoxdor tushlarimda paydo bo'lib qoladi...

2014-yil

OV ISHTIYOQI

1973-yil. Men Toshkentda tolib edim. Kechkida o'qirdim, kunduz ishlardim. Mehnat ta'tiliga chiqdim-u qishloqqa jo'nadim. Butun vujudim tog'larni qo'msardi. Tog'larga talpinardim. Tog'larda keizishni juda-juda sog'ingan edim. Ota-onam yonida bir kun bo'ldim-u, qadrdomim Oltiboynikiga yo'ldim. Oltiboy bilan birgalashib, amakim Tilovqobilni topdik. Tilovqobil mulla Suyunning ikkinchi o'g'li. Otamning ona boshqa ukasi. U durustgina ovchi edi. Tog'ning to'rida yashardi.

Bir kun kechgacha ovga hozirlik ko'rdik. Amakim qo'rg'oshindan qo'lbola yakkao'qlar yasadi. Sochmalarni patronlarga joyladi. Miltiqlar tozalandi.


Ertasi kuni tongda Kattaqamishloq darasiga yo'ldik. Kattaqamishloq o'z nomiga yarasha. Bu dara-kamarda qora, qizil do'lanalar ko'p o'sadi. Ayqashib-chatishib, betartib, istalgan-istalmagan joylarda o'sib yotaveradi. Ularning orasidan oqbel uchqatlar bo'ylab turadi. Irg'aylar to'p-to'p. Xullas, yovvoyi, qalin tog' o'rmoni.

Katta choshgohgacha birorta alqorga duch kelmadik. Aksiga olgandek kakliklar ham uchramadi. Faqat ularning qayerlardandir o'qtin-o'qtin ovozlari eshitilib qoladi.

Men charchab qoldim. Miltiq ham og'irlik qila boshladi. Shahar, studentlik nuqsida...

Amakim bilan Oltiboyga, sizlar aylanib kelaveringlar, men biroz dam olaman, dedim. Ular ketishdi. Men katta gazaning qoq belida o'zimcha joy hozirladim. Miltiqni yonimga qo'ydim. Tog'da miltiq, ishlatsang-ishlatmasang, yaxshi hamroh, do'st bo'ladi. U yoningda bo'lsa, ko'ngling to'q. Aslida, mening uchun ov biror o'ljali bo'lish uchun emas, gasht uchun. Ha, go'sht uchun emas, gasht uchun.

Xullas, gazada uyquga ketdim. Qancha vaqt o'tgan, bilmayman, meni "dev" bosdi. Turmoqchi bo'laman, yo'q, bo'lmaydi. "Dev" dahshatli og'irlik bilan ustimda... Bir qo'lim bilan miltiqni qidiraman... qo'lim unga yetmaydi... Birdan... "Kalima" qaytarish kerakligi yodimga tushdi, shekilli... "Kalima" qaytara boshladim... O, Xudoyim, "dev" ustimdan ko'tarildi... Nafas oldim, juda yengil nafas oldim... terga botib ketgan tanim qandaydir oromijonlikka o'tdi... Dast turdim, tag'in chuqur-chuqur nafas oldim. Miltiqqa yopishdim. Uni oldim-u, osmonga qarata o'q uzdim. Tog' gumburladi. Amakim va Oltiboy hovliqib yetib kelishdi. Ularga nima bo'lganligini aytib berdim. Ha, dedi Tilovqobil aka, tog'larning devi bo'ladi, har qalay, ota-bobolarimiz shunday deb kelishgan.



Yaxshiyam "Kalima"ni esingdan chiqarmagan ekansan. "Kalima" kuchli duo... duoda gap ko'p. Boshimdan o'tgan, meni ham bosgan. Uxlab qolma, deyish esimdan chiqibdi...

Ko'nglimiz ozdi. Nonushta qilib olmoqchi bo'ldik va kamar boshidagi Boshbuloqqa ketdik. Buloq qaynab chiqayapti. Hovuchlab-hovuchlab suv ichdik. Oltiboy belidagi belbog'ni yechib, undan non oldi, suvga botirib yedik. Oh, bu nonning shirinligini...

Nogahon o'q qarsilladi. Beshbarmoqota qoyalari tarafdin... Jim bo'lib qoldik. "O'q tegmadi", – dedi, Tilovqobil aka, "ovchilar bor ekan-da"... "O'q tegmaganini qanday bildingiz" – dedim akamga. "Ovozidan-da, – dedi akam kulib – miltiq ovozinin farqini ajratolmaydigan kishidan ovchi chiqmaydi", – deb qo'shib qo'ydi u.

Tepa tomonimiz potirlab qoldi. Qay ko'z bilan ko'raylikki, bir qo'zichoqli alqor sovg'i biz tomonga jon holatda chopib kelardi. Akam zum o'tmay miltig'ini qo'lga oldi. Sovliqni nishonga oldi. "Otmang! – deb baqirib yubordim beixiyor, – Otmang!.."

Akam otmadi. Ona-bola alqor bizni ko'rdi-yu, yo'lini chap qiyalikka burdi... Yengil nafas oldim. "Rahmat, aka, rahmat...", dedim o'zim ham nima deytganligimni yarim anglab-anglamay. Oltiboy menga hayron bo'lib qarab turardi.

Bu olis yillardagi bobom Mulla Suyun saboqlarining xulosalari edi...

2011-yil

ALQORQAMOQDA

Qoratorv tizmalarining Parrandoz kunchiqarida alqorqamoq bor. Alqorqamoq, deganimiz – atrofi tabiiy tik qoyalar, zirvalar o'rab olgan chog'roq sayhonlik. Bamisoli uni toshlardan ataylab devor qilingan toshqo'rg'on, deysiz. Ammo ovchilar toshqo'rg'on emas, alqorqamoq deyishadi. Bu alqorqamoqning yakkagina toshdarvozasi bo'lib, u Parrandoz tomonga qaragan.

Alqorqamoq sayhonida turli o't-o'lanlar, butalar ko'krak bo'yi bo'lib o'sib yotadi. Shuvoq deysizmi, bug'doyiqmi, itsiydimi, qo'ziquloqmi, yantoqmi, qaqrami, sigirquyruqmi... xullas, mol-holga yemish bo'larlik, hatto alqorlar sevib, osilib barglarini "chirt-chirt" uzib yeydigan uchqatlar-u irg'aylargacha mo'l-ko'l. Sayhon o'rtasidagi bir tup so'o'z daraxti barglari quyosh nurlarida yaltiraydi, jimirlab ajib holatlar namoyon qiladi.

Nakurt darasining tarmoq qishloqlaridan bo'lmish qizilolmalik uch o'smir yovvoyi bodom terib, yig'ib kelish uchun toqqa yo'l olishdi. Achchiq bodom ayni shildirab yetiladigan payt. Qoratorvda bu bodomlar anchayin o'sib yotadi. Ularning hosili – danagi mag'zidan dorivor yog'-moy olinadi. Yog'-moy xususiyyatda tayyorlanadi.

Yigitchalar to'rva-xaltalariga ancha-muncha bodom terib oldi. Ular birpas tin olayotganlarida Jong'iboy ovchining nevarasi Turdiboy bilag'onlik qilib, sheriklariga bir joyni bilishini, unda alqorlar bo'lishi mumkinligini maqtanib qoldi.

– Yuringlar, – dedi u, – bir tomosha qildiray sizlarni, men bobom bilan u joylarda ko'p bo'lganman...

Ko'p o'tmay, o'spirinlar alqorqamoqning toshdarvozasi qoshida turardi. Ularning o'tkir nigohlari sayhonlikni "ilma-teshik" qildi... va bunda, haqiqatdan ham, bir juft alqor o'tlab yurganligini ko'rishdi.

– Ana, alqorlar!.. – baqirib yubordi Turdiboy, – ana, sovliq qo'zichog'i bilan. Tutib olamiz...

Turdiboy bu tog'-u toshlarda ancha-muncha narsalarni ko'rgan, shekilli, bir zumda "tadbir" ishlab chiqdi-qo'ydi. O'zi birinchi bo'lib sherigi bilan toshdarvozada turadigan, ikkinchisi esa ona-bola alqorni bu yerga haydaydigan bo'ldi. Bu to'g'ri edi. Alqorlar, albatta, o'zlarini toshdarvozaga uradi-da, boshqa biror yo'l yo'q bo'lsa.

Ona-bola alqor jon holatda sayhonlik bo'ylab qochishar, uning oldida esa ikki "ovchi" ko'ndalang turishardi. Alqorlar uncha-munchaga charchamas, ammo quvlayotgan Zokirboy charchab qoldi. Uning o'rniga Turdiboy yonidagi Sherbekni almashtirdi. Tag'in "quv-quv"...

Ona alqor ne-ne tahlikalardan qochib-pisib yashar, bu tog'larda bo'ri va ovchilar, ayniqsa, alqorlarga qiron keltirardi. To'rt oyoqlisidan qutulib ketsa bo'ladi, ammo ikki oyoqlisi o'ta xavfli. Eng yomoni, ovchining qo'lidagi o'tochar, undan taraladigan badbo'y is yurakni zirqiratadi. Bugungi ovchilarning qo'llarida miltiq yo'qligini ona alqor sezdi. Tag'in sezdiki, bolasi toliqa boshladi. "Yo, baxtash tavakkal..." – birdan u Turdiboy bilan Zokir tomonga o'ljasiga intilgan burgutday uchdi. Zokir uning shiddati-yu shoxlaridan qo'rqqanidan chapga ag'anab tushdi, lekin Turdiboy o'zini zarracha yo'qotmadi, alqor qo'zisiga tashlandi, uning oyoqlaridan mahkam ushlab qoldi. U rostakam chapdast, chayir edi.

Men har yili ko'klamning aprel, may yoki kuzning sentyabr, oktyabr oylarida unib-ulg'aygan tog'larimni bir aylanib kelaman. Dam olishim shu.

Ilon yili kuzida ham qadrdonim Qozoqboy Yo'ldoshni sherik qilib, toqqa borgandim, olloh-olloh, do'stinga alqorqamoqni ko'rsatmoqchi bo'ldim. Qirg'iyko'z amaki ukam Nosir yo'l boshladi. Biz daf'atan fojia ustidan chiqdik. Turdiboyning qo'llari qon edi. U bezbetlarcha bizga qarab turardi. Keyin bilishimcha, Turdiboy pichog'i yo'qligi bois o'tkir qirrali parraktosh bilan alqor qo'zisini vahshiyona bo'g'izlagandi.

Beixtiyor qo'llarim mushtga aylandi. O'zbek yurtning tog'lari Afrika savannalarimi?! Parranda-yu darranda-yu gazanda-yu chirranda son-sanoqsiz bo'lsa?... O'zimni tutib turolmay Turdiboyning yuziga beixtiyor tarsaki tortib yubordim. Tog' begilariga xabar berishimni aytib, do'q urdim. Saboq bo'lsin dedim-da.

– Qamoq, baribir, qamoq ekan-da, – dedi Qozoqboy domla alqor qo'zisining ochilib qolgan shahlo ko'zlariga boqib.

Mening nigohlarim esa yon qoyadan biz tomonga chorasiz tikilib turgan ona sovliqqa tushdi.

2014-yil

ODAM BO'LMISH

Nakurt qishlog'idan qirchillama yoshli bir mulla yigit yo'rg'a eshagini halalab, Qoratog'ni oshib Mojrım qishlog'iga o'tdi. Oshnolarini ziyorat etib, ko'p siyloqlar ko'rib, kelgan yo'ldan ortga qaytdi.

Qoratog'da noyob jonivor – alqorlar yashaydi. Alqor go'shti juda shirin, tansiq. Ular doim betavfiq ovchilar nishonida. Xullas, sallasini silliq o'ragan yigit Qoratog' beliga chiqqanida, bir bo'ydor achchiq bodom daraxtining chayır, ayri shoxiga yetti-sakkız yoshli qo'chqor alqor shoxi kirib, o'ralib qolganini ko'rdi. Yoniga bordi. Bir-ikkı silkinib, depsinib ikki qayırma shoxni ayridan ajratmoqni jon holatda istagan benajot sho'rlik alqor nihoyat chiroyli ko'zlarini mulla yigitga tikishdan o'zga chora topolmadi. Ko'zlarida o'lim dahshati. Vujudida sarhadsız titroq. Mullaning niyati buzildi, niyati buzuq chiqdi. Alqor go'shtining tanqisligini u ham biladi, axir. O, ammo miltiq yo'q, pichoq yo'q, xalacho'p bilan esa alqorni so'yib bo'lmaydi.

Chorasızlikka chora axtaradi. Eshak ayılı... va quyushqoni bor-ku... Mulla yigit ularni bir-biriga ulab, qo'lbola arqon yasadi. Eshagini bir tepib haydab yubordi. Uynı o'zi topib boradi. Arqonning bir uchi bilan alqorni bo'ynidan bog'ladi. Ikkinchi uchını esa beliga bog'ladi. Tamom! Alqorni yetaklab ketadi. U alqor shoxlarini bodom shoxlari ayrisidan ajratdi. Alqor... bir zarb bilan bir quloch ko'kka sakrab, o'y-xayol tezligida o'zini qiyalikka otdi. Mulla yigit ag'anab tushdi. Belidan qo'lbola arqonni yechishga ulgurmadı. Tog'-u toshlar sado berdi. Cho'qqidagi burgut bamisoli uchib yelayotgan alqorga, uning yonida toshdan-toshlarga urilib, sudralib ketayotgan odam bo'lmishga hayratda tikilib qoldi...

Mulla yigit alqorni qo'y kabi tasavvur qilgan edi.

BO'RI BOLASI

Bo'ri bolasi bo'ri, ilon bolasi ilon...

Mengliboy bobo boysunlik galamergan to'dasidan. Haqiqatdan ham, ota-bobolarining ko'pchiligi ovchilik bilan shug'ullanardi. Ular Hisor va Bobotog'da ov qilishardi. Bu tog'larda kiyikning marol atalmish turi, kakliklar ko'p. Hatto kaklikning noyob xili – hilol kaklik ham, shu tog'larning eng yuksakliklarini egallagan. O, bo'rilarni aytmay sizmi? Qayerda yemak-yemish mo'l bo'lsa, ular o'sha yerda hozir-u nozir.

Katta urushdan eson-omon qaytib kelgan Mengliboy ovga ruju qo'ydi. Erta-yu kech oyog'i tog'da. Kunlardan bir kuni ona bo'rini otib oldi. Uning bolalari bor ekan. Bir narini uyga olib kelib, boqa boshladi. Boqqanda ham hech bir narsaga zoriqtirmay boqdi. Kiyik, kakliklar go'shti bilan mehribonlik qildi. Bir so'z bilan aytganda, mehr berdi. Oshna tutindi. Iti kabi ergashtirib, ovlarga chiqib yurdi.

Kunlardan bir kuni navbatdagi ovga chiqishdi. Lekin bugun Mengliboyning ovi baroridan kelmadi. Kiyiklar yuqorilab ketgan edi. To'rt-beshta kaklik otib, jildirab oqib yotgan jilg'a bo'yidagi tug'dona daraxtining tagini qo'nalga tutdi. Jilg'adan chog'roq hovuzcha yasadi. Tong-saharda ov qilmoqchi bo'ldi. Quruq shox-shabbalardan o'tin to'pladi. Tog' tuni sovuq bo'ladi, garchi yoz bo'lsa-da etni junjiktiradi. Olovni gurillatib yubordi. O, tog' daraxtlarining cho'g'i... jonning huzuri. Kakliklar go'shtini iring'ay shoxlaridan yasalgan qo'lbola sixlarga o'tkazdi. Oromijon cho'g'da toblab-pishirib yedi, rohatlandi. Albatta, bo'ri bolasini – oshnasini ham unutmadi. Kaklik go'shtidek mazali taom bilan siyladi.

Allanechuk vaqt bo'lib qoldi. Uxlamoq kerak. Barvaqt turadi. O'rindiq soldi. Qayroq toshlardan yostiq yasab oldi. Miltig'ini yoniga qo'ydi. Yotib, chakmonini oyqara yopindi. Nogohon Mengliboyning ko'zlari nimadandir bezovtalanayotgan bo'ri bolasining ko'zlariga tushib qoldi. Ha, bo'ri bolasi qandaydir bezovta edi. Ko'zlari qizargan. Beixtiyor otasi rahmatlining "...bo'ri bolasi bo'ri, ilon bolasi ilon" degan gaplari "lop" etib yodiga tushdi. U otasi gaplarini bir sinovdan o'tkazmoqchi bo'ldi. Bu ham bir gap-da.

Mengliboy o'zini uyquga soldi. Lekin chakmon ostidan sal narida yotgan bo'ri bolasidan nigoh uzmad.

O, bo'ri!.. Bo'ri!.. U Mengliboyga bir qarab oldi-da, silkinib o'rnidan turdi. Jilg'a tomon yo'naldi. Jilg'adagi boya Mengliboy yasab qo'ygan hovuzchaga ag'anadi, bir-ikki dumaladi-da, hamma joyini ho'l qildi. Orqasiga qaytib,

bozillab turgan cho'g'lar ustiga silkindi. Bu holat ikkinchi bor takrorlandi. Ovchining hayrati oshdi. Nima qilmoqchi u? Uchinchi bor bo'ri bolasi jilg'a yoqqa ketganda, apil-tapil o'rnidan turdi. Chakmon ostiga toshlarni, bir-ikki tarashani, xuddi o'zi yotganday qilib taxladi va miltig'ini olib, daraxtga chiqib, joylashib oldi. Bo'ri bolasi qaytib kelib, tag'in chala o'chinqiragan cho'g'lar ustida silkindi. Cho'g'lar hali o'chmagan, chala yonayotgan tarasha buriqsib tutardi. Bo'ri bolasi yana jilg'a tomon ketdi... keldi... nihoyat, o't batamom o'chdi!

O, bo'ri!.. Bo'ri... o'zini chakmon ustiga zarb bilan otdi!.. Chakmonni g'ajib tashladi.

Mengliboy hammasini ko'rdi, tushundi va... qo'shog'iz miltiqdan otilgan ikki o'q tun sukunatini buzdi!..

Bo'ri bolasi bo'ri, ilon bolasi ilon, deganlari haqqost-rost bo'lib chiqdi!

ADASHISH

Yaltaga kelganimga uch hafta bo'ldi. Bu yerdagi "O'zbekiston" oromgohiga joylashganman. Qora dengizda rosa cho'mildim, qirg'oqlarining oromijon qumida ko'kka tikilib yotdim, bo'liq havolardan simirib-simirib sarxush bo'ldim. Tik qoya ustiga qurilgan "Qaldirg'och uyasi" ayvonida turib, qoyaga zarb bilan urilayotgan dengizning tabiiy favvoralarini tomosha qildim. Sevastopol tomonlarga borib keldim, Bog'chasaroyini ko'rib qaytdim. Pushkin, Lermontov, Chexov yurgan yo'llarda yurdim.

O, ko'ngil, yana nimalarnidir tusaydi, yuragimga tag'in nimalardir yetishmaydi. Tog'lar, tog'larga chiqishni istaydi qalb!

O'zi Shunday. Bolaligim, o'smirligim tog'larda o'tganligi sababmikin, qayerda bo'lmayin, qay bir yurtlarni kezmayin, tog'larga, yuksakliklarga talpinaveraman.

...O'shanda, yigirmanchi asrning saksoninchi yillari, yoz payti edi. Yoz bo'lsa ham birdan yomg'ir shivalab qolar, birdan quyosh charaqlab kular, goh ko'kda bulutlar quyuqlashar, goh ko'kimtir osmon allanechuk yorishardi.

Oromgohdan kunbotar tomonda baland tog'lar tizmasi ko'rilib turar, ayniqsa, ularning Ay-petri deb atalmish tumshuq cho'qqisi yaqqol ko'zga tashlanardi. Qalbim nimagadir shu cho'qqini tusardi. Unga chiqqim, o'sha cho'qqidan Qora dengizni kuzatgim, cho'qqidan narigi tomonlarda nimalar borligini bolalarday juda-juda bilgim kelardi.

Sherik topdim. U Sulaymon ismli o'zbekistonlik qrim-tatar og'a edi. Sulaymon og'a ham oromgohda dam olardi. U xalqi ko'chirma bo'lmasdan avval bolaligi shu yaqin joylarda kechganligini aytdi. Har qalay, sizga yo'l ko'rsatishni eplayman, dedi cho'qqiga qalin o'rmon orqali borilajagin gap orasida uqtirib.

Toqqa, cho'qqi tomon chiqishimiz oson hal bo'ldi. U tarafga harbiy yo'l bor ekan, onda-sonda mashina bo'lib turarkan. Shunday mashinalardan binga ikkovlon chiqib oldik. Uning haydovchisi askar yigit edi. Xullas, quyuq o'rmon oralab egri-bugri yo'llardan cho'qqini yonlab chiqib bordik.

Mashinadan tushib, men cho'qqi tomon yo'l oldim. Sulaymon og'a esa bu yerda uchragan yovvoyi gullar, chechaklarga andarmon bo'lib qoldi.

O, cho'qqilar... qanchalik sevaman sizni, yuksakligingiz oldida hayratdaman, haybatingiz oldida lolman! Mahobatingiz oldida ojizman. Ammo fikrim tiniq, ozod-erkin...

Afsus... bugun bu yerlarni, men ko'rmoqchi bo'lgan orqa tomonlarni (u tomonlar o'rmon ekan) quyuq tuman qoplab yotardi. Bir qizig'i shuki, dengiz

tomonlar ochiq, unda suzib yurgan paraxodlar-u kemalar yaqqol ko'zga tashlanardi. Hatto uchib yurgan chag'alaylar parvozini tomosha qilsa bo'lardi.

Baribir, hammasi go'zal edi! Ruhim go'zallik oldida titrardi. Cho'qqida toshib turardim. Men ko'ngil kishisiman. Bepoyon chiroy oldida baqirgim... hayqirgim... yig'lagim kelardi! Va Shunday bo'ldi ham: – Hey-ey... men Ay-petri cho'qqilaridaman... Ey dengiz-z-z... ey o'rmonlaar... Sulaymon og'a-a, qayda qoldingiz?... Ey-y-y...

Sulaymon og'a o'rniga... daf'atan itlarning ovozlari eshitilib qoldi. Yo falak! Rostakam itlar ovozi...

Bu ovozlار tumanlar ora eshiklari. Ovozlar tarafda Sulaymon og'a qolgan edi. Tek qotdim. O'zimga kelib, cho'chidan pastga tusha boshladim. Og'a ham men to-monga kelayotgan ekan. Yuzma-yuz keldik. Itlar shovqini yaqindan eshitila boshladi. Birdan qarshimizda bir kapitan va itlarini yetaklagan uch soldat paydo bo'ldi.

Soldatlarning biri itining ipini sheriklarining biriga tutqazdi-da, meni boshdan-oyoq paypaslab tekshira ketdi... keyin Sulaymon og'ani. Kapitan to'pponchasini ko'zlarimiz qarshisida tutib turdi. Uning so'rovlariga javob berdik. Bizning bu yerlarga qo'noq ekanligimizga kapitan to'liq ishon-di. Keyin bilsak, ular chegarachilar ekan. Qayerlardadir tumanlar aro Turkiya bor ekan.

Allaqachon vaqt peshindan oshib qolgan. Kapitan zudlik bilan orqaga qaytishimizni uqtirdi. To mashina yo'lga tushgunimizcha kuzatib turishdi.

...Hammasi Sulaymon og'adan bo'ldi. U tag'in yo'l boshladi. Oromgohga ilon izi kabi buralib-buralib yo'nalgan asfalt yo'ldan yurmasdan, ularni kesib-kesib o'tib, to'g'ri yo'l topib ketmoqchi bo'ldik. Og'aga ergashdim.

...Bolaligimdan bir odatim bor. Tog'da yurganimda yo'limdan chiqqan narsalarni ko'zdan qochirmayman, o'zimcha ularni "belgi" qilib ketaveraman. Sumbatimga sirtidan qaraganda beparvodek tuyulsam-da, o'ta sinchkovman. Mana, tosh, mana, archa, archa yonboshlagansimon o'sibdi, mana, uchqat, bir shoxi sinib, qunib qolibdi, mana, yo'l chetida qandaydir daraxt to'nkasi... va hokazo.

O'shanda bu sinchkovligim juda qo'l keldi! Og'a boshlagan yo'lning uchi-ke-ti ko'rinmay qoldi, bir tig'iz o'rmonning ichiga kirib ketdik. Shom tushardi. Shivalab yomg'ir yog'a boshladi. Bu yo'limizni yanada qiyinlashtirdi. Yo'limiz quyuq shomlasha boshladi. Nogahon daraxtma-daraxt ulanib ketgan sim katakli "devor"ga duch keldik. Unda osig'liq turgan bir yog'och taxtachani ko'rib qoldim: "Zona – medvedi". Zum o'tmay, ayiqlarning o'kirishi eshitila boshladi. Og'a baqrayib qoldi, – adashdik... – dedi u zo'rg'a. – Orqaga qayt-dik, – dedim men, o'ylab ham o'tirmay, – og'a tezroq... shom quyuqlashmasdan mashina yo'lni topib olishimiz kerak. Endi men yo'l boshladim, belgilarimni yodlay boshladim. Tun batamom ustimizga yopirilganda asfalt yo'lga chiqib oldik. Tong otayotganda oromgohga yetib keldik.

Mana, yillar quyunday o'tdi-ketdi. Allaqachon qat'iy xulosaga kelganman: egri bo'lsa ham yo'l yaxshi! Hatto qochishga ham yo'l yaxshi! Yo'g'-ey, qochmaylik-kuya... ha?!... Manzilga yetmoq uchun xalq yo'li yaxshi!

TILLABURAMASHOX

(Qissa)

Qozoq adibi og'am
Sobit Do'sanovga bag'ishlayman



I

Bu tillaburamashox alqor qo'chqorini Nur tog'larida toqqa aloqador kimsalar bilardi. Xususan, birinchi galda tog' begilari, keyin ovchilar, cho'pon-u cho'liqlar, yilqichilar, ba'zi o'tinchilar u haqda turli afsonalar-u ertaksimon gaplarni to'qib yurishardi. Tillaburamashox bu makondagi eng katta suruvning yetakchisi edi. U juda aqlli, shuurli, ziyrak, tezfahm, idrokli sardor edi. Suruvini har qanday balo-qazolardan yiroq tutar, xavf-xatarlardan omon saqlardi. Burni-qanshiri begona, yot islarni tez tuyar, shamolmi yoki oddiy yelmi tashuvchi sizimlarni barhaq sezardi. Uning ko'zlarini ham tun qushlarinikidek o'tkir edi. Aytaylik, biror ovchi suruvni olislardan durbin bilan kuzatayotgan bo'lsa ham uni bir nigoh ila ilg'ardi. U ilondan qo'rqmasdi, uning iniga tumshug'ini tiqardi va ilashib chiqqan ilonni yerd. Ko'zlarining o'tkirligi shundan deyishadi tog'ning qo'lbola tabiblari.

O, quloqlar... quloqlari-chi, ilon sudralib yurganida chiqaradigan silliq to'lqinsimon tovushlarni ham eshitardi. Albatta, bular Tillaburamashoxni ogohlantirguvchi, hayot tarzini ta'min etguvchi tabiiy zaruriyat. Bulardan ham muhim tag'in uning chopqir oyoqlari, qattiq tuyoqlari edi. Ana shu oyoqlari har qanday yovdan qutqarib ketardi: to'rt oyoqli yovidan ham, ikki oyoqli yovidan ham. Biroq bu tilla burama shoxi... U barcha yovlarini chorlaguvchi, o'ziga ohanrabodek tortguvchi, hatto qushlarni ham qiyo boqtirguvchi bir mo'jizaviy mato. Gap shundaki, buramashoxining gugurt qutisi joy bo'lgudek ichki burama belgi joyi tilla suvi yugurtilgandek yaraqlab turardi. U kunduzi-ku kunduzi, hatto tunda ham shu'lalanardi.

Sardorning bu shoxini Nur tog'larini qo'riqxonasining tog' begilari kech payqadi. To'g'rirog'i, qo'chqorcha, rostakamiga bu makondagi barcha suruv qo'chqorlarini olishuvlarda yengib, yetakchilikni olgandan keyin ko'zga tashlanib qoldi. Unga ilohiy tus ham berildi: shoxida "Olloh" degan yozuv bor ekan. Bu rost edi. Shundan so'ng u Tillaburamashox nomini oldi. Qo'riqxona ma'murlari-yu tog' begilari unga alohida diqqat-e'tibor qaratib, hushyorlik bilan qo'riqlay boshladilar.

II

Mana, Tillaburamashox bir oydan oshdiki, simto'rlar ortidagi qo'riqxonada. Ya'nikim, odamlarning ko'ngilxushligi uchun noyob qushlar, ba'zi jonivorlar boqiladigan daryo bo'yidagi qo'riqxonada. U juda xomush. Yuragi qop-qorong'u. Hech narsa tatimaydi. Qo'riqxonaning ichki qo'riqxonasidan o'z

ixtiyori bilan tashga chiqmaydi. Uni ko'pincha maxsus yashil kiyim kiyib olgan, o'ttiz yoshlar chamasidagi bo'rtiq xolli mutaxassis yigit – mol do'xtiri qo'radan haydab chiqadi. U Tillaburamashoxning qo'riqxonani aylanib yurishini istaydi. Yam-yashil bo'lib o'sib yotgan o't-o'lanlardan yeyishini xohlaydi. Uni ko'rgani kelgan kazo-kazolarning xursand bo'lishini istaydi. Qayda, Tillaburamashox o'tlarni chimdigandek bo'ladi-yu, ammo astoydil yemaydi.

Tillaburamashox o'y-xayolida faqat tug'ilib o'sgan ota makoni, ona yurti – Vatani. Ha, faqat o'sha – Nur tog'lar. Ko'kka bo'y cho'zgan bahaybat tik baliqsimon besh cho'qqi. Ilono'tdi darasidan boshlanib, Qizilqum cho'llarigacha cho'zilib ketgan yuksak tizmalar, bu tizmalar dara-kamarlar oralaridagi qora daraxtzor-u butazorlar, bel bo'yi maysalar, buloqlar boshlaridagi qovg'alar, pastga qarab yo'nalgan irmoqlarning ikki qirg'og'i bo'ylab o'sib yotgan mayda qizil gulli sovuno'tlar, qirqbo'g'inlar... To'g'ri, qarorgohning qo'riqxonasida ham hamma narsa bor. Bo'z ham, maysa ham. Har kuni beda-yo'ng'ichqa bog'lamlari tashlashadi, xas-xashak, qandaydir begona is keladigan yem-yemak. Daryo suvining bir arnasi qo'riqxona oralab oqib o'tadi. Ularda shirmoyi baliqlar suzishadi. Ariq bo'ylari sero't. Ammo tug'ilgan vatani ozodlik, erkinlik... ularni faqat tutqunlikda anglar ekansan. O'ho'.. o'h... u yuksak tog'lar... u tog'larning yellari, nasimlari, shabadalari, shamollari, hatto bo'ron-to'fon, qor quyunlari...

O'hh... Katta gaza ekinlari... gaza yotoqlari... Gazadan olis-olislar ham ko'rinish turardi. Bu yerdan kovshangan ko'yi ko'z nurlari yetgunchalik joylarni kuzatib yotish oromijon. Tillaburamashox uzoqlarda chayqalib yotgan marvarid rang ko'lni tomosha qilishni yoqtirardi. Oh, u tunlar... seryulduz tunlar... sumbula suvidek yarqiroq kechalar... osmonni to'ldirgan oy yorug'lar... ko'z oldingdagi jilva-shu'lalar... nur chizimlari... sim-sim o'yin-nozlar...

Vatanida faqat uning qavmlarigina yashamasdi. Tevarak to'la jon-zot... Ko'rinish, ko'rinmaydigan xilqat, hayrat. Ko'kda, deyarli, doimiy bir juft burgut bir maromda qanot qoqadi. Go'yo erinibgina parvoz qiladi. Ammo biror o'ljani ko'rganda, shiddat bilan pastga sho'ng'iydi. Qanotlari tebratgan havodan alqorlar ilkis hurkib ketadi. To'da-to'da tirsillagan to'ng'izlar hurqullashib-purqillashib, kamarlardagi buloqlarning bo'y-botqoq irmoq yerlarini tumshuqlari bilan ilma-teshik qilishadi. Jayralar sixlarini tikraytirib, giyohlarning, o't-alafning tomir-ildizlarini timirskilab, kovlash bilan ovora. Qo'shoyoq, tog' sichqon-kalamushlari u butaning tagidan bu butaning tagiga, bu butaning tagidan u butaning tagiga yugurgilab yurishadi.

Gazadan bir juft tulkinning makoni yaqqol ko'zga tashlanib turadi, otanasi qaylargadir ketishi bilan, bolalari inlari oldiga chiqib olishib, o'ynagani o'ynagan. Bir-birni yulqishgani-yulqishgan.

O'h-h... o'h... o'h... erkin hayot, maroqli hayot, jozibali, ishqiboz hayot... osoyishta hayot... To'g'ri, hamma vaqt ham Shunday emas, ammo hamisha erkinlik, hamisha ozodlik, hamisha g'ir-g'ir shabboda, gaza ekinlari hamishalik...

Tillaburamashox bo'g'riqib ketdi, yotgan joyidan turib kerishdi, silkindi. Yotoq-qo'radan chiqib, arna tomon yurdi. Suv ichgandek bo'ldi. Arnaga tikilib qoldi. Ko'z oldiga endi Oqbuloq keldi.

Oqbuloq Ota Archaning soyasi yetgudek yoyilmasidan qaynab chiqadi. Uning suvi ko'z yoshidek tip-tiniq. Tillaburamashox suruvni ko'pincha oq buloqqa boshlab keladi. Ular cho'qqilardan, qoyalardan yonbag'irlarga asta-asta tushishadi, toshloq qiyaliklarni oralab, bir so'qmoqdan turnaday tizilishib, buloq tomon sardorning ortidan ergashishadi. Buloqqa yaqinlashavergach, qorovullikni ham unutishmaydi. Sardor qatordagi biror a'zosiga ishora beradi. U shu kez safdan chiqib, Ota Archaning tepa tarafidagi o'mrovli qoyaning ustiga chiqib olib, atrofni olazarak kuzata boshlaydi. Suruv mırıqib suv ichib olgach, o'zlariga soya-salqindan joy tanlaydi. Soya bir bet bo'lguncha huzurlanib, orom olishadi. O'h-o'h-o'h... ular qayoqda qoldi. Suruvi qani? Shahlo ko'z malikalari qayerda? Dirkillagan qo'zichoqlari-chi? Qani oqbulog'i? O'zi nima bo'ldi?

O'sha kuni, ya'ni bundan bir oylar chamasi oldin, suruv Beshqoya yonida yoyilib yurardi. Yurti gullab-yashnagan payt, yam-yashillik saltanati. Hidoyatli qiyozqlar, giyohlar, g'unchalar, ko'plari ochilgan, yaproqlari taranglashgan, qishdan omon-eson chiqib olgan suruv yutoqqan... Peshinga yaqin gazada uch otliq paydo bo'ldi. Tillaburamashox ikkitasini tanidi, ular kiyimidan ma'lum, doimo mehribon ko'zlar bilan qarovchi o'zlarining qadrdon qorovullari edi. Biroq uchinchi begona, o'ng qoshining bir yonida bo'rtib turgan qop-qora xoli bor notanish yigit...

Tillaburamashox yuragi allatasin bo'lib ketdi. Uning shuundan nimadir sizib o'tdi. Nimadir yuz beradigandek... Suruvni boshlab Beshqoyaning ters tomoniga yo'naldi. Ammo ko'p o'tmay bir tog' bəgining yolg'iz o'zi uning qarshisida paydo bo'ldi. Nimadir "shirt" etdi. Tillaburamashoxning etiga chippa yopishdi. U qadrdon qorovuldan buni aslo kutmagandi. Keyin... ko'zini ochganda bo'rtiq xolli yigit va yana ikki-uch fason bo'ydor kishilar uning ustida turardi. Tillaburamashoxni o'sha kuni tundayoq panjarali mashinada ushbu dargohga keltirishdi.

III

Qo'riqxonadagi po'rim odam Tillaburamashoxni yoqtirib qoldi. Uni qo'riqxonaga sayr etishga taklif qilishganda, Tillaburamashox shoxidan shu'la taratib, qo'riqxona devori bo'ylab, asta-asta yurib turardi. Ataylab qilgandek, ko'rgazma namoyishiga chiqqandek tam-tam yurardi. Yo rab! Uning qomati... ko'rki... tarang, suluv oyoqlari... tik boquvchi qora, shahlo ko'zlari... qoramtir malla rang ichida qordek oq o'mrovi, tekis, silliq badani... ayniqsa, Tillaburamashoxi... shu'lador "Olloh" chizgilari...

– O, krasavets! – butun hayratini bir so'zda jamlab, xitob qildi va ish boshqarmasi boshlig'iga yuzlanib Shunday dedi: – Bilasanmi, unga bu

yerdan nima yetishmaydi, cho'qqi... tog' cho'qqisi... skala... Quringlar, kelgan mehmonlarim uni qoya ustida ko'krak kerib, quyoshga qarab turganligini ko'rsin. Nur taralayotgan tillashoxini ko'rib, maftun bo'lsin! "Oллоh" so'zini nurda o'qisin. Biz Oллоhning suygan farzandlari ekanligimizni, ularning bu dunyodagi eng baxtli fuqaro ekanliklarini bilsinlar! Ko'p o'tmay, qo'riqxonaga bo'ylab, tog' tomonga qaragan ma'lum bir masofada cho'qqi-qoya qurish ishlari boshlanib ketdi.

Tillaburamashoxning ichi esa yorishmasdi. Kun-tun vatanini o'ylardi, unda shamolday erkin-erkin kezib yurganliklarini bir zum bo'lmasin esidan chiqarolmasdi. U ozod xilqat edi. Oilasi – suruvi ham ozod va erkin edi. Ular jam bo'lib, Oллоh bergan erkinlik nash'alarini surishardi. Bu ularning oddiy hayot tarziga aylangandi. Bu dunyoda vataningdan, ozodligingdan, erkinligingdan qimmat narsa yo'q ekan. Tog' begilari ahyon-ahyonda katta daraga barcha katta-kichik suruvni yig'ishib, sanoq o'tkazishar edi. O'o'... bu to'plandilar, to's-to'polonlar, olishuvlar, bir-biriga shox tashlashuvlar... Ularni hatto Burgutli qoyaning olmos ko'z burgutlari, Shovulloq sharsharasining ko'k kaptarlari ham tomosha qilishardi. Kakliklar "qaqi-baq... qaqi-baq..."larini to'xtatishardi. Toshto'rg'aylar dumparlarini likillatishib, alqorlar ustida u yonga, bu yonga uchishib tomosha qilishardi. To'ng'izlar bu paytda oyoq ostida qolib ketmaslik uchun o'zlarini xoli joylarga olishardi.

O'h-o'h... Mutloq g'olib bo'lgan kuni. Bu lahzalarni esidan chiqarib tashlash mumkinmi? Yo'q! Yo'q! Aslo! Ayniqsa, suruv sardorligi uchun shiddatli kurash paytlarini... Bu vaqtlarda bir-birini ayash yo'q! G'oliblik, yetakchilik, sardorlik yo'li – shafqatsizlik yo'lga aylanadi. Zo'ravon – yetakchi! Kuch-quvvat – yetakchilik! Bu kurashda hatto halokat yuz beradi. Fojea oddiy holatga aylanadi. Tabiatning beshafqat, izchil hukmi azaliy, adabiy!

Tillaburamashox o'sha kuni bir ko'z bo'lib qolgan sardor bilan jangga tushdi. Uning bir ko'zi ko'rmasa-da, juda baquvvat edi. Jangari edi. U Sardorlikni Tillaburamashoxga topshirishni xayolga keltirmasdi. Olishuv uzoq davom etdi. Eng dahshatlisi, shoxlar shoxga oralab, kirib qolishdi. Buramashoxlarni bir-biridan ajratib olish juda og'ir edi. Bir-birini itarishar, ortga-oldga tislantirishardi. Bu jangda g'olib aniqlanmasligi ham mumkin. Chunki har ikkisinin ham yiqilishi, yo jangni tashlab qochishga imkoniy yo'q. Holdan toyishsa, shoxlar shoxga tiralishib, tin olib turaverishardi.

Tillaburamashox bu holdan qanday chiqib ketish yo'lini topa olmadi. Ammo tajribali bir ko'z sardor yo'lini topdi. U tumshug'ini yerga tirab, oldi, bo'lajak sardorning kuch-quvvatiga tan bergandek, tek turdi. Tillaburamashox "Oллоh" yozuvi muhrlangan shoxini yonlatib, raqibi shoxidan chiqarib oldi. Chiqarib oldi-yu, ortiga bir tislaniib, sardorning biqiniga shox urdi!

Tillaburamashox g'olib edi! Mag'rur kerildi. Vatani saltanatining endi yagonasi edi. Endi barcha alqorlar, ular suruvlari unga tobe-tobun edi axir!

Mana, endi ozodlikdan, erkinlikdan mahrum. Vatandan mahrum. Bo'rtiq xolli yigit unga ko'z-quloq. Ikki marta ko'pchilik bo'lib, yiqitishib, badaniga nashtar ham urib ketdi. Xolli yigitni ko'rgani ko'zi yo'q. Uni

vatanidan judo qilgan shu. Qani, endi tuyuqlari ostiga olsa, ezg'ilib tashlasa... O'h-o'h... o'h...

Nihoyat, qoya-cho'qqi ham bitdi.

Qoyacho'qqi juda hashamatli. Albatta, vatanidagi cho'qqilarga, qoyalarga o'xshamaydi. Ammo... birdan Tillaburamashoxning xayoli tobga keldi, shuuridan olis bir kechinma yalt etib o'tdi. O'shanda iliq yumshoq yoz tonglaridan biri edi. Tillaburamashox har bir tong quyoshini tik yuksak qoya zirvada o'zi kutib olardi. So'ng asta-sekin suruvning qo'rqmaslaridan bitta-ikkitasi ortidan ergashadi.

O'shanda, u qoyada yakka turardi. Uning badani nurlardan rohatlanib, kumushlanadi. "Oллоh" yozuvi cho'g'lanardi. Tillaburamashox pastga – kamarning quyuq soyalariga sinchkovlik bilan tikildi. Qandaydir o'ta jimjitlik. Jimjitlik... sukunat... Qoyadan azot ko'rinib turadigan enlab o'sgan sershox qora do'lana tagida nimadir g'imirlaganday... Sirli vahm... Ortiga burilmoqchi edi... "Qars-s!" Zarb! O'q yarim odim adashdi. Sardorni zarb uchirib yubordi. U havoda muallaq pastga sho'ng'idi. Uchib borayotib, toshdek tushadigan yerini nigoqladi. "Yo Oллоh!.." Tillaburamashox bir o'mbaloq tushib, zil shoxlarning tikka pastiga qaradi. Ulgurdi. To'ba-shox yerga urildi!

Uzun butli ovchi "hay-hay"lab yugurib kelguncha joni omon qolgan Tillaburamashox o'zini o'nglab oldi-yu, kamar etagi bo'ylab odam bo'yi o'sib yotgan quyuq pidanalarni oralab yo'qoldi.

Ha, Shunday bo'lgan edi.

O'sha Vatanidagi cho'qqi-zirvalardan pastroq qurilgan qoya. Uni bitirib ishlovchilar qorasini ko'rsatmay ketishdi. Tillaburamashox qizg'ish-qirrador qoya toshlari yoniga borib, yonlab ishqalandi. U yer, bu yerlarini shoxi bilan turtib ko'rdi.

Asta-sekin qoya-cho'qqi sari qadam tashlay boshladi. Har qalay qo'riqxonaning sim to'siq, devorlaridan yaxshi-da. Uzoqlarga qaraysan, uzoqlarni ko'rasan, ehtimol, uning ustidan vatani ham ko'rinib qolar, hech bo'lmasa Beshqoya cho'qqilari... Tillaburamashoxning cho'qqilari har qanday joydan ham ko'rinadi. Axir, u dunyodagi eng baland, havodor, shamoldor, tik cho'qqilar. O'h-o'h... vatani cho'qqilan. Ular ustida qoya yonqlaridan unguvchi yo'sin-mohlar, ular toti... o'h... o'h... Ayniqsa, qalp-qaltis qoyatoshlar orasidan sızilib chiqib, qotib qolgan mo'miyolar... qop-qora yaltiroq, silliq dorivorlar... o'qlardan yaralanganda jon ato etguvchi malhamlar... tirklik malhamlari... o'h-o'h... o'h...

Vatan sog'inchi, erkinlik sog'inchi. Tillaburamashoxni hushdan ketkizayozdi.

IV

U qochib borardi. Ko'zlariga ishonmasdi. Biroq qochqinga aylanganligi haqqos-rost edi. Taralib oqayotgan daryodan o'tib oldi. Uzoqdan yaqqol ko'rinib turgan qorli tog'ni qoralab, u tomonga yugurib ketardi. Oyoqlariga ishonardi. Garchi qo'riqxonada ular tolginroqqa aylangan bo'lsa-da, mustahkam edi. Bora-bora tolginliklardan asar ham qolmadi. Chigillar

butkul yozilib ketdi. U olazarak bo'lib yugurardi. Noxushlik keltiradigan hech bir narsa nazaridan chetda qolmasdi. U avval qir-adir qishloqlarini yonda qoldirib o'tdi. Ba'zi qishloq itlari uni ko'rib qoldi. Orqasidan quvgandek bo'ldi, yetib bo'pti. Akillab-akillab qolib ketishdi. U qarshisida turgan oppoq tog' tomon yugurgilab ketardi. shunga yetib olsa bo'ldi. Keyin o'zi biladi... Vatani topadi. Ozodlikning orti – Vatan. Vatani topsa, erkinlik hayoti o'sha yerda. Erkinlik hamma joyda ham tatiyvermaydi. U vatanda tatiydi. O'h-o'h... Erkinlik – Vatanda tatiydi faqat! Ana shu erkinlik deb, ozodlik deb, Vatan deb, oila-suruvini deb, qo'riqxonada devorlariga yaqinroq qilib qurib qo'yilgan tik qoya-cho'qqidan "Yo, Oллоh!" – deya tashga sakrab uchdi! "Oллоh!" deb erkin hayotga uchdi, Vatani tomon uchdi! Mana, muridiga yetdi. Tillaburamashox ozod. U, mana, qorli qoyalarga tirmashib chiqmoqda. Gurtiklarni o'mganlab yorib bormoqda. Ko'chki surilishlarini chetlab o'tmoqda. U bir qoyaga chiqib oldi. Toliqdi, ammo charchagani yo'q! Tin oldi! Olis-olislarga boqdi. Poyonsiz tog'. Tizmalar... tizmalar... o'rkach-o'rkach qoyalar... archalar... archazorlar, Tillaburamashox ko'rmagan qandaydir daraxtlar, butalar, qirrador-qirrador toshlar, o'ydin-chuqurliklar, jarlar, o'pqonsimon ungurlar, jonalar... Vatani qayoqda? Uning vatani qaysi tomonda? Shunday ochiq havoda ham nega Beshqoyasi ko'rinmaydi? U hamma joydan ko'rinishi kerak edi-ku... Qani u? Uning jon Makoni qayerda? Oллоh!.. Madad ber!..

Tillaburamashox tin olib turgan qoyaning ortidan quyosh nurlari osmon yuzini yoritib boshladi. O'h-o'h... o'h... Uning shuuri birdan yorishib ketdi. Axir, vatani ham quyosh osmonga shu tarafdin ko'tarilar edi-ku. Demak, uning vatani bu tog'larning ortida emas etaklab ketgan tomonda, quyosh botishi tomonda, Kunbotarda.

Tillaburamashox shitob bilan qoyadan tushdi. Yugurgilab ketdi. Tizmalarni qiyalab yugurgilardi. Quyosh bir oqterak bo'yi ko'tarilganda, morollar suruviga duch keldi. Ular quloqlarini dik qilgancha bu begona shoxdorga hayrat bilan tikilishdi. Tillaburamashox ularni yonlab o'tib ketdi. Shu ketishda qancha yurganini bilmaydi, ammo kun peshindan o'tib qolganda uzoqdan bir juft qizil bo'rini ko'rib qoldi. Ha-ha, qizil bo'ri. Xayriyat, ularni Tillaburamashox birinchi bo'lib ko'rdi.

Birinchi bo'lib ko'rishda gap ko'p. Qochish yo'lini bir daqiqada shuuring bilan belgilab olasan, shunga qarab, qismatini ham hal qilishing mumkin. Bo'rilar ham uni ko'rdi. Xatarli quva-quv boshlandi. Hayot-momot lahzalari... Tillaburamashox bo'rilarini ko'p ko'rgan. Bo'rilar o'z vatani ham kam emas. Faqat bu bo'rilar ranglari qizg'ish ekan. Jussalari ham vatani bo'rilaridan kichikroq. Tillaburamashox hatto birining, ya'ni ona bo'rining qorni qappayganini – bo'g'oz ekanligini ham ilg'adi. Biroq ular chaqqongina, shuvillab orqasidan qolmaydiganlardan, shekilli. Tillaburamashox jon-jahdi bilan qochishga tushdi. Bo'rilar ikki yondan kelardi. Uni o'rtaga olmoqni mo'ljallar edi. Bu usulda sardor ikki-uch marta vatani bo'rilar bilan tirashib ko'rgan. Shu bois u to'lg'ama usulida, ya'ni goh o'nga, goh chapga o'zni tashlab qochish usulini tanladi. Bu yo'sinda anchagacha qochdi.

Ammo bo'rilar ortidan qolmasdi. Tillaburamashox keskin burildi, yo'lni tikka pastlik – shag'allik enishga yo'naltirdi. U bamisoli bir burama loyqa shiddatli sel oqimiday oqib ketdi. Bo'rilar bunday holatni kutmagandi. Ona bo'ri bir qoyacha ustida itolg'iqushday holsizlanib turib qoldi. Ammo arlonisi quvishda davom etdi. Odatda bo'ri zoti tik enimga tik yugurolmaydi. O'mbaloq oshib ketishi hech gap emas. Tillaburamashox bundan ustalik bilan foydalangan edi.

Yo'q, arloni bo'ri, endi yolg'iz bo'lsa-da, o'ljani osonlikcha qo'yib yubormoqni istamasdi. U quvib borardi. Pala-partish toshlarni oralab, sakrab-sakrab quvardi. Tillaburamashoxning chaqmoq shuurida arloni bo'ri bo'rtiq xolli yigitga aylandi. Xolli yigit quvardi. Ikki oyoqlab quvardi. Qorachiqday bo'rtiq xoli qop-qorayib ketgan edi. Qosh-ko'zi orasidan battar bo'rtib chiqib ketgan edi u. U quvardi, izzidan qolay demasdi.

Tillaburamashox yo'lni endi qiyalatib yugurib, yuqorilay boshladi. U oldinda ko'ringan cho'qqi yonidagi gazani mo'ljalga oldi. Gazani oshib olsa bo'ldi, naryog'i yana enish bo'lishi kerak...

Gaza... mana, gaza... Gazaga chiqdi! O'h-h...-h... Oldi qoya edi! Shu asno arloni ham yetib keldi! Tillaburamashox uning ancha toliqib qolganligini sezdi. Fursat g'animat! Boshqa iloj yo'q! Tillaburamashox zabt bilan orqaga burildi, "Yo, Oллоh!" – u bo'riga tashlandi! Baquvvat shoxlar chaqmoqday qarsilladi, shoxlardan o't chiqib ketdi. U bo'rini qoyatoshga tirab, siqdi! Siqdi! Bo'rining ko'zlari oqib ketganday bo'ldi! Tillaburamashox shoxlarini lahzada ajratdi-yu, to'g'ridagi qoyaning eng pastqam kemtigi – tangisini ko'zlab chiqdi va... chaqmoqday o'zini qarshisidagi enish tarafga tashladi...

Tillaburamashox qorni bo'yi keladigan daryo qarshisidan chiqib qolganda tun edi. Qandaydir kengayib ketgan osmon... to'la yulduz... yulduz... Daryo to'la yulduz... sharaqlab-sharaqlab tebranib yotgan yulduz... U endi o'ziga kelgan, yovlaridan qutulganini bilar, allaqanday ko'ngli xotirjam tortgandi. Chanqagani esiga tushdi. Tamshandi. Olazarak bo'lib suv ichdi. Suv ichar ekan, daryoning ikkinchi qirg'og'i taraflarda – olis-olislarda tizma tog'lar nigohlarini oldi... Suvga tushib, o'mganlab-o'mganlab qirg'oqqa chiqdi. Silkindi. Tanasiga qandaydir kuch yig'ilganday bo'ldi. Yugurgilab ketdi. Qancha yugurgiladi... Nogahon sahrodan chiqib qoldi. Ha, tog' tizmalari bo'ylab qarshisida poyonsiz sahro yotardi. Qayerdadir adashgandi. Hali tog'larda ko'kish tumanlar elas-elas ko'zga tashlanardi. Biroq vatani cho'qqilariga o'xshash cho'qqilar, tumanlar orasida qalqib turgandek tuyuldi unga. Demak, sahroni kesib o'tib, tog'larni qoralab bormoq kerak bo'ladi. Sahro o't-alaflaridan chirt-chirt uzib edi. Allaqanday, chog'roq toshday jonzotga duch keldi. U to'ntarilib yotar, to'rt oyog'ini tinimsiz qimirlatar, ammo, ular havoda muallaq tebranardi, xolos. Birdan unga tikilib qoldi. Ilkis, bir sharpa orqasida turganday, vahimada jonivor ustidan sakrab o'tib ketdi. Beixtiyor uning bir orqa tuyog'i haligi jonzotga tegib ketdi. U to'ntarilib tushdi... Bu sahro o'rtasida to'ntarilib yotgan Ona toshbaqa edi.

Erta turgan bosh tog' begi Rajabboy soya-salqında alqorlardan xabar olib kelmoqchi bo'lib, tog'lar to'riga – Burgutli qoyalari tomon yo'l oldi. O'tining jilovini salqi qo'yib, tevarakni qo'sh ko'zlab durbin bilan kuzatib bordi. U soy bo'ylab, ota-bobolari ekib ketgan, bugunda yoshi yuz yildan oshgan yong'oqlar oralab ketar ekan, g'oyat mamnun edi. Bunaqa xushhavo tog' yer yuzida bitta bo'lsa kerak, deya o'z-o'ziga jilmayib qo'ydi. Alqorlar ham qay joyni vatan qilishni bilar ekan-da, sahro-cho'llarda yashay olmaydi. Juda baland, masalan, uch ming metrdan oshgan tog'larda ham yashay olmaydi. Ular uchun dengiz sathidan ikki, ikki yarim ming metrli joylar asl joylar hisoblanadi. Bekorga yovvoyi qo'y, deyilmas ekanda. Qo'ylarga ham bu tog'lar eng qulay joy axir.

Shunday xayollar bilan ketar ekan, ora-chora soyning ikki betida maza qilib o'tlab yurgan alqorlarni ko'rdi. Qozoqmozor deb atalmish joyga yetganda otidan tushib, uni bir uchqatga bog'lab, "bulk-bulk" qilib qaynab chiqayotgan chashma bo'yiga kelib hovuchlab suv ichdi. So'ng yon tomondagi bir qoya ustiga chiqib bordi va bu qulay joydan alqorlar suruvini kuzata boshladi.

Yo, falak! Qichqirib yubordi Rajabboy, durbin oynaklari yonida Tillaburamashox turardi! Yo'q, durbin adashtirayapti, ko'zlari aldayapti, bo'lishi mumkin emas... Tillaburamashox!

Cho'ntagini paypaslab, qo'lro'molini topdi. U bilan durbin oynaklarini artdi, keyin ko'zlarini artdi. Qaradi. Tillaburamashox! Tag'in qaradi, Tillaburamashox!..

O'tiga chopdi. Echa solib, unga sakrab mindi. Suruv tomon ot qo'ydi. Bir kamarchani jadallab kesib o'tib, alqorlarni betladi. Katta suruv bu yerdan azot ko'rinish turar edi. Xuddi o'zi – Buramashox! O'zi! Uni qanday tanimaslik mumkin... Lekin bu yerda qanday paydo bo'ldi? Poytaxtga olib ketishgan edi-ku!..

Rajabboy hamon hayrat, hayajonda edi. Qanday o'y-xayollar qilishni ham bilmay qoldi. Savollari ko'p, javoblari yo'q. Mobil... Uyda qolibdi. Qo'l telefonidan ko'p foydalanmaydi. Bu tog'larda kim bilan ham gaplashadi. Shahar-paharga tushsa boshqa gap. U o'tning jilovini uyi tomon burdi.

O'sha kuni shomdayoq poytaxtdan bo'rtiq xolli yigit yordamchisi bilan yetib keldi. Uning ranglari o'chib ketgan. Qoshi orasidan xoli yana-da bo'rtib chiqqanday. Uning aytib berishicha, o'lgan o'lgan, qolgan qolgan.

Tillaburamashox la'nati me'morning aybi bilan qo'riqxonada devoriga yaqin qurib qo'yilgan qoya-cho'qqidan chegara osha sakrab oshib, qochib ketganligidan buyon uyqu-puyqini bilmaydi. Tillaburamashoxni izlamagan joyi, daraklatmagan qulog'i qolmabdi. Axir uni Katta juda yaxshi ko'rib qolgandi. Agar bilib qolsa, otadi, ha, naq otadi! Lekin Tillaburamashoxning o'z makoni – bu tog'larga yo'nalganligini hech kimsa xayoliga ham keltirmagan edi. Axir, bu hayvon-ku... shuncha uzoq yo'ldan – Mag'ribiy Tyonshondan Turkiston tizmalari orqali Nur tog'lariga... Yo'q, yo'q, bu hayvon emas, bekorga shoxida "O'lloh" so'zi tamg'alanmagan. Rajabboy, vaqtida telefon qilib, xabar

berganliging uchun ming-ming tashakkur. Meni ko'p yomon narsalardan asrab qolding. U bir tog'dan olib, bir bog'dan olib, Rajabboy hovlisidagi supaga qalin to'shak soldirib, uyquga ketdi.

Ertalab Rajabboyning tog' begilari Tillaburamashox suruvining Alqorqamoq sayxonida ekanligi xabarini yetkazishdi. Alqorqamoq sayxonligini tabiiy toshqo'rg'on, desa bo'ladi. Toshqo'rg'on tevaragining uch tarafi baland qirrador qoyalar bilan qurshalgan, bir tarafi esa tagi ko'rinmas zov, toshjarlik. Zovga tutashib ketgan birgina toshdarvozasi bor. Alqorlar shu darvozadan kiradida, o'zlarini naq qamoqxonaga tiqishadi. Alqorlarning bu joyga tez-tez kirib, yoyilish sababi, sayxonlik ichi o't-o'langa to'la. Shuvoq deysizmi, bug'doyqimi, tuyatovonmi, kiyiko'tmi, kakrami, zirami, o'lmaso'tmi, sigirquyruqmi, andizmi... hammasi topiladi. Bundan tashqari uchqat, qorabodom, so'o'z, irg'ay, itburun, qizilcha singari daraxtlar, butalar ham qalininga. Bularning yaproqlarini alqorlar ikki old oyog'ini daraxt tanalariga tirab olib, "chirt-chirt" uzib, rosa maza qilishadi.

Bugun ham suruv maza qilib yoyilishmoqda. Kun choshgohga yaqinlab qolgan. Tillaburamashox o'z Vatanida, erkin, ozod, uning yetib kelganiga ham hafta bo'lib qoldi. U tag'in shahlo ko'z suluvlari qurshovida, bir qancha qo'zichoqlari sakrab-sakrab o'ynaydi, dirkillaydi, dikonglashadi. Qo'chqorchalari bir-biriga kalla tashlashadi.

Rajabboy bo'rtiq xolli yigit, yordamchisi va ikki qorovuli bilan toshdarvoza oldida paydo bo'lishganda, Tillaburamashox bir uchqat shoxlariga osilib, kavshanmoqda edi. Uning ko'zlari "yalt" etib bo'rtiq xolli yigitga tushdi. Yuragi jizillab ketdi. O'sha kimsa... yonida shotiri... qorovullar... Sardor uchqatdan oyoqlarini zudlik bilan pastga tushirdi. Jon holatda suruviga qarab ma'radi. Suruv zum o'tmasdan uni o'rab oldi. Tillaburamashox ularni zov tarafga surib ketdi. Suruv zovni yonlab to'xtatdi. Tek qotdi. Hammasining ko'zlari toshdarvoza oldiga qadaldi. Quloqlari tarang-ding. Birortasi qilt etmaydi, havoda pashsha uchsa bilinadi.

Rajabboy sheriklariga nimadir dedi-da, o'zi o'ljani uxlatadigan o'q-dorili ostin-ustinli qo'shog'iz multig'ini orqasiga yashirib suruv tomon yurdi. Asta... ohista... asta... ohista... Tillaburamashoxning... ko'zlari sehrlangandek... xollida... ikki oyoqli bo'rida... Tog' begida emas, o'shanda... Rajabboy... asta... ohista... asta... "Ship-pl.." Tamom! Tillaburamashoxning oldingi ikki oyog'i bukilib ketdi, tentirab-tentirab, bo'ksasi bilan bir toshga tiralib, yiqildi. Suruv tum-taraqay bo'lib, har yonga sochilib qochdi. Bo'rtiq xolli yigit, qandaydir chaqqonlik bilan bir zumda, Rajabboyga ham qaramay Buramashox yoniga yetib keldi. Keldi-yu, uning shoxlaridan mahkam ushlab oldi. Ushlaganda ham "Olloh" tamg'asining ustidan berkitib ushlab oldi. Ushlagan qo'li bir "jiz" etganday bo'ldi-yu... Bu yetmaganday bo'yniga o'tirdi. O'h-h... Bu yog'i lahzada sodir bo'ldi. Tillaburamashox zarb bilan sakrab turdi. Turdi-yu... **zov** tomon otili. Xolli yigit nima bo'layotganini ham anglamay, Tillaburamashoxning shoxlaridan qo'llarini ham ololmay, u bilan tubsiz zov-toshjarga uchdi.

Burgutli qoyada yuz bergan bu voqealarni kuzatib turgan juft burgut havoga ko'tarildi. So'ng vahmkor zov tepasida keng doira yasab ucha boshlashdi... Tog' begilari jon holatda dara-kamarlarni aylanib bu yerga kelganlarida, xolli yigit qonga belanib yotardi. Ammo Tillaburamashox yo'q edi...

Rajabboy mo'miyoli cho'qqiga bir nigoh tashlab qo'ydi...

2017-yil, oktyabr

**SAHRO O'RTASIDA
TO'NTARILIB YOTGAN TOSHBAQA**

(Hikoya)



* * *

O'rtaliq Osiyo cho'l-sahrolariga ko'klam kirib keldi. Oftob tig'lanib, cheksiz kengliklar iliq nurlardan taft ola boshladi. Namiqqan qumlar yaltirab, oralaridan yashil o'tlar, maysalar, qiyloqlar-u g'iyohlar nimalardandir hayiqqansimon bo'y ko'rsatishga tushdi. Ular vaqtma-vaqt, kunba-kun tetiklashib, yashillanishga kirishdi. Inja nozik ismsiz chechaklar epkinlar og'ushida beshiktebratarlar kabi tebrana boshladi. Yergazalar, ingichka barmoqli yumronqoziqlar, qo'shoyoqlar u yoqqa, bu yoqqa yugurgilashgani yugurgilashgan. Yumaloqbosh kaltakesak, quloqdor kaltakesak, yo'l-yo'l kaltakesaklar yedranglashib, boshlarini sarak-sarak qilishib, goh qandaydir sim-sim tovushlarni tinglashayotganday, bir dam jonsiz qotib qolganday, uzun-qisqa chopqillashib, ovga kirishib ketishgan. Bo'g'ma ilon, ko'ndalang-targ'il chipor ilon, o'qilon, charxilonlar buralib-suralib, shuvillashib izg'ishadi yoki nimalarnidir poylagani-poylagan.

Shunday qaynoq, junbushli hayot fursatlarida ona toshbaqa ko'kka tikilib yotsa-ya?.. Faqat ko'kka! Osmoni muallaqqa! Bugun u ham barcha saltanat jonzot-u jonivorlari kabi qish bo'yi uxlagan oromgohidan – panjalab, namiqib yotgan saksovul tagidagi inidan tashga chiqdi. Birpas kattakon olamga tikildi. Ko'zlarini ko'niktirgandek bo'ldi. Birdan kuch-quvvati toshganday, dadil yurib ketdi. Ana shu dadillik xatoga olib keldi. Bir chuqurchaga tuyqus ag'darilib tushdi. Tushganda ham qandoq, to'ntarilib tushdi. Shunday to'ntarilib tushdiki, u yonga, bu yonga qimirlashning iloji yo'q. Yo rab! Qolipchaga qo'yib qo'ygandek! Jon holatda oyoqlarini qimirlata boshladi. E, voh! Befoyda! Qancha ularni harakatlantirmasin, bari befoyda! Qancha urinmasin, oyoqlari havoda o'ynaydi, xolos!

Ona toshbaqa holdan toydi. Tin oldi. Osmonga tikildi. Osmon buncha cheksiz, boshi-adog'i ko'rinmaydi. Tikka osmonga qarash olislardan yoki yonlama qarashlardan boshqacha bo'larkan. Mana, tepasida bir parcha momiq bulut. Buncha op-p-poq bo'lmasa. Tikilaversang, esing og'ib qolishi hech gap emas. U dumaloq ko'zlarini o'rtaliq nuqtadan olib, bulutning uzun-yuluq dumsimon tomoniga qadadi. Dumsimon bulut zum o'tmay yoyilib, ko'klik ichiga singib yo'qoldi. Vo-o ajab, bulutlarning yurishi o'z qavmdoshlari yurishiga o'xshab ketarkan. Sekin... sekin... ohista... sirg'angansimon.

Ho'-o'-o', ana, keng yelkador, ko'kraklari ko'pchigan yana bir op-p-poq bulut. Ana, u ona toshbaqa tomon surilmoqda. Uning ustiga o'mbaloq oshib-oshib ketayotgandek.

“Sariqsor! Sariqsor!..” Ona toshbaqa nigohi osmonda uchib yurgan ashaddiy dushmani bo'lmish yovuz sariqsorga qadalib qoldi. Jon holatda old-orqa oyoqlarini yurgiza boshladi. Bor kuchini ishga soldi. Yo'q, befoydal! Oyoqlar qancha harakatlanmasin, foydasiz edi! Ular zaminga tegmasdi, biror tayanchga tayanmasdi!

Nahotki, najot yo'q! Nahotki, u sariqsorga tirik yemak bo'lsa? Yo'q, xayriyat, dushmani ko'zi unga tushmadi. U uzoqlab ketdi. Ey, Tangri, shundoq ham yaratasanmi? Ikki kosa ichida! Orqa – qalqon, qorin – qopqon. Orqa ham, old ham berk! Bosh – katta. Uzunroq cho'zilmaydi. Yo'g'on, go'shtdor til. Chaqqongina harakat qilsa, koshkiydi! Buning ustiga, tishlar ham yo'q. Katta qovuq – harakatga mos tuzukroq qiladigan ishi ham yo'q. Bosh miyasi... ha, o'ziga yarasha. Xayriyat, ko'zlari o'tkir. Ta'm, hid bilishi maromida. Sezgi-sezim, bulardan nolisa, yaratganga shak keltirgan bo'ladi! Qo'l-oyoqlari harakati juda maqtoqli bo'lmasa-da... chidam zaruriyati bor. Ammo ularni qo'yadigan zamin, tanyanch bo'lmasa-chi? Vatan bo'lmasa-chi? Holingga voy ekan! Mana, yotibdi... Ha-a... Tangri g'azabiga duchor bo'lgan-da uning qavmi. Tangri g'azabiga! Tangri g'azabi beomon, ayovsiz!

Ona toshbaqa zehninga zo'r berdi. Zehni bamisoli bir makonkim, uni igna bilan qaziy boshladi. Qazisang, taqir yerdan ham suv-suzuk chiqadi. Ona toshbaqa qavmi ham odam qavmidan bo'lib, u un tashuvchi – savdogar bo'lgan. Ha-ha, yaralmish zamonlarda tabarruk un savdosi bilan shug'ullangan. Ammo xaridorlar haqqiga ko'p xiyonat qilgan ekan-da. Elga tiyiqsiz yolg'onlar aytib, muqaddas tarozini nosoz etib, ko'nglini ham, qo'lini ham bulg'agan. Xalqni aldasang – haqqa yetmaysan!

Xalq uning aldov xiyonatlarni bilar ekan-u, biroq ko'rib-ko'rmaslikka, bilib-bilmaslikka olar ekan. Insof, diyonatga kelib qolar, deb umidlanar ekan. Yo'q, yo'q, bo'lmabdi. Pichoq suyakka yetibdi. Kunlardan bir kun xalq tobga kelib, haqli g'azab otiga minib, Tangri-taologa arz qilibdi. Tangri-taolo adolatli arzni jon qulog'i bilan tinglab, amalga o'tibdi: ya'ni, savdogarni muqaddas tarozining ikki pallası orasiga – o'rtasiga joylashtirib, u yon, bu yonga surilmaydigan tarzda siqib qo'yibdi! Boshi va to'rt oyog'ini esa tarozi pallalarining tashqarisida o'lmas-yitmas holatda qoldiribdi. Butun olamga-yu odamga ibrat bo'lsin, debdi. Bu qavm avlodi o'shandan buyon hamma yerga – cho'l-u sahroga ham, tog'u-toshga ham, ko'lu-ummonga ham sochib yuborilgan ekan.

“Lekin men tangriga nima yomonlik qildim? Nechun g'azabiga duchor bo'ldim? Nechun tongda to'ntarilib tushdim? Butun qishni saksovul tagidagi makonimda o'tkazdim. Hech qayoqqa chiqmadim, daydib yurmadim. Diydiyo qilmadim. Menga aldovlar, yolg'onlar, jon-u jonzotlar haqqiga xiyonat qilishlar mutlaq begona. Nafsimning egasiman. Beg'araz oziq-yemaklarim — qo'ng'irboshlar, sho'ralar, yaltirboshlar, bug'doyiq singari o't-o'simliklar, xolos. Hattoki, suv ichmasman. O't-o'lanlar nami menga yetarli, axir. Bahorni entikib-entikib kutdim, sog'inib-sog'inib kutdim. Shu sabab o'ydım-chuqurnı o'ylamay, dadil-dadil yurib, yashillikka burkanayotgan makonimda tezroq yayramoqchi bo'ldim. Afsus-s-s... (U biroz tin oldi. Tag'in idroklay boshladi) O-o, tuxumlar

tug'ishni, bolalarim bo'lishini qanchalar orzuladim. Odam qavmidan bo'lsam ham ayni jonzotman, jonivor jonman, tiriklik na'shasini surish, uzoq umr ko'rish, nasl qoldirish... savob zaruriyati bu!

Otam yuzdan o'n oshib, onam yuzdan o'ttiz oshib, halol hayot kechirib, fanoga yo'l olgan. Menga o'xshab, to'ntarilib yotib, o'z ajalidan burun, ha, umriy o'limdan burun o'lmagan.

Nahot chorasizman, nahot najotsizman?..

Ona toshbaqa tag'in oyoqlarini harakatga keltirdi. Ular havoda go'yo nimadir tutmoqchidek... O'ynadi... Bir ozdan so'ng taqirboshini goh chapga, goh o'nga burdi, oldinga cho'zdi. Yo'q, chappa oshib, to'ntarilib yurib ketishning sira iloji yo'q! U bunday ilojisizlik holatini ilk boshidan kechirmoqda. Ammo ko'rgan. Yosh, to'lishgan qay bir yilda u erkaklarning, ha, birdaniga to'rtta xushtorning talashiga qolgan. O'shanda bo'lajak erlar sinchalakdek keladigan dumlarini tarang qilishib, u yon, bu yonga likillatishib, rosa jang qilishdi. Kurash davomida g'olib raqiblarning ikkitasini qochirdi, birini to'ntarib yubordi. Ko'p o'tmay, to'ntarilib yotgan raqibini kalxat ilib ketgan. Uni osmoni falakka olib chiqib, qaytarib yer tomon otgan. Kosalari sinib, qorni sochilib ketgan qavmi shu tariqa kalxatga yem bo'lgan. Kelinchak esa g'olibga suyukli malika bo'lgan. Hammasi esida. Ammo bu yotish nima? Bu ko'rgilik nima bo'ldi? Qaniydi, xushtorlarning birortasi ko'rinish qolsa? Shu yerdan o'tib qolsa. Albatta, ko'mak berardi. Turtibgina suyab yuborsa bo'ldi edi. Unga suyukli yor bo'lishga ham rozi.

Yo'q, qavmidan biror-bir sas-sado yo'q. Sharpasi ham sezilmaydi. Biroq dushmanlari juda ko'p. Ularni hayotida ancha-muncha uchratgan. Echkiemar, tulki, korsak, bo'ri-yu chiyabo'ri, quzg'unlaru burgutlarni ham uchratgan. Hamisha, avvalo Yaratgan, qolaversa, keyin tosh korsonlari asrab qolgan. Tosh korsonlari – ishonch qalqonlaridan biroz avval nologanday bo'ldi-yu, yo'q, yo'q, ulardan barhaq nolib bo'lmaydi! Dushmanlarining eng xavfli, yonida bir zumda paydo bo'lib qoladigani echkiemar, u, o'ta xavfli, iblisning o'zi, uning tili-tishlari kosalari orasiga suqilib kirishi mumkin. Lekin shu yovidan ham qalqonlari saqlagan.

Ona toshbaqa shu ko'yi o'ylarga g'arq yotar, nimadandir najot kutar, ilki-ilkis, tez-tez oyoqlarini harakatga solar, ammo osmon yiroq, yer qattiq edi.

Kun peshindan og'di. Ona toshbaqani umidsizlik iskanjasiga oldi. Bir gala quzg'un ko'z ilg'ar joydan uchib o'tdi. Ularning, hatto, tovushlan ham tanaga titroq soladi. Ona toshbaqa o'ylariga burgutlar tushdi. Burgutlar tog'larda yashaydi. Cho'qqilarda oshyon qurishadi. Ko'proq tog' osmonlarida aylanishadi. Bolalar ochishadi. Burgutlar toshbaqalar uchun qish oldi juda xavfli. Ular bu sahrolarga yemish axtarib uchib kelishadi. Harki, yemaklar bepoyon qumliklarda aniq-tiniq ko'zga ilinadigan bo'ladi bu payt. Bundan tashqari, qumliklarda burgutlar sevib ov qiladigan tovushqonlar, yumronqoziqlar, kalamushlar ko'p. Burgutlar, hatto sayg'oqlarning, jayronlarning bolalariga ham tashlanib qolishadi.

Ona toshbaqa oyoqlarini harakatga keltiraverib, tamoman holdan toydi. Uni ochlik ham qiynardi. Shundoq yon-vering yem-yemish-ozuqaga to'la

bo'lsa-yu tilingni cho'zolmasang, cho'zsang-u u havoda o'ynasa? Bu qandayin bedodlik, badbaxtlik?

Ona toshbaqa ko'zlarini yumdi. Tirklik tugadi. Tugamay, nima bo'lardi? Ko'zlarini ochishga ham madori qolmadi.

Nogahon...

Ona toshbaqa shuuri, zehni yurishganday bo'ldi. Nazari biror narsani ilg'arilg'amas holat edi, tun edi. Osmonda yulduzlar charaqlardi. Ko'zlari katta-katta ochilib ketdi. Uni qandaydir suyaksiz qo'l ohista ko'tardi. To'ntarib, yerga qo'ydi. Ha, yerga qo'ydi. Oyoqlarini sekin qumga botira boshladi. Rostdan yer, zamin! Bir qadam... ikki qadam... uch... orqasiga qaramadi, qaray olmadi. Ammo quloqlariga sas-sado yetib keldi: "Men ham odam qavmidan. Faqat Tangrim menga "Obihayot" – hayot bulog'idan suv ichirgan! Harki gunohsiz, beayb, og'ir ahvolda qolgan tirkilarga mushkulini oson qilishga imdod berguvchi – ibrat holatida umriboqiylik ato etilgan zotman! Hayot boqiy!!!"

Ona toshbaqa taqqa to'xtadi.

Idrok-shuurida chaqmoq chaqdi: "Xizr..." Va shu payt ko'kda ham chaqmoq chaqdi, osmon tarvaqaylab yorishib ketdi. Birpas o'tmay yomg'ir yog'a boshladi.

2017-yil, dekabr

NASRIY QAYIRMALAR



BIRINCHI DERAZA

* * *

Olam – hikmat kitobi. O'qib va uqib yasha.

* * *

Olam taqdiri – odam taqdiri.

* * *

Dunyoda dono-yu donishmandlar aytmagan, bitmagan hikmat qolmagan.
Faqat mag'zi chaqilmagan ko'p.

* * *

Vatanim tog'ida yotgan toshning ham tarixi bor. Faqat uning ~~qo'liga~~ uqmoq lozim.

* * *

O'zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati.

* * *

Vatan kamoloti uchun amaliy faoliyat vatanparvarlikdir.

* * *

Davlatning asosi na yer, na ko'k, na suv... balki xalqdir.

* * *

O'z milliy g'oyasiga, mafkurasiga, o'z taraqqiyot yo'li mezonlariga ega bo'lmagan davlat bo'ron izmida qolgan qayiqdir.

* * *

Mahalliychilik millatparvarlik va vatanparvarlikning asosiy dushmanidir.

* * *

Vatanning bo'y-basti botirlari-yu shoirlari bilan o'lchanur.

* * *

Ertaklarda devlar joni o'zida emas, allaqayerlarda: g'orlarda, tog'lar ichida,
sandirlardami saqlanar ekan. Chin inson joni esa hamisha Vatanda saqlanadi!

* * *

Eng buyuk jasorat Vatan taqdiri yo'lida qilingan jasoratdir.

* * *

Vatan tandir. Non-tuzin unutganlar ko'r bo'ladi!

* * *

Iglu – eskimoslarning qordan yasalgan uyi. Qish tugab, kunlar ilgach, u erib ketadi. Shimoldagi bu elat taqdiri ham iglusiga o'xshab borayapti. Vataning imoratini mustahkam qur!

* * *

Zamin abadiy emas, zaminmonand makonlar abadiy. Inson abadiy emas, insoniyat abadiy.

* * *

Tabiatta hech bir narsa teng bo'lmaganidek, davlat, hokimiyat, xalqlar o'rtasida ham tenglik bo'lmaydi. Faqat ular birodarlik, do'stlik asoslarida tenglik hayotini kechirishlari mumkin.

* * *

Xalqning faqat bugunini o'ylagan hukmdor – Yetakchi. Uning kelajagi va kamoloti asoslarini qurgan hukmdor – Donishmand. Poliz boshiga qurilgan xashaki chayla bilan poydevori daryo toshlaridan qurilgan imoratning farqini unutmang!

* * *

Hukmdor maqtov-olqishlarning tagida nima borligini doim nazardan qochirmasligi kerak. Hamdu sanolar yo'li – haqorat, masxara va falokatli bo'lishi mumkin.

* * *

Kemalar uchun ko'rinmas suv osti qoyalari g'oyat xavfli, halokatli bo'lgani kabi saroy va saltanat siyratidagi e'tiqod va axloq tubanlashuvlari mamlakat inqiroziga ibtido bo'lishi mumkin.

* * *

Ijtimoiy tengsizlik tabiiy tengsizlikdan kelib chiqadi.

* * *

Toshtarosh qo'lida tosh, kulol qo'lida loy istagan shaklga kiradi. Hukmdor o'z aql-zakovati bilan tosh ham, loy ham emas. Sobitlik, qat'iyatlilik mamlakatni tanazzullardan asraguvchi kuchdir!

* * *

Bir toifa qonunni biladi va unga amal qiladi. Bir toifa qonunni biladi, lekin unga amal qilmaydi. Bir toifa qonunni biladi va ammo iblisona yo'llarda foydalanadi. Bir toifa qonunni bilishni ham, unga amal qilishni ham istamaydi.

* * *

Hokimiyatni qat'iyat bilan boshqarish inson erkiga daxl qilmasligi kerak. Daxl qilinsa, bu – daryoga to'g'on qurib, suvni to'plab, bog'larga suv bermay, daraxtlarni quritish bilan barobar.

* * *

Hukmdorlar uchun xalqning omi-mute bo'lgani yaxshi. Qashqir uchun ham osongina tutqich beradigan qo'ylar kerak.

* * *

Oltin qadahda may simirib, uzoq umr kechirgan hukmdorni eshitmadim.

* * *

Daholar har bir zamonning, xalqning valine'mat zotlari, ammo ular o'sha davr hokimiyati uchun yoqimsiz, hatto ortiqcha kishilari bo'lishi mumkin.

* * *

Ozod-u erkin qushga hukmdor farmonining ahamiyati yo'q.

* * *

Hukmdorlik gulzorining tikoni ko'p.

* * *

Saltanat ishlarida hukmdordan ko'ra shubhakorroq kimsa yo'qligi haqqost-rost. SHubha esa imondan ajratadi, degan gaplar ham borligi haqiqat.

* * *

Hukmdorning oti ko'ndalang ham chopadi.

* * *

Kambag'al – davlat xazinasini o'ylashga qodir emas.

* * *

Xalq baxti, tinchligi, davlat farovonligi uchun sarflanmay yig'ilib yotgan xazinaning ummon qa'ridagi xazinadan farqi yo'q.

Zaminmonand sayyora topilibdi, Ko'cha-ko'ch boshlanibdi. U yoqda hamma narsa bor emish, mo'l-ko'Ichilik emish. O'zi bilan hech kim hech narsa olmabdi. Faqat dehqon ketmonini elkasiga tashlab olishni unutmabdi.

Yer shari – ona Sayyoramiz qismati faqat samoviy kuchlargagina emas, insoniyat faoliyatiga ham bog'liqligi bugun kundek ayon. Shunday ekan, har bir inson zaminga o'z ona uyi kabi munosabatda bo'lmoqligi va ushbu xulosaga kelishi uchun avvalo o'z shaxsini kamol toptirmog'i lozim.

Inson xudosifat bo'lmoqlikni, Uningdek faoliyat ko'rsatmoqlikni istaydi. Va barcha fojeasi shundan ekanligini o'zi ko'p ham anglayvermaydi.

Qat'iyatlilik bilan qaysarlikni qorishtirib yubormang. Ayniqsa, buni yurt sarvarlari unutmasligi kerak.

Dunyoni o'zgartiraman, dedi Qilich. Dunyoni o'zgartirish uchun men o'zgarishim kerak, dedi Qalqon.

Yangi-yangi davr qit'alarini SHAXSlar, DAHOlar ochadi. Qolganlar ularga ergashadi.

Qonun – buqalamunga o'xshamasligi kerak.

Hukmdor qahri burnining uchida.

Hukmdorlarga oqil, dono maslahatchilar-u sadoqatli o'ktam vazirlargina emas, so'zni tik aytguvchi shiddatmonand yaqinlar ham kerak.

Yolg'onning kuch-qudrati hokimiyat miqyosida tomir otganda azot bo'y ko'rsatadi.

Siyosatda zo'ravonlik - adolat niqobini kiygan hukmdor.

Bir shaxs butun bir xalqni o'z aldov maqomiga yurgazishi mumkinmi? Yo'q! Ammo U o'sha xalqning vijdotsiz, imonsiz, dayus, poraxo'r, laganbardor hukumatini o'z yo'rig'ida qirchang'i otday yo'rg'alatishi mumkin.

Quyosh keksayib bormoqda. Vatanparvarlik tuyg'ulari Zaminparvarlik tuyg'ularidan ayro tushmasligi kerak. Ona-sayyoramiz o'z qobiqlari ichida mahdud yashayotgan qurtlar o'ylaganlarichalik ulkan emas.

So'zdan... harakatga o't. Umr mazmunini, insonning jamiyatdagi o'rnini uning faol harakati belgilaydi.

Jamiyat kamoloti unda Inson hayotiga bo'lgan munosabat bilan o'lchanishi zarur.

Huquq – ma'naviy, ma'rifiy taraqqiyotni kamol toptirguvchi Kuch. Ammo u axloqiy mezonlarga zarba bermasligi kerak.

Oniy chaqmoqday yalt etib kelgan fikr dunyoni alg'ov-dalg'ov qilishga qodir.

Insoniyat taqdiri gugurt cho'plaridek bir quti ichiga joylanib bo'ldi. U chaqmog'ini kutmoqda... Har bir ko'ringan yulduz yo sayyorada hayot yo'qligi aniq, demak, shunga qarab chaqmoq chaqilmog'i kerak...

Ko'p joyda kishilar har xil narsaga sig'inadilar. Masalan, toshga, daraxtga, buloqqa, g'orga... Bu – tabiat kuchini muqaddas bilishdir, uni sharaflashdir.

Inson "obi-gil"dan paydo bo'lgan, deydilar. Bu gap rost. Undan hamma shakldagi hamma narsani yasasa bo'ladi.

Haqiqatni faqat qalb ko'zi bilan ko'rish mumkin.

* * *

Qalb shohko'chasining oxiri yo'q, tor ko'chalari ko'p.

* * *

Ahmoqona g'oyalar shunchalik ko'pki... ularning ustida tuzukkina olimlar turganiga hayronman.

* * *

Har qanday jamiyatda hukumat xalqning mehnatiga yarasha haq to'lamasa, o'sha xalq mehnatga nisbatan parishon holati ila munosabatda bo'ladi. Xalq adolatsizlikka norozilikni shu tariqa namoyon qiladi.

* * *

Odamiyat va Jamiyat kamoloti faqat tarbiya va uning izchil ibratini bilan amalga oshiriladi. Shaxslar ularning yetakchiligidir. Inson qo'li bilan yaratilgan bog' qayda-yu, yovvoyi changalzor qayda?!

* * *

Qavmlar, elatlar, ellar, xalqlar, millatlar birligi – Insoniyat. Zamin esa butun Insoniyatga daxldor. Shunday ekan, odamzod bir ertakdagi tor ko'prikda o'zaro duch kelib qolgan ikki serkadek biri-biriga yo'l bermay shoxlashib, oqibatda ikkalasi ham daryoga qulab halok bo'lganlar... qismatiga tushmasliklari uchun toza RUH, oydin TAFAKKUR, donishmand AQL bilan ish tutishi ham farz, ham qarzi!

* * *

Ozodlik, Erkinlik insonning o'z qalбини, o'zligini o'ziga qaytaruvchi mo'jizaviy kuchdir!

* * *

Erkinlik – bu faqat ko'ngil istagini qondirish, degan gap emas. Qushlarning yashash tarzi – erkinlik, ammo ular hayotida ham izchil tabiiy tutqunlik qanoati – qonuniyati bor.

* * *

Balki yolg'on, balki chindir, bir qush bor emish. U yer kurrasining qaysi burchagida ko'klam boshlanib, daraxtlar kurtaklasa, o'sha yerda hozir-u nozir ekan. Ozig'i – faqat kurtak. Shu bois nomi ham kurtakxo'r. Menga u Yovuzlikning timsoli bo'lib tuyuladi.

* * *

Taraqqiyot insoniyatning ma'naviy kamoloti bilan tarozilanmog'i kerak.

* * *

Saltanat manbai – kuch-qudrati xalqning ma'rifati bilan mezonlanmog'i lozim.

* * *

Haqiqat!.. Haqiqat!.. Haqiqat!.. Qaysi haqiqatni aytayapsiz?
Adolat!.. Adolat!.. Adolat!.. Qaysi adolatni aytayapsiz?

* * *

Bir rimlik adib-faylasuf yozgan: "Hokimiyat – faxrli qullik!" Koshki, maqolga aylangan bu aytim butun jahon hukmdorlari saroylarining peshtoqini bezab tursa?!

* * *

Erk taqchil joyda hamma narsa taqchil. Hamma narsa davlatniki, deyilgan yerda xalq yupun, qashshoq, gado. Shaxsiy manfaat bo'lmagan joyda yuksalish, taraqqiyot yo'q.

* * *

Qonunlari pala-partish ishlaydigan mamlakatning kelajagi shubhali.

* * *

Milliy madaniyatni maydalashtirmang.

* * *

Tenglik – bir ranglik. Bir ranglik esa kishini zerktiradi.

* * *

Sun'iy taraqqiyot tezligida tabiiy falokat yo'qmikan?

* * *

Odamzod yaratgan qonun hamisha chala. Zilzila qo'pganda koshona ham vayron.

* * *

O'zing ko'zini ochgan buloqning suvi shirin.

* * *

Juda ko'p nuqtalarda kayfiyat aqlidan ustun.

* * *

Kambag'allarga "Boy bo'lmang...", "...Boyluk – bevafoqlik", "Boyluk – baxtsizlik keltiradi..." va hakazo deb nasihat beruvchi olijanob kimsalar riyokordirlar.

* * *

Eng yomon dushmanim – birovdan olgan qarzim.

* * *

Qarz – odam bo'yniga chirmashib olgan ilon.

* * *

Dushman ikki turlik bo'ladi: Tanti dushman, nomard dushman. Birinchisi, sen tomonda adolat bo'lsa-yu, u qozilik qilayotgan bo'lsa, ishini haqiqat yuzasidan hal qilishi mumkin. Ikkinchisiga esa haqu nohaqligining hech qanday ahamiyati yo'q.

* * *

Zag'izg'onni yomon ko'raman, tuxum o'g'irlagani uchun. Maynani yomon ko'raman, uzumlarga ochofatlik bilan tashlangani uchun. Ularni yomon ko'rmagan bo'lurmi edim... Tovuqlarim tuxumlari, uzumzorim bo'lmaganida...

* * *

Oltinni ham oltin sotib oladi.

* * *

Qalbim Alloh sari!

Kundan-kun hech narsani bilmaganday, hech narsa o'qimaganday, uqmaganday, imkonsizday, umrim behuda o'tganday holatga tushib bormoqdaman. Holbuki, yoz hayotini yashayapman.

* * *

Keksaning vujudi eski devorga o'xshaydi. U kundan-kun nurab boraveradi.

* * *

O'zgalardan ustun bo'lishning emas, o'zingdan ustun bo'lishning ko'proq g'amini chek. Shunda umring, hayoting ma'no, hikmat gullariga burkanadi.

* * *

Dengizlar, ummonlar o'zlariga buloqlar-u daryolarning quyilmay qolishidan qo'rqib yashaydilar. Men bolalarimga mute bo'lganim kabi: dehqon dalasiga, baliqchi dengiziga, chorvador Ko'kning yomg'irli bulutlarin marhamatiga mutedirlar.

* * *

Xonadon iti botir, ko'cha iti qo'rqqoq bo'ladi. Chunki birinchisining ishonadigan egasi bor, ikkinchisi esa daydi.

* * *

Dunyoda qilinayotgan barcha jinoyatlar, asosan, tunda sodir etiladi. Mening nazarimda, jinoyatchilar tong otishiga, quyosh chiqishiga ishonmaydigan kimsalardir.

* * *

Tabiatan qashqirlar kabi vahshiy, odamxo'r, zolim kimsalar bor. Ular jamiyat qonunlarini pisand qilmaydilar. Bu kimsalarning jazosini faqat o'qlar, qilichlar, sirtmoqlar va qamoqlar adolati berishi mumkin.

* * *

Turmush tashvishlari bamisoli tushov. Lekin bu tushovsiz yashab bo'lmaydi.

* * *

Qanoat – sening qay darajali inson ekanligingni ko'rsatguvchi kuch!

* * *

Munosib bo'lsang, "buyuk" desinlar, ammo "bu - yuk" deyishlaridan qo'rq.

* * *

Odamzodda tan tengligi, kuch-qudrat tengligi adolati bo'lishi mumkin, ammo aql-tafakkur tengligi adolati bo'lmaydi.

* * *

Tabiatda hamma narsa "kim o'zar" asosiga yaralgan. Oddiy maysalar ham bir-biridan balandroq o'sishga intiladi.

* * *

Bir qorindan talashib tushgan egizak chaqaloqlarning biri donishmand, biri nodon bo'lsa ajablanmang. Bunda ota ham, ona ham gunohkor emas. Tabiiy zaruriyat, ehtiyoj tanni boshqaradi.

* * *

O'rgatishga emas, o'rganishga shoshiling. Keyin o'rgatishga.

* * *

Birovga biror narsani o'rgatishni ibrat-amaliyot bilan amalga oshirishga harakat qiling. Dono xalq quruq qoshiq og'iz yirtar, deydi.

* * *

Globallashuv taraqqiyoti odamzodni va qurolzotni yer yuziga to'plab bo'ldi. Daraxtning ildizlari yerga, shoxlari ko'kka intiladi. Allohdan ayro tushganlar Allohga qaytishiga to'g'ri keladi. Yo hayot, yo momot!

* * *

Hokimiyat, boylik, ayollar, shon-shuhrat... Mana, odamzod aqlini ming-ming ko'yga solguvchi afsungar kuch-qudrat!

* * *

Donishmandlik ilmi Shunday xazinaki, uni bermalol isrofgarchilik bilan ham sarflash mumkin.

* * *

Daraxtning shoxlari qimirlaydi, tanasi emas.

* * *

G'azab – erkakning murt-mo'ylovini uchirib yuboradi, tanasini tok urganday titratadi. Uni ko'pincha aql bilan ham bosishga ojizmiz. G'azabini o'z paytida bosa olganlar ruh qahramonlaridir.

* * *

Ehtiyoj – zaruriyatga aylanadi. Uning qondirilishi goh ko'kka uchirsa, goh chohga ag'daradi.

* * *

Adolat, haqiqat... g'oyat murakkab tushunchalar. Chunki har bir insonning o'z adolati, haqiqati bor. Sizning adolat, haqiqatingiz dushmaningizni mahv etish bo'lsa, dushmaningizning adolati, haqiqati esa sizni mahv etishdir. Bodom daraxtlari bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, birining mevasi chuchuk-shirin, ikkinchisini achchiq bo'lishi mumkin. Dono xalq: har kimniki o'ziga, deydi.

* * *

Qalbaki do'st – qalbaki dori.

* * *

Odam yolg'iz qolgandagina o'zligiga qaytadi.

* * *

Nokaslar ko'pincha bag'rikeng, odamoxun insonlar ustidan kuladilar, masxaralagandek bo'ladilar. Bu toifadagilar hech qachon himmat ahli bo'lolmasliklari uchun Shunday qiladilar.

* * *

Erkinlikning ham me'yori bor.

* * *

Axloqsiz haqiqat – chala haqiqat.

* * *

Ulkan qoyalarni oddiy toshlarga aylantirib, so'ng ulardan imorat uchun poydevorlar quradilar.

* * *

Puldor kishilarda o'z-o'ziga ishonch mustahkam bo'ladi.

* * *

Ikki daryo qo'shilib, to'g'onni buzdi.

* * *

Oltin haykal, oltin byust... u baribir o'z asliga qaytadi.

* * *

Xulq-atvor... ham qilich, ham qalqon.

* * *

Bu dunyoda hamma narsani musht bilan hal qilib bo'lganda, aqlning keragi bo'lmay qoladi.

* * *

Hukmdordan emas, omi olomondan qo'rqaman.

* * *

O, ho'kiz! O'z Egang seni qassob uchun boqayotganligini hech qachon bilmaysan.

* * *

Insonning umri o'tgan sayin o'tmishi totli, aziz tuyulaveradi, chunki unda go'zal bolaligi, kuch-qudratga to'lgan yoshligi qolgan.

* * *

Boy-badavlat kishilar bilan hamisha xavotir, har xil shubha-gumon yonmayon yuradi.

* * *

Yomg'ir yoqqanda yer yorilmasa, bu o'sha yerning yaxshiligiga dalil. Boshingga biror kulfat tushganda, yoningda turgan do'st – chin do'stligidan dalolat.

* * *

Qadimda chaqaloqning birinchi tirnog'ini ketmon yuzasiga olishar ekan. Bolam chin dehqon bo'lsin, degani ekan bu.

* * *

Dehqonni yulduzdan yulduzga uchib yurgan raketalar emas, ketmoni boqadi.

* * *

Har bir xatoning oqibati chaqmoq tillaridek taralib chaqnaydi.

* * *

Oppoq qandni bir pashsha bulg'aydi.

* * *

Siringni qo'shniga aytsang qo'shadi, ovulga aytsang ovul oshtiradi.

* * *

Uchuvchi havo kemasini bilimdonlik, mohirlik bilan boshqara bilsa, halokatdan nari bo'ladi. O'ta katta boylik ham havo kemasidan kam emas, uni-da bilimdonlik, ziyraklik va mahorat bilan boshqara bilish kerak.

* * *

Bir o'rinni yolg'on adolatni yuzaga chiqarib, haqiqatni tiklashi mumkin.

* * *

Chechakdan nozik, cho'qqidan tik, ummondan teran – qalb.

* * *

Ilonlarning va qushlarning sezgi-sezimi tabiatdagi har bir o'zgarishni eng avvalo ilg'aydilar. Ularning sezgi-sezim-tuyg'ulari, harakatlari ziyrak insonga ko'p yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin.

* * *

Ey Rabbim! Dushmanlarim, raqiblarim aqlli bo'lsin!

* * *

Umr – bugun.

* * *

Og'a-ini, qarindoshlar o'rtasidagi yovlik toshlari ularning farzandlari o'rtasida ham uchib yuradi.

* * *

U hadyalarni olaverib-olaverib, o'z erkini yo'qotdi.

* * *

Ko'zi to'qlik — eng kalta boylik.

* * *

Baxt bulog'i o'zingning bog'ingdan oqadi.

* * *

Baxt — Oltin, uni ajdaholar qo'riqlab yotadi.

* * *

Baxt yo'q narsa, uni bor qilmoq kerak.

* * *

Farzandlarim! Men ko'p marotaba bo'ronli ummonda yelkan ochib yuborgan insonman. Xatolarimni takrorlamang!

* * *

Kimdandir qarzдорlik — kimgadir tobelikdir.

* * *

Burgutlarning uyasi yolg'iz bo'lmaydi. Bosh uyasiga yaqin-yaqin joylarda yana bir-ikkı uyasi bo'ladi. Ey farzand, buni unutma!

* * *

Chumoli fildan kuchli.

* * *

Bog'imda qushlar ko'payib ketdi. Ular menga kuylab berishlari uchun ko'payishib kelishgani yo'q, uzumlarim pishdi.

* * *

Ilon fe'l-atvorini emas, po'stini tashlaydi.

* * *

Ilon po'st tashlayotganda yer larzaga kelarmish.

* * *

Dard hamisha eshik tirqishidan mo'ralab turadi.

* * *

Bugun yonimda do'stim o'tiribdi. Ertangi dushmanim bilan suhbat qurayotgan bo'lsam, ne ajab?!

Shunday odamlar bor: ko'kdagi qushning parvozigiga, dengizdagi baliqning erkiga, tog'dagi kiyik ko'zlarining qoraligiga hasad qiladilar.

Ey, ovchi! O'qingdan qochayotgan kiyikning aybini menga ayt!

Bir odamni bilar edim, ismi Bo'ri edi, ammo o'zi tulki...

Tabiat o'z-o'ziga tabib.

Aqlsiz banda ham suvga cho'kayotgan damda tirik qolishga harakat qiladi. Hayotning nechog'lik azob-uqubatlari, kulfatlari bo'lmasin, yashash naqadar shirin!

Tulkining o'ljasi – bo'riga halol, bo'rining o'ljasi tulkiga ham.

Bulbulning semizi – ilonga yem.

Aql ila esh bo'lgan g'ayrat kamolot darvozasining kalitidir!

Mehnatsiz rohatni o'ylaydigan kishi jinoyat qilishga moyil kimsadir.

Tinimsiz ilgarilab bormoq xatolardan saboq olmoqdandir.

Ey, odam bolasi! Bir-biringdan marhamatingni ayama. Suyib bersang suv ham asal.

O'zidan ayg'ir chiqsa, otning zoti buzilar ekan. Daraxtning qurti o'zi bilan deganlari ham rost. Odam bolasi, o'zingga o'zing sinchilik qil.

Qirchang'i otga qamchi kerakligi barchaga ayon va lekin tulpor otga ham qamchi kerakligini ko'plar bilavermaydi.

Dushmanim ko'pligi do'stlarimning kamligidan emas!

Odamzod jismi Tangri irodasi ila mukammal yaratilgan: hamma a'zolari joy-joyida, birini ikkinchisiga a nashtirib bo'lmaydi. Va lekin fe'l-atvor, xulq borasida undan nomukammal oq hech bir mavjudot yo'q. Allohga shak keltirishdan qo'rqaman!

Inson tabiatni shu darajada "madaniy"lashtirib bormoqdaki, istagan joyida qaqqayib turganida ko'kdagi chaqmoqdan halok bo'lishi hech gap emas.

Oxirat haqida o'ylayman. Qiyomat qoyimni keltirib chiqarguvchi Kuchlar haqida o'ylayman. Ular mavjudmi? Mavjud bo'lsa, asranib qolishning iloji bormi? Ha! Yer kurrasini tog'lar va ummonlar bir maromda, ya'ni muvozanatda saqlab turar ekan. Muvozanat buzilishi – Oxirat! Kurrai zaminning aqliy sohibi bo'lmish banibashar axloqining tubanlashib ketishi esa qiyomat qoyim demakdir! Yashasin Ona-Zamin, Inson va Insoniyat bardavomligi uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan pokiza Tafakkur!!!

Hisor tog'larida yuksak, metin qoyalarni mardona yorib tug'dona daraxti o'sadi. U juda mag'rur. Saratonning o't tilli kuydirgisiga-yu, qahratonning qattol zahar-zaqqumiga dosh berguvchi yashil saltanat. Men unga hayrat bilan tikilaman. Va asl manba – suv yo'liga yetib borgan ildizlari haqida o'ylayman. Ildizlar... Xuddi ildizlardek, Insonni yuksakliklarga ko'targuvchi asl Kuch bu – sezgi-sezimdir. Ular qudratidan hamma ham o'z paytida foydalanavermaydi. Foydalanganlar kashfiyot sohiblaridir.

Behuda yelib-yuguravermang, aqlingizga tayaning, qolaversa, mo'jizakor qo'llaringiz bor. Ularni ishga soling. Totli, tip-tiniq suvli quduqni qazigan, Sizga hayot baxshida etgan ham shu qo'llaringizdir.

Johillik va jaholat barcha buzg'unchilik va kulfatlarning ham otasi, ham onasidir.

* * *

Ba'zi odamlar nima qilish kerakligini emas, nima qilmaslik kerakligini tushunib yetsalar, olam guliston bo'lardi. Asr-asrlar osha shakllanib kelgan zotli mevali daraxtlarga boshqa payvand ulab, ularning hosilini tamoman aynitadiganlarga taalluqlidek bu gap.

* * *

Boyluk – Odamga cheksiz imkoniyat va imtiyoz berishi mumkin. Undan ba'zilar shohsupalarga ko'tarilsa, ko'pchilik halokat jariga qulaydi.

* * *

Men dasht to'rg'ayiman. Ba'zan ikki qanotimga tosh boylab "Uch!", deydilar.

* * *

Bahaybat shaharlar – bahaybat falokatlar sari yo'l bo'lmasa, deb qo'rqaman. Ovchining o'qi ham ulkan jonzotlarga bexato tegadi.

* * *

Inson tabiatni kiyintiryapman, deb uni yalong'ochlikka mahkum etmoqda. Yalong'ochlik yo ibtido, yo intihodir.

* * *

Dunyoda qilich bor ekan, qalqonning ham bo'lishi tabiiy.

* * *

Ba'zi odamlar ov qushiga o'xshaydi. Nimanı tutishga o'rgatilgan bo'lsa, shunga chang solib kun kechiradilar.

* * *

Imtiyoz – imkoniyatlar eshigini keng ochadi.

* * *

Amaliyotga ko'chmagan ilm va bilim sarjin qilinib qo'yilgan o'tinga o'xshaydi. Sarjin o'tin yoqilmog'i: kimningdir qozonini qaynatmog'i, kimningdir tandirini qizitib, nonini pishirmog'i, tog'dagi cho'ponni tafti ila isitmog'i, ovchini sovuqdan saqlamog'i kerak.

* * *

Boy va kambag'al bo'lish millatga qaralmaydi. Ammo millat bilan millat orasida farq bor.

* * *

Oilada xotirjamlik bilan yashay desang, bozoringni o'zing qil, mol-holingga o'zing qara.

* * *

Qiyinchiliklardan noliyverma, u hayotingni bir omadli izga soladi va yo'llaringni mustahkamlaydi.

* * *

Hamisha borar manzilingni aniq-tiniq tasavvur qilishga harakat qil va unga tomon ishonch bilan qadam tashla.

* * *

Asal bir dardimga davo, ikkinchi dardimga zahar. Tanam esa bitta.

* * *

Haqiqat do'st yoki dushmanga aytiladi.

* * *

Ota-bobolarning hayotiy bilimi va tajribasi tun zulmatidagi chiroq.

* * *

Miya – inson tanasining quyosh tog'i.

* * *

Yoshlikning xayollari, orzulari keksalikning armonlari bo'lib qolishidan ehtiyot bo'l.

* * *

Ahmoqqa "aqliroq bo'l..." dedilar, "aqli bo'lmoq..."ning o'zi "ahmoqlik-ku..." degan javob bo'ldi undan.

* * *

Tabiat, bu – men!

* * *

Qarg'ishlar yurakning tub-tubida yotadi. Ular faqat ruh muvozanatdan chiqqanda – g'azablar bo'lib tashqariga otiladi.

* * *

Chirik og'och lirik og'ochni chiritadi.

Go'dak peshonasida daholik ajinlari yoziqlik.

Qumursqani yengolmadim, uni quvsam – daraxt bachkisining uchida yuribdi.

G'ashimga tekkan bir chivinni urib o'ldiraman deb, ko'zoynagimni sindirib oldim.

"Qachon yolg'on gapirganman...", dedi U o'z yolg'onlariga yana bir qo'shimcha qilib.

Soy, ariq bo'ylarida uchib yurgan turlik-turlik ninachilarni ko'rsam, ko'kda uchib yurgan samolyot-uchoqlar yodimga tushaveradi.

Aqli, ilmi zakovatidan savdoyi bo'lib qolgan olim hosili mo'lligidan sinib tushgan mevali daraxt shoxi kabidir. Ajab dunyo – o'z bor-u baring o'zingga dushman.

Kungaboqar kunga boqib-boqib, oftob nurini simirib hosillanadi. So'ng boshini quyi solib sukut saqlaydi. U menga aqli-zakovati teran donishmandni eslatadi.

Aql-tafakkur ikki qiyofada mavjud: bunyodkorlik va buzg'unchilik. Ular bir-biriga yov. Kurash azaliy-abadiy. Asriy obidalar ham, xarobalar ham yetarli. Inson va Insoniyat oldida – hayot va mamot. Hayot, men sen bilan birgaman! Xarobalarni qazib qadrlasam-da, tirik obidalarni sevaman!

Avomning laqqiligi – firibgarning omadi.

Daraxtlarda shoxma-shox sakrab yurgan olmaxon ham, ko'kda qanot qoqib yurgan zag'izg'on ham qish g'amini yeb, egulik yong'oq yig'adi: birinchisi o'z daraxt kovaklariga yig'sa, ikkinchisi belgili joylarga ko'madi. Ey yosh do'stim! Sen ham gulbahoringda qish qahratonini ayozlarini o'ylab qo'ysang bo'lardi.

* * *

Qum-shag'allarni pırpırak qilib, toshlarni toshlarga urib-surib, qirg'oqlarni o'pirib-supirib, bo'tana-bo'tana loylanib-soylanib, shamollari guvullab-uvillab, hayqirib-ayqirib, mol-hollarni dumalatib-umalatib, to'lqinlar qo'y-qo'zilarini u yonga otib, bu yonga otib, daraxtlarni ag'darib-sag'darib kelayotgan tog' seliga ko'ndalang turmoq yor xiyonatidan yaxshiroq.

* * *

Odamzod zaruriyat tufayligina tabiatga qarshi turmog'i joiz. Albatta, bu ish qo'lidan kelsa?!

* * *

Bo'yi bor-u aqli yo'q, aqli bor-u bo'yi yo'q.

* * *

Odam ko'pincha, ko'z oldidagi narsani ko'rmaydi.

* * *

Odam o'z taxayyul oti bilan o'ziga go'rkov.

* * *

O, Xudoyim! Yovuz odamni ilmdan yiroq qil.

* * *

Mamlakating katta va ulug'vor, ammo shu mamlakat ichida bir nuqta – tug'ilgan, bolaliging, o'smirliging o'tgan joy borki, uning tengi yo'q.

* * *

Fikringni payraxa qilib tashlama. Payraxa o'choqqa tushib, kul bo'ladi.

* * *

Kambag'al kishi erkinligi boy-badavlat kishi erkinligidan afzalroqdir.

* * *

Yaxshilik bilan yomonlik qo'shmag'iz.

* * *

Sher panjasidagi kiyik sening ov-o'ljang emas, behudaga intilma.

* * *

Pishib yetilgan bepayon bug'doyzorga bir gugurt cho'pining uchquni kifoya.

Baxtli-baxtiyor odamlargina baxtsiz, omadsiz kishilarga qaraganda tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'la olishdek tuyg'ularni ko'proq tuyadilar.

Tulkı ham yangi libosda yurishni istaydi.

Alifbonı bilmay turib ham, donishmand bo'lish mumkin.

Zaminda yashayapsan, Osmonda uchayapsan, Ummonda suzayapsan, yana nima kerak senga?

To'yganini bilmagan kimsa – to'yganini bilmagan buqa. Birinchisini ajal, ikkinchisini qassob kutadi.

Haqiqat nima? Ko'kda chaqmoq chaqishi, kurrai zaminda tog' ko'chishi, ummonda to'fon turishimi?..

Shaxsiy manfaat – harakat quvvati.

Insonning bir-biriga muhtojligi zaruriyatdir.

Qancha aqlli bo'la borsang, shuncha ahmoqligingni bila borasan.

"Haqiqat yo'li bitta!" – dedi ustoz. "Qaysi haqiqat yo'li?" – dedi shogird.

Do'stim, qursang ham osmono'par bino, behuda qo'ymagil o'zingga bino!

Tarbiya bu – bamisoli ko'chat-nihol, uni ekib, mehnat ila parvarish qilib, keyin mevasidan bahramand bo'linadi.

* * *

Taqir qalb – taqir yer.

* * *

Tabiiy tartib bu – zaruriyat.

* * *

Pul – pora va hadyalarga aylanib hukmdorlik qilayotgan jamiyat kelajagi shubhali.

* * *

Manfaat degan ulkan maydon bor. Agar shu maydon maftunkorligi, toti-lazzati bo'lmaganida odamzod yalqovlikka, loqaydlikka, dangasalikka, beparvolikka yuztuban ketardi. Axir bu illatlar odam ahlining tabiatida qoni bilan oqadi.

* * *

Boltaga ham egov kerak.

* * *

Oq va qora Dunyo kun va tunde. Yo'q, oq va sanq Dunyo – tovuq tuxumidek.

* * *

Birovga yomonlik qilmay deyman, ammo u go'yoki zaruriyatday majbur etadi.

* * *

Ta'ma – gadoylik.

* * *

Davlat ishini o'z shaxsiy ishing kabi bajar. Qir-adirlardan o'sib, tog' choqqisiga aylanasan.

* * *

Snukronalikk: bilmagar kish baxtsizdir:

Zali baxtsizlik: baxt ko'rsatmaydi, baxt ko'rsatmaydi.

Snukronalikk: bilmagar kish baxtsizdir:

Da'vong bo'lsa kimga, guvohing bo'lsin,
Guvohing bo'lmasa, qozi ne qilsin.

Inson xotirasi – ko'klam bulutlari. Bulutlarga ishonch yo'q.

Do'stingni manfaatlarining to'qnash kelganda sina.

Ko'zguning orqasi qora ekanligini unutma.

Yomg'ir qorga aylangani kabi, vijdonsiz kimsa o'z olgan qarzidan tonadi.

Jon berayotganga – joy ber.

Yomon shogird yo'q, yomon ustoz bor.

Nazar: hamma hammaga do'st, hamma hammaga yov.

Cho'qqi qulasa, yakka o'zi qulamaydi.

Lozim paytida adolat kuch bilan amalga oshirilishini tabiiy qabul qilmoq kerak. Aql oti bilangina uloq chopib bo'lmaydi.

Ko'zlarning bilan ko'rib turganing chala haqiqat.

Harakat – fikr maydoni.

Sukut – suratimda.

Vaqt – insonning ezgulik yo'lida qilgan yumush-ishlari bilan belgilanmog'i lozim.

* * *

Chaqaning qadrini bilmagan kishi hech qachon davlatmand bo'lolmaydi.
Imoratning poydevori bir g'ishtdan boshlanadi.

* * *

Podachiga molni qanday boqishni o'rgatma.

* * *

Xazonni yashil yaproq kabi sevolmaysan.

* * *

Sayohat – sayoq yurish emas, hikmat izlamodir.

* * *

Koinot – bir yong'oq donasi ichida.

* * *

Dono odamning ko'zi emas, yuragi yig'laydi.

* * *

Zaminda paydo bo'lgan o't-alanga ko'kka, ko'kda paydo bo'lgan chaqmoq-
alanga pastga intiladi.

* * *

Kambag'alni emas, kambag'allikni ko'rgani ko'zim yo'q.

* * *

Pand-nasihatda ham me'yor bo'lgani yaxshi. Ortiqchasi kishi g'ashini
keltiradi.

* * *

Tuhmat – sichqon tishi. Umrni kemiradi.

* * *

Aka-uka, qarindoshlaringni o'zingdan uzoqroq tut, yaqinroq bo'lishlari
uchun.

* * *

Sog'liq – bevafo xotin.

* * *

To'qni to'ydirib bo'lmaydi.

* * *

Yoshlik yo'llari aprel osmoni chaqmoqlaridek tarvaqaylab ketgan, keksalik yo'li esa yolg'izoyoq.

* * *

Vaqt – alp islohotchi.

* * *

Buyuk shaxmatchilar shaxmat doskasi ustida tap tortmay buyuk qurbonliklar qiladilar. Nega? Ular hech kim fahmlamagan, tafakkuri sezimlari yetmagan buyuk g'alabani aniq-tiniq ko'rib turadi. Kerakli joyda va o'z paytida qilingan qurbonlik – g'alaba!

* * *

Ko'zni quvontirar qoyada shunqor
Va lekin bilmaysan, ne hol, dardi bor.

* * *

Kambag'alning donoligidan kuladilar, chunki dono kishi kambag'al bo'lishi mumkin emas, deb o'ylaguvchilar ko'p.

* * *

Otam mulla Olim aytar edi: – Aqlli bo'l, ammo hammaga aqllilik qilaverma, bu boshingga balo keltirishi mumkin.

* * *

Joyida adolatsizlik adolatni yuzaga chiqarishi mumkin.

* * *

Bir daraxt mevasi bilan aziz bo'lsa, ikkinchisi guli bilan, yana biri soyasi bilan aziz.

* * *

Donishmandning hukmdor va ayol bilan et-u tirnoq bo'lib ketishi dargumon.

* * *

Qir-tepalik tog' cho'qqisi bo'lmoqni orzulab, jarlikka aylanib umri ado bo'libdi.

* * *

Qo'ling qiladigan ishni so'z bilan qilma.

* * *

Dunyoda yovuzlik yashirilib hukmini o'tkazadi, ezgulik esa oshkora.

Peshonam sho'r, omadim yo'q, deb o'tirma. Tog' yoningga kelmaydi, unga o'zing bor.

Yaxshilik qil, ammo shaytonga qildim deb bil.

Bulut yomg'irga aylandi, yomg'ir jalaga aylandi, jala selga aylandi, sel yovuz kuchga aylandi, yo'lidagi hamma narsani supirib-sidirib oqizib ketdi. Bulutni unutib, selni gunohkor qildik.

Kuchlilarni ojizlar baholaydi.

Hayot va o'lim – qo'shmag'iz.

Aqlsizlik donolikka o'xshab ketadi.

G'ayrimantiqiy aytilmar ham bor: o'lganimdan o'lganim afzal.

Oldinga o'tmoq uchun orqada yurmoq kerak.

Umrimda zag'izg'onday surbet qushni ko'rmadim: hovlingga tap toptmay kiradi, changakka osib qo'ygan go'shtni olib qochadi, tovuqlar tuxumini poylagani poylagan. U yomon qo'shniga o'xshaydi.

O'rgangan yo'l – qochishga yaxshi.

Niyat – amaldan avval.

G'iybat – sahro quyuni, boshlandimi, osmonga ustun bo'laman, deydi. Yaxshiyam, uni tarqatib yuborguvchi Shamol do'stim bor.

Oting borida otli bo'l.

Bahoni bozor belgilaydi, odamni axloq.

Eng adl daraxtlar ham shamol yo'llariga, yo'nalishlariga moslashib sollanadi.

Do'stlik qalb qurbonliklarini talab qiladi.

Sohibjamol tustovuq (xontovuq)ni ovchilar go'zalligi uchun emas, go'shti uchun ovlaydilar.

O'g'lim! Do'stingdan qarz olma, do'stsiz qolishing mumkin! Va... qarz berib ham do'stsiz qolishing mumkin!

Daryo tubiga qum va toshlar cho'ka-cho'ka, oqim shashli-quvvatini pasaytiradi. Sen ham aslida bir daryosan. Qalbingdagi qum va toshlarni tozalab tur.

Donishmandlar keng vodiy tekisliklarida sokin yoyilib oqayotgan daryoga o'xshaydi. Istagan joyingga undan arna-ariqlar chiqarib, bog'-rog'lar bunyod qilishing, unumli foydalanib, umringni, hayotingni bezashing mumkin.

Qor uchqunlari faqat olti qirrali bo'ladi. Bu cheksiz oq gullarning ustasi kim?

Suvning shakli yo'q, u qaysi idishga quyilsa, o'sha idish shaklini oladi. Odam tanasi yetmish foiz suvdan iborat. Sen qaysi idishdasan-u, qaysi shakldasan?

Yerning tortish kuchi suvni eng quyi nuqtaga joylashtirgan. Inson aqlining qudrati shundaki, quyi nuqtadagi suvni eng yuksak tog' dovonlariga ham olib chiqadi.

Hammadan yashirgan sirimni Vaqt ochib qo'ydi.

* * *

Zarurat bo'lmaganda men Vaqt degan do'stimdan voz kechardimim?!

* * *

Men hamma narsani tez unutaman va ayni paytda hech narsani unutmayman.

* * *

Men dengiz qirg'og'ida yotgan oddiy qumman, ko'p tepkilayverma, qudratimni bilmoq istasang, mendan bir hovuch ol, hovuchingni yop, siq, barmoqlaringni yorib ummonga intilaman...

* * *

Oyda me'yor bor, bulutlarda me'yor yo'q.

* * *

Mevali daraxtlarning ko'p gul tukkanligiga ishonib bo'lmasligi kabi pala-partish, ko'p va'da bergan kimsaga ham ishonib bo'lmaydi.

* * *

Mening beozor fe'limga ishonma. Suv ham juda yumshoq, mayin, ammo uning selga aylanmog'i ham bor.

* * *

Yalang'och tog'lar xalq tilida "yetimtog'" deb ataladi. Yetimtog'larda na buloqning, na daraxtning, na giyohning tayini bor. Na yoqimli fe'li, na shirin so'zi, na go'zal qiyofasi bo'lgan ba'zi kimsalar kabi.

* * *

Bugungi quyosh kechagi quyosh emas.

* * *

Do'st – Siz kashf etgan buloq. Suvidan tashnaligingizni qondirasiz va qurib qolishiga ham yo'l qo'ymaysiz. Bu – Umid.

* * *

O'rmonning yomon daraxti yo'q, ammo uning kushandasi ko'p. Shuningdek, Allohning yomon kuni yo'q, biroq uni yomonga aylantiruvchilar ko'p.

* * *

Olomon – avom. Uni aqlli-donishmand SHAXSLar boshqarishga haqli! Bog' bog'bon chaqiradi, unga ham bog'bon kerak!

* * *

Ko'z yoshidan gullar unganda, olamni gul bosib ketardi.

* * *

Dardning ham qulog'i bor, uni ko'p yo'qlayverma.

* * *

Qashqir bilan bir yaloqni yaladi. Zo'r kelgani shu.

* * *

Daryoning tubi tinch bo'lsa, yuzidagi qat-qat ajinlar qayoqdan?

* * *

Aql – kunduz quyoshimiz, tunda oyimiz va... yana quyoshimiz hamdir.

* * *

Parvozi baland qushlar cho'qqilarda ustuvor, parvozi baland qalblar oftob
ila barobar.

* * *

Boyliging oshdi – xotirjamliging adashdi.

* * *

Oddiy bozorda hech kimga keraksizdek tuyulgan arzimas narsa-ashyo
ham kimgadir zarur bo'lishi mumkin. Tanangizdagi bir mo'yning ham o'z o'rn-
vazifasi bor desam, ishoning.

* * *

Tabiiy taraqqiyot juftlikda.

* * *

Bir qum zarrachasining ham soyasi bor. Rostning yolg'oni.

* * *

Birovga taqlid qilish ibрати bor, taqlid qilmaslik ibрати-chi?

* * *

Murosa – yomon falsafa. Ammo Odamiyat usiz hayot kechirishi mumkin
emas.

* * *

Ko'kda bir yulduz uchib-ko'chib kukunga aylanib ketsa, qo'rq. Hayot
kemtikligi bir zarradan bo'lsa ajab emas.

Dushmaning bo'lgani yaxshi, bo'lmasa do'stlaring dushmanga aylanadi.

Mansab narvonidan yuqoriga ko'tarilayotgan kimsa hayqirdi: "Mana, haqiqat, adolat bor ekan-ku".

Mansab narvonidan tushayotgan kimsa hayqirdi: "Haqiqat, adolat yo'q-q-q!.."

Insonlar jamoa-jamoaga birlashib hayot kechirishlari ehtiyoji hamma zamonlarda birdek. Ammo ular manfur to'dalarga aylanib qolmasligi muhim. Qashqir galasi har qanday baquvvat otni ham mahv eta olishini bilaman.

Raqiblarim mening qayroqtoshligimni bilmaydilar-u, yuzimga palag'da tuxumni otgan otgan.

Daryoning asl manbai – buloqlari bo'lmasa, u qurib qolishga mahkum. Cho'ntagingdagi qappaygan hamyoningning ham qismati Shunday.

Kichkina pona kattakon g'o'lanı qoq yorib tashlashi aniq, ammo ponaga ham bolta zarbi kerak.

Bir haqiqatni angladim: ko'zi ko'rdan qalbi ko'r ko'p ekan.

Donishmandlar yo'l ko'rsatadi, ammo nodonlar u yo'lda ishini hal qiladi.

Akillagan itdan qo'rqma, jim yotgan itdan qo'rq.

Aytganning og'zi yomon, yig'laganning ko'zi.

Pul – shayton. Ammo bu shaytonsiz yashab ko'r...

Ochlik Ozod qushni qafasga kiritadi.

* * *

Boylık – donga to'lib pishgan bug'doy boshog'i. Unutma, boshog'dagi donlar bir donadan o'sib-ungan.

* * *

Karni kar dema, ko'rni ko'r. Xalqning har aytimida ming ma'no mujassam: kar eshitganini, ko'r tutganini qo'ymas ekan.

* * *

Yaqin yantoq tikoni bilan gapiradi.

* * *

Avliyo hassasi bilan buloq ochib, suv yetaklab, bog' ko'kartirgan ekan.

* * *

Do'st Xudoning ismida yashiringan.

* * *

Inson so'lagi ilon o'ldirar.

* * *

Ko'rging kelmaydigan "do'st"ga qarz ber.

* * *

Boshga chopavermang... Sharq tabobatchilari bosh og'risa davoni avval tovondan boshlaganlar.

* * *

Yaqin marraga yetish uchun uzoq yo'l bosib o'tish kerak.

* * *

Otning zoti-zotdorligini yo'ldan so'ra!

* * *

Bo'ri avlodidan bo'lmish it bugun suyak poylash bilan ovora.

* * *

Mardning yonida nomard bor, to'g'riining orqasida o'g'ri bor.

* * *

Donishmanddan so'radilar:

– Uzoq umr kechinb, yomon yashagan yaxshimi yoki qisqa umr kechinb, yaxshi yashagan yaxshimi?

Donishmand javob berdi:

– Sermazmun umr kechinb, yaxshi yashaganga ne yetsin!

Insoniyatni saodatmand etguvchi manzillarga yetaklovchi tafakkur oldida hamisha ta'zimdaman! Nechun bog'imdagi sarxil daraxtlarni parvarishsiz qoldirishim kerak? Ummonda azot bo'y ko'rsatgan, kemalarni xavf-xatardan ogoh etguvchi qoyani nechun qadrlamasligim kerak?

Xalq cho'ntagi xazina – boylik. Unga ko'z tikmagan, qo'l cho'zmagan NAFS topilarmikin?

Ey do'st! Muzga o'xshab qolibsan: issiq bo'lsa erيسان, ayoz bo'lsa qotasan.

Ey do'st! Masxara bo'lmay desang, ishni tantana qilib boshlama, samarali yakunlab, tantana qil! Gultojxo'roz jimgina, ko'zga tashlanmayin nish uradi-yu, so'ng baxmal-baxmal toj yoyib, ko'zlarni quvontiradi.

Har qanday tuproqdan ham pishiq-puxta, go'zal, bejirim ko'zalar yasalavermaydi. Ey do'st! Bu bolaning tuprog'i qaydan?

Shayton shamol ichida. U yaralmishning har nuqtasida hozir-u nozir.

Notanish farishtadan tanish shayton afzal.

Bir tulki yetti bo'rini yetaklaydi.

Ko'zi olazarak buqalamunni ayblamayman. Tevaragi to'la dushman axir.

Insoniyat yalpi halokatga uchrab, qirilib ketsa ham HAYOT davom etadi. Hayot – bu HAKAKAT. Harakat Hayotning doyasidir.

Qutirgan selda oqib ketayotgan odam aql-hushi bilan qirg'oqqa intiladi. Omon qolish mumkin. Ammo tanasida kuch-qudrati bo'lmasa-chi? Faqat aqlgagina suyanib yashab bo'lmaydi.

* * *

Marhumlar tiriklarning ko'zlarini ochadi.

* * *

Sir tutmoqni ko'zgudan o'rganmoq kerakka o'xshaydi. Unga o'zingni solsang ko'rsatadi, ammo sen haqingda hech kimga lom-lim demaydi.

* * *

Ey do'st! Unutma! Ko'klamda hamma daraxtlar yam-yashil yaproq yozadi, ammo kuzda har xil sarg'ayadi. Inson umri ham Shunday.

* * *

Quzg'un bo'rining og'aynisi, ammo u o'zining o'ljasini daraxt ustida yeydi.

* * *

Osmon qushining ovi yerda.

* * *

Yukingni zamon yelkasiga tashlama, O'zing ko'tar. Daraxtning hosili ham o'z yelkasida.

* * *

Xor-u xaslar hamisha po'rtana-to'lqinlarning o'rkachiga minib oladi.

* * *

Qorong'ilikda ham nur bor. Uni faqat qalb ko'zi bilan ko'rasan.

* * *

O'g'rilik ham bir kasallik, biroq uning tibbiy davosi bormikan?

* * *

Tog' daraxtlari nima uchun bardoshli, mustahkam? Chunki ular shu sharoitda yashashga ko'nikma hosil qilgan. Ko'nikma – bu mahkumlik. Lekin mahkumlikning ham hosili bor!

* * *

Yoshligimdan "bo'lmaydi" degan so'zni yomon ko'raman. Hayotda hamma narsa bo'ladi.

* * *

Suv bo'lmagan joyda daraxt bo'lmaydi, deyдилar. "Yo'q!" – degim keladi ularga, daraxt bo'lmagan joyda suv bo'lmaydi.

Qozi bo'lsang, eng avvalo, bolalaringga qozilik qil.

Barcha daraxt chiqarar yaproq,
Meva bermas barchasi biroq.

Tog'larning bag'rida noyob xazina,
Lekin hammasida xazina dema.

Chinni ko'rsataman deb, etagingni ochib qo'yma.

Do'stingni g'azabi chiqqanda sina.

Bo'ri odamga tik qaramay, yonlab qaraydi. Yonlab qaraydigan kimsani
ko'rsam, bo'ri esimga tushadi!

Eng xavfli odam — o'ch-intiqomini bolalaringdan oladigani.

Ishonish qiyin: bo'ri kambag'alning uyiga qo'y tashlab ketibdi. Lekin men
ishondim!

Poraxo'rlar qo'yga o'xshaydi. Qo'yni qo'lingdan yem berib o'rgatsang,
ergashib yuraveradi.

Fikr qil, jasorat otin min, amalga o't.

Bandargohda uzoq qolgan qayiq chiriydi.

Jiyda gulining quyuq hıdidan boshim aylanib ketdi. Me'yor qadrini
anglaganday bo'ldim.

* * *

Hech narsa sir emas, bitta Alloh sir!

* * *

Bir kambag'al aytgan ekan: 'Ishongan tovug'im qo'shnimning katagiga tug'adi.

* * *

Yoshligimni boy berib qo'yibman, endi uni izlayapman!

* * *

Bir minarga ot berma.

* * *

Omadli ovchiga cho'loq kiyik yo'liqar.

* * *

Quduqqa qochib tushdim, 'boshimdan qum yog'ildi.

* * *

Ikkinchi daraxtim hosil bermay turib, hosil berib turgan birinchi daraxtimni kesib qo'yibman. Voh!..

* * *

Komillikka erishish... Everest cho'qqisiga chiqish emas!

* * *

Jasorat bevaqt keladigan o'limni yengadi!

* * *

Qo'rquv yuragimning bir chekkasida yashaydi, jasorat tafakkurimda!

* * *

Hamma bilan hamfikir bo'lish... tushuniksiz falsafa!

* * *

Tabiat qurg'oqchiligidan emas, odamzod qalbi qurg'oqchiligidan qo'r-qaman.

* * *

Bir qoshiq asal tandan jonni chiqarishi mumkin, bir ho'plam suv jonni asrashga qodir.

Odam va Omad qo'shmag'iz. Qo'shmag'iz yaxlit va... yaxlit ham emas.

O'zing ekib-o'stirgan daraxtning mevasi shirin.

Oppoq qorning qurti ichida, u ham qurtlaydi.

Tabiat o'z-o'ziga bog'bon.

Qushlar – ham dehqon, ham bog'bon.

Tildan kelgani qo'ldan ham kelsa, hech bir kimsa gado bo'lmay, sulton bo'lar edi.

IKKINCHI DERAZA

* * *

Falsafa — o'zlik orqali dunyoni o'qish va uqishdir.

* * *

Falsafa — o'q ildizli hikmatona fikr daraxti.

* * *

Ko'p yillar bo'ydoq yurgan faylasuf uylandi. Uylangan kunining ertasiga do'stlariga dedi:

— O, falsafa manbai — Ayolda ekan!

* * *

Menga bir faylasuf do'stim dedi: Faylasuf do'stlarim ko'p edi, ammo mening faylasufga aylanganim tan olinganidan keyin, ular mendan yuz o'girdilar.

* * *

Tarbiya boshi — ibrat.

* * *

Mening dushmanim yo'q... o'zimdan boshqa.

* * *

Go'zallik aqldan ustun!

* * *

Kemalar uchun loyqa suv emas, sayoz suv xavfli.

* * *

Qo'rquvni bilmagan kimsa kuchli bo'lishga qodir emas.

* * *

Haqiqat har kishining o'zidadir.

* * *

Abadiyat yo'q narsa, u faqat tafakkurdagina mavjud.

* * *

Bu dunyoda biror narsada haqqim bormi mening?.. Harakat qilmoqlikdan boshqa...

* * *

Daraxt qobiq-po'stlog'ining ichida hayot bor. Shuning uchun qizilishton uni cho'qigani-cho'qigan.

* * *

Bir osmon qalldiroq bor-u, yomg'irdan darak yo'q.

* * *

Yo'l yo'qolmaydi, yo'l yo'qotiladi.

* * *

Tog'lardan yo'nalib, so'ng qurib qolgan soyni qarg'ama, hozir uning suvi dengizda.

* * *

O'zing, mashaqqatli mehnating evaziga ekib-tikib olgan hosiling tekin, sotib olganing qimmat.

* * *

Aql va tajriba qushning ikki qanoti. Qanotlar sog'lom, baquvvat bo'lsa va ular juftlikda birdek erkin parvoz qilsa, har qanday qush ham, timsolimizdagi inson ham dog'da qolmaydi.

* * *

Yoshlikda qilingan xatolar, keksalik xotiralarida azobga aylanishi mumkin.

* * *

Ko'p mansabdorlar kursiga paynagi bilan o'tqazilib qo'yilgan tuxumga o'xshaydi: rasmana, kekaygan, op-p-oq, lekin palag'da.

* * *

Ulkan mansab kursilariga chiqish yo'li tog' cho'qqilariga chiqish yo'lga monand. Ularda yagona va to'g'ri yo'ldan chiqish imkoniyatlari yo'q.

* * *

Inson yer yuzida katta ma'rakada yuribdi. Uning o'tirib-turishini ko'ring.

* * *

Vaqt bamisoli ko'rinmas soya, u umringni ado qiladi. Vaqtni do'stga aylantirib, o'ziga xizmat qildirguvchilar hikmat kishilaridir

Pul jozibasi – kaklik irodasini o'z rang-suratlari bilan sehrlovchi ko'bra ilonning jozibasi monanddir. Avranib qolish falokatı halokatga olib kelishi mumkin.

Inson tanasi tabiatdan uzilgan kuni xastaliklarni qabul qila boshlaydi.

Menga bir tabib dedi: – May kosasi ichida jilolanib turgan quyosh aldamchi quyoshdir. U sening og'zingga botishidan saqlan.

Inson eng yaqin odamini eng orqada ko'radi.

Do'stning eng yomoni do'st sirini ochguvchisidir.

Ilonni yo'qlama, yo'lingdan chiqadi.

Umumruhiyat inqirozi – jamiyat inqirozi.

Tabiat keksaymaydi, chunki u abadiy harakatda.

O'z uying – o'lan to'shaging olisdan ham yaqin ko'rınadi.

Daryo to'liqlinlari hamisha yangi.

Qanoat barcha sinoatlardan ham qimmat, ham arzon.

Daryo oqadi, yo'l yuradi, mo'l yuradi, pishadi – tozalanadi, poklanadi, odam ham daryoga o'xshaydi: yuradi, turadi, pishadi, poklanadi, halollanadi... faqat odamda e'tiqod maqomi tayanch nuqta bo'lmog'i kerak.

Gunohini bo'ynimga olib aytamanki, dangasalik, yalqovlik insonni baxtsiz qiluvchi kasallik bilan bir qatorda turadi.

* * *

Qilich qinida qolib ketsa, zanglaydi. Borib-borib chiriydi... qilich qinida qolib ketsin, zanglasin, chirib-chirib bitsin!

* * *

Odamzod boshiga tushgan azoblar, iztiroblar, uqubatlar-u kulfatlar baxt qulfining kalitini qo'lingizga tutqazsa, ajablanmang! Kalitni oling, qulfga soling, uni burashda ikkilanmang!

* * *

Er xo'rliqi – yer xo'rliqi.

* * *

Qo'l ko'zning dushmani.

* * *

Zahardan bol tayyorlash mumkin emasdir, ammo boldan zahar tayyorlash mumkin.

* * *

Keksalikni qanchalik bo'yab-bejamaylik, u baribir mushkulot davri. Uni donishmandlik, sobitlik bilan munosib kutib olmoq kuchli, irodali kishilarga xos.

* * *

Haq mavjud haqiqat yolg'iz – yolg'iz bo'y ko'rsatadi.

* * *

lymon bu – qalbdagi sinmas-bukilmas, buzilmas, aynimas e'tiqod!

* * *

Muhabbat bog'i – hayo gullari bilan go'zal, iforli, totli, ma'noli, yashovchan va ulug'vor!

* * *

Bu chiroyli qush... buncha xunuk sayraydi.

* * *

Baxt – sevgi. Sevgi sevgan-sevilgan bilan sevgili.

* * *

Bolani ovutish oson, aldash qiyin.

* * *

Osh-taoming yomon chiqsa, qozoning aybdormi?

* * *

Poklik, bu – halollikdir.

* * *

Bolalik maydoni, bu – oila xonadoni maydoni. Unda qanday to'p surilsa, keyin ham o'shanday davom etadi, faqat tajriba oshadi.

* * *

Oilada birgina bemor bo'lsa, hamma bemor.

* * *

Janoblar! Jo'jalarni nega faqat ona tovuqlar boqishi kerak? Ota bo'lmish xo'rozlar qayerda?

* * *

Oilani boshqarish – Davlatni boshqarishdan mushkul.

* * *

Gala-gala kaptarlar orasida pari-farishtalari bor emish, uyum-uyum ilonlar orasida donishmandlari bor emish...

* * *

Ko'rpang qadrini qish kelganda bilasan.

* * *

O'zim qanday bo'lsam, bolam shunday bo'ldi.

* * *

Tumanga qarab o'q otma, bolangga tegadi.

* * *

Ey do'st! Inson qush emas, qanoti yo'q. Ammo chin muhabbat unga qanot bo'lishi mumkin.

* * *

Muhabbat bodom bo'lib qiyg'os gulladi. Endi u meva tugishi kerak. Lekin qish hali etagini yig'ib olgan yo'q. Sevgi daraxtining gul yoygani emas, hosil bergani hisob.

* * *

Aql – mevali daraxt, ehtiros – uning guli.

* * *

Tan qariligi – ko'ngil qariligi emas.

* * *

Oqar suvning orti toza, muhabbatli odamning qalbi.

* * *

Qiz bola – qoyada unib chiqqan latif chechak. Unga hamma intiladi, uni hamma erkalagisi, hidlagisi, uzgisi keladi. Behayo shamollarni aytmayisizmi? Uning ko'ylagi etagini huda-behudaga tortqilagani-tortqilagan.

* * *

Har qanday o'tli muhabbat ham faqat nikoh bilan go'zal va yashovchandır.

* * *

Bola bilan boylıknıng kechi yo'q.

* * *

Bola belda, xotin yo'lda, do'st qayerda?

* * *

Yomg'ir jalaga, jala selga aylangani kabi o'tli muhabbat – o'tli nafratga aylanishi hech gap emas.

* * *

Tongda Quyoshga yuz ochgan Namozshomgul shomda etak yopishni ham biladi.

* * *

Ma'rifatli ayol naqadar go'zal. Dag'al, qo'pol, sharm-hayosiz, g'azab otiga mingan ayol naqadar xunuk.

* * *

Onam o'rmakda har xil jihozlar to'qirdi, men esa yozayapman, bolalarim ikkisini birdek olib borsa edi.

* * *

Zardoli niholini ekishdan oldin uning qanday danakdan chiqqanini bilish kerak: achchiq mag'izlimi, chuchuk mag'izlimi? Bilmasang, nihol daraxtga aylanib, meva berganidan so'ng pushmon qilasan. Ayniqsa, mag'izni xush ko'radiganlarga qiyin bo'ladi. Sho'rdanakni yaxshi ko'rganlarga undan ham. Agar bolani shu zardoli niholiga qiyoslasak... yana-da qiyin.

* * *

Har qanday daraxt ikki xil – patta va o'qtomirga ega bo'ladi. Yer yuzalab o'suvchi patta tomir bilan ko'p yashab bo'lmaydi. Bil'aks, o'q tomir qancha chuqur ketib, mustahkam joylashsa, daraxt shuncha gullab-yashnaydi, hosil beradi. Oila bir daraxtga mengzalsa, ayol uning o'q tomiridir!

* * *

Faqat o'zini haq deb bilgan ayol ertakka o'xshaydi.

* * *

Shunday chiroyli gullar borki, ularni islasang, zaharlanasan. Shunday chiroyli ayollar borki, ularga yaqinlashsang, umring xazon bo'ladi.

* * *

Ayolni faqat lazzatlanish manbai sifatida ko'rganlar naqadar baxtsizdir.

* * *

Go'zal ayol – kuydirgi.

* * *

Ayol – bamisoli buqalamun. Bir zumda turli-tuman holatga kirishi mumkin.

* * *

Yomg'ir yoqqanda turli xil gilyohlar gurkirab o'ssa, bu yerning toza ekanligidan. Odob-axloqli, sharm-hayoli ayol – er va oila sharafi.

* * *

Ayol – muhabbat yotog'ida chinakam go'zal.

* * *

Ayol daraxt soyasiga o'xshaydi: o'rmonda qadri kam, sahroda ardoqli.

* * *

Kungaboqarni Quyoshguli degim keladi. U vafodor, sadoqat malikasi bo'lib tuyuladi menga.

* * *

Ayol – hayotning bo'tana hovuzida o'sguvchi nilufargul!

* * *

Aziz ayollar! O'z uyi-xonadonida orom, huzur-halovat topmagan erkak ko'chaga intiladi.

* * *

Qirg'izning oq o'tovida qora aytim eshitganim bor: – Eng yaxshi ayol ham shayton qarmog'i.

* * *

Ayol makri – eri va xushtorini bir quduqdan suv ichdiradi.

* * *

Xonimlar! Bulbul chiroyi bilan emas, qalb ovozi – kuy-nag'malari bilan mashhur.

* * *

Bog'dagi daraxtlarning qishdan sog'-omon chiqqanligini bahor kelganda, xotinning qandayligini kambag'allikda bilish mumkin.

* * *

Chin vafodor ayollarni sharaflaylik, gulchambarlarga faqat ulargina loyiqdir.

* * *

Erkak va ayol juftlashmog'i zaruriyat. Bu yerda miyamizga tinimsiz singdiriladigan axloq qonunlari chekinishga majbur.

* * *

Bu kimsa uchun muhabbat shirin anor edi. Uning sharbatini shimib-shimib, po'chog'ini ko'chaga itqitib yubordi.

* * *

Muhabbat ko'klam kelib, kuzda ketadigan qaldirg'och emas. Tag'in qaytadigan, tag'in ketadigan...

* * *

Erkak erkak bilan, ayol ayol bilan nikoh qilinmog'i... bu dahshat... bu so'nggi zalolat... bu so'nggi razolat... Bu yorug' dunyoga yangi payg'ambar kerak bo'lib qoldi, shekilli.

* * *

Alp otadan, zot onadan.

* * *

Bolalari og'ziga don va suv berayotgan ota-ona qushlarni ko'p ko'rdim. Ammo ota-ona qushlar og'ziga don yoki suv tutayotgan bola qushlarni hali ko'rganim yo'q.

* * *

Ona qornidagi egizak bir-biriga dushman!

* * *

Ko'klamni birovning bo'sag'asidan qidirma.

* * *

Katta uyqu – kichik o'lim.

* * *

Ayol qalbi goh oyna, goh oltin, goh temir, ularni o't – otashda qizdirmay, eritmay o'zing istagan biror shaklga keltirishning mahol.

* * *

Ayol yuragi, aytish joiz bo'lsa, ham moddiy, ham ruhiy qulf, uni buzib emas, o'z kaliti bilan ochmoq kerak!

* * *

Ayol g'azab otashiga kelganda mast tuyaga o'xshaydi: ko'ringan narsani toptab-yanchib tashlayman, deydi.

* * *

Dunyodagi barcha erli ayollar erlaridan yetarlicha norozi. Lekin ular o'ta nazokatlilik va ustamonlik iddaolari ila o'z noroziliklarini oshkor etmaydilar.

* * *

O-o... bu ayolning sochlari bir qalinki, ular orasiga tariqcha aql ham suqilib kirolmaydi.

* * *

Gullar bor – chiroyli-yu ifori yo'q, gullar bor – ifori mo'l-u, chiroyi yo'q. Ular ayol ahlini eslatadi.

* * *

Ko'p mushukni ko'rdim – aqlli, ko'p itni ko'rdim – vafodor, ko'p ayolni ko'rdim – na aqlli, na vafodor.

* * *

Ersiz xotin – egasiz dala, deydilar. Shundaymikin?

* * *

Jimgina kulala bo'lib yotgan ilondan, jimgina seni kuzatib yotgan itdan, jimgina sen bilan yashayotgan ayoldan ehtiyot bo'lganing ma'qul.

* * *

Otday kuchli, itday chidamli – chayir, toshbaqaday sipo... shayton xotin.

* * *

Odamzodning to'g'risidan egisi ko'pdek tuyuladi menga. Bamisoli o'rmon deysiz... egri-bugri o'sguvchi daraxtlari mo'l – ko'ldak.

* * *

Suv suvsizlikdan o'ldi.

* * *

It hurgan hovlidan qo'rqma.

* * *

Yomg'irdan shalabbo – choponing og'ir,
Lekin uni yechib otmayсан axir.

* * *

Daraxt daraxtga suyavdir.

* * *

Dunyo lo'lilar arobasida.

* * *

G'ariblik ko'ksini aylasa ham chok,
Lo'li ko'zlarini ko'rmadim g'amnok.

* * *

Yozilgan shior:

Bizning jamiyatda o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmaydi!

Yozilmagan shior:

Bizning jamiyatda o'ta aqillilar ham, o'ta aqli qosirlar ham bo'lmaydi!

* * *

Tuzatib bo'lmaydigan xato – tuzalmas dard.

* * *

Fil qasoskor, qashqir tajovuzkor, xotin jafokor... O'zing nobakor
bo'lsang.

* * *

Oriflar uchun yo'l adog'i qabr-qabrison emas.

* * *

Demishlar:

Pul o'lsin, pulsiz kun o'lsin.

* * *

Demishlar:

Aqcha qo'ynimda, shayton bo'ynimda

* * *

Eshitdim: Tug'maganniki bir armon, tuqqanniki ming armon.

* * *

Eshitdim: Bola – ming bir balo

* * *

To'la-to'kis, baxtli-baxtiyor umr bo'lmaydi, baxtli daqiqalar, kunlar, oylar, yillar yor bo'lgan umr bo'ladi.

* * *

Mehr-oqibatni qishloq-ovullardan izlab ko'ring, agar ular shahar nuqsini olib ulgurmagan bo'lsa.

* * *

Bu olam taraqqiyoti asoslari bolalar o'yinlaridan boshlangan.

* * *

Og'zi shallaqlı xotin – palag'da tuxumning sassig'i.

UCHINCHI DERAZA

BIR QO'TON QO'Y

Ulkan, tik jarning shundoq yoqasida dashtning butalab ketgan bo'ydor yantog'i gullab-yashnab o'sib turganligi suruv sardori Serkaning nazaridan chetda qolmadi. U salobat bilan sehrli, jozibali qo'ng'irog'ini jarang-jurunglatib, shoshgancha yantoqqa tashlandi. O-o-o... tashlandi-yu, jarga quladi. Qo'ng'iroq jarangi olamni tutdi. Jarang-jurung... Jarang-jurung... qanday ilohiy sado, qanday jozib... Suruv Serka ortidan bir-birini quvib-surib, itarib jarga otildi. Barchasi birdek halokatga uchradi.

Olomon... olomon... sening shu suruvdan – bir qo'ton qo'ydan nima farqing bor?! Insoniyat, olomonga aylanishingdan qo'rqaman.

MOMOJON MATALCHI

Ayolim Oygulxon Amudaryoning shundoq bo'yida joylashgan Sho'roxon qishlog'ida tug'ilib o'sgan. Bir yili Sho'roxonga bordik. Amudaryo bo'yiga chiqdik. Amudaryo ko'lmak-ko'lmaklarga aylanib yotar edi. "Voh-h!.. – deb yubordi Oygulxon, – Amudaryo qani? Pishqirib oqqan Amudaryo?.. Paraxodlar guvillab qatnagan Amudaryo?.."

Oygulxon o'ta ko'ngilchan, yig'lab yubordi. Men tushundim. Ko'zlarimni chetga burdim... U birozdan keyin o'zini qo'lga olib, so'zlay ketdi:

– Onamning onasini, ya'ni buvimni Momojon matalchi, derdilar. Men qo'llariga tanqa(qumg'on)da suv quyardim. Sharillatib quyar ekanman-da... nuqul dakki eshitardim: "Namuncha sharillatib quyasan, suvni isrof qilasan, oz-ozdan quy-da..."

Men ham bidillardim: "Ena, buncha urishaverasiz, suv ham tugaydimi, anna, Amudaryo oshib-toshib yotibdi-ku... qishlog'imizni bosay-bosay deb turibdi".

Enam: "Ha, suv tugaydi, ilon ham tuproqni me'yorida yalaydi, tuproq suvga qaraganda ko'p-ku..." derdi.

Oh, Enajonim, matalchi emas ekan, hikmatchi ekan, donishmand ekan!

QISHLOQDOSHLARIM

O', qishloqdoshlarim! O', qoyalari qaldiroqday qarsillab yotgan tog'lar ulusi – elim! Qiziq fe'llaring bor: qayerda buloq bo'lsa, o'sha buloq qoshiga qator-qator imoratlar solasan, dang'illama uylar, tag-tugli mo'lxonalar qurasan, dov-daraxtlar ekasan, bog'-u rog'lar yaratasan, mangu yashaydigandek. Buloqning qurib qolishini xayolingga ham keltirmaysan...

O', qishloqdoshlarim! O', qoyalari qaldiroqday qarsillab yotgan tog'lar ulusi – elim! Bu ishingdan bir ma'ni-ma'no tuydi yuragim. Aytaymi? Aytaman, lekin senga emas... Insoniyatga aytaman!

Insoniyat, atom xavfi, vahimasi bilan nafas olayotgan Insoniyat! Aqli ulug' Insoniyat! Parokanda bo'lib yashashga, tuturiqsiz, omonat hayot kechirishga haqqing yo'q sening. Anglayapsanmi, haqqing yo'q! O'zingga ishon! Hayotga ishon! Buloqlar boshiga dang'illama uylar qur, mol-hollaringga mo'l-keng og'ilxonalar sol, dov-daraxtlar ek – bog'-u rog'lar yarat! Mening katta qishloqdoshlarim – Insoniyat!

EY, SEL!

Ey, Sel! Buncha hovliqasan, bunchalar quturib shoshib-toshasan? Qorli tog'lardan, mangu buloqlardan paydo bo'lgan Soy qirg'oqlarini buzib borasan, nav-nihollarni, dov-daraxtlarni qo'porasan, toshlarni dumalatasan! Yo'llaringda duch kelgan narsani yalmog'izday yamlamay yutaman, deysan. O'yasan, o'pirasan, soy baliqlarini-ku allaqachon etaklarga eltib tashlading. Elning qancha qo'y-qo'zisini, ot-ulovini xasday oqizib ketding. O'h, vahshiy, necha-necha beshiklarni oqizib ketding. Beshiklar bo'sh emasdi...

Ey, Sel! Sen qanchalik quturib oqmagil, qanchalik shovqin-g'alayon solib, hayqirib dovul qoqmagil, baribir sening yo'ling qisqa, umring qisqa. Ha, xuddi Shunday. Chunki sening zamining yo'q, chunki sening manbaing yo'q. Chunki sen o'tkinchi qora bulutlardan paydo bo'lgansan faqat.

Qadimiy Soylarda esa... tag'in mangu buloqlarning zilol suvlari mavj urib oqadi, chunki ularning manguilik zamini – manbai buyuk, poydor tog'lar bor!

SUV ZARRALARI...

Suv zarralari... tomchilar... Dara ichida dimiqib ketishdi. Ular asta-asta, ohista-ohista bir yerda to'plana boshlashdi... Nihoyat... Olg'a! Qoyani yorib, yorug' olamga otilib chiqishdi. Assalom, Ozodlik!

Suv zarralari... tomchilar... irmoq bo'lib birlashishdi. Irmog... irmog... daryoga aylanishdi. Daryo yo'l yurdi, mo'l yurdi. Bu olamda hamma narsaning chek-chegarasi bor. Daryo ham charchadi. Asta-asta, ohista-ohista avval irmoqlarga, keyin tomchilarga, zarralarga aylana boshladi. So'nggi zarrami, tomchimi... bosib o'tgan yo'llariga so'nggi bora qaradi: to ota makon, ona makon Qoyagacha buyuk o'rmon, bog'lar yam-yashil bo'lib, gullab-yashnab yotar edi. Shivirladi: – Yashasin, Ozodlik!

BO'RIBOSAR IT

Bo'ribosar it zanjirda edi. U zanjirni uzgudek har tarafga yulqinar, vajohat bilan har qanday kimsani qopmoqchidek, istagan mol-holni g'ajib tashlagudek bo'lardi. Uni qo'yib yubordilar. U ityaloq turgan joyga yugurdi...

Bo'ribosarning bu holatini ko'rib, ko'p mansabdorlarni esladim.

HINDISTONDA

Hindistonni kezib yurardim. Hindiston to'tilarini ko'rmoq uchun bir o'rmonga bordim. Chindan, bu yerda to'tilar ko'p ekan. Ular Shunday rang-barang, chiroyli – ko'zlar qamashadi. Aql shoshadi, ovozlarning o'zi alomat, ulkan bir kuy-qo'shiq. Bunday shafqatsiz go'zallik oldida bir to'nkaga o'tirib qoldim.

ITLAR

Itlar odamlarning hovli, qo'rg'onlariga begonalarni yaqinlashtirmaydi, boy-davlatmandlarning boyligu xazinalarini qo'riqlaydi, cho'ponlarning suruv-suruv, qo'ton-qo'ton qo'ylarini himoya qiladi, lekin evaziga suyak bilan siylanadi! Ularning eguligi shu axir!

QADIM-QADIMDA

Qadim-qadimda bir qavm bo'lgan ekan. Bu qavm ahli bir-birlari bilan yovlikda yashar ekanlar. Qo'shni bir qavmni hech qanday qavm yenga olmas ekan. Kunlardan bir kuni dushmanlar birlashib, o'sha qavmning yengilmaslik sirini bilib olmoqchi bo'lishibdi. Va qavm ichiga ayg'oqchi yuborishibdi.

Ayg'oqchi borib, qaytib kelib, bu qavmni yengib bo'lmaydi, – debdi va sirni oshkor qilibdi: Sir juda oddiy ekan. Butun bir qavm bir tandirda non pishirishib, bir dasturxonda yeyishar ekan.

DALA-BOG'IMDA

Dala-bog'im o'rtasida cho'nqayib, nimagadir qilt etmay tikilib o'tirgan bir mushukni ko'rib qoldim. Uncha e'tibor bermadim. O'z ishlarim bilan mashg'ul bo'ldim. Chamasi, uch soatlar o'tdi. Nogahon ko'zlarim yana o'sha o'tirgan mushukka tushdi. Shu payt u bir sakradi... va ko'rdimki, bir dala sichqonini tutib oldi. Oh, dedim o'zimga o'zim, mushukning sabr-toqatiga qoyil qolib, qorin qayg'usi nimalarga qodir emas.

OLMAXON

Olmaxon qish g'amini yeb, yong'oq yig'ib, quritib o'tirgan edi, qora qarg'a tumshug'ida bir yong'og'i bilan uning ustidan uchib o'tib qoldi. Qarg'aga ko'zi tushgan Olmaxon: "Hoy, kel, yong'oq o'ynaymiz, sening yong'og'ing bitta ekan, mana, qara, meniki ko'p, yutib olishing mumkin", dedi. Qarg'aning o'yi buzildi. "Xo'p, qag'g'..." deb og'iz ochgan edi, yong'og'i Olmaxon oldiga to'p etib tushdi. "Ketaver, – dedi Olmaxon qarg'aga, – men birinchi bo'lib yutib oldim, yana yong'oq topgan-tutganda kelarsan..."

HAQQUSH

Nihoyat, 65 yoshim arafasida Nurota tog'larining Qoratov tizmalari daralaridagi quyuq yovvoyi bog'larda men Haqqushni ko'rdim. Nihoyat, deganimning sababi el ichida bu qushni haqgo'y deb atashadi va hech kimga ko'rinmaydi, uni ko'rib bo'lmaydi, degan aqida yuradi. Haqqushlar bir juft edi, uchib borayotib sayrar edi, shundan ularning haqqush ekanligini bildim. G'oyat xushhol bo'ldim. Sheriklarimga haqiqat qushini ko'rish mumkin, deya hazillashdim.

O'ZIGA O'ZI

Men tug'ilib o'sgan qishloqda Sayd degan o'ta o'jar, o'zbilarmon, faqat o'zimning bilganim to'g'ri, deguvchi bir kishi bo'lardi. U bod kasaliga yo'lliqdi va o'zini o'zi davolamoqchi bo'ldi. Tik tandirga bozillagan o'rik daraxtidan mo'lgina cho'g' qilib yoydi. Ustiga soy bo'yida o'sib yotadigan yovvoyi pıdana-yalpiz poyalarini yig'ib kelib to'shadi... loy tayyorlab qo'ydi... Ayolini chaqirdi, tandirga kirdi, zavjasining "hay-hay"lga qaramay, tandir og'zini bo'g'zigacha suvatdi, yarim soatdan keyin xabar olishini tayinladi. Ayoli qo'rqa-pisa yigirma daqiqa o'tar-o'tmas qaytib keldi... Er bo'lmish o'lib yotardi. Odam o'z billimsizligi, fahm-farosatsizligi, o'zbilarmonligi bilan o'ziga o'zi go'rkov, deganlari shu bo'ladi.

EGA

Uzoq yillar bir tashlandiq, hech kimsa e'tibor qilmagan bir parcha joyni tozalab, gullar, nav-nihollar ekib, bog'cha qilib qo'ymoqchi bo'ldim. Ish boshlaganimning ikkinchi kuni "ega"si yetib keldi...

KO'RMAY TURIB

Bolaligimda Mixliboy cho'loq degan qo'shnitob kishi bo'lardi. U yaxshigina toshimoratlar qurardi. Poydevorni odam bo'yicha ko'tarib olgandan keyin uning ustiga chiqib olar va o'g'illariga yuqoriga tosh otishni buyurardi. Gap shundaki, otilgan toshlar ko'zlagan joyiga mos kelmay qolsa, u pastga qaytarilib, zarb bilan otilardi. Baqiriq eshittelardi: "Hoy, Muzaffar, toshni moslab ot, joyiga tushsin!" "Men devor ustini ko'rmasam, u yerga qanaqa tosh mos kelishini qayoqdan bilaman", – derdi Muzaffar. "Ko'rmay turib bil-da", tag'in baqirardi ota... O'g'il borib-borib, "ko'rmay turib bil..." ishni o'rganib ketdi.

OYDIN BULOQ

Osmonni qop-qora bulut bosdi. Bulut shiddatli yomg'ir-do'l yog'di. Yomg'ir ko'z ochib yumdirmas jalaga aylandi. Jala to's-to'fonli sel bo'lib, yo'lidagi neki bor oqizib, hamma tomonni o'pinb-so'pinb, etaklarga pishqirib yo'naldi. Yo'lida bir oydin buloq bor edi. O, juda go'zal edi u. Bilqillab-qilqillab qaynab yotardi. Odamlar-u parranda-yu darrandalar undan bahramand edi. Sel buloqni ko'mib tashladi. Ochilmas alpozda ko'mib tashladi. Biroq Oydin buloq tag'in ko'z ochdi. Ustidagi tosh-shag'allarni itqitib yubordi. U Yovuzlikka emas, Ezgulikka xizmat qiladi, axir!!!

DALA YO'LIDA

Otam mulla Olim aytgan edi:

Dala yo'lida bir kishi bilan hamroh bo'lib qoldim. Ketar ekanmiz, bir juft bug'doy boshog'i yo'l chetida yotganligini ikkimiz ham ko'rdik. Men beparvo o'tib ketdim, sherigim esa ularni egilib oldi-da, kaftlari orasida uqalab, donlarini cho'ntagiga solib qo'ydi. Yo'lida davom etdik. Ko'p o'tmay ko'nglim ozdi. Ammo hamrohim bardam-beparvo haligi bug'doy donlarini chaynab-ermaklab ketardi.

BULOQ BOSHIDA

Bolaligimda otam bilan tog'da cho'ponlik qilar edim. Bir kuni ikkov buloq boshida o'tirardik, beixtiyor suvga tupurib yuboribman. Suvga tupurma, bolam, dedi otam, harom bo'ladi. Oqib ketayotgan suv bir tupukdan harom bo'ladimi, dedim men. Ha, dedi otam, hamma haromlik bir tupukdan boshlanadi.

ZAG'IZG'ON

Umrimde zag'izg'onday surbet qushni ko'rmadim: hovlingga tap-toptmay kiradi, changakka osib qo'ygan go'shtni olib qochadi, tovuqlar tuxumini poylagani poylagan. U yomon qo'shniga o'xshaydi.

UMR

Bolalik – daryoning Bosh bulog'i.

Yoshlik – Bosh buloqlar qo'shiluvidan paydo bo'lib, daryoga aylangan shiddat.

Balog'at – keng, tekis vodiya tushib, salobat bilan chuqur va sokin oqayotgan daryo.

Keksalik – cho'l-u sahro qumliklariga taqalib, kichrayib, horg'in yo'l bosayotgan va oqibat yo bug'lanib, yo yerga singib ketayotgan o'sha daryoning so'nggi bir qatra suvi.

Hammasi o'z joyida va paytida go'zal, qadrli, ardoqli, orzuli, armonli, achinarli UMR!

JAVOB

Do'stim Qozoqboy Yo'ldoshdan bir kuni so'radim: Siz Sirdaryo bo'yida tug'ilib o'sgansiz, unda necha bor cho'milganingizni eslaysizmi?

Qozoqboy Yo'ldosh dedi: Bir daryoda bir marta cho'milish mumkin.

AYIQ

Ayiq daraxtni silkitayotganda o'z qudrati, kuchiga, dushmanini mahv etayotganda o'tkir tirnoqlariga, qopqonga tushib qolsa... odam zotiga ham ishonadi.

BURGUT

Burgut tog'ning eng baland cho'qqisida tin olib turibdi. Bir qarashda u mudroq, dunyodan bexabar. Ammo, ey do'st, unutm, o'sha Burgut bu Makonda: qaysi alqor qaysi buloqqa suv ichish uchun tushdi, qaysi suvsar qaysi butaning tagida timirskilanyapti, qaysi ilon qaysi fotmaqushni yo chittakni poylayapti, qaysi kaklik galasi qaysi dara-kamarda yoyilib yuribdi, tosh to'rg'ay qaysi toshqoyaning to'shiga uya qo'ygan, tog'kaptar qayoqqa uchib-borib kelayapti, qaysi ko'rsichqon qayerda in qaziyapti, ola tulki nega o'ynoqlayapti, arloni bo'rining tungi niyati nima... hamma-hammasini ko'rib-bilib o'tiribdi. Sen esa, ey do'st, Burgutni uxlayapti, deb o'ylaysan. Imperatorlar, podshohlar, prezidentlar, qirollar, donishmandlar o'sha Burgutga o'xshaydi!

ODAM BOLASI

Odam bolasi ko'proq ko'zi ko'rib turgan narsaga ishonadi. Ko'z ham aldanishi mumkinligini esa xayoliga keltirmaydi.

Yer yuzasidagi eng baland tog' – Everest. Everest evropaliklar atamasi. Mahalliy xalq – nepalliklar uni Jamolungma, hindlar esa Sagartmatxa deyishadi. Aslida, eng baland va katta tog'lar okeanlar tubida joylashgan. Suv usti va suv ostidagi qismi ham hisobga olinsa, eng baland tog' Gaday orollaridagi Mauna Kea tog'i bo'lib chiqadi.

IKKI SHAQAL

Ko'rdimki, ikki shaqal bir o'laksani talashib, o'lar-tirilariga qaramay, ostin-ustun bo'lib olishardi. Quloqlarini dikkaytirib poylab o'tirgan Tulki o'ljani "shap" oldi-yu, o'rmonga kirib ketdi. Qissadan hissani o'zing chiqar.

CHUMOLIGA

Chumoliga dedim: – Qorningning tayini yo'q, buncha chopganing chopgan, yugurgilab, kuchanib-o'rtanib don tashiganing-tashigan.

Chumoli dedi: – Tiriklik qorinning katta-kichikligi bilan o'lchanmaydi.

JUMAGUL MOMO

Qaynonam Jumagul momoning tez-tez qaytarib turadigan bir gapi bo'lardi: "Yiqilganni turg'azma, o'zi tursin".

OSHIQ BULOQ

Oshiq buloq bo'ldim, qoyani yorib chiqdim, oshiq daryoga aylandim, yo'limni bog'-rog'larga aylantirdim, ummonga qo'shildim, ohim ko'kka o'rlaydi.

IKKI O'G'IL

Bir boyning ikki o'g'li bor edi. Bir o'g'li otasi bergan meros boylikka nuqul qo'y-qo'zi olib, chorvasini boyitdi. Ikkinchi o'g'il turli-tuman ko'chatlar sotib olib, bog' yaratdi. Kunlardan bir kun yurtni yov bosdi. Ular birinchi o'g'ilning qo'y-qo'zisini birorta qoldirmay yeb bitirdi, tuyoq qolmadi. Yovlar ikkinchi o'g'il bog'ining mevalarini ham edi, sharbat qilib ichdi, ammo daraxtlar o'sha-o'sha qolaverdi. Yov yurtni tashlab ketib, ko'klam kelib bog' yana gullab-yashnadi...

OILA

Ajab sir-sinoatlar: tog' ichidan yemirilar ekan. O'zbeklar tashqi hovli bilan birga ichki hovlini ham bekorga qurishmagan. Ichkarida Oila asralgan.

BIR QOZI DO'STIM

Bir qozi do'stim bor edi. Qo'noqqa chorladi. Hovlining bir chetidagi supa-so'riga joy qilingan, shohona ko'rpachalar yozilgan, dasturxon to'kin. Mayi nob shirin suvday oqdi. Mezbonning kayfi oshdi. Hayqirdi: – Men erkin odamman! Uy derazasi shartta ochildi va xotini bo'ynini cho'zib: “Nima?..” dedi. Er ham shartta javob qaytardi. – Men erkin qulman, – deyapman.

QALDIRG'OCHLAR

Qaldirg'ochlar ikki xil uya qurishadi. Birinchisi, ko'pchilik ko'rib, ko'zi pishib ketgan yarim oy shaklidagi ochiq-sochiq uya. Unga ilonlar o'rmalab chiqishi mumkin, polaponlari yerga tushib ketishi hech gap emas. Ikkinchisi, hamma tomoni yopiq, faqat ota-ona qaldirg'ochlarning o'zlari kirib-chiqadigan og'izligina uya. Nazarimda, ikkinchi oshyon sohiblari hayot xavf-xatarlarini ancha-muncha boshlardan kechirgan, tajribali, ehtiyotkor qaldirg'ochlardir. Bu qaldirg'ochlar menga ota-onamni eslatib turishadi.

BOY YIGIT

Bir boy savdogar yigit kambag'al qizga oshiq bo'lib qoldi. Unga ko'nglini izhor etdi. Qiz rad javobini berdi. Yigit oshiqqligini isbotlash uchun qizning ko'z o'ngida bir qopchiq pulni yoqib yubordi.

– Endi ishondingmi? – dedi qizga yigit.

Qiz dedi:

– Bu ishing boyligingdan, albatta. Lekin shuncha pulni mehnat qilib topganingda, yoqmas eding. Demak, pulni mehnatsiz topgansan. Qolaversa, pulning qadriga yetmay, yoqib yuborgan odam mening qadrimga yetarmidi?!

Yigit tilini tishlab qoldi.

CHO'PON

Bir qo'ton qo'y bir jarang-jurungli qo'ng'iroqli taka – serka etagida: u qo'yib bersang toqqa yetaklaydi, qo'yib bersang cho'l-u sahroga olib kirib ketadi, qo'yib bersang jarga boshlab, kalla tashlatib, halokatga uchratadi... Demak, qo'yga cho'pon bo'lmog'i – zaruriyat. Demak, cho'pon qo'lida tayoq bo'lmog'i ham zaruriyat!.. Payg'ambarimiz bekorga cho'ponni qadrlamagan ekan-da?!

OLTI-YETTI YOSHIMDA

Olti-yetti yoshimda onam bilan bug'doy ang'izzorlarida mashoq terardik. Yiqqanlarimizni onam etagiga solib, shamol chorlab, qo'llarida shopirar, qizg'ish sara bug'doy donalariga qandaydir mehri iyib tikilardi, shivirlardi: "Barakangiz bir donada, bilmayman, qay donada..." Bugun onam yo'q. Mening ham umrim ilvirab turibdi. Bug'doyning ham, umrning ham barakasi onam qo'llarida ekan.

MOROL

Morol – kiyik ilon inining og'ziga tumshug'i-og'zini tiqib, qandaydir, xuddi magnit temirni tortgandek ilonni tortib oladi. Yeydi. Uning ko'zlarining o'tkirligi shundan. Sog' tanaga ham idrok va kuch kerak!

OTAM

Otam mulla Olim meni tushida bir necha bor ko'rganligini aytar edi: "Doim oq ot minib yurgansan..." Ajab...ajab... Men hayotimda ko'p oq mashinada yurdim!

NIHOL

Bog'ing qancha bo'lsa ham, qanday bo'lsa ham nihol ek, daraxtga aylantir, payti kelib yoqmasa kesib tashlash qiyin emas.Ular hech bo'lmasa o'chog'ingga o'tin bo'lib, qozoningni qaynatadi.

G'ILONDA

O'zbekistonning eng baland nuqtasi Hazrati Sulton cho'qqisi yo'lida G'ilon degan qishloq bor. Shu qishloq keksalaridan bir gap eshitdim: "Zar pinhon, zan pinhon", ya'ni zaring va zavjangni pinhon tut!

SIRTLOŢ IT

Bo'ri arloni bilan it qanjig'i qo'shluvidan sirtlon it dunyoga keladi. Sirtlon itim bor, deb unga qo'yларingni ko'p ishonaverma. U istagan paytda bo'rilarni suruvga boshlab kelishi mumkin.

QUMURSQALAR

Dala-dashtlarda qumursqa uyasini, hayotini kuzatganmısız? Qumursqalar betinim mehnat qiladi. Uyasiga don-dun tashiydi – ertangi kun g'amida. Ularning ahilligi hayratli, ibratlidir. Ularni ko'p bor kuzatib, ko'p bor odam zotidan hafsalam pir bo'lgani rost!

BIR SUDYA

Oh, dedi bir sudya, falonchi qo'limga bir tushsa edi. Demak, bu sudyaga qonunning ahamiyati yo'q.

QUYON

Quyон hamisha tahlikada yashaydi. Ammo ishqdan bahramand payt bu tahlikani unutadi. Oyoq-qo'llarini ko'kka ko'tarib rohatlanadi. Bo'riga esa shu lahza kerak...

BIR QARINDOSH

Tug'ilib o'sgan qishlog'imga borgandim, bir qarindoshim menga diydiyo qilib qoldi: "Kambag'alman. Tanam sog', aqlim joyida, bu kambag'allik menga qaydan yopishdi?"

Beixtiyor tilimdan chiqib ketdi: "Tanang sog', aqling joyida bo'lsa, nega kambag'allikni bo'yningga olasan?"

QASHQIRLAR

Qashqirlar qo'tonga oralganda qo'ylarning semiz-orig'ini ajratib o'tirmaydilar. Ularning fe'li menga ba'zi dunyo siyosatchilarini eslatib yuboradi.

ERKAKLAR

Erkaklar ayollarni makkorlikda ko'p ayblaydilar. Ularning fe'l-atvori "sirli sandiq" bo'lganligi uchun ham shunday qiladilar. Holbuki, makkorlikda ayollar erkaklar oldida ip esholmay qoladilar. Vafo-sadoqatda ham Shunday.

CHAVANDOZ

Ming chavandoz ko'pkari to'dasiga kirishi, ot surishi mumkin, ammo bir chavandoz undan uloqni olib chiqadi va marraga eltadi. Bu olamning qizig'i shunda.

CHIRKAY

Chirkay – pashsha mittigina, ammo quloq ostida ingichka tovush chiqarib, lahzada biror joyingizni chaqishi naqadar yoqimsiz. U xuddi g'alamis kasga o'xshaydi.

TO'RTINCHI DERAZA

ILM

Yigirmanchi asr boshlarida bobom Suyunboy Buxoroning Mir Arab madrasasida o'qirdi. U bir yozda qishlog'i Nakurtga ta'tilga keldi. Qarangki, Suyunboy kelgan kuni otasi Mirzaboy el-ulusning kazo-kazo peshvolarini chorlab, ziyofat berayotgan ekan. Mehmonxona to'rida Nurota muzofotidan kelgan Shayx qo'r to'kib, tasbeh o'g'irib so'zlamogda edi. Suyunboy: "Assalomu alaykum", – deb kirib keldi. Va birdan... Suyunboyning yuzi-ko'ziga ko'zi qadalgan Shayx o'rnidan turib ketdi! Mirzaboy Shayxga: "O'tiring, o'tiring, bu – mening o'g'lim", – dedi. Shunda Shayx:

– Mirzaboy, meni o'rnimdan sizning boyligingiz-u molu mulk, davlatingiz turg'azgani yo'q, o'g'lingizning yuzi-ko'ziga yozilgan ilmi turg'azib yubordi! – degan ekan.

NIHOL QADRI

Otam Olim, Olimning otasi Suyun, Suyunning otasi Mirzaboy, Mirzaboyning otasi Norboy. Norboyning eng katta o'g'li Nurmurodboy mingboshi. Ana shu Nurmurodboy o'z bog'ida bir qancha chorikorni ishlatayotgan edi. Chorikorlardan biri "voh" deb yubordi. Uning boshiga yetib kelgan Nurmurodboy haligi chorikordan, nima bo'lganini so'radi. Chorikor dedi:

– Qo'limni kesib oldim.

– Ha, – dedi Nurmurodboy, – hechqisi yo'q, tuzalib ketadi, men biror niholni kesib yubordingmi, deb o'ylabman.

DEHQONBOY BOBOM

Bobom Dehqonboy o't-olovli yoshlik yillarining ajoyib bir kunida, tog' bag'ridagi bo'ri uyasiga kirib bordi. Makon egalari ovga chiqib ketishgan, ammo ularning bolalari bir-birlarining pinjiga bosh suqishib yotishgan ekan. Dehqonboy bo'ri bolalarini ovulga olib keldi. U o'z tengdoshi bo'lgan otam Olimga maqtandi. Lekin Olim uning qilig'idan ranjib, o'z g'azabini bir so'zda ifodaladi:

– Ahmoqsan!

Tog'liklar uchun og'ir bo'lgan bunday so'zni o'z akasining o'g'lidan kutmagan Dehqonboyning ko'zlari chaqnab dedi:

– Ahmoqdirman, ammo qo'rqqoq emasman!

DO'STLIK

Men do'stlikni qanday tushunaman?

Qoratog'ning qoq belida Nakurt qishlog'i bilan Uxum qishlog'ini tutashtiruvchi yolg'izoyoq yo'l bor. Nakurt – Samarqand viloyatiga, Uxum – Jizzax viloyatiga qarashli. Nakurtda o'zbeklar, Uxumda tojiklar yashaydi.

Uxumliklar bozor-o'charini har bir oyda shu so'qmoq yo'l orqali ikki ming metr balandlik – tog' oshib – Nakurtdan o'tib, Saroy qishlog'ida joylashgan Jumabozordan qilishardi. Ular bozorga kelish uchun bir kun avval, ya'ni shanba kuni saharmardon turib, ot, eshak-ulovlarga minib, yo'lga tushardi. Ming mashaqqat bilan tog' oshar va Nakurtga kelib, mulla Suyunboyning ukasi bobom Dehqonboy nikiga qo'nardi. Dehqonboy qo'y yoki serka so'yib, ularning izzatini joyiga qo'yardi. Ertasi kun ular tag'in tongda turib, bozorga yo'l olardi. Kuni bilan bozor-o'charini qilib, peshindan so'ng ortga qaytardi. Tabiiyki, yana mashaqqatli yo'l. Dehqonboy nikiga yetganlarida kech bo'lib qolardi. Dovondan tezroq oshib o'tish uchun shoshilib ketayotganida, birdan ularning oldida Dehqonboy bel bo'lib turardi. "Qani, ulovdan tushinglar, choy tayyor, kuni bilan charchagansiz, biroz dam olib, keyin yo'lga tushasiz", deb holi-joniga qo'ymay uyiga boshlardi.

Kunlardan bir kuni – olmalar g'arq pishganda – yetti-sakkiz qop olmani eshaklarga yuklab otam, Dehqonboy bobom va men – to'qqiz yoshli bola – dovon oshib, Uxumga yo'l oldik. Uxumdan Qizilqumga – hozirgi Arnasoyning qadimgi joylarida yashaydigan qozoq cho'ponlar yoniga borayotgan edik. Maqsad – olmani qo'y-qo'zilarga ayirboshlab kelish edi.

Uxumdan o'tarkanmiz, qandaydir pastqam tosh kulbadan o'ktam ovoz yangradi: "Hoy, Dehqonboy, Olimboy! Qani, ulovlarni to'xtating, eshaklardan tushing, choy tayyor!"

U yoq-bu yoqqa qaramasimizdan, uch-to'rt odam paydo bo'ldi-yu, eshaklarni bog'lashga tushib ketdi. Bobom qozoq og'aynilar nikiga shoshayotganimizni aytgan edi, ular dov qarash qildi... Qo'y so'yildi, sho'rva tortildi, ko'k choy bostirildi.

Xullas, qorin to'q, qayg'u yo'q.

"Ana endi yo'llaring bexatar bo'lsin", dedi bir oqsoqol va bizga javob berdi.

Qozoq cho'ponlar o'tovida ham ko'p siylov ko'rib, olmamizni qo'y-qo'zilarga alishtirib, uchinchi kunmi, to'rtinchi kunmi, izimizga qaytdik. Uxumga kirib kelganimizda, yong'oqzor ostidagi supada o'tirgan o'sha kungi qadrdonlar – yanayam ko'plashib oldimizga bel bo'lib chiqdi. Yana mehmondorchilik, yana siylov...

Bolaligimda bunday voqealarga ko'p guvoh bo'lganman.

Bugun otam ham, bobom ham yo'q. Uxumlik oqsoqollar ham dunyodan o'tib ketgan. Ammo men o'sha tojik og'aynilarning bolalarini, nevaralarini topganman.

KEKSALAR VA YOSHLAR

Obod, farovon, gullab-yashnab turgan bir mamlakatda taxtga yangi o'tirgan podshoh o'zini do'sti-dushmanga bir ko'rsatib qo'yish, kerak bo'lsa, yoshlar ishonchini mutloq qozonish uchun ularga alohida, ya'ni, mamlakat o'rtasini qoq bo'lib oqib o'tuvchi daryoning chap qirg'og'idan qulay va go'zal joyni tanlab, qal'a qurishga farmon beribdi. Podshoh amri vojib. Qal'a tayyor. Barcha yoshlar eski qal'adan yangi qal'aga yoppasiga ko'chib o'tishibdi. Minnatdorchilikning cheki yo'q! Yashasin shoh!

Eski qal'ada faqat keksalar qolishibdi. Yoshlar qal'asi kundan-kun gurkirabdi. Eski obod qal'a esa kundan-kun xarobaga aylana boshlabdi, mahobatini yo'qota boribdi. To'ylar tinibdi, hofizlar tori yangramabdi, qah-qahlar eshitilmay qolibdi, ko'chalar bo'm-bo'sh, hatto tunlar shamlar, chiroqlar yoqilmay qolibdi. Mamlakatning donishmand bir shoiri bor ekan, xonanishiga aylanibdi, munglig'-munglig' ash'or bitarkan-u, ammo hech bir kimsaga o'qimas ekan.

Asrlar osha gullab-yashnab kelayotgan, ajdodlari, ota-bobolarining beqiyos merosi bo'lgan tayanch qal'a bunday tanazzulga yuz tutayotganligini kutmagan podshoh birdan hushyor tortibdi. A'yonlarini chorlabdi, bu tanazzulning boisini so'rabdi. Ammo hech kimdan tayinli javob ololmabdi. Nogahon podshohning shu mamlakat ovozasini qachonlardir olamga yoygan shoir esiga tushib qolibdi va so'rabdi.

– ... Shoiri zamon olamdan o'tganmi?

– Yo'q, – deyishibdi, – a'yonlar, – shoir tirik, lekin a'shor aytmagaydir...

– Shoir tirik bo'lsa, a'shor aytmasligi mumkin emas! Olib kelinglar!..

Shoir shohga ta'zim qilgan bo'ldi va biror so'rovni ham kutmay, "Yoshlarni keksalardan, keksalarni esa yoshlardan ayro tutmang, shohim!" – dedi.

**YOMONLIKKA – YOMONLIK,
YAXSHILIKKA – YAXSHILIK**

Surxondaryoning ochiq dasht-qirlarida, cho'l-u sahrolarida o'tov tikishadi. U hatto qish kunlari ham yig'ishtirib olinmaydi, faqat kigiz, olachalari bir chekkaga taxlab qo'yiladi.

Qay bir yili... qish ayozlari tugab, ko'klam kelib, cho'ponlar odatlaricha o'tovlarga ko'chib chiqishdi. Bir cho'pon o'z o'toviga yo'l-yo'lakay bir kadi sut ham ko'tarib keldi. Uni bir yonga qo'yib, o'tovning ichiga kirdi. Qarasa, bir kigiz o'rami cheti-ichida ilon bolalari bir-biriga chirmashib yotibdi. Ota-ona ilon yaqin atroflarda ko'rinmasdi. Cho'ponning bir shumligi **tutdi**. Ilon bolalarini bir chetroqqa yashirib, o'zi o'g'rincha qarab turdi. Qayerdandir ona ilon paydo bo'ldi, qaradi, bolalari yo'q, uyoqqa-buyoqqa bilonglab sudraldi, topmadi...

Sut to'la kadiga ko'zi tushdi. Unga cho'zilib, zaharini to'kdi – zaharladi. Zum o'tmay yana qaygadir yo'qoldi. Bundan foydalangan cho'pon ilon bolalarini tag'in o'z joyiga qo'ydi. Shu payt ikkita ilon paydo bo'ldi. Cho'pon taxminicha, ona ilon ota ilonni boshlab keldi. Bolalarini ko'rdi. Va birdan... Ona ilon kadi tarafga qarab intildi, unga yaqinlashib, ichidagi zaharlangan sutni to'kib yubormoqchi bo'ldi, lekin uddasidan chiqolmadi.

E, voh!.. U birdan o'zini o'ngga-chapga tashlab-ag'anab qumga bulana ketdi... So'ng kadiga cho'zilib tushib, sutni ifloslantirdi. Tokim bu sutni hech kim ichmasin, degandek... Keyin ko'ngli joyiga tushgandek, ota ilon bilan bolalarini qayergadir boshlab ketdi.

Yomonlikka-yomonlik, yaxshilikka-yaxshilik, deganlari shumikan!

CHO'PONNING DO'STLARI

Bobotog'ning Sorolqa darasida bir cho'ponga qo'noq bo'ldim. Uning ikkita bo'ribosar zotli iti bor edi. Ikkalasi ham ayiq kelbatli. Ikkisining ham quloq va dumlari kesilgan.

Cho'pondan ularning quloq va dumlari nima uchun kesib tashlanganligini so'radim.

Cho'pon menga mutafakkirona javob berdi.

– Bo'ribosar it cho'ponning eng sodiq do'sti. Sodiqlik doim hushyor va ziyrak bo'lishi lozim. Uzun quloqlar shalpayib, eshitish qobiliyatini susaytiradi. Hatto quloq teshiklarini berkitib qo'yadi. It faqat ko'zlariga ishonib qoladi. Ko'zlarning esa xiralashuvi ham bor. Bo'rilar ko'zlarni bemalol alday oladi... Itlarning aldanmasligi – qo'tonning omonligi. Dumga kelsak, uzun dum tez chopishga xalaqit beradi, itlar bo'rilarini quvganda o'z o'tmishdoshlaridan chaqqonroq, chapdastroq bo'lishi kerak. Qolaversa, bo'ri it dumini bir tishlab olsa, uni uzib tashlamasdan yoki sug'urib olmasdan qo'ymaydi. Bu – koni azob. Xullas, do'stlik qurbonliklar ham talab qilgan ekan.

RAZOLAT

Ehtimol, hamma narsaning chegarasi bordir. Ammo odamzod razilligining chek-chegarasi yo'q. Hisor tomonlarda Ko'ganli ota degan mozoristonga duch keldim. Shu yerlik ulug'lardan bu mozorning nima uchun "Ko'ganli ota" deb atalishini so'radim. Ular Shunday javob berishdi:

– Qadamingiz qayrilmasin! XX asrning eng dahshatli bir voqeasi bizning qishloqda yuz atalmish urug' boshida ro'y beradi. Yuzliklar Buxoro amiri Muzaffar zulmiga qarshi bosh ko'taradi. Bunga javoban amirning shaxsan o'zi lashkar tortadi. Qishloqning o'n ikki yoshlisidan eng keksa erkag-u ayoliga qaramay qo'lga olinadi va qo'ylar kabi ko'ganlanadi – arqonlarga tizim qilib bog'lanadi. Ularning barcha bolalarini esa bir yerga, ya'ni shu mozoriston o'rniga yig'ib, dustaman qilib yotqiziladi, ustlarga kigiz, olachalar bostiriladi! So'ng... "chavondoz"larga farmon beriladi: yuzlab otlar bolalar ustida o'ynaydi. Bu hol ota-onalar ko'z o'ngida. So'ng... ota-onalarni ham bir-bir qilichdan o'tkazishadi.

Tag'in bir holat: o'ndan oshiq ot bolalar ustiga bostirib bormaydi. Orqalariga tisralib, "chavondoz"larini ustlaridan uloqtirib tashlab, duch kelgan tomonlarga qochishadi...

Odamzod va hayvon... Mening ko'zlarimdan yoshlar tirqirab otildi.

HOSIL POSHSHO

Zap zamonlar o'tgan, zap zamonlarda zap odamlar o'tgan. Ulardan qiziq-qiziq voqealar, ibratli saboqlar, murod-maqсадli o'gitlar, yo'lingizdagi g'ovlarni bartaraf qiluvchi hikmatlar, ishlar qolgan.

Qoratog'ning Mojrим darasida qadimda bir qavm yashardi. Bu qavmga Hosil degan kishi poshsho edi. Qavm poshshosi. Mansab-martaba doim e'zozli. Uni saqlamoq-asramoq uchun, zotlarkim, hech narsadan tap tortmagan, har qanday himmatdan yoki yovuzlikdan qaytmagan.

Bir kun Hosil poshsho mashvarat o'tkazar edi. Butun qavm yig'ilgan. Hosil poshsho gapirar edi:

– Atrofda o'g'ri, qaroqchilar ko'paygan, ular istagan paytda kunmi-tunmi demay qavmning mol-mulkiga, qiz-juvonlar, bola-baqralariga xavf solishi mumkin. Egalik qilishi mumkin. Hamma erlar-eranlar doim hushyor bo'lmoqligi lozim. Luqmangning og'zingga kirgani hisob, tashdagi birovniki.

– Ota! – dedi suyukli kuyovi Rajabboy, – Nuqul vahima qilasiz, toshqo'rg'onimiz mustahkam bo'lsa, undan zog' ham uchib kirolmaydi, tovuqlarimizning tuxumiga ham daxl qilolmaydi.

– Shundaymi? – dedi Hosil poshsho va qilichini qinidan sug'urib oldi-yu... kuyovining kallasini shartta uzib tashladi!

Hosil poshsho – mas'ul poshsho.

Mashvarat davom etdi...

Men Hosil poshshoning avlodlari bilan tanishman.

CHIRANISH

O'jarlik, behuda chiranish odamni sharmanda qiladi, kulgiga qoldiradi. Turkiston tog'larida Suyunboy Qora domladan bir naql eshitgandim. Bilmaganlar bilsin, Sor degan qush bor, epsiz-uquvsiz, qo'polgina bir qush. Kunlardan bir kun Sor cho'qqida qo'nib o'tirgan ekan, yonidan Lochin uchib o'tibdi.

– Hoy, Lochin, – debdi Sor, – nega muncha hovliqib, u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa uchasan? Mana, meni qara, qanchalik uchqur, chaqqon bo'lsam ham cho'qqida tin olib o'tiribman, o'zi sen chaqqonmi, menmi?..

– Buni isbotlashning yo'li oson, – debdi Lochin, – bahslashib o'tirmay, kim oldin o'nta kaklik tutsa – bari ayon bo'ladi-qo'yadi.

Ikkalasi ikki daraga uchib ketibdi. Shomga yaqin yana uchrashibdi.

Tag'in Sor gap boshlabdi.

– Ishlaring qalay, Lochin, hali ham u yoqdan bu yoqqa huda-behuda uchib yuribsanmi, qancha kaklik tutding?

– Tag'in bitta tutsam, o'nta bo'ladi, – debdi Lochin. – O'zing qancha tutding? Shu payt cho'qqi tarafdin bir kaklikning azot sayrashi eshitilibdi.

– O, Lochin, – debdi Sor, – mana shu sayrayotgan kaklikni tutsam, to'qqiztasi qoladi.

YUGURDAK BOLA

Oqtovning bir darasida mo'mingina ovchi yashar edi. Lekin befahmroq edi. U qaysi eldandir lo'ilarga ergashib kelib qolgan yetimcha bolani o'ziga toziday ov-o'ljasini terib yuradigan yugurdak qilib oldi. Borib-borib ovchi unga miltiq otishni o'rgatdi. Ovchilikning xumori yomon. Qurolning xumori yomon. "Shogird" miltiqning tanho egasi bo'lishni istab qoldi. Uning ko'zlari ustoziga vaqt-bevaqt, jo-bejo boqadigan bo'ldi. Bir ovda... tong qorong'usida tog' sukunatini buzib o'q qarsilladi. Ovchi yugurdakning poyida jon berdi.

Alloh-Alloh, o'z ishining oqibatini chuqur o'ylamaydigan, bilmaydigan kimsalardan o'zing asra!

ISROFGAR

Qay bir yili kuzda surxondaryolik uka – do'stim, katta boy – mulk sohibi, mashhur ovchi Habibullo, uning sevimli bir jiyani va boshqa uch-to'rt oshna Hisor tog'larining Osmontalash tomonlariga ovga chiqdik. Horib-charchab Qirq Archa kamarida qo'r to'kdik, gulxan yoqib dam oldik. Habibulloning jiyani gugurt chaqib sigaret tutatdi. Habibullo yalt etib jiyaniga qaradi.

– Ji-i-yon, – dedi u, – qani yonimga kel-chi.

Jiyani o'rnidan irtg'ib turib, uning yoniga borib cho'kkaladi... Birdan Habibullo jiyani yuziga shapaloq tortib yubordi. Hammamiz dong qotib qoldik.

– Ey, insofsiz isrofgar, – dedi Habibullo, – olov gurullab yonib turgan joyda ham gugurt yoqadimi? Ovloq tog'larda yurgan bo'lsak...

ORACHA QILGANGA...

Yozgi hovlimda supa ustida dam olib yotardim. Tong endi otgandi. To'rtta mayna chug'urlashib, janjallashib ketishdi. To'rtalasi go'yoki jiqqamusht bo'lishdi. Bir-birini uyulib turgan somon ustiga ag'darishdi. Uchishib devorga qo'nishdi. Bu yerda ham jang davom etdi. Birdan qo'shnim hovlisining devori ustida qo'nib turgan zag'izg'on ular o'rtasiga shuvullab uchib tushdi – orani yorib o'tdi. U go'yo: "Bas qilinglar janjalni!" degandek edi. Maynalar janjalni yana davom ettirdi. Zag'izg'on yana oracha qildi. Maynaning biri birdan zag'izg'onni quvlashga tushdi. Birpasdan keyin ikkinchisi ularning ortidan quvdi. Keyin uchinchisi... Men o'ylanib qoldim: "Oracha qilgan odamga olti musht" deganlari shumikin?..

BESHINCHI DERAZA

* * *

Bir ijodkor umrida, taqdirida ma'lum va noma'lum bir adabiyot jam bo'lishi mumkin.

* * *

Do'ppi-do'ppi tillo yig'madim, do'ppi-do'ppi bug'doy yig'dim. Do'st izladim – do'st topdim. Yo'qotganlarimni ham ayblamadim, o'zimni aybladim. Xokisor bo'ldim, odamlar kulishdi, mag'rur bo'ldim, odamlar egilishdi. Egilganga egildim, mag'rurga mag'rur bo'ldim. Kulgan bilan kulishdim. Yig'lagan bilan yig'lashdim. Oltinni ko'rsa farishta ham aynir ekan, oltinni ko'rdim... ammo sabr-qanoat tuydim, shunga kuch-quvvat topdim. El bilan bellashmadim, el bilan tillashdim, el bilan ellashdim.

Do'rmondagi hovlimning tashida, tashlandiq, anchayin joyni tozalab, tartibga keltirib, bog' yaratdim. Mana, yillarkim, unda ming tup terak, qoratollar, yigirma tupdan oshiq gilos, yong'oq, olma, behi-yu shaftolilar, o'rik, jiyda, do'lana, na'matak, anjir, anor, olcha, qarolilar, uzumning har xil navlari gullab-yashnab, meva berib yotibdi. Bir tup majnuntolim rosmana katta majnuntolga aylangan. Chorbog' adog'idagi qoratollarning quyuq soyasi tagiga so'ri o'rnatganman. Bu so'rida ko'p ustozlar, do'stlar, qadrdonlar, uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar davra qurishgan: o'zim ko'klam boshlanishi bilan to birinchi qor yoqquncha boqqa chiqib, so'rini makon tutaman. O'qiyman, yozaman, yotaman-turaman... hammasi shu yerda. Eng asosiysi, bu yerda tabiat bilan birgaman – dillashaman, tillashaman, sirlashaman. Bog'im – butun bir olam! Chorbog'dagi har lahzalik hayot sirlarga to'la...

* * *

Bog'da faqat bulbul sayramaydi... Asal bolni bir guldangina yig'maydi. Adabiyotda kechmish bo'lgan har lahzalik ilhomning ham manbai Shunday.

* * *

Odatda ulkan shaharlarning o'rtasidan ularni qoq yorib, qirg'oqlarni obod etib ulkan daryolar oqadi. Shu kabi ulug' san'atkorlarning ijodi ham xalq yuragining jon tomiridan joy oladi.

* * *

Yozishdan oldin yashash kerak, degan ekan bir adib. Darhaqiqat, Shunday. U shoirmi, nosirmi, san'atkormi – kim bo'lmasin, ijod maydonida ot surishdan avval, albatta, muayyan bir yo'lni bosib o'tishi, hayotiy tajriba sohibi bo'lishi shart. Buloq ko'zidan otilib chiqayotgan suv ne-ne mashaqqatli yo'llarni bosib, ne-ne toshlarni yorib chiqqanligi uchun ham totlidir.

* * *

Mening mehr-muhabbatim Nurota tizma tog'larining Qoratog' silsilasidagi Beshbarmoqota va Parrandozota qoyalariga muhrlanib qolgan. Men ko'ngil manzaralarini ko'rish istagida bu olis tog' bag'riga tez-tez borib turaman. Garchi O'zbekistonimning go'zal poytaxti Toshkent shahrida ko'p yillardan buyon yashasam-da, juda-juda sog'inaman o'sha muhr – o'sha ko'ngil siyratini. Bir ko'klamda borganimda: dilorom osmonda bir qizg'ish-qizil bulut-shafaq chumoli tizimlariday bulutlar oralab, o'rmalab-yaltillab suzib o'tdi. Yuragim hapriqib ketdi. Toshdan-toshga urilib, ularni bir-bir oshib o'tayotgan tog' bulog'ining bir qalqim suvidek qalqib ketdi yuragim. Toshkentga she'r yozib qaytdim:

Qoramtir, qontalash, qumlar tusida,
Quti o'chgan, malla, qizil bulutlar,
Qandaydir vahmkor xil-xil bulutlar,
Shoshqin to'planmoqda cho'qqi ustida.

Ular qurshab oldi cho'qqini mutlaq,
Bir noxush niyatga butkul shaylandi,
O'rgimchak uyasi – to'rga aylandi,
Qop-qora halqada cho'qqi bosh-oyoq.

Birdan hayqiraman: – Qaydasiz, qayda,
O, shamol birodar, o, chaqin-chaqmoq?
Qaydasiz, do'stlarim, qayda, qalldiroq?
Bulutlarni cho'qqi ustidan haydang!

G'amboda hayqiriq osmonni tutar,
Bulutlar to'zg'ishib par kabi yitar.
Cho'qqi jilmayadi, ko'raman aniq,
Men unga qadrdon, men unga yaqin.

* * *

Kundalikdan: 1993-yil, 23–25-noyabr. O'zbekiston Prezidentining Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligiga rasmiy-amaliy tashrifida delegatsiya safida Londonda bo'ldim. Safarimizning uchinchi kuni tunda tush ko'rdim. Beshbarmoqota va Parrandozota qoyalari qarshisidagi yam-yashil saltanat—yaylovda otam bilan mol boqib yuribman. Tosh kokilli do'nglik tevaragi boychechaklarga to'la emish. Ularni bir-bir suyar emishman. Boychechaklarni uzmasdan qo'llarim bilan siypalar, erkalar emishman. O'tlab yurgan sigirlarni quvdim... quvdim... yeb qo'ymasiz, deb otamga qarar emishman. Boshim uzra oppoq bulut paydo bo'ldi. Unga talpindim... uchdim... oppoq bulutga qarab uchdim... biram huzur qilib uchdimki, uyg'onib ketgach ham uzoq shu kayfiyat belanchagida yotdim...

Chin shoir tarjimonidir. U qalb atalmish kitobni tarjima qilib el-ulusga, insoniyatga uzatadi. Safarlar, yurt kezishlar bu kitobni to'xtovsiz boyitib, mavjlantirib boradi. Yelkasida safar xaltasi bo'lmagan shoir qalbi – kitobi juda zerikarli. Ammo zinhor unutmaslik kerakki, o'sha qalb – kitobning Vatani bor, She'rning Vatani bor. She'r Vatansiz bo'lmaydi!

* * *

Zomin. O'rikli soy. 2007-yil 24-iyul kuni men Zominning O'rikli soy darasida, mahalliy aholining atamasi bilan aytganda, kamarida edim. O'rikli soy tugul, butun Zominni – Amir Temur o'z tuzuklarida yigirma yetti davlat qatorida raqam qilgan Zominni Ovro'paning kibor ahli ham, amriqolik erkin dunyochilaru olifta olomoni ham, Afriqoni qo'yaturing, Osiyoning qisq ko'zli qavmi ham bilmaydi. Ammo O'zbekiston Davlatining ta'bi nozik shoirlari, xususan, keyingi davrning ustoz va yosh-yalang shoirlari yaxshi biladi. Zomin O'zbekistonning eng so'lim joyi – Turkiston tizma tog'larining bir bo'lagi – betimsol maskan – qalin archazor bilan qoplangan yam-yashil go'sha.

Erta turdim. Etni biroz junjiktiruvchi havo. Archazor, o't-alaf va gulo'tlar bo'yiga to'yingan havo tanamni yayratib yubordi. Kerishib, to'yib-to'yib nafas oldim. Havodan yomg'ir hidi kelardi. Yomg'ir yog'sa kerak, deb o'yladim.

Haqiqatan ham, Shunday bo'ldi. Tushlikka yaqin Takali cho'qqi girdini turlik rangdor bulutlar qoplay boshladi. Ammo Takali cho'qqi uchlar yorishib turdi. Ko'p o'tmay bu yorug'lik ham bulutlarga singib ketdi. Bulutlar quyuqlasha boshladi. Tag'in ko'p o'tmay, qo'rg'oshin tusli bulutlar qora bulutlarga aylandi. Butun O'rikli soy osmonini qoplab oldi. Momoqaldiroq gumburladi. Chaqmoq chaqdi. Daralar ichi qarsilladi. Avval yomg'ir tomchiladi. So'ng ular shiddatli jalaga aylandi.

Jala shu darajada quya boshladiki, yuraklarga vahm tushdi. O'rikli soy loyqa suvga to'lib-toshdi. Sel keldi. Bo'tana sel. Dov-daraxtlar allaqanday qoraydi. Ayniqsa, archalar... allaqanday... to'lishgandek. Chamasi, yigirma-yigirma besh daqiqa yoqqan jala birdan tindi. Hamma taraf hech narsa bo'lmagandek yorishib ketdi. Faqat maysalar, giyohlar barglarida, archalar, uchqatlar, irg'aylar, zirklar, qarag'aylar, qorag'atlar, teraklar, qoratollar, itburunlar, akaslar, majnuntollar yaproqlarida qizchalar sirg'alarining ko'zlaridek tomchilar yaltiradi. Havo ta'rif qilib bo'lmaydigan darajada tozardi.

Nimagadir yuragim hapriqib ketdi. Baqirgim, hayqirgim keldi... Shu yurtning shoiriman! Va beixtiyor hayqirdim ham: yashasin adabiyot, yashasin she'riyat! Yashasin haqiqat!

* * *

Chin dehqon urug'ni avval saralab olib, keyin yerga sepadi. Chin ijodkor qoralaganlarini saralab, so'ng kitobxonga taqdim etadi. Har ikkisi ga ham palapartishlik ziyon keltiradi.

* * *

Non mazali, chiroyli bo'lishi uchun xamirni obdon pishitadilar. Asarning ham "xamir"ni qiyomiga yetkazib, tobga keltirib yopish va so'ng xalqning dasturxoniga uzatish kerak.

* * *

Har qanday Vatan adabiyotining shonli sahifalarini tashkil etuvchi omillardan biri, shubhasiz, xalq tarixidir. Xalq tarixidan xoli adabiyot hargiz ulkan adabiyot bo'lolmaydi. Har bir iste'dod sohibi bittadan tarixiy asar yaratganida ham xalqimizning buyuk tarixi tiklangan bo'lur edi.

* * *

Ona tilisiz xalq – chirog'i o'chgan xalq.

* * *

Xalqimizning fe'lida azal-azaldan tabassumga, hazil-mutoyibaga, qahqahaga, bir so'z bilan aytganda, kulgiga o'chlik bor. Kulgi bilan bemorni davolaganlar, kerak bo'lsa, dushmanni jazolaganlar. Kulgi – ham davo, ham jazo!

* * *

Tanqidchilarimiz ba'zi shoirlarimizni ochiqdan-ochiq "yig'loqi"likda ayblaganlar. Ular shuni unutmasinlarki, Abu Ali ibn Sinoning aytishicha, yig'i dardni oladi! Shunday shoirlarimiz o'tganlarki, "yig'lab" butun bir avlodning, el-yurtning dardini olganlar.

* * *

Xalq taqdiri bilan qismatini bog'lamagan ijodkor – suv yuzidagi ko'pik.

* * *

Non – mo“jiza. Lekin odam nonni har kuni tanovul qilgani bois buni unutgan. Unutmaganlar faylasufdir.

* * *

Tarix – xalq ziyolilarining vijdoni bilan yoziladi.

* * *

Tarix – donishmand ota. U farzandlarini munosib yashashga, qodir hayot kechirishga o‘rgatadi.

* * *

Toiflik olim do‘stim Abdurahmon Marg‘iloniy bir suhbatda menga Shunday dedi: “Inson hur tug‘iladi, Shunday ekan, hur yashab, hur o‘lmog‘i kerak. U faqat Allohning quli! Ijodkorga hurriyat – zaruriyat. Erkin yashab, erkin ijod qilgan shaxsda o‘z kalimasiga egalik a‘moli buyuk bo‘ladi. Hurmat bor joyda – mas‘uliyat bor! Agar jamiyat, to‘g‘rironog‘i, uning tepasidagilar ijodkorning, ya‘ni shoir-u adib-u olimning tilini zo‘rluk ila bog‘lasa – xalq tilini kesgan, qulog‘iga qum quysa – xalq qulog‘ini berkitgan, ko‘zini ko‘r qilsa – xalq ko‘zini o‘ygan bo‘ladi!”

* * *

Shoir – qalb bilan hunarmand zot. Shoirning boyligi – qalb atalmish iloha. U dunyoning xazinalarini ko‘rib ko‘rmaydi, uning ranglarini, manzaralarining go‘zalliklarini, yaxshilik, ezguliklarini ko‘radi, tuyg‘ularini, ohanglarini eshitadi, tinglaydi. Masalan, bugun Quyoshning, Oyning, yulduzlarning moddiy jism ekanliklarini bilgani holda, yorning yuzini ularga o‘xshatadi, mengzaydi. Yoki tog‘lar abadiy deb yozadi shoirlar, holbuki, geologlar allaqachon ularning abadiy emasligini isbotlab berishgan.

Ey, cheksiz boyluk, mol-mulk egalari, takabburlar, kiborlar, “ana, shoir kelayapti”, deb masxaraomuz tirjayguvchi kaslar... yuragingiz og‘riydi sizning, ko‘zlaringizda g‘am-g‘ussa ko‘rayapman. Qalbingizni yo‘qotib qo‘yganligingizni ko‘rayapman. Ammo men kechiruvchan Do‘stman. Yaratuvchining yaratiglarini yo‘qotmaslik uchun kechirimli bo‘lishim kerak, men bo‘ri emasman, bo‘rilar kechirimli bo‘lishmaydi. Chin shoirlar ichida men ham bir shoirman! Navoiy mening bobom emas, Otam bo‘ladi!

* * *

Shoirning qalb ko'zlari tun qushlarining ko'zlaridek o'tkir.

* * *

Koinot o'zining izchil tabiiy qonuniyatiga ega va ana shu ko'z ilg'amas qonuniyat bo'yicha harakat qiladi. Yer atalmish Sayyoramiz shu Koinotning o'n sakkiz ming olamidani biri. Zamin – Koinot ichidagi ajib bir Koinotdir. Chunki unda biz bilgan eng aqlli mavjudot – Inson yashaydi. Ehtimol biz, aytaylik, qush ilini tushunmasligimiz uchun inson eng aqlli mavjudot, deyayotgandirmiz. Ehtimol, qushlar bizdan ko'ra aqlidir? Tushunchasi boydir? Bitta qaldirg'ochning G'arb-u Sharq yo'llarini bog'lab uchishini... mulohaza qiling. Balki, ilon idroki inson zakovatidan kuchlidir? Axir, zilzilani bu jonivor insondan oldin sezishga qodir-kul.. Xullas, sezgi-sezimlar, tuyg'ular yo'lini tutgan Inson – ijodkor XXI asr taraqqiyoti bilan yuzma-yuz kelib turibdi. U bugun nimalar haqida o'ylayotir? Qanday tuyg'ularga oshno? Dilini tiliga ko'chira olayotirmi? U ko'ngil shoirimi, tuyg'ular, his-hayratlar kuychisimi, ijtimoiy hayot aks-sadosiga eshmi? Yoki oddiy turmush – tirikchilik "kuychisi"mi?

Shoir kimligi haqida uzoq gapirish mumkin. Bu mavzuda Sharqda aytilmagan gap qolmagan hisob. G'arb ham bu borada undan zarracha ortda emas. Birda shoir samoviy libosida ko'rinsa, birda davr jandasida namoyon bo'ladi. Kaykovusning "Qobusnoma"si-yu Bualoning "She'r san'ati"ga qayta bir murojaat qilib ko'ring... Harqalay, muqaddas manbalarda ishora etilganidek, shoirlar haqida gap ketsa, sukut saqlagan ma'qul. Va lekin shoirlarning sukutga tobi yo'q. Milyon-milyon she'rlar, dostonlar... nimalar haqida yozilmadi? Bu dunyoda qancha til bo'lsa, barchasida she'r yoziladi. Qancha tillar izsiz yo'qoldi, qanchasi o'lik tilga aylandi. Biroq ularda bitilgan... insoniyatga daxldor bitiklar hamon yashab keladi. Demak, chin she'r – shoir umriga, ijodkori umriga teng emas.

* * *

Gapni qotirib gapir, bo'lmasa tiyl.

* * *

Shoir! Safar xaltang doim do'sting bo'lsin.

* * *

Qobiliyatli shoir... Iste'dodli shoir... Daho shoir... Vaqt atalmish donishmand Ota ularni belgilaydi.

* * *

Tuxum o'g'risi – zag'izg'on, fikr o'g'risi – qo'shiqchi shoir.

* * *

Betnim qo'shiq kuylash yoki uni betnim tinglash, betnim raqs tushish yoki betnim uni ko'rish aqlni zaiflashtiradi. Fikrlashga to'g'anoq bo'ladi. Bir qatim nurning ham soyasi bor.

* * *

Shoir, eng avvalo, muhabbat kishisidir.

* * *

Shoir ruhi ozod bo'lsa – she'r oboddir.

* * *

Ey shoir atalmish! Bitiklaringda faqat "gul... gul... gul..." deb yozasan. Holbuki, bu olamda ming-minglab o'z oti-nomiga ega gullar, chechaklar bor. Har birini o'z ismi bilan atasang-chi?!

* * *

O'rganib – o'rgatamiz,
O'rgatib – o'rganamiz.

Quruq to'nkadan naqqosh ajoyib san'at asari yaratishi mumkin, ammo u o'tinchiga oddiy tarasha.

Tandirga bir xil non yopsang ham turli-turli chiqaveradi. Turli-turli bo'lgani yaxshi.

Qancha-qancha nazmboz, nasrboz shavvozlar o'zlarini ijodkor, sa'natkor sanashib, tegirmonlarining do'lida don-dunlari yo'g'-u, ammo ularning toshini aylantirib yotishibdi.

She'rbozga shirboz ko'p yaxshi qofiya ekan-da...

O'zgalarni tinglashni bilgan kishi donishmandga aylansa ajablanmang.

Qorni och kishiga falsafa so'qma.

Bolaligimda o'zimga-o'zim so'z bergandim: men Shunday yashayki, tilim fikrimdan ilgarilab ketmasin.

Cheksiz son – yulduzlarga daxldor. Qalbim nazarida, yulduzlar ikki xil: o'z o'rnini o'zgartirib turguvchi – sayyoralar, o'z o'rnini o'zgartirmaydigan sobit yulduzlar. Sobit yulduzlarga qarab dengizchi o'z kemasining yo'li-yo'nalishini aniqlaydi. Sahroda yoki o'rmonda adashib qolgan dono sayyoh o'z manziliga to'g'ri yo'l topadi.

Sobit yulduzlar – mening donishmand ustozlarim!

Mehnat – mening chin do'stim. U bilan mırıqıb suhbatlashaman.

Ishtiyoqsız sayrayotgan kaklik – ishtiyoqsız qalam tebratayotgan qalamkashga o'xshaydi.

Daholar bilan hayratlanishning o'zi bo'lmaydi, ularni o'qish va uqish kerak! Buloqning hayotbaxsh suviga tikilib o'tiravermaysan-ku?!

Tarjimon ulug' aktyor Shukur Burxon kabi salohiyatga ega bo'lmog'i lozim. Shukur Burxon Otelloni britan sahnasidan o'zbek sahnasiga "tarjima" qildi. Shunday tarjima qildiki, uni muallif bo'lmish Shekspir o'qiganda, hayratidan tarjimon ko'ksiga bosh qo'yib yig'lardi.

Unutilgan har bir so'z – yangi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asarida "yiloykun" degan so'z – atama bor. Bu kalendar, degani. Qanday go'zal, puxta ifoda: Yil+Oy+Kun – yiloykunga aylangan. Bizning suyaksız tilimiz esa "kalendar"ga bog'lanib qolgan.

Bug'doy urug'i qancha eski bo'lsa, ko'klab chiqishi shuncha kech bo'ladi. Suyagi qotib qolgan bolaning ilm-fanga havas-ixlosi ham Shunday.

Yaxshi Kitob – itoatkor olam.

* * *

Yaxshi taomni izlab topib, tanovul qilamiz. Yaxshi kitobni ham yaxshi taomday izzasak edi.

* * *

Kitob o'qishga ham fe'l-atvor moyilligi kerak.

* * *

Kitobxon bor, kitobyig'ar bor, kitob bilan javonbezar bor. Chin kitobxon kitobning bezaklariga ko'p ham e'tibor beravermaydi. Uning butun e'tibori kitobning ma'no-mohiyatida bo'ladi.

* * *

Turlik xalqlarning folklori: dostonlari, ertaklari, maqol-matallari, aytimlari o'rtasida o'xshashlik, bir to'qimaliklar ko'rsam, ularni ayblamayman, aksincha, xursand bo'laman. Bu qadim-qadim zamonlardan xalqlarning tub ildizlari chatishib ketganliklaridan, qon-qarindoshlik, birodarlik, bordi-keldilik rishtalari uzunligidan darakdir.

* * *

Biz o'tmishga ota-bobolarimiz shajarasi tarixi, o'gitlari, tajriba amaliyotlari bilan bog'lanamiz, kelajak bilan esa nevara-chevaralarimiz va kitoblarimiz orqali.

* * *

Ijodkor – tabiatning kitobxoni bo'lmog'i lozim.

* * *

Kitob – tog' chashmasi. Men undan ichib, chanqog'imni bostirib yashayman!

* * *

Ko'kdan Tavrot, Injil, Qur'oni karim – samoviy kitoblar tushgani bor gap. Zaminda yaratilgan yaxshi kitoblar ularning aks-sadosidir.

* * *

Adabiyot – ezgulikka, oliy maqsadlarga daxldor. U bepayon sahro oralab oqib borayotgan ulkan daryodir. Bu daryo ahamiyati ta'rif-tavsifga sig'maydi, sarhad bilmaydi.

* * *

Inson tanasida, to'g'rirog'i, yuzida har qanday sovuqqa chidamli bir ashyo bor. Bu – Ko'z. Inson hayotida har qanday sovuqqa chidamli bir Do'st bor. Bu – Kitob. Kitobning Ko'zdan afzalligi shundaki, u issiqqa ham birdek chidamli, sobit.

* * *

Bog'da har xil daraxtlar, gullar o'sganiga ne yetsin. Ular bir-birini changlab, serhosil o'sadi. Kutubxonamdagi yaxshi kitoblar, ulug' kitoblar mening aql-u tafakkurimni changlovchi daraxtlarim, gullarimdir.

* * *

Minglab donishmandlarning kitoblarini, hikmatlarini o'qidim. Xulosani o'zim chiqardim.

* * *

Bolalarimni o'qitaman-u o'zim ham o'qiyman.

* * *

Men o'zimga otilgan toshlardan ijod imoratimga poydor poydevor qurib, qalam tebratib kelayotgan shoirman.

Qozoqboy Yo'ldoshev degan professor bor. U Mustaqilligimizdan keyin yangi "Adabiyot" darsliklariga asos soldi. Men muhtaram professorning nomini eshitgan bo'lsam-da, o'zini tanimas edim. Kunlardan bir kun menga oltinchi sinf darsligini olib kelishdi... Men hayratdan yoqa ushladim... Birona unvon bo'lmagan shoir ham darslikka kiradimi, deb. Mustaqillik sharofati bu, shukr. Aslida, adabiyot unvon bilan belgilanmaydi. She'riyat unvon bilan belgilanmaydi. Unvon bilan belgilanmagan adabiyotga sharaflar bo'lsin!

Tarix haqiqati – yutuq va xatoliklar tuzatish va olg'a intilish bilan betakror. Asosiysi esa, ijodkor shu tarixiy jarayondagi o'rnini anglashi, boshqa maslakdoshlar muvaffaqiyatlarini inobatga olgan holda ularning nuqsonlarini tuzatish imkoniga ega bo'lishidir.

Onore de Balzak yozadi: "Mamlakat tafakkuri butun mamlakat demakdir!" Tafakkur esa, albatta, Adabiyot bilan bog'liq. Adabiyot ravnaqi milliy tafakkur ravnaqi demakdir! Adabiyotga past nazar millat kelajagiga past nazar bilan qarashdir. Tafakkur taraqqiyotiga e'tiborsizlik o'z vaqtida Turkistonning parchalanishiga, alal-oqibat mustamlakachilik changalida qolishga olib keldi. Buni hech vaqt unutmaslik kerak. Yana shunisi ham borki, to shu kunga qadar texnik taraqqiyot nimaga erishgan bo'lsa, uning asoslarini, avvalo, Adabiyot yaratgan.

Bu Adabiyot, dastlab, ona allasi-yu qo'shiqlarda, ertaklar va afsona-asotirda, rivoyatlarda, keyin xalq dostonlarida namoyon bo'lgan. Albatta, uning zamini ilohiy kitoblardir. Shuning uchun ham Adabiyotga tabarruk deb qarash kerak.

Inson XX asrda Koinotga qadam qo'ydi. Ammo Adabiyotning qahramonlari ming yillar oldin Oyda kezganlari chin-ku, ummonlar tagida sayr qilganlari haqiqat-ku?! Adabiyot – xayolot cheksizligi... Inson tafakkurning yaratuvchilik dahosi...

Adabiyot – badiiy nafosat! U odamlarning odatiy ta'bidan ming chandon baland. Chinakam badiiy asar – axloq, ma'rifat, ezgulik mayog'i, bir so'z bilan aytganda, Ilohning payg'omini dillarga yetkazish!

* * *

Keyingi yillarda o'zbek adabiyotida "modern" degan atama paydo bo'ldi. Bu atama tug'ilishi bilan, kap-katta yozuvchilarimiz, olimlarimiz, shoirlarimiz "hazrat Ali zulfiqori"ni yalang'ochladi. Nima emish, bizning adabiyotga "modern" yot emish.

Asr-asrlar osha Inson bolasi sut ichib keladi. Sutning dori-darmonligi-yu malhami, foydaligi haqida bahs etish ortiqcha. Ammo men sut ichsam boshim og'riydi, qon bosimim ko'tariladi. Xo'sh, men uni ichaverishim kerakmi? Yo'q! Bu shakkoklik sanalishi joizmi? Yo'q! Meni o'z erkimga qo'ying! Men oppoq sutga qarshi isyon ko'tarayotganim yo'q-ku!

Bolaligimda do'ppi kiyar edim. Keyin ulg'aydim: shapka-kepkaga o'tdim, keyin shlyapa, keyin turli xalqlarning turli-tuman bosh kiyimlarini (goh ishqibozlik, goh urf tarzida) kiyib yurdim. Mana, yoshim ulg'aydi, silliq boshim tag'in do'ppitalab bo'lib qoldi. Do'ppiga qaytdim. Balki... bugungi yosh ijodkorlarimiz boshi ham... bir kuni mening boshimdek do'ppitalab bo'lar... Yoki... bilasiz, Nurota tizma tog'lari ikki silsiladan tashkil topgan – Qoratov va Oqtov. Ular bag'ridagi ko'plab ko'zga tashlanmas qishloqlarda bir o'yin bor. Bolalar ikki tarafga bo'linadi. Va ular... kurashmaydi, yoqa bo'g'ishmaydi, siltab tortishmaydi, qochmaydi, quvmaydi... lakaluv aytishadi! Lakaluv – ikki yoki to'rt satr – hozirjavoblik bilan aytiladigan she'r turi. Aytishuvda qaysi taraf yengilsa... aqli ojiz hisoblanadi. G'olib taraf mag'lublarni masxaralaydi. Kuchli bo'lishga undaydi... men ham bolaligimda ko'p lakaluv aytganman. Doim g'olib bo'lganman. Lekin men g'olib edim deb, bugun ham lakaluv aytib, yozib yurishim joizmi? Xullas, bir so'z bilan aytganda, men "modern..."ni Hayot, Taraqqiyot, Tafakkur siljishlari bilan bog'liqlikda ko'raman.

Kunlarning birida ilk ko'klam osmonida chaqmoqlar chaqishini kuzatdim. Qarsillab goh u burchda, goh bu burchda chaqinlar chaqmoqda. U goh tarvaqaylab o'sib ketgan daraxt shoxlariga, goh tasavvurimizda bolalikdan muhrlanib qolgan yuho-ajdarhoga o'xshar, goh yoyilib oqayotgan daryo tarmoqlariga-irmoqlariga mengzar, goh-goh sochlarini hilpiratib uchgan alvasti shaklini olar, qandaydir uzun nayzasimon tillar, o'tli qilichsimon sermashlar... Xullas, bir-biriga o'xshamas yoyilmalar – chaqinlar edi. Men bilamanki, ular to ergacha yetadi, ba'zi hollarda odamlarni, jonzotlarni, daraxtlarni urib kul qiladi, joylarda xandaqcha-o'ymalar yasaydi, hatto quduqsimon o'ra hosil qiladi.

Mening xayollarim ko'klam osmonidan adabiyot maydoniga ko'chadi. Bu maydonda minglab, yuzlab, o'nlab turli-tuman siyrat va suratlarda chaqmoqlar paydo bo'ladi. Bir qarashda hammasi bir-biriga o'xshash, lekin diqqat-e'tibor bilan qarasangiz, bir-biriga aslo o'xshamaydi!

Har bir millat shoiri qalbining go'zalligi, ezguligi o'zgacha, she'rining fusuni o'zgacha! Chin adabiyot, chin she'rīyat yurakdan yaratilgan bo'lsa – umumbashariylik kasb etgan bo'lsa – u insoniyatniki! Har qanday tamaddun davrida ham Qalb va tafakkur hosilalari yashaydi.

* * *

Bugun Zamon va Vaqt shitobi, talabi boshqacharoq. Ertaga yanada boshqacharoq bo'ladi. Texnik taraqqiyot rivoji... kattakon Zaminni kichraytirib yubordi. Karvonlar yillar osha kezgan yo'llarni bir qadam qilib qo'ydi. Lekin ona Sayyoramizning qay bir puchmog'ida cho'pon bola qo'ynida parcha non bilan kitob olib yurganini, dengizdagi baliqchi yigit ma'shuqasiga she'r o'qiyotganini, dehqonning bo'z bolasi qo'shiq xirgoyi qilib dalaga don sochayotganini unutishga haqqimiz yo'q. Ko'ngildan ko'chayotgan So'zni unutmaylik.

Zaminga, insoniyatga uch boshli ajdar kabi og'zidan o't purkayotgan saltanat emas, nima ko'rsa yamlamay yutayotgan ochofatlar emas, "ko'hna qit'a" yoki "erkin dunyo" emas, madaniyati, adabiyoti, san'ati, qadriyatlari, bir so'z bilan aytganda, odamiyligi, iymon-e'tiqodi va bag'ri butunligi bilan aziz va mo'tabar bo'lgan xalqlar, millatlar oydinlik ulashadi. Inson degan nomni sharaflaydigan shular! Yaratganni tan olmaydigan texnik taraqqiyot emas, iloh mo'jizalari qoshida hayrat barmog'ini tishlovchi she'rifat kerak insonga.

* * *

So'z ko'ngilda unadi, ulg'ayadi va shu asno ruhni ko'kka yuksaltiradi. Biroq bunga hammaning ham salohiyati yetmaydi. Ko'ngil oshig'i bo'lgan zotgina bunga qodirdir.

* * *

Sarrin shabbodalar bilan sirlashgan, yuksak qoyadagi chechak bilan ellashgan, shamollarda o'ynoqlab uchib tushayotgan olcha gullari ila tillashgan, jildirab oqayotgan irmoqlar bilan so'zlashgan, sahodagi qum zarralaridan fikr uqiyotgan qalb hamma narsaga qodir...

* * *

Asl shoir samoviy qalb egasi, sirlar sohibqironi. Uch jahonni bir jahon etguvchi afsunkor yurak sohibi – Shoir. Ul jahon: Ko'kdir, Yerdir, Yer ostidir.

* * *

She'riyat mohiyatan his-tuyg'u, kechinmalar tarzi. Ko'ngildagini ifoda etish, uni aks ettirish shoirga og'ir. Juda og'ir. Bu ilohiy tilsimga qorishgan qora mehnat. Yolg'izlik. Bedorlik. Ammo shoirning og'ir mehnatini yengillatguvchi bir kuch bor, uni ilhom deydilar. Ilhom ukparidek o'z qanotida tog'larni olib uchadi, ummonlarni kaftida tutadi. Zaminni ko'kka, ko'kni yaproqqa aylantiradi.

Shoir va ilhomga, uning birligiga, bir qalb egamenligiga balli!

* * *

Muhabbatni shoir o'z boshidan kechirmog'i lozim. Shundagina u bu tuyg'u nima ekanini biladi va uning mohiyatini anglab yetadi. Sevgining kuch-qudratini va uning nimalarga qodir ekanini teran mushohada qiladi. Mening nazdimda, muhabbat Shunday tuyg'uki, u dasht to'rg'ayidek ko'kda, bir nuqtada muallaq turib, o'z kuyi bilan yurakni "tars" yorib yuboradi. Qiyoqni ummonlar boshiga ko'tarib, quyoshga talpintiradi. Chuvalchangni ajdahoga aylantiradi, ajdahoni qul etadi. Shoir hamisha oshiq.

Oshiqligim shoirligimda!

Shoirligim oshiqligimda!

* * *

Dunyodagi barcha inson shoir bo'lib tug'ilganida... Insoniyat mutlaq boshqa yo'ldan ketgan bo'lar edi. Urushlar, janglar, savashlar, boylig-u mol-mulkka qul bo'lishlar, elni qirishlar, bosqin va yurt talashlar, yurakkacha bo'lgan chegaralar tag-tomiri bilan qurib bitar edi.

Bu razolat, zalolat va qabohatlarga botgan dunyo chamanzorday gullab-yashnardi.

Afsus, bu dunyo shoirlar qo'lida emas. Olam ko'ngil kishilari yo'ng'iga yurmas... inson ham ular qo'lidan tutmas...

* * *

Qo'shiqni she'rsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu san'at so'z zamirida dunyoga keladi. Ba'zi matni saviyasiz, bachkana qo'shiqlarni tinglab, so'zga ma'suliyat bilan yondashmaganlarga hayf, degisi keladi kishining.

Buyuk ustoz Alisher Navoiy davrida qanday qo'shiqlar kuylangan ekan? O'sha davr hofizlari qanday qo'shiqlar aytgan ekan? Ular ham ma'nisiz qo'shiqlar aytganmikan? Zamonbop, zamoniga moslashib, buqalamundek turlanib, tuslanib, shoirlari she'rlar bitganmikan?

Ha, hamma zamonda ham turli sozlar bo'lgan, turli she'rlar yozilgan, turli qo'shiqlar aytilgan. Ammo yillar, asrlar, qirg'in-barot zamonlar, past-u baland davronlar osha quyosh-u oyu yulduzlar, kecha-yu kunduzlar bilan bizga nimalar yetib keldi? Qaysi qo'shiqlar meros qoldi? Qaysi matnlar ma'naviyatimiz xazinasidan joy oldi? Ular Navoiyning asl g'azallari, Navoiy zamonasidagi hofizlarning asl kuylari...

Men bugungi qo'shiqchilikka, uning so'zlari va kuylariga baho bershga o'jizman.

So'z haqida "Ey do'st"da bitilgan bir satr:

"So'z – insofdan ulug', isrofdan – xor!"

Inson yaralibdikı, to so'nggi nafasigacha izlanadi, intiladi, talpinib yashaydi. Tabiiyki, mag'lubiyatlar ham uni chetlab o'tmaydi. Shoirlikning har bir mag'lubiyati g'oliblikka olib chiquvchi bitta zinadir! Xususan, men juda ko'p mag'lub bo'lib, g'olib chiqqan shoirman!

Tan-jism mag'lubiyati – ruh mag'lubiyati emas. Ruhni baland ko'taring, shoirlar! Ruh parvozi asllikka yo'l ochadi!

Ey do'st!
Meni izlamagil? Yer hayotidan,
O'z qavmi-turimni ketganman tashlab.
Uchib yuribman Ruh saltanatida
Rumi, Bedil, Navoiyni... quyoshlab!

Shoirning fojeasi nimada? Asl shoirlar fojeasi ularning tiriklikdagi moddiy fojeasi: o'z zamonidan olg'a ketib qolishida. Shu bois ular haqoratlangan, tahqirlangan, yomon o'tliq qilingan, zindonlarga tashlangan, dordlarga osilgan, daryolarda cho'ktirilgan, olovlarda yondirilgan...

Balki bu fojea shoirning asl baxtidir... Asl o'lim – asl mangulikdir, ehtimol...

Men adabiyotni, xususan, she'riyatni, albatta, chin she'rni yulduzlar chaqnagan timqora osmonga qiyoslayman. Qandaydir sirli, farahbaxsh. Uning umri inson umri emas. Kishilik tarixi boshlanganidan buyon u mavjud. Va o'z jozibası bilan dillarga uyg'oqlik bag'ishlab keladi. Shoirman, deb ko'kragiga urgan inson mana shu tarozining shayiniga chidamog'i shart. Bu tirklik olamida shoirlar ko'pdek tuyuladi. Va lekin chin shoir judayam oz. Qo'luga qalam tutgan har bir inson yoki nimadir qoralagan kishi va yoxud o'n sakkiz yoshga kirgan har bir o'smir shoir bo'lavermaydi. Shoir bu – Gomer, shoir bu – Yassaviy, shoir bu – Rumiy, shoir bu – Navoiy, shoir bu – Bedil, shoir bu – Yunus Emro, shoir bu – Bayron, shoir bu – Shekspir, shoir bu – Gyote, shoir bu – Umar Xayyom, shoir bu – Hofiz, shoir bu – Esenin... Shoir bu – tog'lar ko'ksini yorib chiqib oqayotgan buloq. Shoir bu – bepoyon sahrodagi quduq. Shoir bu – osmon zulmatidagi oy shu'lası, shoir bu – changalzordagi to'lib-toshib kuylab, ko'kka qarab ibodat qilayotgan bulbul, shoir bu – ummonlar qa'rini yorib chiqqan qiyog'... Men Shunday tushunaman shoirni.

Bu olamning ibtidosi yo'q... Ehtimol, intihosi ham... Ibtidoning shu paytgacha hech kim aniq izohini bera olmagan, bera olmaydi ham. Ibtido bu cheksizlikdir. Ibtidoda sarhad yo'q. Lekin inson paydo bo'ldiki, rivojga yuz tutdi. Rivoj taraqqiyot sari yuz burdi. Taraqqiyot bizning asrga kelib inson qadamini koinotga yetkazdi, u cheksizlikda qanot qoqdi. Cheksizlikda inson orzusi bor, umidi bor. Moddiy dunyo ruh, desam ishonasizmi? Bu olamni Yaratgan ham ruh. U borliqni o'zidan bino etdi. U olamlar javohiridir. Shu ma'noda chin inson ruhiyat saltanatida yashaydi. Bu saltanatda ilk kitoblar (Ilohiy kitoblar) ruhiyat kitoblardir. Ehtimol, jahon taraqqiyotiga kitoblar sarvardir – men bunga shubha qilmayman. Dunyo qaysi sivilizatsiyaga, tamaddunga yetib bormasin, uni kitobsiz tasavvur qilish qiyin. Kitobdan bebahra odam xarsangtosh tagida qolib ketgan giyohdir.



Ajib yillar o'tib ketdi. Bolalikdan o'smirlikka, o'smirlikdan balog'at yoshiga o'tish barobarida hammasi xotiraga aylanib boraveradi: jo'shqin va quvnoq kunlar, keng osmonli qir-adirlarning havosi, tuproq ko'chalar... Ular yurakka muhrlanadi, abadiy muhrlanadi. Shoirning eng katta boyligi ham bolalik xotiralari bo'lsa kerak. Buyog'i – katta hayot...



Ijodkorlarning xalqimizdan qarzi ko'p. Nazarimda, ruh va qalb eshligidagi obrazlar hali yaratilmadi. Quruqdan-quruq ta'rif-tavsif etish, maddohlik – bu she'riyat emas. Hozir adabiyotimizda shunaqa bir avlod paydo bo'ldiki, ular o'zlarini qo'shiqchi shoir niqobi ostiga yashirmoqdalar. Endi ijodkorlarimiz yurak armonidagi chaqmoqlarni kashf etishlari lozim.



Texnik taraqqiyot dunyoni turli fojealarga giriftor qilishi mumkin. Buni G'arbning hozirgi ahvoli – ma'naviy qiyofasi ko'rsatib turibdi. Dunyoni go'zallik emas, Sharq muhabbatini qutqarib qoladi. Muhabbat – bu ilohiy nazardir. Ota-onaga, yorga, do'st-u Vatanga muhabbat – bu avvalo yuksak ma'naviy tarbiyani talab etadi. Demakki, sharqona tarbiyani. Navoiy shuning uchun ham buyukdir. Chunki uning barcha asarlari ma'naviy tarbiya asosiga qurilgan.

Sharq muhabbatini butun dunyoga yoyish lozim. Biz ham bu yo'lda baholi qudrat xizmat qila olsak qaniydi.

OLTINCHI DERAZA

BIR SO'Z

Sahroda Xizr ketayotgan ekan, ikki cho'pon yo'liqibdi. Xizr: – Bir so'z aytaman, kim bir qo'y beradi? – debdi.

– E, – debdi, birinchi cho'pon, – bir so'zga ham bir qo'ymı? Men bermayman, – deb qo'ylarini o'y (chuqurlik-jarlik)ga haydab ketibdi.

Ikkinchi cho'pon: – Men beraman, ayt, – debdi.

– O'yda emas, qirda yot, – debdi Xizr.

O'sha kuni tun bo'yi sharros yomg'ir yog'ibdi. O'yda yotgan birinchi cho'ponni butun suruvi bilan sel oqizib ketibdi. Qirda yotgan ikkinchi cho'pon o'z suruvi bilan omon qolibdi.

ORQAGA QARAYVERMANG...

Bolalik do'stim, qaytmas yillarimning qadrdon sirdoshi Oltiboy, yodingdami? Bir kuni toqqa ovga chiqdik. Sen qirag'ay mergan eding, bir alqorni quvib, uning bilan izma-iz chuqur daraga tushib qolganimizni sezmaymiz. Daraning bizga betma-bet tarafi zov – tubsiz jarlik ekan. Alqor ko'z oldimizda qaygadir yo'qoldi, odatda ularning ovchi bilmaydigan sirli yo'llari bo'ladi... Bizning tushib kelgan qoyalar tarafga qaytishimizdan o'zga choramiz qolmadi, qaytishga taraddudlandik. Men beixtiyor burilib orqamga – zovga qaray boshladim. Shunda sen yuragimni yorgudek baqirding: "Orqangga qarama, qarayverma, deyaрман, qarayversang boshing aylanib, jarga tushib ketasan. Huv, cho'qqiga qara – o'shani ko'zla, o'shaning yonidan o'tamiz!.."

Do'stim, yodingdami? Men aslo unutilmayman. Axir, qanday unutay?! Sening o'sha so'zlaringni, har qalay so'zma-so'z bo'lmasa-da, shoir do'stlaringga tez-tez takrorlab turaman: – Shoir do'stlarim! Orqangizga qarayvermang, tubsiz jarlik bor – boshingiz aylanib tushib ketishingiz hech gap emas, oldingizga qarang, huv cho'qqiga qarang, o'shani ko'zlang. O'shandan oshib o'tishimiz kerak!

RIVOYAT VA HAQIQAT

O'tgan zamonlardami yoki bizning kunlardami, bilmadim, lekin harqalay bir tuxumfurush bo'lgan ekan. U bozordagi boshqa tuxumfurush hamkasblaridan har bir oppoq tuxumni o'n tiyindan sotib olib, ularni bo'yagach, yana o'n tiyindan pullar ekan. Kunlardan bir kuni bu mantiqsiz jumboqqa hayron tuxumfurushlar undan so'rabdi: – Ey hamkasb, bu nima qiliq? Har bir oppoq tuxumni bizdan o'n tiyindan sotib olasan, ularni har xil rangga bo'yab, tag'in o'n tiyindan sotasani. Zarar bo'lsa bordir, ammo foyda yo'q. Qanaqa tuxumfurushsan? Tuxumfurushlar nomiga isnod keltirayapsan...

Shunda haligi tuxumfurush: – Foyda-moydangizni bilmayman, ammo el ichida rangli tuxum sotadigan tuxumfurush, degan alohida nomim bor, – debdi.

Ey! O'z xalqi yo'lida yo'lini ayro solgan, nom chiqarish uchungina qalam yo'ngan she'rfurushlar, nazmbozlar, askiyaboz-qofiyabozlar, sizga shuhrat kerak bo'lsa, menga keling, shuhratimni beray yoki Gerostratdek zamon Artemidalarini yoqing! Gerostratdan nimangiz kam axir sizning?!

1986-yil

XOTIRA

Yoshing o'tgan sayin bolaliging yaqin kelaveradi. Kechmishing aziz va muqaddas tuyulaveradi. Har qalay, menda Shunday.

Bobom Suyunning olis tog'lar orasidagi sirti hatto loyshuvoq qilinmagan ibtidoiy tosh kulbası yodimda muhrlanib qolgan. Unda mening bolaligim o'tgan. Ayniqsa, uzun qish kechalari... O'choqda zarang, zardoli, qorabodom cho'g'i lovillaydi, bir chekkasida choyidish-qumg'on sokin shig'illaydi. Bobom (enam allaqachon dunyodan o'tgan), men, otamning yolg'iz ukasi Tilovqobil cho'qqa oyoq toblab o'tiramiz. Bobom yettinchi lampa yorug'ida "Hikmat"ni o'qiydi. Qarindoshlar, qo'shni daralarda yashovchi ovchilar, yilqiboqarlar, cho'ponlar Bedil, Mashrab, Huvaydo, Qul Xoja Ahmad, So'fi Olloyor tinglovchilar tez-tez bu o'choq boshiga yig'ilishib turishadi...

Men shoirman. Bolaligimning muqaddas bu xotirasi menga qanchalik aziz, qadrdon bo'lmasin, qalbinga sirli, romantik kayfiyat, hayajon baxsh etmasin, ammo bugun bobomning tosh kulbasida yashay olmayman.

1986-yil

TIRIKLIK

Onamning otasini – mening bobomni usta Mamadali der edilar. Usta Mamadali erta-yu kech ustaxonasida temirchilik qilardi: o'roq, tesha, ketmon, poytesha, belo'roq, temirqoziq, uzangi... ko'proq otlarga taqa yasardi. U hech tinib-tinchimasdi. Bunday tinib-tinchimasligi qariganda battar kuchaydi. Shunda o'g'il-qizlari: "Ota, bo'ldi, shuncha ishlaganingiz yetar, endi Siz ham bundoq rohat qilib dam oling, ustaxonangizni yig'ishtiring!" – deyishdi bir kuni yig'ilib kelishib.

Bobomning fig'onlari falakka chiqdi: – Meni "o'l" demoqchimisizlar, axir, ishlamasam o'lib qolaman-ku!.. – Keyin... mum tishlab qolgan farzandlarini ko'rib, yumshagandek bo'lib gapini davom ettirdi: – Mening dilimni xufton qilavermanglar, ustaxonam bilan ishlaring bo'lmasin, rostini aytayapman, men ishga suyanib qolganman, tirikligim – shu mehnatimda.

"Tirikligim – shu mehnatimda". Men u paytlar bu so'zlar ma'nosiga tushunmagandim. Bobomning cho'kib ketgan ko'zlariga jovdirab qarab turardim. Lekin bugun bilaman, tunlarni tongga ulab nimalarnidir qoralaganimda gohi g'amgin, gohi shodumon hayqirgim keladi: "Tirikligim – shu mehnatimda!"

1986-yil

KASHFIYOT

Aql tanga sarvardir.

Alqissa, bir kalangi olim kashfiyot yaratdi. Olamshumul. Uning ovozası Urusiyadan Amriqo qadar, Amriqodan Olmoniya, Farangiston, Andaluz qadar, Hindistondan Misr, qadim Turon yerlaridan Turkiya qadar, Turkiyadan Makka-yu Madina-yu Yunoniston qadar yetib bordi. Hazil gapmi, Hindiston maynası O'zbekiya iqlimiga moslashib ulg'ayibdi, behad ko'payibdi. Holbuki, olim bir juft maynani Bobur saltanat etgan mamlakatdan uning asl, kindik qoni to'kilgan vataniga qachonlardir olib kelib, qo'yib yuborgan...

Gumon imondan ajratar, gumonimiz yo'q. Olimga olib kelish yengil ko'chmagan. Eng avvalo, maynalar "falon" pul bo'lishi kerak. Harqalay hind hukumati ularni tekin tomoshaga bermagan. Qolaversa, uzoq yo'l: Dehli – Moskov – Shosh. Chumchuqqa ham don, ham suv kerak, bular-ku mayna. Ayniqsa, tayyorada keltirilgan – samoda sof havo ham bag'oyat zarur. Ko'kda qanot yoyib yurgan qushlarni qafasga kiritish yoki to'rxaltaga solish o'yinchoqmi?..

Ot bo'lsa, maydon chikora. Olim bu kashfiyoti uchun shon-shuhrat gullariga burkandi. Urusiya hukumati katta baxshishnoma joriy etib, xalq o'rtasida izzat-ikrom ila unga topshirdi: "Yashasin hind maynasini O'zbekiya iqlimiga moslashtirgan qushlar qiroli, zamonamizning buyuk olimi Falonchi Falonchievich!".

Suyanishgan – yiqilmas. Kalangi olim O'zbekiya tuprog'iga tez-tez tashrif buyuradigan bo'ldi. Yoz kunlari, ayniqsa, uzum pishig'i. Axir to'kin-sochin faslda gala-gala maynalarni tokzorlardan topish qulay-da!

Ochning aqli – qornida. Olim maynalarini bog'bonlar va ayniqsa, ularning zumrasha bolalari "gala-gala", "ho-o-o..." deb palaxmonda kesak otib, temir-tersak, tunukalar osilgan sim dorlarni silkitib, shaqir-shuqurlatib quvlayotganda hayron bo'lib, yelka qisib, ko'kda tekis uchib daraxtlarga qo'nayotgan "malika"lariga xushnud qo'l silkitardi...

Ko'rgan boshqa, eshitgan boshqa. Endi qissadan hissani ko'rganlardan tinglang.

Bu kashfiyot dunyoga kelganda O'zbekiya bog'larida, lofi bilan aytganda, Somon yo'li yulduzchalaridek bulbullar mo'l edi. Ularning "chah-chah"i bani odamni sel qilardi. Ko'p o'tmasdan bulbullar izzsiz yita boshladi. Besh-olti yildan so'ng qirilib bitishdi. Buni yuragi doimo uyg'oq keksalargina payqadilar.

Ammo ular ham bulbullarni ochko'z, olg'ir, vahshiy maynalar qirayotganligidan bexabar edilar. Ha, Amriqo-yu Farangiston ham, Hindiston-u Turkiya, Andaluz-u Olmoniya ham, Yunoniston-u Makka-yu Madina-yu Mizr ham xabarsiz edilar. Boxabar bo'lganda nima? Vaqt o'tgandi. O'zbekiya bulbullariga hech kim yordam berolmasdi. Barcha sa'y-harakatlar uchib ketgan qushning ortidan otilgan o'qday foydasiz. Dovrug'i doston kalangi olim esa dunyodan o'tgandi. Omin! Ishin oqibatini bilmaganga erk berma, tangrim!

Olam bor, kelguncha to ro'zi mahshar,
Odamzod kashfiyot ishqila yashar.
O'zbekiya yurtin bulbullaridek
Kashfingdan qirilib bitmagil, bashar!

1990-yil

MAYMUNLAR

Birinjdani yasalgan uchta maymun haykalchasi. Zil-zambil taglik ustida simga qo'nib turgan qaldirg'ochlardek oldinma-ketin joylashgan.

Birinchi og'zini, ikkinchi ko'zlarini, uchinchi quloqlarini qo'llari bilan mahkam berkitib olishgan.

Buyuk haykaltarosh ishi – Xitoy hikmatlari asosida yaratilgan. Hammasi tushunarli: og'zim, tilim bor, lekin gapirishim mumkin emas; quloqlarim eshitadi, lekin eshitmayman; ko'zlarim ko'radi, lekin ko'rmayman, ko'rganim yo'q... agar eshitsam... agar ko'rsam... agar so'zlasam... shu og'ir birinji taglik bilan tushiradilar – zarbaga dosh beradigan boshim esa allaqachon tanasidan uchib ketgan.

Bu haykalchalar mening yozuv stolimda turadi. Deyarli bir umr hamroh. Deyarli bir umr men ijod qilaman. Yozganlarim UYG'ONISH haqida. Uning azoblari, alal-oqibat oromlari xususida. Odatim: ovoz chiqarib yozaman. Barcha sir-asrorlarimdan maymunlar xabardor, ishonchim komil.

Maymunlarning eshitishlarini, ularning ko'rishlarini, so'zlashlarini istayman. Axir men zolim to'ra, zolim hokim, zolim shoh, zolim mustabid, zolim mustamlakachi emasman-ku.

Yo'q, maymunlar hamon gapirmaydilar, ko'rmaydilar, eshitmaydilar.

Alhazar! Maymunsifat kimsalarga qalbim Shunday nido qiladi:

Biror el safida bo'lsang sen agar,

O'sha elning sho'ri quribdi, jigar!

1990-yil

OLTIN USTIDA

1988-yil do'stlarim — qozoq shoirlari bilan Zarafshon shahriga va uning tevaragidagi xo'jaliklarga uchrashuvlar o'tkazish uchun bordik. Ma'lum-mashhur va sirli maskan... Bizni bir jamoa xo'jaligining bosh rahbari o'z uyida mehmon qildi. Birin-ketin qadah so'zlari jarangladi. Hamma gapirdi. She'rlar o'qildi. Latifalar aytildi. Qadim-qadimiy o'zbek-qozoq hazil-mutoyibalari...

Tun og'ib qolgach, mezbon o'tirishni qasamyod qilgandek tantanavor yakunladi:

– *Aziz* do'stlar, Navoiy va Abay izdoshlari! Zarafshon, ya'ni oltin o'lkasiga xush kelibsizlar! Sizlar baxtli oqinlarsiz — Zarafshon oltinining ustida o'tiribsizlar.

Men beixtiyor uy ichini kuzata boshladim. Ikki taxmonda uch-to'rttadan rangi o'chgan ko'rpa. Taxmonlar o'rtasida oynasi singan eski kiyim javoni. Yerga ikki olacha va pati chiqqan bitta gilam to'shalgan. Devorda tulkitumoq osig'liq. Poygakda esa yag'ir po'staklar...

Mezbon, keyin bilishimcha, jamoa xo'jaligining ko'p yillik rahbari, hamon og'iz ko'plirib gapirardi:

– Ha, ha, ishonaveringlar, taglaringda shundoq g'uj-g'uj oltin!..

Sahar turdim. Hovliga chiqdim. Bepoyon sahro osmonida yulduzlar rostakam oltinlardek tovlanardi. Qo'raga ko'zim tushdi. Ayg'oqchilarday sanadim: o'n uchta qo'y. Sal narida baytal va quluni. Ot oyoq qoqib, pishqirib qo'ydi.

O'y-xayollarimda qo'rg'oshindek quyilib qolgan so'zlar aks-sado berdi: "Sizlar Zarafshon oltinining ustida o'tiribsizlar... Ha, ha, ishonaveringlar, taglaringda shundoq g'uj-g'uj oltin..."

Nimagadir xo'rligim keldi. O'sha kuni yon daftarchamga bitganim ushbu:

E, gumroh, ko'zlaring ochib qara, boq,
Bil, yulduz nimadir, nima shamchiroq.
Tishlaring qurtlarga yemshik bo'libdi,
"Tillo" deb otingdan tushmaysan biroq.

GULBOY CHO'PON

Zomin tog'larining Takali cho'qqisi atrofida bir cho'ponni uchratdim.
U bilan juda suhbat qurgim keldi. Gapga soldim.

– Oting nima?

– Gulboy.

– Bu qo'ton kimniki?

– Azim og'a, men sizni bilaman. Siz bizdan Oliy Majlisga deputat bo'lgansiz.
Aytaveraymi, bu qo'ton Zominning yangi boylaridan biriniki...

– Ha-a... oylik berib turadimi?

– O'tgan yili bir kal uloq bergandi...

Gulboyning ko'zlarida quvlik uchqunlari yaltilladi.

– Bir yil boqdim boyning molini,
haqiga bir kal uloq berdi,
kal bo'lsa ham takacha edi,
tez ulg'aysin dedim-u bichdim,
serka bo'ldi takacham mening.
Boydan xafa bo'lib o'laymi,
o'sha urvoq takacham bugun
boshliq bo'lgan boyning moliga,
yetaklaydi ming qo'y-echkisin.
Qo'ng'irog'i jarang-jurung...
jarang-jurung...
Shunaqa-da bizning takacha.

Men qoyil qolib, chappak urib, kulib yubordim. Gulboy tag'in qirg'izcha talaffuzda davom etdi.

Qo'rangga ming echking
kelsin chuvalib,
Qo'yingga olganing
uydan chiqsin buralib.

Men Gulboy bilan o'shandan buyon aka-uka – do'stman.

BIR QUSHCHA...

Kunlardan bir kuni Abdulla Oripov qiziq voqeani aytib qoldi: Bir adabiy anjumanda, Navoiy aytganidek, shoir yuragining bir nuqtasida bir qushcha bo'ladi, u doim sayrab turadi, mazmunida gap bo'ldi. Ertasi kuni bir shoir bo'lmish ishxonamga kirib keldi va "Abdullajon, tuni bilan yuragimga quloq solib yotdim, qush sayramadi-ku, hech eshitmadim", dedi. Men o'zimni kulgudan tiyolmadim. Yuragida qushcha yo'qligini tan olish ham mardlik. Aslida ham o'sha shoirman deb yurgan kimsaning yuragida shoirlik qushchasi yo'q edi.

TASBEH

Hozir tasbeh ko'p. Xilma xil. Ko'zni olguvchi, chiroyli tasbehtar. Ular uzoqlardan olib kelinadi. Va, ayniqsa, Arabiston tasbehtar qo'lma-qo'l. Ba'zilaridan ajoyib hidlar anqiydi. Sandal daraxtidan yasalgan-da. Ularni ko'rib, beixtiyor otamning tasbehtar yodimga tushadi.

Otam, garchi nafaqaga chiqquncha cho'ponlik qilgan bo'lsa-da, eski musulmonlik maktabida o'qigan, ko'p savodli, Qur'on karimni lavhdan tushirmay bexavotir o'qiydigan, Yassaviy, Navoiy, Bedil, So'fi Olloyor, Mashrab, Huvaydo kitoblarini sevib mutolaa qiladigan nozikta'b, mulla inson edi.

E'tiqodiga qoyil qolmasdan iloj yo'q. Bu tasbehidan ham ayon. Tasbeh qo'lbola. Uni hazorispan (isiriq) hosili – mevasidan – dumaloq donalaridan o'zi yasab olgandi. Ular qo'lida aylanaverganidan sip-silliqlik bo'lib ketgandi. Nur tushsa yaltirardi.

Bu tasbeh bugun mening ijodxonamda saqlanadi. Qur'on tushmaydigan lavh ham.

KULBA

2007-yil Janubiy Koreyaning mashhur Kvanju shahrida butunjahon shoir-lari anjumanida qatnashdim. Mezbonlar bizni bir toqqa sayrga boshlashdi. Tog' darasi qoyalar, cho'qqilar barobar bambukzor. To'rt taraf jannatmonand. Turfa gullar ifori anqiydi. Antiqa qushlar sayraydi. Buloqlar shildirab oqib yotibdi. Hayratimizning cheki yo'q. Biz faqat og'ochlardan tiklangan yaponchami, xitoychami, koreyschami bir chog'roq, ixcham kulba oldida to'xtadik. Kulbaning to'rt tarafidan to'rt tarafga eshik ochilgan. Ajabo, kulbaning to'rt eshigi ham bo'lar ekan-da?

Izohini tezda eshitdik. Qaysi bir asrda bir imperator o'tgan ekan. Uning donishmand, haqparvar, adolatparvar shoir do'sti – vaziri bo'lib, saroy ishlarida hamisha unga yelkadosh ekan. Maslahati bilan yurt obod, xalq hayoti farovon ekan.

Ulug' shoirning sa'y-harakatlari, arzandaligi boshqa vazirlarga, amaldorlarga yoqmas ekan. Bir kuni ular to'planishib, har xil bo'htonlar to'qib, imperatordan shoir do'stini saroydan chetlatishni talab qilishibdi. Agar talablari bajarilmasa, hukumatdan ketishlarini ro'kach qilishib, dag'dag'a qilishibdi.

Xullas, imperatorning shoir vazirni saroydan chetlatishdan boshqa iloji qolmabdi... Va saroydan uzoqda bo'lmish tog'lar orasidagi ushbu kulbani qurdirib, uni shu yerga badarg'a qilibdi.

– Do'stim, – debdi imperator, – Sen borib yashaydigan kulbaning to'rt eshigi bor. To'rt tarafi ham yo'l. To'rt tarafi ham mamlakatga ochiq. Ozod va erkin yasha. Ozod va erkin she'rlaringni yoz. Imperatorlik martabasi qanchalik ohanrabolik, sharaflik bo'lmasin, u ilojsizlik, mahkumlik martabasi ham. Men Seni donishmand-siyosatchi, o'tkir aql sohibi, ardoqli do'stim bo'lishingga qaramasdan saroyda saqlab qololmadim. Ezgulik, Haqiqat hamisha ham adolatsizlik ustidan g'alaba qilavermaydi!

Adolat Shunday kuch-qudratki, uning oldida imperatorlar, qirollar, podshohlar, sultonlar ham titrab-qaqshaydi. Sen adolat peshvosisan.

Saroyda bitta eshik bo'ladi, shu eshikdan kirasana va shu eshikdan chiqishga mahkumsan.

Sen saroydan go'zalroq, hashamatliroq saroyda yashaysan.

Sen Ozodlik, Erkinlik, Adolat va She'riyat vaziri bo'l.

Men uzoqda bo'lsam ham senga suyanib yashayman.

Shundan buyon bu kulba "She'riyat vaziri" kulbası deb atalar ekan.

Mening xayolimda beixtiyor Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro qismati jonlandi.

OT KO'ZI, IT QULOG'I

Otning ko'zi vafodor, itning qulog'i. Bir tun otxonada ot bilan it birga tunashdi. Yarim kechada it turib ketdi, otga dedi:

– Bir narsa “gup” etib tushdi...

– Tashvishlanma, – dedi ot, – shifta o'rgimchak to'ridan igraning uchidek bir qiyqim uzilib yerga tushdi!

Chin ijodkorlarning ham ko'zi-yu quloqlari Shunday bo'ladi.

YOR-YOR

Bir podshoning o'n bir xotini bor ekan. Podsho uzoq jangu jadalga – urushga ketibdi. O'ntasi hijron azobiga chiday olmay dunyodan o'tibdi. Biri esa she'r-u ash'or to'qib, qo'shiq kuylab vaqtini o'tkazibdi. Har kuni har xosxonada... “yor-yor” to'qibdi. O'shandan “yor-yor” qolgan emish.

SIBIZG'A

Rivoyat: Bir cho'pon yigit yilqichining qizini sevib qolibdi. Ammo unga o'z dil so'zlarini ayta olmabdi. O'ylab-o'ylab sibizg'ani kashf qilibdi va yurak so'zlarini uning yordamida aytib, sevgisini izhor qilibdi...

Har bir cholg'uning yaratilishi – Ishq bilan bog'liq bo'lsa kerak...

RIVOYAT

Mashrab bir gala itni ergashtirib, qabrston chetidan o'tib borardi. Bir hashamatli gumbazli qabrdan nido keldi:

– Mashrabi devonaga buncha tavallo nechun?..

Mashrabdan darhol javob qaytdi:

– Go'rda yotgan murdalarga gumbazi tillo nechun?

ETTINCHI DERAZA

TUG'DONA DARAXTI

Rivoyat qilishlaricha, tog' qo'ynidagi yurtlarning biriga yov yurish qilganda xabarchilar barcha qishloq, ovul odamlarini xatardan ogoh etib, jangga chorlaydi. Odamlar shu atrofda o'sadigan daraxtdan kaltaklar va cho'qmorlar yasab, Vatan uchun hayot-mamot jangiga kirishadi. Hatto qariyalar-u bolalar ham qo'llarida novdalarni bayroq kabi boshlari uzra baland ko'tarib, hayqirgancha jangchilarga madad berishadi. Birgalashib yovni butunlay mag'lub etgan el, og'ir kunlarida madad bo'lgan daraxtni e'zozlab, tug'dona-bayroq daraxt, deb ataydi. Hovlimga kirishda ana shu tug'dona daraxtining bir tupi qad ko'targan. U daraxtlar ichida muqaddas, kamyob hisoblanadi, o'zi juda qattiq, mustahkam. Tikka o'sadi. Sershox. Barglari arratish, qirrador. Mevasi danakli. Tug'dona yog'ochidan yasalgan do'mbira sadolari insonga beqiyos kuch-g'ayrat, shijoat, orom bag'ishlaydi.

Tug'donamga qarab turibman. Bo'yi uyim tomlaridan oshibdi. Ikki ming ikkinchi yil Xisor tog'laridan ikki tup ko'chatini olib kelgan edim.

Yonma-yon ekmoqchi bo'ldim. Ammo qanday qilib?.. Gap shundaki, tug'donalar tog'larda, qarsillagan qoya-toshlarda o'sadi. Bu Do'rmonning tekis, soz tuprog'ida o'sarmikin? Bir fikr keldi: birini shundoq odatiy nihollar kabi ekaman, ikkinchisini yerni kengroq doira shaklida olib, chuqur kovlab, atrofiga tosh-u shag'allar, qumlar solib ekaman. Kenjatoy o'g'lim Kamoliddinga maslahat solgandek bo'ldim. U hayron bo'lib turdi.

Ekdik. Men niholni ushlab turdim. Kamoliddin chuqurlarni to'ldirdi, tepkiladi. Vo ajab? Ko'klam kelib, yozga o'tib sof tuproqqa ekan niholimiz qurib qoldi. Tosh-u shag'al, qumlar solib ekan niholimiz esa barq urib o'sib ketdi. Bu ehtimol, tasodifdir, ammo tasodif ham zaruriyatga tobemikan?..

YO'LDA

Bolalikdan aziz do'stim, falsafa fanlari doktori, professor Baxtiyor To'raevning otasini Omonxon To'ra derdilar. U kishi o'tkir so'zli, ilmi, hozirjavob, odamoxun bir inson bo'lib, ahyon-ahyonda she'rlar ham bitardi. Men Omonxon To'raning xonadonida ikki yilcha yashaganman. U kishining qiziq-qiziq odatlari ham bor edi. Bir kun...

Omonxon To'ra ikki bog' bedani eshagiga ortib kelayotgan edi. Oldidan bir tanishi chiqib qoldi va so'radi:

- Eshon bobo, nima olib kelayapsiz?
- Sholg'om...
- Sholg'om emas, beda-ku.
- Ha, ko'rib-bilib tursang, nimaga so'raysan?

TA'NA VA JAVOB

O'g'lim Oloviddinning oyog'iga tikan kiribdi. Tikanni onasi olib tashlash uchun igna bilan urinar, Oloviddin esa yig'lardi. Jahlim chiqib ketdi.

– Bobong mulla Suyun o'n to'rt yoshida ming chavandoz qatnashayotgan ko'pkari ichidan uloqni "Hayt!" deb olib chiqib, Muhammad to'qsaboning bir botmonlik ho'kizini olgan. Sen bobong yoshida ko'zlaringdan sho'rva to'kib o'tiribsan...

Oloviddin yig'idan shartta to'xtadi.

– O'zingiz-chi, o'zingiz, – dedi u g'azab bilan, – shoir Bobur o'n ikki yoshida bir yurtga podshoh bo'lgan. Siz qirq yoshga kirib ham yurishingizni qarang...

BIR VAZIRLIKDA**1**

Kotiba bir quchoq qog'ozni Vazirning stolidan olar ekan, erkanibgina so'rabdi:

- Vazir janoblari, to'rt unsumni bilasizmi?
- Ha, bilaman, nimaydi?
- Bilsangiz, ayting-chi?
- Ha, meni sinamoqchimisiz, Tannoqxon? Havo, tuproq, olov, suv...
- Beshinchisini ham bilasizmi?
- I-e, beshinchisi ham bormikan?
- Bor-da, beshinchisi mana bu qog'oz bo'ladi!..

2

– Vazir janoblari, – dedi kotiba, – qog'ozlar juda uyilib ketdi, ularni tashlab yuborsam bo'ladimi?

– Ha, bo'ladi, – dedi Vazir pinagini buzmay, – faqat ulardan nusxa ko'chirib qo'yishni unutma.

BIR YIG'ILISHDA

– Bo'rilar chorvaga katta ziyon yetkazmoqda. Bu yirtqichlarga qarshi hamma joyda kurash olib borish kerak...

– Bo'ri Payg'ambar iti. Qo'tonni poklaguvchi. Ilgarilari qo'ng'irot (urug' nomi) qo'toniga bo'ri oralasa, "mening qo'shxonamga omad kulib boqdi", deb bir qo'yni nimtalab qo'shni cho'pon-cho'liqqa tarqatishgan.

– Har bir o'ldirilgan bo'ri uchun ovchilarga mukofot tayinladik...

– Hoy-hoy, nima deyapsiz... Bo'ri galasi aziz-avliyo joylarni ziyorat qilib, savobtalab yuradi-ya...

– Siz keksalar, yomonlikdan ham yaxshilik yasaysizlar... Xo'p-p... yana biror yaxshi fazilatini ayting-chi...

– Aytaman. Arloni bo'ri o'lsa, urg'ochisi – ona bo'ri begona narlarga ilakishib yurmaydi, o'lgan juftiga sodiq qoladi...

– O, bunisi zo'-o'-r ekan. Demak... ularni samolyotdan qirishni to'xtatamiz...

BOLA QALBI

Bola qalbi yolg'onni, aldovni ko'tarolmaydi. Bozorda ota-bola asal sotar edi. Otasi yarim soatga bolasini qoldirib, qayergadir ketdi. Bola oldiga bir xaridor keldi va asal narxini so'radi. Bola otasi o'rgatgan narxni aytdi. Xaridor asal olmasdan o'z yo'lga keta boshladi. Bola "asalimdan oling, juda shirin...", dedi jovdirab. "Asal bo'lgandan keyin shirin bo'ladi-da", deya xaridor yo'lida davom etdi. Bola xiyol o'ylanib turdi-da, kishi orqasidan chopdi. Yetib olib, dedi: – Bizning asal hamma asaldan shirin, bilasizmi, otam unga shakar ham qo'shgan..."

KOMILAXON NEVARAM

Yomg'ir yog'ayapti, chaqmoq par-par chaqayapti. Buni ko'rgan nevaram Komilaxon: "Azim do-o-do, – dedi, – qarang-qarang, yomg'ir chiroq yoqayapti."

DAVRADA

Maishatboz davraga bir oqil yigit kirib qoldi.

– Ey, may ichmaydigan, nasha tortmaydigan, “haligiday...” donishmand bola, – dedi uni masxaralab davra kimsalari, – aqlli boshingni bu mayinob bilan yuvmasimizdan, bir soʻz ayt-chi, nima uchun ichamiz?

Vaziyatni tez fahmlab olgan oqil yigit dedi:

– Hamma aytilgan yaxshi soʻzlar uchun!

Ichib yuborishdilar, maishatbozlik davom etdi. Oqil yigit ketishga qulay fursatni kutdi. Buni sezgan davraboshi: – Ketmoqchi boʻlayapsan, ammo tagʻin bir qadah soʻzi ayt-chi, endi nima uchun ichamiz?

– Hamma aytiladigan yaxshi soʻzlar uchun!

Davra ahli qiyqirib ichishdi. Oqil yigit davradan sirpanib chiqib ketdi.

DIYDORLASHUV

Qirq makiyonning Dakanxoʻrozi bir dona don topib oldi. “Qurq-qurq”lab ularni yoniga chorladi. Tovuqlar yigʻilishib kelishgan zahoti... Dakanxoʻroz donni namoyshkora yutib yubordi.

– Bu nima qilganingiz, birortamizga ham donni ravo koʻrmadingiz, chorlab nima qilardingiz, – gina qila ketdi tovuqlar.

– Buni “diydorlashuv” deyдилar, – dedi Dakanxoʻroz kerilib.

SOʻZ

Xalqning soʻzidan kelib chiqadigan maʼnolarga qarang. Uning pardalanib, sayqallanib isteʼmolga kirishiga qarang. “Falonchi... ishni pishaki (mushuk) qildi”. Demak, qandaydir kishi bir ish qilgan-u ortidan iz ham, is ham chiqarmagan. Uni hech kim koʻrmagan, bilmagan. Odatda, mushuk hojat chiqarish uchun avvalo yerni ozroq boʻlsa-da kavlaydi va hojat ushatadi. Soʻng uni oyoqlari bilan koʻmib, ustini yopib tashlaydi.

Yoki: “Laycha kuchukning ishini qilibsana-da...”

Demak, kimdir bir ish qilgan-u hamma undan xabardor, ovoza boʻlib ketgan. Laycha kuchuk iliqqan paytida uning orqasidan oʻnlab itlar oshkora ergashib yurishganligini kim koʻrmagan?

Азим СУЮН

ЕТТИ КИТОБ
(танланган асарлар)
4-китоб

ТУҒДОНА

(Наср)

Ғафур Ғулом номидаги
нашриёт-матбаа ижодий уйи
ТОШКЕНТ – 2020

НЕВАРАЛАРИМ учун
ҲИКОЯЛАР



КЕРАГАТОШ КАКЛИКЛАРИ

Тоғ қишлоқларида ҳар бир жойнинг уз номи – атамаси булади. Айтайлик, мен туғилиб усган Накуртнинг Камаровул, Лолаҳовуз, Қизилолма, Улфатан, Бодомчали, Қушилиш, Ёришган, Қоронғулсой, Қарисой, Кумушлисой, Туптол, Каттақамишлоқ, Кичикқамишлоқ, Туятош, Чучқалисой, Алқорсой, Қучқорулди, Булбулсой, Оқбулоқ, Беллисой, Каттақорасой, Кичикқорасой, Катакли, Момотош, Сувлисой, Йултушган, Бештарам, Узунмула, Довтепа, Қизилжар каби тармоқ қишлоқчалари, даралари, камарлари, булоқлари, сойлари, тоғ қоялари, чуққилари, яйловлари, утлоқлари, сувлоқлари, сайхонликлари, адирлари, қирлари бор. Улар уз жойидаги узгармас белгиларга қараб ном олиб келган.

Шундай жойларимиздан бири Етимҳовуз. Етимҳовуз деб аталишининг сабаби, у ерда ёлғиз, ғарибгина булоқ сувларидан пайдо – ҳовуз булган. Ана шу ҳовузнинг офтобчиқар томони – баландлик. Керагатош деган тизма қоялар туя карвонлари янглиғ салобат билан тиз чўккан. Керагатошда какликлар анчагина. Ундан бир чақиримда Гиллойбулоқ деб аталмиш булоқ тарам-тарам эшилиб оқади. Керагатош какликлари шу булоқдан сув ичишади.

Ота маконимизда, Она юртимизда, тоғларимизда какликлар куп. Уша болалик чоғларимда ҳам мул эди. Улар қора қош, тумшуғи, оёқлари қизил. Хурозининг пешонаси қора, бош тепаси кулранг, қизғиш шуълали, жигилдони билан кукраги оч ҳаворанг, таг қисми сарғиш булади. Икки ёнидаги патларида қора-кунғир тусли кундаланг йуллари бор. Оёқлари пихли, макиёни эса туқ кулранг, оёқлари пихсиз, жуссаси хурозидан кичикроқ.

Какликлар ин-уяларини узларини ҳимоялаш қулай бўлган пана жойларга – тошларнинг остига, ҳар хил буталар, дарахтлар, шувоқлар тагига қўйишарди. Какликларнинг макиёни апрелдан июнгача тухум қўяди. Тухумлари беш-олтитадан йигирматагача бўлиши мумкин. Улар хол-холли, яъни холдор.

Мен мулла Суюннинг синглиси Қизмон аммамдан ажойиб шеър-терма эшитганман. Уни ёзиб олиб қолганман. Мана у:

Бугин-буғин буғинчак,

Тугун-тугун тугунчак.

Ўттиз элнинг энаси

Халда (хали ҳам) бўлса келинчак.

Бу ерда "уттиз элнинг энаси" деганда, уттизта жужаси назарда тутиляпти. Тухумларини худди товук каби она каклик, яъни макиёни босиб ётади ва жўжа очади. Жужалари тухумдан чиққаниданоқ ота-онасига эргашиб кетишаверади.

Хуллас, пода боқиб, зерикиб юрган пайтларимда какликларга ишқибоз бўлиб қолдим. Какликлар тушга яқин Гиллойбулоққа келишларини кузата бошладим. Бу одат тусига айланди. Улар булоққа келгунларича думбул ут-улан, кукат-майсаларни чуқиб-узиб, юлқиб, чоғат, жона-қиялик, қумларини титкилаб, "ғат-ғат"лаб озиқланишади. Керагатош қирларида чигирткалар, қурт-қумирсқалар, жазирама пайтида жизилдовуқлар мўлкўл булади. Уларни чаққонлик билан тутишади. Ҳатто учган чигирткани қанот ёйиб, югургилаб бориб, осонликча ютишади.

Кўпинча оила бошлиғи – хўрози бирор айиқбош чуққими, қоями ёки анчайин баландроқ ғадир-будир тош устига чиқиб олади-да, тулиб-тошиб, гоҳо уқтин-уқтин сайрашга тушади. Унинг овози узоқларга таралади. Айтайлик, сиз пастда – дараларда, жарликларда юрибсиз, лекин унинг юқорида туриб сайраётганини бемалол эшитасиз. Сайраётганда томоқлари булкуллайди. Гоҳо хўрози олдида макиёни пайдо бўлиб қолади. Унга узиб-узиб жўр бўлади. Бироқ макиёни овозининг шашти суст. Иштиёқсиз сайраётганга ухшайди. Нимагадир урилгандайроқ какирлайди. Баъзи жужалари улар олдида чиқиб-тушиб юришади. Доим ота-онаси ёнидаги болалардай яйрашади.

Қорин қайғусидан қутулган какликлар тушликка яқин "пат-пат"лашиб, "ғийт-ғийт"лашиб, булоқ бошига энишади. Булоқ бошига яқинлашишдан олдин уёқ-буёқни сергакланиб кузатишади. Айниқса, хўрози хушёр. Сувни мириқиб, шошмасдан ичишади. Бир ютум-бир ютум томоқларга олади-да, бошларини юқорироқ кутариб ютишади, тагин навбатдаги ютумни олиб бу ҳолатни чанқоқлари босилгунча такрорлашади.

Бир куни шундай бўлди. Ишқибозлик ортиб, какликлар жужасидан бир-иккитасини тутиб, уйимизда, қафасда боқмоқчи бўлдим. Бир теша-чўтни ўзим билан олдим. Подаларни катта камарга ҳайдадим-да, чиллойбулоқ бошига келдим. Ҳовучлаб сув ичдим. Чанқоғим босилди. Уйнаб-уйнаб уйладим. Уйлаб-уйлаб ўттиз-қирқ қадам наридан ўзим бемалол жойлашадиган чуқурча-хандакча қазидим. Ҳар хил буталарни, шувокларни, хас-хашакларни тупладим, хандакчам қошига уйдим. Ўзим хандакча ичига тушиб олиб, уларни устимга ёпдим. Тирқиш очиб, какликлар келишини кута бошладим. Бир сўз билан айтганда, хонаки, жайдари "овчи"га айландим.

Какликлар аста-аста, оҳиста-оҳиста келишди. Аммо хўрози нимагадир булоқ бошидан анча нарида туриб қолди. Қолганлари бежавотир ўзларини сувга уришди. Хўроз хавотирда-ю, лекин жим...

Она каклик ва жўжалари сув ичиб булгач, булоқ бошидаги дулана дарахти тагига, тупроққа ағнай-ағнай кетишди. Қанот ёйиб, ўмганларини чағотнинг майда тош-қумларига булашди. Кичкина тугмачадай кўзларини

сузиб-сузиб оромлашди. Бирдан хуроз мен умуман эшитмаган ғалат овозда чинқирибми-қичқирибми юборди. Сесканиб тушдим. Энди вақтни бой бермаслик керак эди. Мен устимдаги лаш-лушларни отиб юбордим-да, жужалар томон интилдим. Йўрғалаб қочаётган жужаларни қувиб етдим. Мен биламанки, сувга тўйган какликлар, айниқса, уларнинг болалари тез югуролмайди, дафъатан учиб кетолмайди. Ҳаш-паш дегунча иккитасини тутиб олдим.

Хуроз Керагатошни ёқалаб учди. Макиёни ҳам урга бироз йўрғалади-да, Етимҳовуз тарафга қараб парвоз қилди. Жужаларнинг бир қисми юқорилаб кетди, бир қисми эса буталар, шувоқлар, тошлар орасига беркинди. Мен бошқа қувмадим ҳам, изламадим ҳам. Қат-қат тош устига утирдим, нафас ростладим. Қулимдаги жужаларга тикилдим.

Қуп ўтмай ота-она каклик — хуроз ва макиёнларнинг зорланиб, болаларини чорлаган овозлари эшитилди.

Мен икки жужани уйга етказолмадим. Уларни қупларимда ушлаб юриб, улдириб қуйдим. Ҳа, паррандаю дарранда ҳам эркинлик-озодлик фарзанди. Қушлар қукда, балиқлар сувда, жайронлару кийик, мароллар, алқорлар тоғда, одамзод адолату ҳақиқат эркинлигида яшовчан.

2001 йил

ОНА КАКЛИК

Ҳаёт мураккаб. Унда умр кечириш уз-уздан булмайди. Аммо қийинчилик, огирчиликлардан, хатарлардан қурқавермаслик керак. Инсон ақл, тафаккур чироғи ҳар қандай зулматни ёритишга қодир, йўлингиздаги куринган-куринмаган тусиқларни, ғовларни суриб ташлашда собит.

Инсонни қўятурайлик, табиатдаги ҳар бир жонзот ҳам тириклик учун курашиб яшайди. Тирикчилик – тирриқчилик, деган айтимлар беҳуда яралмаган.

Каклик содда қуш. Лекин унинг содда булиб қолишга ҳаққи йўқ.

Ирғайли дарасининг чоғатли қир-адирларида мол боқиб юрган кезларим бунга ўзим гувоҳ булганман.

Май ойи ўрталарининг бирида она каклик тухум босиб ётганига дуч келдим. Унинг уяси бир туп шuvoқ остида эди. Болалик экан-да, уни тутмоқчи булдим. Унга қараб йуналдим. Она каклик нохушликни тез пайқади. Бирдан уясидан отилиб чиқди ва пастга – қиялик буйлаб думалай кетди. Ҳа, у айнан думалаб борарди. Орқасидан қува бошладим, етай деганимда думалашни тезлатди. Қувавердим. Яна етай-етай дедим. У яна тезлади. Қувиб-қувиб даранинг ичига тушиб қолдим. Ва шунда она каклик думалашдан лаҳзада турди-да, уч-турт қадамча югургилади-ю, учиб кетди.

Қўрдингизми, содда қуш деганимиз, она каклик мендай бир ақлли чупон болани қандай чалғитиб, тухумларини, бўлажак жўжа-болаларини асраб қолди. У айёرمىди, йўқ, дегим келади бугун, она каклик ақлли, оқила эди.

Мен ўшанда, тагин ортимга қайтиб, унинг тухумларини олиб кетишим мумкин эди. Аммо, биринчидан, мен уядан қўп узоқлаб кетган эдим. Иккинчидан, тухумларни олиб, нима ҳам қилардим. Мол боқиб юрсам, мол боқиш эса осон эмас. Қолаверса, бирорта курк товўқ тайёр эмаски, тухумларни бостирсам, жўжа очтирсам. Учунчидан, отамнинг ўғити ёдимдайди: “Қуш уясини бузма, тухумларини синдирма, полапонларига озор етказма, ҳатто илон боласини ҳам ўлдирма!”

Мен подалар ўтлаб юрган сайхонлик сари кетдим.

КАКЛИК ДУШМАНЛАРИ

Какликларнинг душманлиги бу кўп. Тулки – айёр қароқчи. У ҳамиша какликларни пойлагани-пойлаган. Пайт етди дегунча, уларга хавф солади. Айниқса, қишнинг қаҳратон кунлари. Одатда, тоғ маликалари бу чоғлар гала бўлиб яшайди. Тунлари қоялар бағрида тудалашади, ғуж бўлиб олишади. Тулки, кузлари ёниб, уларга ташланади, какликлар патирлаб, ўзларини дуч келган томонга уришади. Тузиб кетишади. Қор гуртикларига ботиб, учолмай қолишади. Кўплари “қароқчи”га ем булишади.

Какликларнинг яна бир душмани кўбра, яъни кўзойнакли илон, уни капча илон ҳам дейишади. У рангдор. Каклик эса ранглари яхши куради. Кўбра ранглари тузоқ бўлиши мумкинлигини билишмайди.

Нурота тизма тоғларида кўбралар жуда кўп бўлмаса ҳам, тез-тез учраб туради.

...Баланд тошсупа устида нар каклик ўз овозига ўзи маст бўлиб сайрарди. Мен ундан кўп узоқ бўлмаган найза қоя тагида ёнбошлаб, уни томоша қилиб, сайрашини тинглаб ётардим. Каклик бирдан жимиб қолди. Нима бўлди экан деб, тикроқ турдим-да какликка қарадим. У бир нуқтага тикилганча тек қотиб турарди.

Кузларим ўткир эди, бир нигоҳ-ла ҳар қандай нарсани илғардим. Кексайиброқ қолган овчи Деҳқонбой бобомнинг бир ғалати гапи эсимда: “Набирам Азимбой – менинг кўзларим!” Чунки бобом нимани сураса, айтайлик, “Азимбой, Муртак камарни бир қараб кур-чи, бирор нарса куринмаяптими?..” “Ҳа-ҳа, – дердим мен, – бир тоштўрғай тумшуғини тошга ишқаяпти, бирор нарса тутиб, еган бўлса керак...” “Уни сўрамаяпман, алқорлардан гапир, алқордан... каклик бўлса ҳам майли, овлаб кетишимиз керак...” ва ҳақозо.

Хуллас, бир қарашдаёқ ярим тик турган кўбрани кўрдим. Кўбра какликни ром қилиб, бир лаҳза ҳам ундан кўзларини узмай, жуда оҳиста у томон силжир эди!

Силжир эди... оҳиста... силжир эди... оҳиста... оҳиста... Каклик тамоман мафтун... жодуланган... сеҳрланган... Кўбра яқинлашиб қолди... Ҳадемай, каклик тамом... бутун вужудим жимирлаб кетди... йўқ, бўлмади, ирғиб турдим-да, бир тошни қўлга олиб, кўбрани кўзлаб отдим!

Каклик бир сесканди-ю, ўзини тошсупадан пастга ташлади. Ҳадемай кукка кутарилди.

Сўнг... кўрганларимни отамга, чулиққа, сўнг... қўшиб-чатиб қуниқушни болаларга айтиб юрдим...

Хўш... какликнинг энг ашаддий душмани – бу овчи!

Овчилар какликни, асосан, гўшти учун овлайдилар. Овлаш усуллари талайгина. Биринчиси, албатта, ов милтиғи билан овлаш. Милтиқ билан какликларни югургилаб кетишаётганда ёки учиб, кўкка кутарилганда отишади. Иккинчи бир усул – бу тузоқ-жеда қўйиб ов қилиш усули. Бунда милтиқ ишлатилмайди. Хонаки – қафасдаги бир сайроқи каклик тўлиб-тошиб сайрайди, қавмдошларини ёнига чорлайди. Ёнида эса жедо. Жедо қўйган жайдари “овчи” узоқроқда паналаб-писиб ётади. Учиб келган какликлар ихтиёрсиз жедога тушаверишади. Ундан қутулиб кетмоқ учун потирлашиб, ҳаракат қилаверишади. Аммо жедо баттар уларни чирмаб олаверади...

Тагин бир усул бор. Аммо бу усул қонун йўли билан тақиқланган. Бу усул, асосан, қишда қўлланилади. Бу усулчиларнинг милтиқ кутариб юришлари шарт бўлмайди.

Қиш какликлар учун ўта хатарли фасл. Аёз. Қаҳратон. Қалин қор. Бундай пайтларда улар емак тополмай, сойю булоқ бўйларига тушади. Тоғ қишлоқлари атрофига яқинлашиб энишади.

Шундай вақтларда ҳар хил тоифадаги хонаки овчилар кўпаяди. Қиш кунлари, деярли, бекорчилик. Шунинг учун улар тўда-тўда бўлишиб, тоғнинг бир камаридан ў камарга, унисидан бунисигача қўвлашади. Бундай кезларда какликлар тез толиқади, чарчаб, узоққа учиб-қўлашиб, қорларга ботиб қолишади. Қарабсизки, тайёр лўқма!

Какликлар ҳаммаша ҳимояга зор. Уларнинг тагин бир душмани қирғий.

Авлиёбулоққа тутатиб кетган қир-адирларда мол ёйиб юрардим. Бу ерларда турли-туман буталар, тўп-тўп бодомчалар ўсиб ётади.

Ҳар-ҳар жойда ёйилиб ўсган қовуллар учрайди. Қовуллар анор гулларидай қип-қизариб гуллаган. Бир тўп қовулнинг гулларини томоша қилиб турардим, шиддат билан ҳавони тулқинлантириб, бир гала қўш ўзларини мен турган жойга урди. Бу шундай тез рўй бердики, ҳеч нарсани англай олмай, қўқиб кетдим. Жон жаҳдда кўкка қарадим, бир қирғий қийқиргунча кўздан йўқолди. Сўнг қовулга қарадим, не қўш билан қўрайки, унинг остида бир гала каклик жужалар қўшларининг ўти чиқиб, менга тикилиб туришарди. Бирпасдан сўнг улар ҳам, мен ҳам ўзимизга келдик. Жужалар бирин-кетин қовулнинг ў ер-бў еридан чиқди-да, ўр томонга йўрғалай кетишди. Улар мени қўра тортиб, омон қолишган эди.

Кўп ўтмай бир бурум тарафдан она какликнинг болаларини ўз ёнига чорлови эшитилди.

АЛҚОРЛАР

Алқор ноёб жонивор. Уни тоғ қуйи деб ҳам аташади. Ҳақиқатдан ҳам, у қуйга ухшайди. Аммо алқор кучли, шиддатли, югурик-чапоғон, ута зийрак, ҳушёр, кузлари қоп-қора. Унинг орқа ва икки ёнидаги жунлари жигар-қунғирнамо. Буйнининг таги, қорни, човлари оқиш. Қучқорларининг шохлари бурама-бурама. Бурама шохларининг учлари ён томонга қараб йуналган. Урғочиларининг шохлари эса калта, орқасига қайрилган.

Алқорлар Нурота тоғ тизмаларининг Қоратов силсиласида яшайди. Оқтов тарафларда камдан-кам учрайди. Улар серут тоғ ёнбағирларида, ёввойи дарахтзор – тоғ урмонлари ораларида ёйилишади. Айниқса, булоқли, сойли камарлар – даралар уларнинг суюмли жойи.

Утлаш учун қоялар тагидан, паналаридан очиқ қукатзорларга, дара қирларига чиқиб келишади. Саҳар мардондан соат ун-ун биргача ўтлашади, сўнгра соя-салқинларда – дарахтлар, қоялар тагида дам олишади. Кечга яқин, то қоронғу тушгунча, баъзан тунда тагин ёйилишади.

Алқор қучқорлари сурувдан апрел-май ойларида ажралишиб чиқишади. Чунки бу пайтда урғочилари қузилаган бўлади. Асосан, улар битта туғади, эгизаги кам. Урғочи алқорлар қузичоқлари ва вояга етмаган қучқорлари билан бирга юради. Тўрт ёшдан бошлаб, вояга етган росмана қучқорлари эса айрим-айрим ёки бир қанчаси туп-туп бўлиб юришади.

Мен туғилиб ўсган Накурт қишлоғидаги Қарисой дарасининг тўри – Бешбармоқота, Паррандозота қуққиларининг жануби-шимолий томонлари алқорларга энг қулай маскан.

Болалик пайтимда алқорлар ҳатто подага қушилишиб, утлашиб юришарди. Ўзим гувоҳман. Овчилар кўп эди, аммо бир оз булса-да инсофли эди чоғи. Уларнинг қучқорларидан – эркакларидан битта-иккита отишарди. Ёлғон булмасин, олчоқ-очофат овчилар ҳам йўқ эмасди! Шодибой исмли биттасини билар эдим. У бизга яқин қариндош эди.

Ушанда туққиз-ун ёшларда эдим. Йигирма чоғли алқор – бир сурув бўлиб юрарди. Бу сурувнинг сардори улкан бурамашох қучқор, айрича салобатга, маҳобатга эга эди. Нигоҳлари, қандайдир ўткир кузлари бамисоли ёнарди. Мулла Суюн овчиларга бу алқорни отмаслигини кўп ўқтирарди. У илоҳий қудратга эга, дерди у.

Йуқ, бетавфиқ Шодибой сардор қучқорни отди. Гуштларини кимлар хомталаш қилганлигини билмайман. Лекин Шодибой кўп ўтмай тушакка михланди. Шол бўлиб қолди. Қирқ йилдан ортиқ азоб-укубатда яшаб ўтди.

Табиат ҳақиқати шундай! Табиат интиқоми шундай!

Йиллар ўтди. Қанча тоғ қорлари сув бўлиб оқди. Ўша подачи чулиқ
бола шоир булди. Таассуроти тиниқ шоир булди. Шеър ёзди:

Алқорлар

Нурота тоғларидан
кетиб борар алқорлар,
Кетиб борар бўзлашиб
сарсари ва саргардон.
Бу тоғларга Заргардек
кўрк эди кўпдан улар,
Чин ошиқ-шайдоларга
фаттон кўзлари армон.
Бугун бунда кўкламнинг
зангори тошқинлари,
Оҳ, на бўлғай алқорлар
шу бағирга қайтсалар.
Майсаларга бурканган
ҳатто қушлар инлари,
Лекин тутиб қололмас
ҳеч қандайин майсалар.
Йўқ, ушлаб қололмагай
безавол булоқлар ҳам,
Фозилмонота қулин
буш қолди суқмоқлари.
Ахир, жаннат эмас, ҳа,
ушбу ер, ушбу олам
(Айлангайдир жаннатга,
аммо баҳор чоғлари!).
Рост, битта жой иқлими
жонга тегар гоҳида,
Лекин улар жонига
тегмаган эди бу жой.
Аёзларда сақлади
ғорлар ўз паноҳида,
Фақат тубан овчидан
сақлай олмади бу жой.
Кўксида ўқ излари
кетиб борар алқорлар,
Бормисан сайёд кўзи
тушмаган жонбахш макон?..
Алқорларни қайтаргай,
энди мен айтсам, дўстлар,
Бехато, тикка учган
уқларгина бу замон!

О, агар, қайтар булса
уқлар дастидан фақат,
Рост булсин, тоғларимни
мангу тарк этганлари.
Рост булсин, сайёдларга
осиб минг тавқи лаънат,
Ўқ етмас манзилларга
бош олиб кетганлари!

2010 йил

АЛҚОРЛАРНИНГ ЧУПОНИ

1954 йилнинг кузи.

Бодомчали қишлоғидан келган икки хонаки овчи ва Деҳқонбой бобом мулла Суюнни ҳол-жонига қўймай овга ундади. Мулла Суюн истар-истамас ҳанги эшагига минди. Мен ҳам бораман, деб туриб олдим. Мақсадимга эришдим. Улар билан йўлга тушдим. Алқор ови қизиқ-да, ахир! Бундан ташқари, мен ўта ҳангоматалаб боламан. Овга иштиёқмандман. Алқорларга, какликларга ишқибозман.

Ҳаво салқин. Тоғ ўрмони жунжиккандек, нимадандир хавотирга тушгандек. Дуланалар, итбурунлар, учқатлар меваси нам тортган. Арчалар вазминлашган. Дара-камар бўйлаб кетган ёнғоқзор барглари турли тусда: яшил, сариқ, қўнғир... юзлари холдор. Улар сойни тўлдириб юборган. Шу боис сувлар сизилиб оқади. Сизилиб оққан сув тип-тиниқ.

Бешбармоқота қояларига яқин жойда тўхтадик. Шиғил мевали катта қизил дўлана остида ўрнашиб олдик. Бу ердан алқорлар чиқадиغان қоялар яққол кўриниб туради. Овчи боболаримнинг нияти шу ердан туриб ов қилиш.

Ҳали қуёш чиқмаган. Аммо овчиларнинг кўзлари катта қояда. Мен ҳам унга тикилганим тикилган. Алқорларни, албатта, мен биринчи бўлиб кўришим керак. Шундай бўлди ҳам. Кўп ўтмай офтоб нурлари тоғ ортидан қояларни шуълалантира бошлади.

– Ана, алқор чиқди, катта қўчқор экан, – дедим ҳайратимни яширолмай.

Ҳақиқатдан ҳам, қўчқор қояда сергак, бел бўлиб турарди. У биз турган тарафга мағрур кўз тикди. Аммо ҳеч нарсани пайқамасди.

Асосий овчи Деҳқонбой бобом секин ўрнидан ярим турди. Шерикларига "қимирламанглар, мен бораман" ишорасини қилди. Шунда, кутилмаганда катта отам мулла Суюн укаси Деҳқонбойга шивирлаб маслаҳат бериб қолди:

– Деҳқонбой, – деди у, – бу қўчқор гўштини увол қилма. Ўқни қўчқорга отма, ёнига от. Шунда алқор қоядан ўзини пастга ташлайди. Ёнингга тушади. Сўйиб оласан. Ахир отиб, гўштни бузиб нима қиласан...

Бу гап мерган бобомга маъқул келди, шекилли, "хўп" ишорасини қилди ва деярли эмақлаб қоя томон илгарилаб кетди.

Ўқ гумбирлади. Кутилганидай қўчқор жон ҳолатда бир сакраб, ўзини пастга отди. Ҳавода муаллақ келар экан, чаққонлик билан бурама шохларини – бошини айлантириб пастга қаратиб олди. Ва боши билан

бир зарбда ерга урилди. Дара жаранглаб кетди. Ҳамма бир зум тек қотиб қолди.

Воҳ-ҳ... Қизиги бу ёқда булди. Деҳқонбой мерган улжаси тарафга чопганида... қўчқор сакраб туриб, дара эниши бўйлаб елдай югуриб кетди.

Мулла Суюн қаҳ-қаҳ отиб юборди.

– Деҳқонбой, югур, чоп-чоп, мерган, – деди у баралла. Ҳаваскор овчи шериклар нима бўлганини ҳали англамай лолу ҳайрон.

Уша куни катта отам Суюн билан Мирзақурғонга қайтиб келиб қўйдик. У йўлда келаётганимизда менга:

– Буни билардим, болам, қўчқор алқорни айтяпман, унинг тирик қолишини билардим. У алқорлар сурувининг бошчиси, тўдабошиси эди. Агар отилганда сурув йўлбошчисиз қоларди. Шундоқ ҳам уруш туфайли (Иккинчи жаҳон уруши назарда тутилмоқда) санокли қолган сурув сочилиб кетарди... Содда Деҳқонбой бобонгни бир бопладик-да, – дея қулиб-қулиб узидан мамнун-мамнун гапириб келди.

Бугун бобом дунёда йўқ. Аммо ўтиб кетгандан кейин ҳам, уни қурган-билганлар “Мулла Суюн катта илм эгаси бўлиши билан бирга товдаги алқорларниям чупони эди-да”, дея менга қўп бор гапиришган.

2015 йил

ШОХДОР

Кўклам келди дегунча барча қорамолларни, яъни подаларни тоғнинг юқорироқ қисмига ҳайдардик. Ўтлоқ, дара-камарларни, сайхон-ликларни эгаллардик. Кўпинча уларни ўша ерларда қолдириб, узимиз Мирзақўрғонга қайтиб келиб қўярдик. Бир-икки кундан сунг тагин хабар олардик. Мен саккиз ёшга кирган бўлсам ҳам, ҳали мактабда ўқимасдим. Отамга эргашиб гуёки чулиқлик қилардим. Бир гал отам подадан хабар олиш учун менга билдирмай кетиб қолибди. Лекин қайтиб, кутилмаганда бир гап айтиб қолди:

– Бизнинг подалар билан бир алқор қўчқори қўшилиб, ўтлаб юрибди. Катта шохдор қўчқор. Сурувидан адашиб, ажралиб қолганми ёки бирор овчи ўқидан қочиб, қорамолларга қўшилиб қолганми... билмадим, деб қолди.

Юрагим ҳаприқиб кетди. Эртасигаёқ саҳарлаб, подаларни қолдирган камаримизга етиб бордим. Ҳа, отамнинг гапи чиппачин. Икки шохи икки бурам бўлиб кетган, белларининг жуни қизғиш-қорамтоб, кўзларининг ичи чироқ пилигидай ёниб турган қўчқор подалар орасида бемалол ўтлаб юарди. У тарафдан қараб, бу тарафдан қараб роса томоша қилдим. Бўйинларидан қучоқлаб олгим келди. Шохларидан ушлаб ўйнагим келди. Аммо олдига йўлатмасди. Кундан-кун яқинроқ бориб томоша қиламан, катта-катта қора кўзларига тикиламан. Айниқса, унинг силлиқ танасининг майин туклари қуёш нурларида ажиб ялтирарди, қандайдир чатнагандек учқунланарди. У гоҳ-гоҳи олд оёқларини ерга тарс-тарс уриб қўярди. Гуёки, менга нимадир айтмоқчи бўлаётгандек...

Мен қўчқорга "Шохдор" деб ном қўйиб олдим. Унга ўрганиб қолдим, у ҳам мендан ётсирамай қўйди. Бир-биримиз билан қадрдонларга айланиб қолдик. Камарда мен ўзимга чайла қуриб олдим. Ҳар икки кунда уйга бориб, қотирма зоғора, нон-пон олиб келаман.

Оҳ, бир куни ҳаммаси тамом бўлди. Тушга яқин Мирзақўрғонга бориб қайтсам... бир забардаст йигит Шохдоримни бўриларга қўйиладиган қопқонга тушириб утирибди. Аллақачон бўғзидан пичоқ ҳам тортилган, қора қон ер бағирлаб уюб қолган. Титраб-қақшаб йигитга бақириб кетдим, – уни икки-уч марта кўрган эдим. Қоранғул дара-камарлик Хўрозбой деган амакитоб йигит эди. Қўлларимга тош олдим, аммо унга отолмадим...



Azim SUYUN 2002-yil Nakurt tog'larida



Shoirning onasi Norbibi aya usta Mamadali qizi (1921–1999-yillar)



Shorning otasi mulla Olim mulla Suyun o'g'li (1907–1983-yillar)



Bobosi Islom Oxun Nurmurodboy o'g'li



Lavh – Islom Oxundan meros



Mufti Usmonxon bilan gurung



Oygulxon gullar shaydosi



Shoir o'g'li Kamoliddin va hofiz Sherali Jo'rayev bilan



Qutlov – 60 yosh



Shoir Nakurt qishlog'ining yoshlari bilan



Ov gashti — go'sht gashti emas

ховлиқиб етиб келишди. Уларга нима булганлигини айтиб бердим. Ҳа, деди Тиловқобил ака, тоғларнинг деви булади, ҳар қалай, ота-боболаримиз шундай деб келишган.

Яхшиям “Калима”ни эсингдан чиқармаган экансан. “Калима” кучли дуо... дуода гап куп. Бошимдан утган, мени ҳам босган. Ухлаб қолма, дейиш эсимдан чиқибди...

Кунглимиз озди. Нонушта қилиб олмоқчи булдик ва камар бошидаги Бошбулоққа кетдик. Булоқ қайнаб чиқяпти. Ҳовучлаб-ҳовучлаб сув ичдик. Олтибой белидаги белбоғни ечиб, ундан нон олди, сувга ботириб едик. Ох, бу ноннинг ширинлигини...

Ногаҳон ўқ қарсиллади. Бешбармоқота қоялари тарафдан... Жим бўлиб қолдик. “Ўқ тегмади”, – деди, Тиловқобил ака, “овчилар бор экан-да”... “Ўқ тегмаганини қандай билдингиз” – дедим акамга. “Овозидан-да, – деди акам кулиб – милтиқ овозининг фарқини ажратолмайдиган кишидан овчи чиқмайди”, – деб қўшиб қўйди у.

Тепа томонимиз потирлаб қолди. Қай куз билан курайликки, бир қузичоқли алқор совлиғи биз томонга жон ҳолатда чоғиб келарди. Акам зум ўтмай милтиғини қўлга олди. Совлиқни нишонга олди. “Отманг! – деб бақариб юбордим беихтиёр, – Отманг!..”

Акам отмади. Она-бола алқор бизни курди-ю, йўлини чап қияликка бурди... Енгил нафас олдим. “Раҳмат, ака, раҳмат...”, дедим ўзим ҳам нима деётганлигимни ярим англаб-англамай. Олтибой менга ҳайрон бўлиб қараб турарди.

Бу олис йиллардаги бобом Мулла Суюн сабоқларининг хулосалари эди...

ОВ ИШТИЁКИ

1973 йил. Мен Тошкентда толиб эдим. Кечкида уқирдим, кундуз ишлардим. Меҳнат таътилига чиқдим қишлоққа жунадим. Бутун вужудим тоғларни қумсарди. Тоғларга талпинардим. Тоғларда кезишни жуда-жуда соғинган эдим. Ота-онам ёнида бир кун бўлдим қадрдоним Олтибойникига йул олдим. Олтибой билан биргалашиб, амаким Тиловқобилни топдик. Тиловқобил мулла Суюннинг иккинчи ўғли. Отамнинг она бошқа укаси. У дурустгина овчи эди. Тоғнинг тўрида яшарди.

Бир кун кечгача овга ҳозирлик кўрдик. Амаким кўрғошиндан қўлбола яккаўқлар ясади. Сочмаларни патронларга жойлади. Милтиқлар тозаланди.

Эртаси куни тонгда Каттақамишлоқ дарасига йул олдик. Каттақамишлоқ уз номига яраша. Бу дара-камарда қора, қизил дўланалар қўлади. Айқашиб-чатишиб, бетартиб, исталган-исталмаган жойларда ўсиб ётаверади. Уларнинг орасидан оқбел учқатлар бўйлаб туради. Ирғайлар тўп-тўп. Хуллас, ёввойи қалин тоғ ўрмони.

Катта чошгоҳгача бирорта алқорга дуч келмадик. Аксига олгандек қалқилар ҳам учрамади. Фақат уларнинг қаерлардандир ўқтин-ўқтин овозлари эшитилиб қолади.

Мен чарчаб қолдим. Милтиқ ҳам оғирлик қила бошлади. Шаҳар, студентлик нуқсида...

Амаким билан Олтибойга, сизлар айланиб келаверинглар, мен бироз дам оламан, дедим. Улар кетишди. Мен катта газанинг қоқ белида ўзимча жой ҳозирладим. Милтиқни ёнимга қўйдим. Тоғда милтиқ, ишлатсанг-ишлатмасанг, яхши ҳамроҳ, дўст бўлади. У ёнингда бўлса, кўнглинг тўқ. Аслида, менинг учун ов бирор ўлжали бўлиш учун эмас, гашт учун. Ҳа, гашт учун эмас, гашт учун.

Хуллас, газада уйқуга кетдим. Қанча вақт утган, билмайман, мени “дев” босди. Турмоқчи бўламан, йўқ, бўлмайди. “Дев” даҳшатли оғирлиги билан устимда... Бир қўлим билан милтиқни қидираман... қўлим унга етмайди... Бирдан... “Калима” қайтариш кераклиги ёдимга тушди, шекилли... “Калима” қайтара бошладим... О, Худойим, “дев” устимдан кўтарилди... Нафас олдим, жуда енгил нафас олдим... терга ботиб кетган таним қандайдир оромижонликка ўтди... Даст турдим, тагин чуқур-чуқур нафас олдим. Милтиққа ёпишдим. Уни олдим осмонга қарата ўқ уздим. Тоғ гўмбурлади. Амаким ва Олтибой

ҳовлиқиб етиб келишди. Уларга нима бўлганлигини айтиб бердим. Ҳа, деди Тиловқобил ака, тоғларнинг деви булади, ҳар қалай, ота-боболаримиз шундай деб келишган.

Яхшиям “Калима”ни эсингдан чиқармаган экансан. “Калима” кучли дуо... дуода гап куп. Бошимдан утган, мени ҳам босган. Ухлаб қолма, дейиш эсимдан чиқибди...

Кўнглимиз озди. Нонушта қилиб олмоқчи бўлдик ва камар бошидаги Бошбулоққа кетдик. Булоқ қайнаб чиқяпти. Ҳовучлаб-ҳовучлаб сув ичдик. Олтибой белидаги белбоғни ечиб, ундан нон олди, сувга ботириб едик. Оҳ, бу ноннинг ширинлигини...

Ногаҳон ўқ қарсиллади. Бешбармоқота қоялари тарафдан... Жим бўлиб қолдик. “Ўқ тегмади”, – деди, Тиловқобил ака, “овчилар бор экан-да”... “Ўқ тегмаганини қандай билдингиз” – дедим акамга. “Овозидан-да, – деди акам кулиб – милтиқ овозининг фарқини ажратолмайдиган кишидан овчи чиқмайди”, – деб қўшиб қўйди у.

Тепа томонимиз потирлаб қолди. Қай кўз билан кўрайликки, бир кузичоқли алқор совлиғи биз томонга жон ҳолатда чоғиб келарди. Акам зум ўтмай милтигини қўлга олди. Совлиқни нишонга олди. “Отманг! – деб бақириб юбордим беихтиёр, – Отманг!..”

Акам отмади. Она-бола алқор бизни кўрди-ю, йўлини чап қияликка бурди... Енгил нафас олдим. “Раҳмат, ака, раҳмат!..”, дедим ўзим ҳам нима деётганлигимни ярим англаб-англамай. Олтибой менга ҳайрон бўлиб қараб турарди.

Бу олис йиллардаги бобом Мулла Суюн сабоқларининг хулосалари эди...

2011 йил

АЛҚОРҚАМОҚДА

Қоратов тизмаларининг Паррандоз кунчиқарида алқорқамоқ бор. Алқорқамоқ, деганимиз – атрофи табиий тик қоялар, зирвалар ўраб олган чоғроқ сайхонлик. Бамисоли уни тошлардан атайлаб девор қилинган тошқўрғон, дейсиз. Аммо овчилар тошқўрғон эмас, алқорқамоқ дейишади. Бу алқорқамоқнинг яккагина тошдарвозаси бўлиб, у Паррандоз томонга қараган.

Алқорқамоқ сайхонида турли ўт-ўланлар, буталар кукрак буйи бўлиб ўсиб ётади. Шувоқ дейсизми, бугдойикми, итсийдими, қўзиқулоқми, янтоқми, қақрами, сигирқуйруқми... хуллас, мол-ҳолга емиш буларлик, ҳатто алқорлар севиб, осилиб баргларини “чирт-чирт” узиб ейдиган учқатлару ирғайларгача мўл-кўл. Сайхон ўртасидаги бир туп суўз дарахти барглари қуёш нурларида ялтирайди, жимирлаб ажиб ҳолатлар намоён қилади.

* * *

Накурт дарасининг тармоқ қишлоқларидан бўлмиш қизилолмалик уч ўсмир ёввойи бодом териб, йиғиб келиш учун тоққа йўл олишди. Аччиқ бодом айни шилдираб етиладиган пайт. Қоратовда бу бодомлар анчайин ўсиб ётади. Уларнинг ҳосили – данаги мағзидан доривор ёғ-мой олинади. Ёғ-мой хусусий сувжувозларда тайёрланади.

Йигитчалар турва-халталарига анча-мунча бодом териб олди. Улар бирпас тин олаётганларида Жонғибой овчининг невараси Турдибой билагонлик қилиб, шерикларига бир жойни билишини, унда алқорлар бўлиши мумкинлигини мақтаниб қолди.

– Юринглар, – деди у, – бир томоша қилдирай сизларни, мен бобом билан у жойларда кўп бўлганман...

Кўп ўтмай, ўспиринлар алқорқамоқнинг тошдарвозаси қошида турарди. Уларнинг ўткир нигоҳлари сайхонликни “илма-тешиқ” қилди... ва бунда ҳақиқатдан ҳам, бир жуфт алқор ўтлаб юрганлигини кўришди.

– Ана, алқорлар!.. – бақириб юборди Турдибой, – ана, совлиқ қўзичоғи билан. Тутиб оламиз...

Турдибой бу тоғу тошларда анча-мунча нарсаларни курган, шекилли, бир зумда “тадбир” ишлаб чиқди-қўйди. Ўзи биринчи бўлиб шериги билан тошдарвозада турадиган, иккинчиси эса она-бола алқорни бу ерга ҳайдайдиган бўлди. Бу туғри эди. Алқорлар,

албатта, узларини тошдарвозага уради-да, бошқа бирор йул йук булса.

Она-бола алқор жон ҳолатда сайҳонлик буйлаб қочишар, унинг олдида эса икки "овчи" кундаланг туришарди. Алқорлар унча-мунчага чарчамас, аммо қувлаётган Зокирбой чарчаб қолди. Унинг ўрнига Турдибой ёнидаги Шербекни алмаштирди. Тагин "қув-қув"...

Она алқор не-не таҳликалардан қочиб-писиб яшар, бу тоғларда бури ва овчилар, айниқса, алқорларга қирон келтирарди. Тўрт оёқлисидан қутулиб кетса булади, аммо икки оёқлиси ута хавфли. Энг ёмони, овчининг қўлидаги ўточар, ундан тараладиган бадбўй ис юракни зирқиратади. Бугунги овчиларнинг қўлларида милтиқ йўқлигини она алқор сезди. Тагин сездики, боласи толиқа бошлади. "Ё, бахташ таваккал..." – бирдан у Турдибой билан Зокир томонга улжасига интилган бургутдай учди. Зокир унинг шиддатию шохларидан қўрққанидан чапга ағанаб тушди, лекин Турдибой узини заррача йўқотмади, алқор қўзисига ташланди, унинг оёқларидан маҳкам ушлаб қолди. У ростакам чапдаст, чайир эди.

Мен ҳар йили кўкламнинг апрел, май ёки кузнинг сентябрь, октябрь ойларида униб-улғайган тоғларимни бир айланиб келаман. Дам олишим шу.

Илон йили кузида ҳам қадрдоним Қозоқбой Йўлдошни шерик қилиб, тоққа боргандим, оллоҳ-оллоҳ, дустимга алқорқамоқни курсатмоқчи булдим. Қирғийкуз амаки укам Носир йўл бошлади. Биз дафъатан фожиа устидан чиқдик. Турдибойнинг қўллари қон эди. У безбетларча бизга қараб турарди. Кейин билишимча, Турдибой пичоғи йўқлиги боис ўткир қиррали паррактош билан алқор қўзисини ваҳшиёна буғизлаганди.

Беихтиёр қўлларим муштга айланди. Ўзбек юртнинг тоғлари Африка саванналарими?! Паррандаю даррандаю газандаю чирранда сон-саноксиз булса?... Ўзимни тутиб туrolмай Турдибойнинг юзига беихтиёр тарсаки тортиб юбордим. Тоғ бегиларига хабар беришимни айтиб, дўқ урдим. Сабоқ булсин дедим-да.

– Қамоқ, барибир, қамоқ экан-да, – деди Қозоқбой домла алқор қўзисининг очилиб қолган шаҳло қўзларига боқиб.

Менинг нигоҳларим эса ён қоядан биз томонга чорасиз тикилиб турган она совлиққа тушди.

2014 йил

ОДАМ БУЛМИШ

Накурт қишлоғидан қирчиллама ёшли бир мулла йигит йурға эшагини ҳалалаб, Қоратоғни ошиб Можрим қишлоғига утди. Ошноларини зиёрат этиб, куп сийлиқлар куриб, келган йулидан ортга қайтди.

Қоратоғда ноёб жонивор – алқорлар яшайди. Алқор гушти жуда ширин, тансиқ. Улар доим бетавфиқ овчилар нишонида. Хуллас, салласини силлиқ ураган йигит Қоратоғ белига чиққанида, бир буйдор аччиқ бодом дарахтининг чайир, айри шохига етти-саккиз ёшли қучқор алқор шохи кириб, уралиб қолганини кўрди. Ёнига борди. Бир-икки силкиниб, депсиниб икки қайирма шохни айридан ажратмоқни жон ҳолатда истаган бенажот шўрлик алқор ниҳоят, чиройли кузларини мулла йигитга тикишдан узга чора тополмади. Кузларида ўлим даҳшати. Вужудида сарҳадсиз титроқ. Мулланинг нияти бузилди, нияти бузуқ чиқди. Алқор гуштининг танқислигини у ҳам билади, ахир. О, аммо милтиқ йуқ, пичоқ йуқ, халачўп билан эса алқорни суйиб бўлмайди.

Чорасизликка чора ахтаради. Эшак айили... ва қуюшқони бор-ку... Мулла йигит уларни бир-бирига улаб, қулбола арқон ясади. Эшагини бир тепиб ҳайдаб юборди. Уйни узи топиб боради. Арқоннинг бир учи билан алқорни бўйнидан боғлади. Иккинчи учини эса белига боғлади. Тамом! Алқорни етаклаб кетади. У алқор шохларини бодом шохлари айрисидан ажратди. Алқор... бир зарб билан бир қулоч қукка сакраб, ўй-хаёл тезлигида узини қияликка отди. Мулла йигит ағанаб тушди. Белидан қулбола арқонни ечишга улгурмади. Тоғу тошлар садо берди. Чўққидаги бургут бамисоли учиб елаётган алқорга, унинг ёнида тошдан-тошларга урилиб, судралиб кетаётган одам булмишга ҳайратда тикилиб қолди...

Мулла йигит алқорни қуй каби тасаввур қилган эди.

БУРИ БОЛАСИ

Бури боласи бури, илон боласи илон...

Менглибой бобо бойсунлик галамерган тудасидан. Ҳақиқатдан ҳам, ота-боболарининг купчилиги овчилик билан шугулланарди. Улар Ҳисор ва Боботоғда ов қилишарди. Бу тоғларда кийикнинг марол аталмиш тури, какликлар куп. Ҳатто какликнинг ноёб хили – ҳилол каклик ҳам, шу тоғларнинг энг юксакликларини эгаллаган. О, буриларни айтмайсизми? Қаерда емак-емиш мўл бўлса, улар ўша ерда ҳозир у нозир.

Катта урушдан эсон-омон қайтиб келган Менглибой овга ружу қўйди. Эртаю кеч оёғи тоғда. Кунлардан бир куни она бурини отиб олди. Унинг болалари бор экан. Бир нарини уйга олиб келиб, боқа бошлади. Боққанда ҳам ҳеч бир нарсага зориқтирмай боқди. Кийик, какликлар гушти билан меҳрибонлик қилди. Бир суз билан айтганда, меҳр берди. Ошна тутинди. Ити каби эргаштириб, овларга чиқиб юрди.

Кунлардан бир куни навбатдаги овга чиқишди. Лекин бугун Менглибойнинг ови бароридан келмади. Кийиклар юқорилаб кетган эди. Тўрт-бешта каклик отиб, жилдираб оқиб ётган жилға буйидаги тугдона дарахтининг тагини қуналға тутди. Жилғадан чоғроқ ҳовузча ясади. Тонг-саҳарда ов қилмоқчи бўлди. Қуруқ шох-шаббалардан утин туплади. Тоғ туни совуқ булади, гарчи ёз бўлса-да этни жунжиқтиради. Оловни гуриллатиб юборди. О, тоғ дарахтларининг чуғи... жоннинг ҳузури. Какликлар гуштини ирғай шохларидан ясалган қулбола сихларга утказди. Оромижон чуғда тоблаб-пишириб еди, роҳатланди. Албатта, бури боласини – ошнасини ҳам унутмади. Каклик гуштидек мазали таом билан сийлади.

Алланечук вақт бўлиб қолди. Ухламоқ керак. Барвақт туради. Уриндик солди. Қайроқ тошлардан ёстиқ ясаб олди. Милтиғини ёнига қўйди. Ётиб, чакмонини ойқара ёпинди. Ногоҳон Менглибойнинг кўзлари нимадандир безовталанаётган бури боласининг кўзларига тушиб қолди. Ҳа, бури боласи қандайдир безовта эди. Кўзлари қизарган. Беихтиёр отаси раҳматлининг "...бури боласи бури, илон боласи илон" деган гаплари "лоп" этиб ёдига тушди. У отаси гапларини бир синовдан утказмоқчи бўлди. Бу ҳам бир гап-да.

Менглибой ўзини уйкуга солди. Лекин чакмон остидан сал нарида ётган бури боласидан нигоҳ узмади.

О, бури!.. Бури!.. У Менглибойга бир қараб олди-да, силкиниб урнидан турди. Жилға томон йуналди. Жилғадаги боя Менглибой ясаб қуйган ҳовузчага ағанади, бир-икки думалади-да, ҳамма жойини ҳул қилди. Орқасига қайтиб, бозиллаб турган чуғлар устига силкинди. Бу ҳолат иккинчи бор такрорланди. Овчининг ҳайрати ошди. Нима қилмоқчи у? Учинчи бор бури боласи жилға ёққа кетганда, апил-тапил урнидан турди. Чакмон остига тошларни, бир-икки тарашани, худди ўзи ётгандай қилиб тахлади ва милтиғини олиб, дарахтга чиқиб, жойлашиб олди. Бури боласи қайтиб келиб, тагин чала ўчинқираган чуғлар устида силкинди. Чуғлар ҳали учмаган, чала ёнаётган тараша буриқсиб тутарди. Бури боласи яна жилға томон кетди... келди... ниҳоят, ут батамом ўчди!

О, бури!.. Бури... ўзини чакмон устига зарб билан отди!.. Чакмонни ғажиб ташлади.

Менглибой ҳаммасини кўрди, тушунди ва... қўшоғиз милтиқдан отилган икки уқ тун сукунатини бузди!..

Бури боласи бури, илон боласи илон, деганлари ҳаққост-рост булиб чиқди!

АДАШИШ

Ялтага келганимга уч ҳафта булди. Бу ердаги “Ўзбекистон” оромгоҳига жойлашганман. Қора денгизда роса чўмилдим, қирғоқларининг оромижон қумида кукка тикилиб ётдим, булиқ ҳаволардан симириб-симириб сархуш булдим. Тик қоя устига қурилган “Қалдирғоч уяси” айвонида туриб, қояга зарб билан урилаётган денгизнинг табиий фаввораларини томоша қилдим. Севастополь томонларга бориб келдим, Боғчасаройни куриб қайтдим. Пушкин, Лермонтов, Чехов юрган йулларда юрдим.

О, кунгил, яна нималарнидир тусайди, юрагимга тагин нималардир етишмайди. Тоғлар, тоғларга чиқишни истайди қалб!

Ўзи шундай. Болалигим, усмирлигим тоғларда ўтганлиги сабабмикин, қаерда булмайин, қай бир юртларни кезмайин, тоғларга, юксакликларга талпинавераман.

...Ўшанда, йигирманчи асрнинг саксонинчи йиллари, ёз пайти эди. Ёз булса ҳам бирдан ёмғир шивалаб қолар, бирдан қуёш чарақлаб кулар, гоҳ кукда булутлар қуюқлашар, гоҳ кукимтир осмон алланечук ёришарди.

Оромгоҳдан кунботар томонда баланд тоғлар тизмаси куриниб турар, айниқса, уларнинг Ай-петри деб аталмиш тумшук чуққиси яққол кузга ташланарди. Қалбим нимагадир шу чуққини тусарди. Унга чиққим, уша чуққидан Қора денгизни кузатгим, чуққидан нариги томонларда нималар борлигини болалардай жуда-жуда билгим келарди.

Шерик топдим. У Сулаймон исмли ўзбекистонлик қрим-татар оға эди. Сулаймон оға ҳам оромгоҳда дам оларди. У халқи кучирма булмасдан аввал болалиги шу яқин жойларда кечганлигини айтди. Ҳар қалай, сизга йул курсатишни эплайман, деди чуққига қалин урмон орқали борилажагин гап орасида ўқтириб.

Тоққа, чуққи томон чиқишимиз осон ҳал булди. У тарафга ҳарбий йул бор экан, онда-сонда машина булиб тураркан. Шундай машиналардан бирига икковлон чиқиб олдик. Унинг ҳайдовчиси аскар йигит эди. Хуллас, қуюқ урмон оралаб эгри-бугри йуллардан чуққини ёнлаб чиқиб бордик.

Машинадан тушиб, мен чуққи томон йул олдим. Сулаймон оға эса бу ерда учраган ёввойи гуллар, чечакларга андармон булиб қолди.

О, чуққилар... қанчалик севаман сизни, юксаклигингиз олдида ҳайратдаман, ҳайбатингиз олдида лолман! Маҳобатингиз олдида ожизман. Аммо фикрим тиниқ, озод-эркин...

Афсус... бугун бу ерларни, мен кўрмоқчи бўлган орқа томонларни (у томонлар урмон экан) қуюқ туман қоплаб ётарди. Бир қизиги шуки, денгиз томонлар очиқ, унда сузиб юрган параходлару кемалар яққол кузга ташланарди. Ҳатто учиб юрган чағалайлар парвозини томоша қилса буларди.

Барибир, ҳаммаси гузал эди! Рухим гузаллик олдида титрарди. Чуққида тошиб турардим. Мен кўнгил кишисиман. Бепоен чирой олдида бақиргим... ҳайқиргим... йиғлагим келарди! Ва шундай бўлди ҳам: – Ҳей-ей... мен Ай-петри чуққиларидаман... Эй денгиз-з-з... эй ўрмонлаар... Сулаймон оғ-а-а, қайда қолдингиз?... Эй-й-й...

Сулаймон оға урнига... дафъатан итларнинг овозлари эшитилиб қолди. Ё фалак! Ростакан итлар овози...

Бу овозлар туманлар ора эшитиларди. Овозлар тарафда Сулаймон оға қолган эди. Тек қотдим. Узимга келиб, чуққидан пастга туша бошладим. Оға ҳам мен томонга келаётган экан. Юзма-юз келдик. Итлар шовқини яқиндан эшитила бошлади. Бирдан қаршимизда бир капитан ва итларини етаклаган уч солдат пайдо бўлди.

Солдатларнинг бири итининг ипини шерикларининг бирига тутқазди-да мени бошдан-оёқ пайпаслаб текшира кетди... кейин Сулаймон оғани. Капитан туппончасини кузларимиз қаршисида тутиб турди. Унинг суровларига жавоб бердик. Бизнинг бу ерларга қуноқ эканлигимизга капитан тулиқ ишонди. Кейин билсак, улар чегарачилар экан. Қаерлардадир туманлар аро Туркия бор экан.

Аллақачон вақт пешиндан ошиб қолган. Капитан зудлик билан орқага қайтишимизни уқтирди. То машина йулига тушгунимизча кузатиб туришди.

...Ҳаммаси Сулаймон оғадан бўлди. У тагин йўл бошлади. Оромгоҳга илон изи каби буралиб-буралиб йўналган асфальт йўлдан юрмасдан, уларни кесиб-кесиб ўтиб, туғри йўл топиб кетмоқчи бўлдик. Оғага эргашдим.

...Болалигимдан бир одатим бор. Тоғда юрганимда йўлимдан чиққан нарсаларни куздан қочирмайман, узимча уларни "белги" қилиб кетавераман. Сумбатимга сиртдан қараганда бепарводек туюлсам-да, ута синчковман. Мана, тош, мана, арча, арча ёнбошлагансимон ушибди, мана, учқат, бир шохи синиб, қуриб қолибди, мана, йўл четида қандайдир дарахт тункаси... ва ҳоказо.

Ўшанда бу синчковлигим жуда қўл келди! Оға бошлаган йўлнинг учи-кети кўринмай қолди, бир тигиз урмоннинг ичига кириб кетдик. Шом тушарди. Шивалаб ёмғир ёға бошлади. Бу йўлимизни янада қийинлаштирди. Йўлимиз қуюқ шомлаша бошлади. Ногаҳон дарахтма-дарахт уланиб кетган сим катакли "девор"га дуч келдик. Унда осиглик

турган бир ёғоч тахтачани қуриб қолдим: "Зона – медведи". Зум утмай, айиқларнинг укириши эшитила бошлади. Оға бақрайиб қолди, – адашдик... – деди у зурға. – Орқага қайтдик, – дедим мен, ўйлаб ҳам ўтирмай, – оға тезроқ... шом қуюқлашмасдан машина йўлни топиб олишимиз керак. Энди мен йул бошладим, белгиларимни ёдлай бошладим. Тун батамом устимизга ёпирилганда асфальт йўлга чиқиб олдик. Тонг отаётганда оромгоҳга етиб келдик.

Мана, йиллар қуюндай утди-кетди. Аллақачон қатъий хулосага келганман: эгри булса ҳам йул яхши! Ҳатто қочишга ҳам йул яхши! Йўғ-эй, қочмайлик-қуя... ҳа?!... Манзилга етмоқ учун халқ йўли яхши!

2014 йил

ТИЛЛАБУРАМАШОХ

(Қисса)

Қозоқ адиби оғам
Собит Дусановга бағишлайман



I

Бу тиллабурамашох алқор қучқорини Нур тоғларида тоққа алоқадор кимсалар биларди. Хусусан, биринчи галда тоғ бегилари, кейин овчилар, чупону чулиқлар, йилқичилар, баъзи утинчилар у ҳақда турли афсоналару эртаксимон гапларни туқиб юришарди. Тиллабурамашох бу макондаги энг катта сурувнинг етакчиси эди. У жуда ақлли, шуурли, зийрак, тезфаҳм, идрокли сардор эди. Сурувини ҳар қандай боло-қазолардан йироқ тутар, хавф-хатарлардан омон сақларди. Бурни-қаншири бегона, ёт исларни тез туяр, шамолми ёки оддий елми ташувчи сизимларни барҳақ сезарди. Унинг кузлари ҳам тун қушлариникидек уткир эди. Айтайлик, бирор овчи сурувини олислардан дурбин билан кузатаётган бўлса ҳам уни бир нигоҳ ила илғарди. У илондан қурқмасди, унинг инига тумшуғини тикарди ва илашиб чиққан илонни ерди. Кузларининг уткирлиги шундан дейишади тоғнинг қулбола табиблари.

О, қулоқлар... қулоқлари-чи, илон судралиб юрганида чиқарадиган силлиқ тулқинсимон товушларни ҳам эшитарди. Албатта, булар Тиллабурамашохни огоҳлантиргувчи, ҳаёт тарзини таъмин этгувчи табиий зарурият. Булардан ҳам муҳим тагин унинг чопқир оёқлари, каттиқ туёқлари эди. Ана шу оёқлари ҳар қандай ёвдан қутқариб кетарди: турт оёқли ёвидан ҳам, икки оёқли ёвидан ҳам. Бироқ бу тилла бурама шохи... У барча ёвларини чорлағувчи, узига оҳанрабодек тортғувчи, ҳатто қушларни ҳам қиё боқтиргувчи бир муъжизавий матоҳ. Гап шундаки, бурамашохининг гугурт қутиси жой бўлгудек ички бурама белги жойи тилла суви югуртилгандек ярақлаб турарди. У кундузи-ку кундузи, ҳатто тунда ҳам шуълаланарди.

Сардорнинг бу шохини Нур тоғлари қуриқхонасининг тоғ бегилари кеч пайқади. Тўғрироғи, қучқорча, рostaкамига бу макондаги барча сурув қучқорларини олишувларда енгиб, етакчиликни олгандан кейин кузга ташланиб қолди. Унга илоҳий тус ҳам берилди: шоҳида "Оллоҳ" деган ёзув бор экан. Бу рост эди. Шундан сунг у Тиллабурамашох номини олди. Қуриқхона маъмурларию тоғ бегилари унга алоҳида диққат-эътибор қаратиб, ҳушёрлик билан қуриқлай бошладилар.

Мана, Тиллабурамашох бир ойдан ошдики, симтурлар ортидаги қуриқхонада. Яъниким, одамларнинг кунгилхушлиги учун ноёб қушлар, баъзи жониворлар боқиладиган дарё бўйидаги қуриқхонада. У жуда хомуш. Юраги қоп-қоронғу. Ҳеч нарса татимайди. Қуриқхонанинг ички қурахонасидан ўз ихтиёри билан ташга чиқмайди. Уни кўпинча махсус яшил кийим кийиб олган, ўттиз ёшлар чамасидаги бўртиқ холли мутахассис йигит – мол дўхтири кўрадан ҳайдаб чиқади. У Тиллабурамашохнинг қуриқхонани айланиб юришини истайди. Ям-яшил бўлиб ўсиб ётган ўт-уланлардан ейишини хоҳлайди. Уни кўргани келган казо-казоларнинг хурсанд бўлишини истайди. Қайда, Тиллабурамашох ўтларни чимдигандек бўлади-ю, аммо астойидил емайди.

Тиллабурамашох ўй-хаёлида фақат туғилиб ўсган ота макони, она юрти – Ватани. Ҳа, фақат ўша – Нур тоғлари. Кукка бўй чўзган баҳайбат тик балиқсимон беш чўққи. Илонўтди дарасидан бошланиб, Қизилқум чўлларигача чўзилиб кетган юксак тизмалар, бу тизмалар дара-камарлар ораларидаги қора дарахтзору бутазорлар, бел бўйи майсалар, булоқлар бошларидаги қовғалар, пастга қараб йўналган ирмоқларнинг икки қирғоғи бўйлаб ўсиб ётган майда қизил гулли совунўтлар, қирқбўғинлар... Тўғри, қароргоҳнинг қуриқхонасида ҳам ҳамма нарса бор. Бўз ҳам, майса ҳам. Ҳар куни беда-йўнғичқа боғламлари ташлашади, хас-хашак, қандайдир бегона ис келадиған ем-емак. Дарё сувининг бир арнаси қуриқхона оралаб оқиб ўтади. Уларда ширмойи балиқлар сузишади. Ариқ бўйлари серўт. Аммо туғилган ватани озодлик, эркинлик... уларни фақат тутқунликда англари экансан. Уху.. ух... у юксак тоғлар... у тоғларнинг еллари, насимлари, шабадалари, шамоллари, ҳатто бурон-туфон, қор куюнлари...

Ўхх... Катта газла эпкинлари... газла ётоқлари... Газадан олис-олислар ҳам кўриниб турарди. Бу ердан ковшанган кўйи кўз нурлари етгунчалик жойларни кузатиб ётиш оромижон. Тиллабурамашох узоқларда чайқалиб ётган марварид ранг кўлни томоша қилишни ёқтирарди. Ох, у тунлар... серюлдуз тунлар... сумбула сувидеярқироқ кечалар... осмонни тўлдирган ой ёруғлари... кўз олдингдаги жилва-шуълалар... нур чизимлари... сим-сим ўйин-нозлар...

Ватанида фақат унинг қавмларигина яшамасди. Теварак тўла жонзот... Кўриниб, кўринмайдиган хилқат, ҳайрат. Кукда, деярли, доимий бир жуфт бургут бир маромда қанот қоқади. Гуё эринибгина парвоз қилади. Аммо бирор ўлжани кўрганда, шиддат билан пастга шўнғийди. Қанотлари тебратган ҳаводан алқорлар илқис хурқиб кетади. Тўда-тўда тирсиллаган тўнғизлар хўрқуллашиб-пурқиллашиб, камарлардаги булоқларнинг бўй-ботқоқ ирмоқ ерларини тумшўқлари билан илматешиқ қилишади. Жайралар сихларини тикрайтириб, гиёҳларнинг, ўт-

алафларнинг томир-илдизларини тимирскилаб, ковлаш билан овора. Қўшоёқ, тоғ сичқон-каламушлари у бутанинг тагидан бу бутанинг тагига, бу бутанинг тагидан у бутанинг тагига югургилаб юришади.

Газадан бир жуфт тулкининг макони яққол кузга ташланиб туради, ота-онаси қайларгадир кетиши билан, болалари инлари олдига чиқиб олишиб, уйнагани-уйнаган. Бир-бирини юлқишгани-юлқишган.

Уҳ-ҳ... уҳ... уҳ... эркин ҳаёт, мароқли ҳаёт, жозибали, ишқибоз ҳаёт... осойишта ҳаёт... Туғри, ҳамма вақт ҳам шундай эмас, аммо ҳамиша эркинлик, ҳамиша озодлик, ҳамиша ғир-ғир шаббода, газа эпкинлари ҳамишалик...

Тиллабурамашох бўғриқиб кетди, ётган жойидан туриб керишди, силкинди. Ётоқ-қурадан чиқиб, арна томон юрди. Сув ичгандек бўлди. Арнага тикилиб қолди. Куз олдига энди Оқбулоқ келди.

Оқбулоқ Ота Арчанинг сояси етгудек ёйилмасидан қайнаб чиқади. Унинг суви куз ёшидек тип-тиниқ. Тиллабурамашох сурувни кўпинча оқбулоққа бошлаб келади. Улар чўққилардан, қоялардан ёнбағирларга аста-аста тушишади, тошлоқ қияликларни оралаб, бир суқмоқдан турнадай тизилишиб, булоқ томон сардорнинг ортидан эргашишади. Булоққа яқинлашавергач, қоровулликни ҳам унутишмайди. Сардор қатордаги бирор аъзосига ишора беради. У шу кез сафдан чиқиб, Ота Арчанинг тепа тарафидаги ўмовли қоянинг устига чиқиб олиб, атрофни олазарак кузата бошлайди. Сурув мириқиб сув ичиб олгач, узларига соя-салқиндан жой танлайди. Соя бир бет бўлгунча ҳузурланиб, ором олишади. Уҳ-ўҳ-ўҳ... улар қаёқда қолди. Суруви қани? Шахло куз маликалари қаерда? Диркиллаган кузичоқлари-чи? Қани оқбулоғи? Узи нима бўлди?

Уша куни, яъни бундан бир ойлар чамаси олдин, сурув Бешқоя ёнида ёйилиб юрарди. Юрти гуллаб-яшнаган пайт, ям-яшиллик салтанати. Ҳидоятли қиёқлар, гиёҳлар, ғунчалар, кўплари очилган, япроқлари таранглашган, қишдан омон-эсон чиқиб олган сурув ютоққан... Пешинга яқин газада уч отлиқ пайдо бўлди. Тиллабурамашох иккитасини таниди, улар кийимидан маълум, доимо меҳрибон кузлар билан қаровчи узларининг қадрдон қоровуллари эди. Бироқ учинчиси бегона, ўнг қошининг бир ёнида бўртиб турган қоп-қора холи бор нотаниш йигит...

Тиллабурамашох юраги аллатасин бўлиб кетди. Унинг шууридан нимадир сизиб ўтди. Нимадир юз берадигандек... Сурувни бошлаб Бешқоянинг терс томонига йўналди. Аммо кўп утмай бир тоғ бегининг ёлғиз узи унинг қаршисида пайдо бўлди. Нимадир “ширт” этди. Тиллабурамашохнинг этига чиппа ёпишди. У қадрдон қоровулдан буни асло кутмаганди. Кейин... кўзини очганда буртиқ холли йигит ва яна икки-уч фасон бўйдор кишилар унинг устида турарди. Тиллабурамашохни ўша куни тундаёқ панжарали машинада ушбу даргоҳга келтиришди.

III

Куриқхонадаги пурим одам Тиллабурамашохни ёқтириб қолди. Уни куриқхонага сайр этишга таклиф қилишганда, Тиллабурамашох шохидан шуъла таратиб, куриқхона девори буйлаб, аста-аста юриб турарди. Атайлаб қилгандек, кургазма намоишига чиққандек там-там юрарди. Ё раб! Унинг қомати... курки... таранг, сулув оёқлари... тик боқувчи қора, шахло кузлари... қорамтир малла ранг ичида қордек оқ умрови, текис, силлиқ бадани... айниқса, Тиллабурамашохи... шуъладор "Оллох" чизгилари...

– О, красавец! – бутун ҳайратини бир сузда жамлаб, хитоб қилди ва иш бошқармаси бошлиғига юзланиб шундай деди: – Биласанми, унга бу ерда нима етишмайди, чуққи... тоғ чуққиси... скала... Қуринглар, келган меҳмонларим уни қоя устида кукрак кериб, қуёшга қараб турганлигини курсин. Нур таралаётган тиллашохини куриб, мафтун булсин! "Оллох" сўзини нурда ўқисин. Биз Оллохнинг суйган фарзандлари эканлигимизни, уларнинг бу дунёдаги энг бахтли фуқаро эканликларини билсинлар! Куп ўтмай, куриқхона буйлаб, тоғ томонга қараган маълум бир масофада чуққи-қоя қуриш ишлари бошланиб кетди.

Тиллабурамашохнинг ичи эса ёришмасди. Кун-тун ватанини ўйларди, унда шамолдай эркин-эмин кезиб юрганликларини бир зум булмасин эсидан чиқаролмасди. У озод хилқат эди. Оиласи – суруви ҳам озод ва эркин эди. Улар жам бўлиб, Оллох берган эркинлик нашъаларини суришарди. Бу уларнинг оддий ҳаёт тарзига айланганди. Бу дунёда ватанингдан, озодлигингдан, эркинлигингдан қиммат нарсаси йўқ экан. Тоғ бегилари аҳён-аҳёнда катта дарага барча катта-кичик сурувни йиғишиб, саноқ утказишар эди. Уу... бу тупландилар, тус-туполонлар, олишувлар, бир-бирига шох ташлашувлар... Уларни ҳатто Бургутли қоянинг олмос куз бургутлари, Шовуллоқ шаршарасининг кук каптарлари ҳам томоша қилишарди. Какликлар "қақи-бақ... қақи-бақ..."ларини тухтатишарди. Тоштўрғайлар думпарларини ликиллантишиб, алқорлар устида у ёнга, бу ёнга учишиб томоша қилишарди. Тўнғизлар бу пайтда оёқ остида қолиб кетмаслик учун узларини холи жойларга олишарди.

Уҳ-уҳ... Мутлоқ ғолиб бўлган куни. Бу лаҳзаларни эсидан чиқариб ташлаш мумкинми? Йўқ! Йўқ! Асло! Айниқса, сурув сардорлиги учун шиддатли кураш пайтларини... Бу вақтларда бир-бирини аяш йўқ! Ғолиблик, етакчилик, сардорлик йўли – шафқатсизлик йўлига айланади. Зўравон – етакчи! Куч-қувват – етакчилик! Бу курашда ҳатто ҳалокат юз беради. Фожеа оддий ҳолатга айланади. Табиатнинг бешафқат, изчил ҳукми азалий, адабий!

Тиллабурамашох уша куни бир кўз бўлиб қолган сардор билан жангга тушди. Унинг бир кузи курмаса-да, жуда бақувват эди. Жангари эди. У Сардорликни Тиллабурамашохга топширишни хаёлга келтирмасди. Олишув узоқ давом этди. Энг даҳшатлиси, шохлар шохга оралаб, кириб

қолишди. Бурамашохларни бир-биридан ажратиб олиш жуда оғир эди. Бир-бирини итаришар, ортга-олдга тислантиришарди. Бу жангда ғолиб аниқланмаслиги ҳам мумкин. Чунки ҳар иккисининг ҳам йиқилиши, ё жангни ташлаб қочишга имкони йўқ. Ҳолдан тойишса, шохлар шохга тиралишиб, тин олиб тураверишарди.

Тиллабурамашох бу ҳолдан қандай чиқиб кетиш йулини топа олмади. Аммо тажрибали бир куз сардор йулини топди. У тумшугини ерга тираб, олди, булажак сардорнинг куч-қувватига тан бергандек, тек турди. Тиллабурамашох "Оллоҳ" ёзуви муҳрланган шохини ёнлатиб, рақиби шохидан чиқариб олди. Чиқариб олди-ю, ортига бир тисланиб, сардорнинг биқинига шох урди!

Тиллабурамашох ғолиб эди! Мағрур керилди. Ватани салтанатининг энди яғонаси эди. Энди барча алқорлар, улар сурувлари унга тобе-тобун эди ахир!

Мана, энди озодликдан, эркинликдан маҳрум. Ватандан маҳрум. Бўртиқ холли йигит унга куз-қулоқ. Икки марта купчилик булиб, йиқитишиб, баданига наштар ҳам уриб кетди. Холли йигитни кургани кузи йўқ. Уни ватанидан жудо қилган шу. Қани, энди туёқлари остига олса, эзғилаб ташласа... Уҳ-ўҳ... Ҳа...

Ниҳоят, қоя-чўққи ҳам битди.

Қоячўққи жуда ҳашаматли. Албатта, ватанидаги чўққиларга, қояларга ухшамайди. Аммо... бирдан Тиллабурамашохнинг хаёли тобга келди, шууридан олис бир кечинма ялт этиб ўтди. Ушанда илиқ юмшоқ ёз тонгларидан бири эди. Тиллабурамашох ҳар бир тонг куёшини тик юксак қоя зирвада узи кутиб оларди. Сунг аста-секин сурувнинг қурқмасларидан битта-иккитаси ортидан эргашади.

Ушанда, у қояда якка турарди. Унинг бадани нурлардан роҳатланиб, қумушланади. "Оллоҳ" ёзуви чуғланарди. Тиллабурамашох пастга – камарнинг қуюқ сояларига синчковлик билан тикилди. Қандайдир ута жимжитлик. Жимжитлик... сукунат... Қоядан азот куриниб турадиган энлаб усган сершоҳ қора дулана тагида нимадир ғимирлагандай... Сирли ваҳм... Ортига бурилмоқчи эди... "Қарс-с!" Зарб! Ўқ ярим одим адашди. Сардорни зарб учириб юборди. У ҳавода муаллақ пастга шунгиди. Учиб бораётиб, тошдек тушадиган ерини нигоҳлади. "Ё Оллоҳ!..." Тиллабурамашох бир умбалоқ тушиб зил шохларнинг тикка пастига қаради. Улгурди. Туба-шох ерга урилди!

Узун бутли овчи "ҳай-ҳай"лаб югуриб келгунча жони омон қолган Тиллабурамашох узини унглаб олди-ю, камар этаги буйлаб одам буйи ушиб ётган қуюқ пиданаларни оралаб йўқолди.

Ҳа, шундай булган эди.

Уша Ватанидаги чўққи-зирвалардан пастроқ қурилган қоя. Уни битириб ишловчилар қорасини курсатмай кетишди. Тиллабурамашох қизғиш-қиррадор қоя тошлари ёнига бориб, ёнлаб ишқаланди. У ер, бу ерларини шохи билан туртиб курди.

Аста-секин қоя-чуққи сари қадам ташлай бошлади. Ҳар қалай қуриқхонанинг сим тўсиқ, деворларидан яхши-да. Узоқларга қарайсан, узоқларни курасан, эҳтимол, унинг устидан ватани ҳам куришиб қолар, ҳеч булмаса Бешқоя чуққилари... Тиллабурамашоҳнинг чуққилари ҳар қандай жойдан ҳам кўринади. Ахир, у дунёдаги энг баланд, ҳаводор, шамолдор, тик чуққилар. Ўҳ-ўҳ... ватани чуққилари. Улар устида қоя ёриқларидан унгувчи йўсин-моҳлар, улар тоти... ўҳ... ўҳ... Айниқса, қалп-қалтис қоятошлар орасидан сизилиб чиқиб, қотиб қолган мумиёлар... қоп-қора ялтироқ, силлиқ дориворлар... ўқлардан яраланганда жон ато этгувчи малҳамлар... тириклик малҳамлари... ўҳ-ўҳ .. ўҳ...

Ватан соғинчи, эркинлик соғинчи. Тиллабурамашоҳни ҳушдан кеткизаёзди.

IV

У қочиб борарди. Кузларига ишонмасди. Бироқ қочқинга айланганлиги ҳаққос-рост эди. Таралиб оқаётган дарёдан утиб олди. Узоқдан яққол куришиб турган қорли тоғни қоралаб, у томонга югуриб кетарди. Оёқларига ишонарди. Гарчи қуриқхонада улар толғинроққа айланган бўлса-да, мустаҳкам эди. Бора-бора толғинликлардан асар ҳам қолмади. Чигиллар буткул ёзилиб кетди. У олазарак булиб югурарди. Нохушлик келтирадиган ҳеч бир нарсa назаридан четда қолмасди. У аввал қир-адир қишлоқларини ёнда қолдириб ўтди. Баъзи қишлоқ итлари уни куриб қолди. Орқасидан қувгандек бўлди, етиб бупти. Акиллаб-акиллаб қолиб кетишди. У қаршисида турган оппоқ тоғ томон югургилаб кетарди. шунга етиб олса бўлди. Кейин ўзи билади... Ватанини топади. Озодликнинг орти – Ватан. Ватанини топса, эркинлик ҳаёти уша ерда. Эркинлик ҳамма жойда ҳам татийвермайди. У ватанда татийди. Ўҳ-ўҳ... Эркинлик – Ватанда татийди фақат! Ана шу эркинлик деб, озодлик деб, Ватан деб, оила-сурувини деб, қуриқхона деворларига яқинроқ қилиб куриб қўйилган тик қоя-чуққидан “Ё, Оллоҳ!” – дея ташга сакраб учди! “Оллоҳ!” деб эркин ҳаётга учди, Ватани томон учди! Мана, муродига етди. Тиллабурамашоҳ озод. У, мана, қорли қояларга тирмашиб чиқмоқда. Гуртиқларни ўмганлаб ёриб бормоқда. Кучки сурилишларини четлаб ўтмоқда. У бир қояга чиқиб олди. Толиқди, аммо чарчагани йўқ! Тин олди! Олис-олисларга боқди. Поёнсиз тоғ. Тизмалар... тизмалар... ўрқач-ўрқач қоялар... арчалар... арчазорлар, Тиллабурамашоҳ курмаган қандайдир дарахтлар, буталар, қиррадор-қиррадор тошлар, ўйдим-чуқурликлар, жарлар, ўпқонсимон унгуллар, жоналар... Ватани қаёқда? Унинг ватани қайси томонда? Шундай очиқ ҳавода ҳам нега Бешқояси курибмайди? У ҳамма жойдан куришни керак эди-ку... Қани у? Унинг жон Макони қаерда? Оллоҳ!.. Мадад бер!..

Тиллабурамашоҳ тин олиб турган қоянинг ортидан қуёш нурлари осмон юзини ёрита бошлади. Ўҳ-ўҳ... ўҳ... Унинг шуури бирдан ёришиб кетди. Ахир, ватанида ҳам қуёш осмонга шу тарафдан кўтарилар эди-ку.

Демак, унинг ватани бу тоғларнинг ортида эмас, этаклаб кетган томонда, қуёш ботиши томонда, Кунботарда.

Тиллабурамашох шитоб билан қоядан тушди. Югургилаб кетди. Тизмаларни қиялаб югургиларди. Қуёш бир оқтерак буйи кутарилганда, мороллар сурувига дуч келди. Улар қулоқларини дик қилганча бу бегона шохдорга ҳайрат билан тикилишди. Тиллабурамашох уларни ёнлаб утиб кетди. Шу кетишда қанча юрганини билмайди, аммо кун пешиндан утиб қолганда узоқдан бир жуфт қизил бўрини кўриб қолди. Ҳа-ҳа, қизил бўри. Хайрият, уларни Тиллабурамашох биринчи бўлиб кўрди.

Биринчи бўлиб кўришда гап кўп. Қочиш йўлини бир дақиқада шууринг билан белгилаб оласан, шунга қараб, қисматингни ҳам ҳал қилишинг мумкин. Бўрилар ҳам уни кўрди. Хатарли қува-қув бошланди. Ҳаёт-момот лаҳзалари... Тиллабурамашох бўриларни кўп кўрган. Бўрилар уз ватанида ҳам кам эмас. Фақат бу бўрилар ранглари қизгиш экан. Жуссалари ҳам ватани бўриларида кичикроқ. Тиллабурамашох ҳатто бирининг, яъни она бурининг қорни қаппайганини – буғоз эканлигини ҳам илғади. Бироқ улар чаққонгина, шувиллаб орқасидан қолмайдиганлардан, шекилли. Тиллабурамашох жон-жаҳди билан қочишга тушди. Бўрилар икки ёндан келарди. Уни ўртага олмоқни мулжаллар эди. Бу усулда сардор икки-уч марта ватани бўрилари билан тирашиб кўрган. Шу боис у тулғама усулида, яъни гоҳ унга, гоҳ чапга ўзни ташлаб қочиш усулини танлади. Бу йусинда анчагача қочди.

Аммо бўрилар ортидан қолмасди. Тиллабурамашох кескин бурилди, йўлни тикка пастлик – шағаллик энишга йўналтирди. У бамисоли бир бурама лойқа шиддатли селоқимидай оқиб кетди. Бўрилар бундай ҳолатни кутмаганди. Она бўри бир қояча устида итолғиқушдай ҳолсизланиб туриб қолди. Аммо арлониси қувишда давом этди. Одатда бўри зоти тик энимга тик югуролмайди. Ўмбалоқ ошиб кетиши ҳеч гап эмас. Тиллабурамашох бундан усталик билан фойдаланган эди.

Йуқ, арлони бўри, энди ёлғиз бўлса-да, улжани осонликча қўйиб юбормоқни истамасди. У қувиб борарди. Пала-партиш тошларни оралаб, сакраб-сакраб қуварди. Тиллабурамашохнинг чақмоқ шуурида арлони бўри бўртиқ холли йигитга айланди. Холли йигит қуварди. Икки оёқлаб қуварди. Қорачиқдай бўртиқ холи қоп-қорайиб кетган эди. Қош-кўзи орасидан баттар бўртиб чиқиб кетган эди у. У қуварди, изидан қолай демасди.

Тиллабурамашох йўлни энди қиялатиб югуриб, юқорилай бошлади. У олдинда кўринган чўққи ёнидаги газани мулжалга олди. Газани ошиб олса бўлди, нарёғи яна эниш бўлиши керак...

Газа... мана, газа... Газага чикди! Ўҳ-ҳ...-ҳ... Олди қоя эди! Шу асно арлони ҳам етиб келди! Тиллабурамашох унинг анча толиқиб қолганлигини сизди. Фурсат ғанимат! Бошқа илож йўқ! Тиллабурамашох забт билан орқага бурилди, “Ё, Оллоҳ!” – у бўрига ташланди! Бақувват шохлар чақмоқдай қарсиллади, шохлардан ўт чиқиб кетди. У бурини

қоятошга тираб, сиқди! Сиқди! Бурининг кузлари оқиб кетгандай булди! Тиллабурамашох шоҳларини лаҳзада ажратди-ю, туғридаги қоянинг энг пастқам кемтиги – тангисини кузлаб чиқди ва... чақмоқдай узини қаршисидаги эниш тарафга ташлади...

Тиллабурамашох қорни буйи келадиган дарё қаршисидан чиқиб қолганда тун эди. Қандайдир кенгайиб кетган осмон... тула юлдуз... юлдуз... Дарё тула юлдуз... шарақлаб-шарақлаб тебраниб ётган юлдуз... У энди узига келган, ёвларидан қутулганини билар, аллақандай кунгли хотиржам тортганди. Чанқагани эсига тушди. Тамшанди. Олазарак бўлиб сув ичди. Сув ичар экан, дарёнинг иккинчи қирғоғи тарафларда – олис-олисларда тизма тоғлар нигоҳларини олди... Сувга тушиб, ўмганлаб-ўмганлаб қирғоққа чиқди. Силкинди. Танасига қандайдир куч йиғилгандай булди. Югургилаб кетди. Қанча югургилади... Ногаҳон саҳродан чиқиб қолди. Ҳа, тоғ тизмалари буйлаб қаршисида поёнсиз саҳро ётарди. Қаердадир адашганди. Ҳали тоғларда кукиш туманлар элас-элас кўзга ташланарди. Бироқ ватани чуққиларига ухшаш чуққилар, туманлар орасида қалқиб тургандек туюлди унга. Демак, саҳрони кесиб ўтиб, тоғларни қоралаб бормоқ керак бўлади. Саҳро ўт-алафларидан чирт-чирт узиб еди. Аллақандай, чоғроқ тошдай жонзотга дуч келди. У тўнтарилиб ётар, тўрт оёғини тинимсиз қимирлатар, аммо, улар ҳавода муаллақ тебранарди, холос. Бирдан унга тикилиб қолди. Илкис, бир шарпа орқасида тургандай, ваҳимада жонивор устидан сакраб утиб кетди. Беихтиёр унинг бир орқа туёғи ҳалиги жонзотга тегиб кетди. У тўнтарилиб тушди... Бу саҳро уртасида тўнтарилиб ётган Она тошбақа эди.

V

Эрта турган бош тоғ беги Ражаббой соя-салқинда алқорлардан хабар олиб келмоқчи бўлиб, тоғлар турига – Бургутли қоялари томон йул олди. Отининг жиловини салқи қўйиб, теваракни қўш кузлаб дурбини билан кузатиб борди. У сой бўйлаб, ота-боболари экиб кетган, бугунда ёши юз йилдан ошган ёнғоқлар оралаб кетар экан, ғоят мамнун эди. Бунақа хушҳаво тоғ ер юзида битта булса керак, дея уз-узига жилмайиб қўйди. Алқорлар ҳам қай жойни ватан қилишни билар экан-да, саҳро-чулларда яшай олмайди. Жуда баланд, масалан, уч минг метрдан ошган тоғларда ҳам яшай олмайди. Улар учун денгиз сатҳидан икки, икки ярим минг метрли жойлар асл жойлар ҳисобланади. Бекорга ёввойи қўй, дейилмас эканда. Қўйларга ҳам бу тоғлар энг қулай жой ахир.

Шундай хаёллар билан кетар экан, ора-чора сойнинг икки бетида маза қилиб ўтлаб юрган алқорларни курди. Қозоқмозор деб аталмиш жойга етганда отидан тушиб, уни бир учқатга боғлаб, "булк-булк" қилиб қайнаб чиқаётган чашма бўйига келиб ҳовучлаб сув ичди. Сунг ён томондаги бир

қоя устига чиқиб борди ва бу қулай жойдан алқорлар сурувини кузата бошлади.

Ё, фалак! Қичқириб юборди Ражаббой, дурбин ойнаклари ёнида Тиллабурамашох турарди! Йўқ, дурбин адаштираяпти, кузлари алдаяпти, булиши мумкин эмас... Тиллабурамашох!

Чунтагини пайпаслаб, кулрумолини топди. У билан дурбин ойнакларини артди, кейин кузларини артди. Қаради. Тиллабурамашох! Тагин қаради, Тиллабурамашох!..

Отига чопди. Еча солиб, унга сакраб минди. Сурув томон от қуйди. Бир камарчани жадаллаб кесиб утиб, алқорларни бетлади. Катта сурув бу ердан азот куришиб турар эди. Худди ўзи – Бурамашох! Ўзи! Уни қандай танимаслик мумкин... Лекин бу ерда қандай пайдо булди? Пойтахтга олиб кетишган эди-ку!..

Ражаббой ҳамон ҳайрат, ҳаяжонда эди. Қандай уй-хаёллар қилишни ҳам билмай қолди. Саволлари куп, жавоблари йўқ. Мобиль... Уйда қолибди. Қул телефонидан куп фойдаланмайди. Бу тоғларда ким билан ҳам гаплашади. Шаҳар-пахарга тушса бошқа гап. У отнинг жилловини уйи томон бурди.

Ўша куни шомдаёқ пойтахтдан буртиқ холли йигит ёрдамчиси билан етиб келди. Унинг ранглари учиб кетган. Қоши орасидан холи яна-да буртиб чиққандай. Унинг айтиб беришича, улган улган, қолган қолган.

Тиллабурамашох лаънати меъморнинг айби билан қуриқхона деворига яқин қуриб қуйилган қоя-чўққидан чегара оша сакраб ошиб, қочиб кетганлигидан буён уйқу-пуйқини билмайди. Тиллабурамашохни изламаган жойи, дараклатмаган қулоғи қолмабди. Ахир уни Катта жуда яхши қуриб қолганди. Агар билиб қолса, отади, ҳа, нақ отади! Лекин Тиллабурамашохнинг уз макони – бу тоғларга йўналганлигини ҳеч кимса ҳаёлига ҳам келтирмаган эди. Ахир, бу ҳайвон-ку... шунча узоқ йулдан – Мағрибий Тёншондан Туркистон тизмалари орқали Нур тоғларига... Йўқ, йўқ, бу ҳайвон эмас, бекорга шохиди "Оллоҳ" сузи тамғаланмаган. Ражаббой, вақтида телефон қилиб, хабар берганлигинг учун минг-минг ташаккур. Мени куп ёмон нарсалардан асраб қолдинг. У бир тоғдан олиб, бир боғдан олиб, Ражаббой ҳовлисидаги супага қалин тўшак солдириб, уйқуга кетди.

Эрталаб Ражаббойнинг тоғ бегилари Тиллабурамашох сурувининг Алқорқамоқ сайхонида эканлиги хабарини етказишди. Алқорқамоқ сайхонлигини табиий тошқурғон, деса булади. Тошқурғон теварагининг уч тарафи баланд қиррадор қоялар билан қуршалган, бир тарафи эса таги кўринмас зов, тошжарлик. Зовга туташиб кетган биргина тошдарвозаси бор. Алқорлар шу дарвозадан киради-да, ўзларини нақ қамоқхонага тиқишади. Алқорларнинг бу жойга тез-тез кириб, ёйилиш сабаби, сайхонлик ичи ўт-уланга тула. Шувоқ дейсизми, бугдойикми, туятовонми, кийикутми, какрами, зирами, улмасўтми, сигирқуйруқми, андизми... ҳаммаси топилади. Бундан ташқари учқат, қорабодом, сууз,

ирғай, итбурун, қизилча сингари дарахтлар, буталар ҳам қалингина. Буларнинг япроқларини алқорлар икки олд оёғини дарахт таналарига тираб олиб, “чирт-чирт” узиб, роса маза қилишади.

Бугун ҳам сурув маза қилиб ёйилишмоқда. Кун чошгоҳга яқинлаб қолган. Тиллабурамашох ўз Ватанида, эркин, озод, унинг етиб келганига ҳам ҳафта булиб қолди. У тагин шахло кўз сулувлари қуршовида, бир қанча кўзичоқлари сакраб-сакраб ўйнайди, диркиллайди, диконглашади. Кўчқорчалари бир-бирига калла ташлашади.

Ражаббой буртиқ холли йигит, ёрдамчиси ва икки қоровули билан тошдарвоза олдида пайдо булишганда, Тиллабурамашох бир учқат шохларига осилиб, кавшанмоқда эди. Унинг кўзлари “ялт” этиб буртиқ холли йигитга тушди. Юраги жизиллаб кетди. Ўша кимса... ёнида шотири... қоровуллар... Сардор учқатдан оёқларини зудлик билан пастга туширди. Жон ҳолатда сурувига қараб маъради. Сурув зум ўтмасдан уни ўраб олди. Тиллабурамашох уларни зов тарафга суриб кетди. Сурув зовни ёнлаб тухтатди. Тек қотди. Ҳаммасининг кўзлари тошдарвоза олдига қадалди. Қулоқлари таранг-динг. Бирортаси қилт этмайди, ҳавода пашша учса билинади.

Ражаббой шерикларига нимадир деди-да, узи улжани ухлатадиган ўқ-дорили остин-устинли қўшоғиз милтиғини орқасига яшириб сурув томон юрди. Аста... оҳиста... аста... оҳиста... Тиллабурамашохнинг... кўзлари сеҳрлангандек... холлида... икки оёқли бўрида... Тоғ бегида эмас, ушанда... Ражаббой... аста... оҳиста... аста... “Шип-п!..” Тамом! Тиллабурамашохнинг олдинги икки оёғи букилиб кетди, тентираб-тентираб, буксаси билан бир тошга тиралиб, йиқилди. Сурув тум-тарақай булиб, ҳар ёнга сочилиб қочди. Буртиқ холли йигит, қандайдир чаққонлик билан бир зумда, Ражаббойга ҳам қарамай Бурамашох ёнига етиб келди. Келди-ю, унинг шохларидан маҳкам ушлаб олди. Ушлаганда ҳам “Оллоҳ” тамғасининг устидан беркитиб ушлаб олди. Ушлаган қўли бир “жиз” этгандай бўлди-ю... Бу етмагандай бўйнига ўтирди. Ўҳ-ҳ... Бу ёғи лаҳзада содир бўлди. Тиллабурамашох зарб билан сакраб турди. Турди-ю... зов томон отилди. Холли йигит нима бўлаётганини ҳам англамай, Тиллабурамашохнинг шохларидан қўлларини ҳам ололмай, у билан тубсиз зов-тошжарга учди.

Бургутли қояда юз берган бу воқеаларни кузатиб турган жуфт бургут ҳавога кўтарилди. Сўнг ваҳмкор зов тепасида кенг доира ясаб уча бошлашди... Тоғ бегилари жон ҳолатда дара-камарларни айланиб бу ерга келганларида, холли йигит қонга беланиб ётарди. Аммо Тиллабурамашох йўқ эди...

Ражаббой мумиёли чуққига бир нигоҳ ташлаб қуйди...

**САҲРО УРТАСИДА
ТУНТАРИЛИБ ЁТГАН ТОШБАҚА**

(Ҳикоя)



* * *

Ўрталик Осиё чул-сахроларига куклам кириб келди. Офтоб тигланиб, чексиз кенгликлар илиқ нурлардан тафт ола бошлади. Намиққан қумлар ялтираб, ораларидан яшил утлар, майсалар, қиёқлару гиёҳлар нималардандир ҳайиққансимон буй кўрсатишга тушди. Улар вақтма-вақт, кунба-кун тетиклашиб, яшилланишга киришди. Инжа нозик исмсиз чечаклар эпкинлар оғушида бешиктебратарлар каби тебрана бошлади. Ерқазарлар, ингичка бармоқли юмронқозиқлар, қушоёқлар у ёққа, бу ёққа югургилашгани югургилашган. Юмалоқбош калтакесак, қулоқдор калтакесак, йул-йул калтакесаклар едранглашиб, бошларини сарак-сарак қилишиб, гоҳ қандайдир сим-сим товушларни тинглашаётгандай, бир дам жонсиз қотиб қолгандай, узун-қисқа чопқиллашиб, овга киришиб кетишган. Буғма илон, кундаланг-таргил чипор илон, уқилон, чархилонлар буралиб-суралиб, шувиллашиб изғишади ёки нималарнидир пойлагани-пойлаган.

Шундай қайноқ, жунбушли ҳаёт фурсатларида она тошбақа кукка тикилиб ётса-я?.. Фақат кукка! Осмони муаллаққа! Бугун у ҳам барча салтанат жонзоту жониворлари каби қиш буйи ухлаган оромгоҳидан — панжалаб, намиқиб ётган саксовул тагидаги инидан ташга чиқди. Бирпас каттакон оламга тикилди. Кузларини қуниктиргандек булди. Бирдан куч-қуввати тошгандай, дадил юриб кетди. Ана шу дадиллик хатога олиб келди. Бир чуқурчага туйқус ағдарилиб тушди. Тушганда ҳам қандоқ, тўнтарилиб тушди. Шундай тўнтарилиб тушдики, у ёнга, бу ёнга қимирлашнинг иложи йўқ. Ё раб! Қолипчага қўйиб қўйгандек! Жон ҳолатда оёқларини қимирлата бошлади. Э, воҳ! Бефойда! Қанча уларни ҳаракатлантирмасин, бари бефойда! Қанча уринмасин, оёқлари ҳавода уйнайди, холос!

Она тошбақа ҳолдан тойди. Тин олди. Осмонга тикилди. Осмон бунча чексиз, боши-адоғи қуринмайди. Тикка осмонга қараш олислардан ёки ёнлама қарашлардан бошқача буларкан. Мана, тепасида бир парча момиқ булут. Бунча оп-п-поқ булмаса. Тирилаверсанг, эсинг оғиб қолиши ҳеч гап эмас. У думалоқ кузларини урталик нуқтадан олиб, булутнинг узун-юлуқ думсимон томонига қадади. Думсимон булут зум утмай ёйилиб, куклик ичига сингиб йўқолди. Во-о ажаб, булутларнинг юриши ўз қавмдошлари юришига ухшаб кетаркан. Секин... секин... оҳиста... сирғангансимон.

Хў-у-ў, ана, кенг елкадор, кукраклари купчиган яна бир оп-п-поқ булут. Ана, у она тошбақа томон сурилмоқда. Унинг устига умбалоқ ошиб-ошиб кетаётгандек.

“Сариқсор! Сариқсор!..” Она тошбақа нигоҳи осмонда учиб юрган ашаддий душмани булмиш ёвуз сариқсорга қадалиб қолди. Жон ҳолатда олд-орқа оёқларини юргиза бошлади. Бор кучини ишга солди. Йўқ, бефойда! Оёқлар қанча ҳаракатланмасин, фойдасиз эди! Улар заминга тегмасди, бирор таянчга таянмасди!

Наҳотки, нажот йўқ! Наҳотки, у сариқсорга тирик емак бўлса? Йўқ, хайрият, душмани кузи унга тузмади. У узоқлаб кетди. Эй, Тангри, шундоқ ҳам яратасанми? Икки коса иди! Орқа – қалқон, қорин – қопқон. Орқа ҳам, олд ҳам берк! Бош – катта. Узунроқ чузилмайди. Йўғон, гуштор тил. Чаққонгина ҳаракат қилса, кошкийди! Бунинг устига, тишлар ҳам йўқ. Катта қовуқ – ҳаракатга мос тузукроқ қиладиган иши ҳам йўқ. Бош мияси... ҳа, узига яраша. Хайрият, кузлари ўткир. Таъм, ҳид билиши маромида. Сизги-сезим, булардан нолиса, яратганга шак келтирган булади! Қул-оёқлари ҳаракати жуда мақтовли бўлмаса-да... чидам зарурияти бор. Аммо уларни қуядиган замин, таянч бўлмаса-чи? Ватан бўлмаса-чи? Ҳолинга вой экан! Мана, ётибди... Ҳа-а... Тангри ғазабига дучор бўлган-да унинг қавми. Тангри ғазабига! Тангри ғазоби беомон, аёвсиз!

Она тошбақа зеҳнига зур берди. Зеҳни бамисоли бир маконким, уни игна билан қазий бошлади. Қазисанг, тақир ердан ҳам сув-сузук чиқади. Она тошбақа қавми ҳам одам қавмидан булиб, у ун ташувчи – савдогар бўлган. Ҳа-ҳа, яралмиш замонларда табаррук ун савдоси билан шуғулланган. Аммо харидорлар ҳаққига куп хиёнат қилган экан-да. Элга тийиқсиз ёлғонлар айтиб, муқаддас тарозини носоз этиб, кунглини ҳам, қулини ҳам булғаган. Халқни алдасанг – ҳаққа етмайсан!

Халқ унинг алдов хиёнатларини билар экану, бироқ кўриб-кўрмасликка, билиб-билмасликка олар экан. Инсоф, диёнатга келиб қолар, деб умидланар экан. Йўқ, йўқ, булмабди. Пичоқ суякка етибди. Кунлардан бир кун халқ тобга келиб, ҳақли ғазаб отига миниб, Тангри-таолога арз қилибди. Тангри-таоло адолатли арзни жон қулоғи билан тинглаб, амалга утибди: яъни, савдогарни муқаддас тарозининг икки палласи орасига – уртасига жойлаштириб, у ён, бу ёнга сурилмайдиган тарзда сиқиб қўйибди! Боши ва тўрт оёғини эса тарози паллаларининг ташқарисида ўлмас-йитмас ҳолатда қолдирибди. Бутун оламгаю одамга ибрат бўлсин, дебди. Бу қавм авлоди ушандан буён ҳамма ерга – чулу саҳрога ҳам, тоғу-тошга ҳам, қулу-уммонга ҳам сочиб юборилган экан.

“Лекин мен тангрига нима ёмонлик қилдим? Нечун ғазабига дучор бўлдим? Нечун тонгда тўнтарилиб тушдим? Бутун қишни саксовул тағидаги маконимда утказдим. Ҳеч қаёққа чиқмадим, дайдиб юрмадим. Дийдиё қилмадим. Менга алдовлар, ёлғонлар, жону жонзотлар ҳаққига хиёнат қилишлар мутлақ бегона. Нафсимнинг эгасиман. Беғараз озиқ-

емакларим — кунғирбошлар, шуралар, ятирбошлар, буғдойиқ сингари ўт-усимликлар, холос. Ҳаттоки, сув ичмасман. Ут-уланлар нами менга етарли, ахир. Баҳорни энтикиб-энтикиб кутдим, соғиниб-соғиниб кутдим. Шу сабаб ўйдим-чуқурни ўйламай, дадил-дадил юриб, яшилликка бурканаётган маконимда тезроқ яйрамоқчи бўлдим. Афсус-с-с... (У бироз тин олди. Тагин идроклай бошлади) О-о, тухумлар туғишни, болаларим бўлишини қанчалар орзуладим. Одам қавмидан бўлсам ҳам айни жонзотман, жонивор жонман, тириклик наъшасини суриш, узоқ умр куриш, насл қолдириш... савоб зарурияти бу!

Отам юздан ун ошиб, онам юздан уттиз ошиб, ҳалол ҳаёт кечириб, фанога йул олган. Менга ухшаб, тунтарилиб ётиб, ўз ажалидан бурун, ҳа, умрий улимдан бурун улмаган.

Наҳот чорасизман, наҳот нажотсизман?..

Она тошбақа тагин оёқларини ҳаракатга келтирди. Улар ҳавода гўё нимадир тутмоқчидек... Уйнади... Бир оздан сўнг тақирбошини гоҳ чапга, гоҳ унга бурди, олдинга чузди. Йўқ, чаппа ошиб, тунтарилиб юриб кетишнинг сира иложи йўқ! У бундай иложсизлик ҳолатини илк бошидан кечирмоқда. Аммо кўрган. Ёш, тулишган қай бир йилда у эркакларнинг, ҳа, бирданига тўртта хушторнинг талашига қолган. Ушанда бўлажак эрлар синчалакдек келадиган думларини таранг қилишиб, у ён, бу ёнга ликиллатишиб, роса жанг қилишди. Кураш давомида ғолиб рақибларининг икkitасини қочирди, бирини тунтариб юборди. Кўп утмай, тунтарилиб ётган рақибини калхат илиб кетган. Уни осмони фалакка олиб чиқиб, қайтариб ер томон отган. Косалари синиб, қорни сочилиб кетган қавми шу тариқа калхатга ем бўлган. Келинчак эса ғолибга суюкли малика бўлган. Ҳаммаси эсида. Аммо бу ётиш нима? Бу кўргилик нима бўлди? Қанийди, хушторларининг бирортаси кўриниб қолса? Шу ердан ўтиб қолса. Албатта, кўмак берарди. Туртибгина суяб юборса бўлди эди. Унга суюкли ёр бўлишга ҳам рози.

Йўқ, қавмидан бирор-бир сас-садо йўқ. Шарпаси ҳам сезилмайди. Бироқ душманлари жуда кўп. Уларни ҳаётида анча-мунча учратган. Эчкизмар, тулки, корсак, бўрию чиябўри, қўзғунлару бургутларни ҳам учратган. Ҳамиша, аввало Яратган, қолаверса, кейин тош корсонлари асраб қолган. Тош корсонлари – ишонч қалқонларидан бироз аввал нолигандай бўлди-ю, йўқ, йўқ, улардан барҳақ нолиб бўлмайди! Душманларининг энг хавфлиси, ёнида бир зумда пайдо бўлиб қоладигани эчкизмар, у, ўта хавфли, иблиснинг ўзи, унинг тили-тишлари косалари орасига суқилиб кириши мумкин. Лекин шу ёвдидан ҳам қалқонлари сақлаган.

Она тошбақа шу кўйи ўйларга ғарқ ётар, нимадандир нажот кутар, илкис-илкис, тез-тез оёқларини ҳаракатга солар, аммо осмон йироқ, ер қаттиқ эди.

Кўп пешиндан оғди. Она тошбақани умидсизлик исканжасига олди. Бир гала қўзғун кўз илғар жойдан учиб ўтди. Уларнинг, ҳатто, товушлари

хам танага титроқ солади. Она тошбақа уйларига бургутлар тушди. Бургутлар тоғларда яшайди. Чуққиларда ошён қуришади. Кўпроқ тоғ осмонларида айланишади. Болалар очишади. Бургутлар тошбақалар учун қиш олди жуда хавфли. Улар бу саҳроларга емиш ахтариб учиб келишади. Ҳарки, емаклар бепоён қумликларда аниқ-тиниқ кузга илинадиган бўлади бу пайт. Бундан ташқари, қумликларда бургутлар севиб ов қиладиган товушқонлар, юмронқозиклар, каламушлар куп. Бургутлар, ҳатто сайғоқларнинг, жайронларнинг болаларига ҳам ташланиб қолишади.

Она тошбақа оёқларини ҳаракатга келтиравериб, тамоман ҳолдан тойди. Уни очлик ҳам қийнарди. Шундоқ ён-веринг ем-емиш-озуқага тўла бўлса-ю тилингни чузолмасанг, чузсангу у ҳавода ўйнаса? Бу қандайин бедодлик, бадбахтлик?

Она тошбақа кузларини юмди. Тириклик тугади. Тугамай, нима буларди? Кузларини очишга ҳам мадори қолмади.

Ногаҳон...

Она тошбақа шуури, зеҳни юришгандай бўлди. Назари бирор нарсани илғар-илғамас ҳолат эди, тун эди. Қоп-қора зулмат эди. Аммо осмонда юлдузлар чарақларди. Кузлари катта-катта очилиб кетди. Уни қандайдир суяксиз қул оҳиста кутарди. Тунтариб, ерга қуйди. Ҳа, ерга қуйди. Оёқларини секин қумга ботира бошлади. У ростдан ер, замин! Бир қадам... икки қадам... уч... орқасига қарамади, қарай олмади. Аммо қулоқларига сас-садо етиб келди: "Мен ҳам одам қавмидан. Фақат Тангрим менга "Обиҳаёт" – ҳаёт булоғидан сув ичирган! Ҳарки гуноҳсиз, беайб, оғир аҳволда қолган тирикларга мушкулени осон қилишга имдод бергувчи – ибрат ҳолатида умрибоқийлик ато этилган зотман! Ҳали ризқинг бор-р!!!"

Она тошбақа таққа тўхтади.

Ақл шуурида чақмоқ чақди: "Бу ахир Хизр..." Ва шу пайт кўкда ҳам чақмоқ чақди, осмон тарвақайлаб ёришиб кетди. Бирпас ўтмай ёмғир ёға бошлади.

2017 йил, декабрь

НАСРИЙ ҚАЙИРМАЛАР



БИРИНЧИ ДЕРАЗА

* * *

Олам – ҳикмат китоби. Уқиб ва уқиб яша.

* * *

Олам тақдири – одам тақдири.

* * *

Дунёда доною донишмандлар айтмаган, битмаган ҳикмат қолмаган.
Фақат мағзи чақилмагани куп.

* * *

Ватаним тоғида ётган тошнинг ҳам тарихи бор. Фақат унинг тилини
уқмоқ лозим.

* * *

Ўзбекистон – улкан имкониятлар мамлакати.

* * *

Ватан камолоти учун амалий фаолият ватанпарварликдир.

* * *

Давлатнинг асоси на ер, на кук, на сув... балки халқдир.

* * *

Ўз миллий ғоясига, мафкурасига, ўз тараққиёт йули мезонларига эга
булмаган давлат бўрон измида қолган қайиқдир.

* * *

Маҳаллийчилик миллатпарварлик ва ватанпарварликнинг асосий
душманидир.

* * *

Ватаннинг буй-басти ботирларию шоирлари билан ўлчанур.

* * *

Эртақларда девлар жони ўзида эмас, аллақаерларда: ғорларда, тоғлар ичида, сандиқлардами сақланар экан. Чин инсон жони эса ҳаммаша Ватанда сақланади!

* * *

Энг буюк жасорат Ватан тақдири йулида қилинган жасоратдир.

* * *

Ватан тандир. Нон-тузин унутганлар кур булади!

* * *

Иглу — эскимосларнинг қордан ясалган уйи. Қиш тугаб, кунлар илигач, у эриб кетади. Шимолдаги бу элат тақдири ҳам иглусига ўхшаб боряпти. Ватанинг иморатини мустаҳкам қур!

* * *

Замин абадий эмас, заминмонанд маконлар абадий. Инсон абадий эмас, инсоният абадий.

* * *

Табиатда ҳеч бир нарса тенг бўлмаганидек, давлат, ҳокимият, халқлар ўртасида ҳам тенглик бўлмайди. Фақат улар биродарлик, дўстлик асосларида тенглик ҳаётини кечиришлари мумкин.

* * *

Халқнинг фақат бугунини ўйлаган ҳукмдор — Етакчи. Унинг келажаги ва камолоти асосларини қурган ҳукмдор — Донишманд. Полиз бошига қурилган хашаки чайла билан пойдевори даре тошларидан қурилган иморатнинг фарқини унутманг!

* * *

Ҳукмдор мақтов-олқишларнинг тагида нима борлигини доим назардан қочирмаслиги керак. Ҳамду санолар йули — ҳақорат, масхара ва фалокатли бўлиши мумкин.

* * *

Кемалар учун қуринмас сув ости қоялари ғоят хавфли, ҳалокатли бўлгани каби сарой ва салтанат сийратидаги эътиқод ва ахлоқ тубанлашувлари мамлакат инқирозига ибтидо бўлиши мумкин.

* * *

Ижтимоий тенгсизлик табиий тенгсизликдан келиб чиқади.

* * *

Тоштарош қулида тош, кулол қулида лой истаган шаклга киради. Ҳукмдор уз ақл-заковати билан тош ҳам, лой ҳам эмас. Собитлик, қатъиятлилиқ мамлакатни таназзуллардан асрагувчи кучдир!

* * *

Бир тоифа қонунни билади ва унга амал қилади. Бир тоифа қонунни билади, лекин унга амал қилмайди. Бир тоифа қонунни билади ва аммо иблисона йўлларда фойдаланади. Бир тоифа қонунни билишни ҳам, унга амал қилишни ҳам истамайди.

* * *

Ҳокимиятни қатъият билан бошқариш инсон эркига дахл қилмаслиги керак. Дахл қилинса, бу – дарёга туғон қуриб, сувни туплаб, боғларга сув бермай, дарахтларни қуритиш билан баробар.

* * *

Ҳукмдорлар учун халқнинг оми-муте булгани яхши. Қашқир учун ҳам осонгина тутқич берадиган қўйлар керак.

* * *

Олтин қадахда май симириб, узоқ умр кечирган ҳукмдорни эшитмадим.

* * *

Даҳолар ҳар бир замоннинг, халқнинг валинеъмат зотлари, аммо улар ўша давр ҳокимияти учун ёқимсиз, ҳатто ортиқча кишилари бўлиши мумкин.

* * *

Озоду эркин қўшга ҳукмдор фармонининг аҳамияти йўқ.

* * *

Ҳукмдорлик гулзорининг тикони куп.

* * *

Салтанат ишларида ҳукмдордан кура шубҳакорроқ кимса йўқлиги ҳаққост-рост. Шубҳа эса имондан ажратади, деган гаплар ҳам борлиги ҳақиқат.

* * *

Ҳукмдорнинг оти кундаланг ҳам чопади.

* * *

Камбагал – давлат хазинасини уйлашга қодир эмас.

* * *

Халқ бахти, тинчлиги, давлат фаровонлиги учун сарфланмай йиғилиб ётган хазинанинг уммон қаъридаги хазинадан фарқи йўқ.

* * *

Заминмонанд сайёра топилибди, Куча-куч бошланибди. У ёқда ҳамма нарса бор эмиш, мул-кулчилик эмиш. Ўзи билан ҳеч ким ҳеч нарса олмабди. Фақат деҳқон кетмонини елкасига ташлаб олишни унутмабди.

* * *

Ер шари – она Сайёрамиз қисмати фақат самовий кучларгагина эмас, инсоният фаолиятига ҳам боғлиқлиги бугун кундек аён. Шундай экан, ҳар бир инсон заминга ўз она уйи каби муносабатда бўлмоқлиги ва ушбу хулосага келиши учун аввало ўз шахсини камол топтирмоғи лозим.

* * *

Инсон худосифат бўлмоқликни, Унингдек фаолият курсатмоқликни истайди. Ва барча фожеаси шундан эканлигини ўзи куп ҳам англайвермайди.

* * *

Қатъиятлилиқ билан қайсарликни қориштириб юборманг. Айниқса, буни юрт сарварлари унутмаслиги керак.

* * *

Дунёни ўзгартираман, деди Қилич. Дунёни ўзгартириш учун мен ўзгаришим керак, деди Қалқон.

* * *

Янги-янги давр қитъаларини ШАХСлар, ДАҲОлар очади. Қолганлар уларга эргашади.

* * *

Қонун – буқаламунга ухшамаслиги керак.

* * *

Ҳукмдор қаҳри бурнининг учида.

* * *

Ҳукмдорларга оқил, доно маслаҳатчилару садоқатли уқтам вазирларгина эмас, сузни тик айтгувчи шиддатмонанд яқинлар ҳам керак.

* * *

Ёлгоннинг куч-қудрати ҳокимият миқёсида томир отганда азот буй курсатади.

* * *

Сиёсатда зуравонлик - адолат ниқобини кийган ҳукмдор.

* * *

Бир шахс бутун бир халқни ўз алдов мақомига юрғизиши мумкинми? Йўқ! Аммо У уша халқнинг виждонсиз, имонсиз, даюс, порахўр, лаганбардор ҳукуматини ўз йўриғида қирчанғи отдай йўрғалатиши мумкин.

* * *

Қуёш кексайиб бормоқда. Ватанпарварлик туйғулари Заминпарварлик туйғуларидан айро тушмаслиги керак. Она-сайёрамиз ўз қобиқлари ичида маҳдуд яшаётган қуртлар уйлаганларичалик улкан эмас.

* * *

Сўздан... ҳаракатга ўт. Умр мазмунини, инсоннинг жамиятдаги ўрни-ни унинг фаол ҳаракати белгилайди.

* * *

Жамият камолоти унда Инсон ҳаётига булган муносабат билан ўлчаниши зарур.

* * *

Ҳуқуқ – маънавий, маърифий тараққиётни камол топтиргувчи Куч. Аммо у ахлоқий мезонларга зарба бермаслиги керак.

* * *

Оний чақмоқдай ялт этиб келган фикр дунёни алғов-далғов қилишга қодир.

* * *

Инсоният тақдири гугурт чўпларидек бир қути ичига жойланиб бўлди. У чақмоғини кутмоқда... Ҳар бир қуринган юлдуз ё сайёрада ҳаёт йўқлиги аниқ, демак, шунга қараб чақмоқ чақилмоғи керак...

* * *

Кўп жойда кишилар ҳар хил нарсага сигинадилар. Масалан, тошга, дарахтга, булоққа, ғорга... Бу – табиат кучини муқаддас билишдир, уни шарафлашдир.

* * *

Инсон “оби-гил”дан пайдо булган, дейдилар. Бу гап рост. Ундан ҳамма шаклдаги ҳамма нарсани ясаса бўлади.

* * *

Ҳақиқатни фақат қалб кўзи билан куриш мумкин.

* * *

Қалб шоҳқучасининг охири йуқ, тор кучалари кўп.

* * *

Аҳмоқона ғоялар шунчалик кўпки... уларнинг устида тузуккина олимлар турганига ҳайронман.

* * *

Ҳар қандай жамиятда ҳукумат халқнинг меҳнатига яраша ҳақ тўламаса, ўша халқ меҳнатга нисбатан паришон ҳолати ила муносабатда бўлади. Халқ адолатсизликка норозилигини шу тариқа намоён қилади.

* * *

Одамият ва Жамият камолоти фақат тарбия ва унинг изчил ибрати билан амалга оширилади. Шахслар уларнинг етакчиларидир. Инсон қўли билан яратилган бог қайда-ю, ёввойи чангалзор қайда?!

* * *

Қавмлар, элатлар, эллар, халқлар, миллатлар бирлиги – Инсоният. Замин эса бутун Инсониятга дахлдор. Шундай экан, одамзод бир эртақдаги тор кўприкда ўзаро дуч келиб қолган икки серкадек бири-бирига йўл бермай шохлашиб, оқибатда иккаласи ҳам дарёга қулаб ҳалок булганлар... қисматига тушмасликлари учун тоза РУҲ, ойдин ТАФАККУР, донишманд АҚЛ билан иш тутуши ҳам фарз, ҳам қарз!

* * *

Озодлик, Эркинлик инсоннинг ўз қалбини, ўзлигини ўзига қайтарувчи муъжизавий кучдир!

* * *

Эркинлик — бу фақат кунгил истагини қондириш, деган гап эмас. Қушларнинг яшаш тарзи — эркинлик, аммо улар ҳаётида ҳам изчил табиий тутқунлик қаноати — қонунияти бор.

* * *

Балки ёлғон, балки чиндир, бир қуш бор эмиш. У ер куррасининг қайси бурчагида куклам бошланиб, дарахтлар куртакласа, уша ерда ҳозир у нозир экан. Озиғи — фақат куртак. Шу боис номи ҳам куртакхур. Менга у Ёвузликнинг тимсоли бўлиб туюлади.

* * *

Тараққиёт инсониятнинг маънавий камолоти билан тарозиланмоғи керак.

* * *

Салтанат манбаи — куч-қудрати халқнинг маърифати билан мезонланмоғи лозим.

* * *

Ҳақиқат!.. Ҳақиқат!.. Ҳақиқат!.. Қайси ҳақиқатни айтяпсиз?
Адолат!.. Адолат!.. Адолат!.. Қайси адолатни айтяпсиз?

* * *

Бир римлик адиб-файласуф ёзган: “Ҳокимият — фахрли қуллик!” Кошки, мақолга айланган бу айтим бутун жаҳон ҳукмдорлари саройларининг пештоқини безаб турса?!

* * *

Эрк тақчил жойда ҳамма нарса тақчил. Ҳамма нарса давлатники, дейилган ерда халқ юпун, қашшоқ, гадо. Шахсий манфаат булмаган жойда юксалиш, тараққиёт йуқ.

* * *

Қонунлари пала-партиш ишлайдиган мамлакатнинг келажаги шубҳали.

* * *

Миллий маданиятни майдалаштирманг.

* * *

Тенглик — бир ранглик. Бир ранглик эса кишини зериктиради.

* * *

Сунъий тараққиёт тезлигида табиий фалокат йўқмикан?

* * *

Одамзод яратган қонун ҳамиша чала. Зилзила қўпганда қошона ҳам вайрон.

* * *

Узинг кузини очган булоқнинг суви ширин.

* * *

Жуда қўп нуқталарда кайфият ақлдан устун.

* * *

Камбағалларга “Бой бўлмаг...”, “...Бойлик – бевафолик”, “Бойлик – бахтсизлик келтиради...” ва ҳаказо деб насиҳат берувчи олижаноб кимсалар рийёкордирлар.

* * *

Энг ёмон душманим – бировдан олган қарзим.

* * *

Қарз – одам бўйнига чирмашиб олган илон.

* * *

Душман икки турлик бўлади: Танти душман, номард душман. Биринчиси, сен томонда адолат бўлса-ю, у қозилик қилаётган бўлса, ишни ҳақиқат юзасидан ҳал қилиши мумкин. Иккинчисига эса ҳақу ноҳақлигининг ҳеч қандай аҳамияти йўқ.

* * *

Зағизғонни ёмон кўраман, тухум ўғирлагани учун. Майнани ёмон кўраман, узумларга очофатлик билан ташлангани учун. Уларни ёмон кўрмаган бўлурми эдим... Товуқларим тухумлари, узумзорим булмаганида...

* * *

Олтинни ҳам олтин сотиб олади.

* * *

Қалбим Аллоҳ сари!

Кундан-кун ҳеч нарсани билмагандай, ҳеч нарса уқимагандай, уқмагандай, имконсиздай, умрим беҳуда утгандай ҳолатга тушиб бормоқдаман. Ҳолбуки, ёз ҳаётини яшаяпман.

* * *

Кексанинг вужуди эски деворга ухшайди. У кундан-кун нураб бора-веради.

* * *

Узгалардан устун бўлишнинг эмас, ўзингдан устун бўлишнинг кўпроқ ғамини чек. Шунда умринг, ҳаётинг маъно, ҳикмат гулларига бурканади.

* * *

Денгизлар, уммонлар узларига булоқлару дарёларнинг қуйилмай қолишидан қўрқиб яшайдилар. Мен болаларимга муте бўлганим каби: деҳқон даласига, балиқчи денгизига, чорвадор Қукнинг ёмғирли булутларин марҳаматига мутедирлар.

* * *

Хонадон ити ботир, куча ити қўрқоқ бўлади. Чунки биринчисининг ишонадиган эгаси бор, иккинчиси эса дайди.

* * *

Дунёда қилинаётган барча жинойтлар, асосан, тунда содир этилади. Менинг назаримда, жинойтчилар тонг отишига, қуёш чиқишига ишонмайдиган кимсалардир.

* * *

Табиатан қашқирлар каби ваҳший, одамхўр, золим кимсалар бор. Улар жамият қонунларини писанд қилмайдилар. Бу кимсаларнинг жазосини фақат ўқлар, қиличлар, сиртмоқлар ва қамоқлар адолати бериши мумкин.

* * *

Турмуш ташвишлари бамисоли тушов. Лекин бу тушовсиз яшаб бўлмайди.

* * *

Қаноат – сенинг қай даражали инсон эканлигингни кўрсатгувчи куч!

* * *

Муносиб бўлсанг, “буюк” десинлар, аммо “бу – юк” дейишларидан қўрқ.

* * *

Одамзодда тан тенглиги, куч-қудрат тенглиги адолати бўлиши мумкин, аммо ақл-тафаккур тенглиги адолати бўлмайди.

* * *

Табиатда ҳамма нарса “ким ўзар” асосига яралган. Оддий майсалар ҳам бир-биридан баландроқ ўсишга интилади.

* * *

Бир қориндан талашиб тушган эгизак чақалоқларнинг бири донишманд, бири нодон бўлса ажабланманг. Бунда ота ҳам, она ҳам гуноҳкор эмас. Табиий зарурият, эҳтиёж танни бошқаради.

* * *

Ўргатишга эмас, ўрганишга шошилинг. Кейин ўргатишга.

* * *

Бировга бирор нарсани ўргатишни ибрат-амалиёт билан амалга оширишга ҳаракат қилинг. Доно халқ куруқ қошиқ оғиз йиртар, дейди.

* * *

Глобаллашув тараққиёти одамзодни ва қуролзотни Ер юзига тўплаб булди. Дарахтнинг илдизлари ерга, шохлари кукка интилади. Аллоҳдан айро тушганлар Аллоҳга қайтишига тўғри келади. Ё ҳаёт, ё момот!

* * *

Ҳокимият, бойлик, аёллар, шон-шухрат... Мана, одамзод ақлини минг-минг кўйга солгувчи афсунгар куч-қудрат!

* * *

Донишмандлик илми шундай хазинаки, уни бемалол исрофгарчилик билан ҳам сарфлаш мумкин.

* * *

Дарахтнинг шохлари қимирлайди, танаси эмас.

* * *

Ғазаб — эркакнинг мурт-муйловини учуриб юборади, танасини ток ургандай титратади. Уни купинча ақл билан ҳам босишга ожизмиз. Ғазабини ўз пайтида боса олганлар руҳ қахрамонларидир.

* * *

Эҳтиёж — заруриятга айланади. Унинг қондирилиши гоҳ кукка учирса, гоҳ чоҳга ағдаради.

* * *

Адолат, ҳақиқат... ғоят мураккаб тушунчалар. Чунки ҳар бир инсоннинг уз адолати, ҳақиқати бор. Сизнинг адолат, ҳақиқатингиз душманингизни маҳв этиш бўлса, душманингизнинг адолати, ҳақиқати эса сизни маҳв этишдир. Бодом дарахтлари бир-бирига ухшаш бўлса-да, бирининг меваси чучук-ширин, иккинчисиники аччиқ бўлиши мумкин. Доно халқ: ҳар кимники узига, дейди.

* * *

Қалбаки дуст — қалбаки дори.

* * *

Одам ёлғиз қолгандагина ўзлигига қайтади.

* * *

Нокаслар купинча бағрикенг, одамохун инсонлар устидан куладилар, масхаралагандек бўладилар. Бу тоифадагилар ҳеч қачон ҳиммат аҳли бўлолмасликлари учун шундай қиладилар.

* * *

Эркинликнинг ҳам меъёри бор.

* * *

Ахлоқсиз ҳақиқат — чала ҳақиқат.

* * *

Улкан қояларни оддий тошларга айлантириб, сунг улардан иморат учун пойдеворлар қурадилар.

* * *

Пулдор кишиларда уз-узига ишонч мустаҳкам бўлади.

* * *

Икки дарё қушилиб, туғонни бузди.

* * *

Олтин ҳайкал, олтин бюст... у барибир уз аслига қайтади.

* * *

Хулқ-атвор... ҳам қилич, ҳам қалқон.

* * *

Бу дунёда ҳамма нарсани мушт билан ҳал қилиб булганда, ақлнинг кераги булмай қолади.

* * *

Ҳукмдордан эмас, оми оломондан қурқаман.

* * *

О, ҳукиз! Уз Эганг сени қассоб учун боқаётганлигини ҳеч қачон билмайсан.

* * *

Инсоннинг умри утган сайин утмиши тотли, азиз туюлаверади, чунки унда гўзал болалиги, куч-қудратга тулган ёшлиги қолган.

* * *

Бой-бадавлат кишилар билан ҳамиша хавотир, ҳар хил шубҳа-гумон ёнма-ён юради.

* * *

Ёмғир ёққанда ер ёрилмаса, бу уша ернинг яхшилигига далил. Бошинга бирор кулфат тушганда, ёнингда турган дўст – чин дўстлигидан далолат.

* * *

Қадимда чақалоқнинг биринчи тирноғини кетмон юзасига олишар экан. Болам чин деҳқон булсин, дегани экан бу.

* * *

Деҳқонни юлдуздан юлдузга учиб юрган ракеталар эмас, кетмони боқади.

* * *

Ҳар бир хатонинг оқибати чақмоқ тилларидек таралиб чақнайди.

* * *

Оппоқ қандни бир пашша булғайди.

* * *

Сирингни қушнига айтсанг қушади, овулга айтсанг овул оштиради.

* * *

Учувчи ҳаво кемасини билимдонлик, моҳирлик билан бошқара билса, ҳалокатдан нари бўлади. Ута катта бойлик ҳам ҳаво кемасидан кам эмас, уни-да билимдонлик, зийраклик ва маҳорат билан бошқара билиш керак.

* * *

Бир ўринли ёлгон адолатни юзага чиқариб, ҳақиқатни тиклаши мумкин.

* * *

Чечакдан нозик, чуққидан тик, уммондан теран – қалб.

* * *

Илонларнинг ва қушларнинг сезги-сезими табиатдаги ҳар бир узгаришни энг аввало илғайдилар. Уларнинг сезги-сезим-туйғулари, ҳаракатлари зийрак инсонга куп йул-йуриқ курсатиши мумкин.

* * *

Эй Раббим! Душманларим, рақибларим ақлли бўлсин!

* * *

Умр – бугун.

* * *

Оға-ини, қариндошлар уртасидаги ёвлик тошлари уларнинг фарзандлари уртасида ҳам учиб юради.

* * *

У ҳадяларни олавериб-олавериб, уз эркини йўқотди.

* * *

Кузи туқлик – энг катта бойлик.

* * *

Бахт булоғи узингнинг боғингдан оқади.

* * *

Бахт – Олтин, уни аждаҳолар қуриқлаб ётади.

* * *

Бахт йуқ нарса, уни бор қилмоқ керак.

Фарзандларим! Мен куп маротаба буронли уммонда елкан очиб юборган инсонман. Хатоларимни такрорламанг!

Кимдандир қарздорлик – кимгадир тобеликдир.

Бургутларнинг уяси ёлғиз булмайди. Бош уясига яқин-яқин жойларда яна бир-икки уяси булади. Эй фарзанд, буни унутма!

Чумоли филдан кучли.

Боғимда қушлар қўлайиб кетди. Улар менга қўйлаб беришлари учун қўпайишиб келишгани йўқ, узумларим пишди.

Илон феъл-атворини эмас, пустини ташлайди.

Илон пушт ташлаётганда ер ларзага келармиш.

Дард ҳамиша эшик тирқишидан мўралаб туради.

Бугун ёнимда дўстим ўтирибди. Эртанги душманам билан суҳбат қўраётган бўлсам, не ажаб?!

Шундай одамлар бор: кукдаги қушнинг парвозига, денгиздаги балиқнинг эркига, тоғдаги кийик кўзларининг қоралигига ҳасад қиладилар.

Эй, овчи! Уқингдан қочаётган кийикнинг айбини менга айт!

Бир одамни билар эдим, исми Бури эди, аммо ўзи тулки...

Табиат уз-узига табиб.

Ақлсиз банда ҳам сувга чукаётган дамда тирик қолишга ҳаракат қилади. Ҳаётнинг нечоғлик азоб-уқубатлари, кулфатлари булмасин, яшаш нақадар ширин!

Тулкининг улжаси – бурига ҳалол, бурининг улжаси тулкига ҳам.

Булбулнинг семизи – илонга ем.

Ақл ила эш булган ғайрат камолот дарвозасининг калитидир!

Меҳнатсиз роҳатни уйлайдиган киши жиноят қилишга мойил кимсадир.

Тинимсиз илгарилаб бормоқ хатолардан сабоқ олмоқдандир.

Эй, одам боласи! Бир-бирингдан марҳаматингни аяма. Суйиб берсанг сув ҳам асал.

Ўзидан айғир чиқса, отнинг зоти бузилар экан. Дарахтнинг қурти узи билан деганлари ҳам рост. Одам боласи, ўзингга ўзинг синчилик қил.

Қирчанғи отга қамчи кераклиги барчага аён ва лекин тулпор отга ҳам қамчи кераклигини кўплар билавермайди.

Душманим кўплиги дўстларимнинг камлигидан эмас!

* * *

Одамзод жисми Тангри иродаси ила мукаммал яратилган: ҳамма аъзолари жой-жойида, бирини иккинчисига алмаштириб бўлмайди. Ва лекин феъл-атвор, хулқ борасида ундан номукаммалроқ ҳеч бир мавжудот йўқ. Аллоҳга шак келтиришдан қурқаман!

* * *

Инсон табиатни шу даражада "маданий"лаштириб бормоқдаки, истаган жойида қаққайиб турганида кўкдаги чақмоқдан ҳалок бўлиши ҳеч гап эмас.

* * *

Охират ҳақида уйлайман. Қиёмат қойимни келтириб чиқаргувчи Кучлар ҳақида уйлайман. Улар мавжудми? Мавжуд бўлса, асраниб қолишнинг иложи борми? Ҳа! Ер қуррасини тоғлар ва уммонлар бир маромда, яъни мувозанатда сақлаб турар экан. Мувозанат бузилиши – Охират! Куррайи заминнинг ақлий соҳиби бўлмиш бани башар ахлоқининг тубанлашиб кетиши эса қиёмат қойим демақдир! Яшасин Она-Замин, Инсон ва Инсоният бардавомлиги учун хизмат қилишга йуналтирилган покиза Тафаккур!!!

* * *

Ҳисор тоғларида юксак, метин қояларни мардона ёриб туғдона дарахти усади. У жуда мағрур. Саратоннинг ут тилли куйдиргисига-ю, қаҳратоннинг қаттол заҳар-заққумига дош бергувчи яшил салтанат. Мен унга ҳайрат билан тикиламан. Ва асл манба – сув йўлига етиб борган илдизлари ҳақида уйлайман. Илдизлар... Худди илдизлардек, Инсонни юксакликларга кўтаргувчи асл Куч бу – сезги-сезимдир. Улар қудратидан ҳамма ҳам ўз пайтида фойдаланавермайди. Фойдаланганлар кашфиёт соҳибларидир.

* * *

Беҳуда елиб-югураверманг, ақлингизга таянинг, қолаверса, муъжиза-кор қўлларингиз бор. Уларни ишга солинг. Тотли, тип-тиниқ сувли қудуқни қазиган, Сизга ҳаёт баҳшида этган ҳам шу қўлларингиздир.

* * *

Жоҳиллик ва жаҳолат барча бузгунчилик ва кулфатларнинг ҳам отаси, ҳам онасидир.

* * *

Баъзи одамлар нима қилиш кераклигини эмас, нима қилмаслик кераклигини тушуниб етсалар, олам гулистон бўларди. Аср-асрлар оша шаклланиб келган зотли мевали дарахтларга бошқа пайванд улаб, уларнинг ҳосилини тамоман айнитадиганларга тааллуқлидек бу гап.

* * *

Бойлик – Одамга чексиз имконият ва имтиёз бериши мумкин. Ундан баъзилар шохсупаларга кутарилса, кўпчилик ҳалокат жарига қулайди.

* * *

Мен дашт турғайиман. Баъзан икки қанотимга тош бойлаб “Уч!”, дейдилар.

* * *

Баҳайбат шаҳарлар – баҳайбат фалокатлар сари йул бўлмаса, деб қурқаман. Овчининг уқи ҳам улкан жонзотларга бехато тегади.

* * *

Инсон табиатни кийинтиряпман, деб уни ялонғочликка маҳкум этмокда. Ялонғочлик ё ибтидо, ё интиҳодир.

* * *

Дунёда қилич бор экан, қалқоннинг ҳам бўлиши табиий.

* * *

Баъзи одамлар ов қушига ўхшайди. Нимани тутишга ургатилган бўлса, шунга чанг солиб кун кечирадилар.

* * *

Имтиёз – имкониятлар эшигини кенг очади.

* * *

Амалиётга кучмаган илм ва билим саржин қилиниб қуйилган утинга ўхшайди. Саржин ўтин ёқилмоғи: кимнингдир қозонини қайнатмоғи, кимнингдир тандирини қизитиб, нонини пиширмоғи, тоғдаги чупонни тафти ила иситмоғи, овчини совуқдан сақламоғи керак.

* * *

Бой ва камбағал бўлиш миллатга қаралмайди. Аммо миллат билан миллат орасида фарқ бор.

* * *

Оилада хотиржамлик билан яшай десанг, бозорингни ўзинг қил, молҳолинга ўзинг қара.

* * *

Қийинчиликлардан нолийверма, у ҳаётингни бир омадли изга солади
ва йўлларингни мустаҳкамлайди.

* * *

Ҳамиша борар манзилингни аниқ-тиниқ тасаввур қилишга ҳаракат
қил ва унга томон ишонч билан қадам ташла.

* * *

Асал бир дардимга даво, иккинчи дардимга захар. Танам эса битта.

* * *

Ҳақиқат дўст ёки душманга айтилади.

* * *

Ота-боболарнинг ҳаётий билими ва тажрибаси тун зулматидаги
чироқ.

* * *

Мия – инсон танасининг қуёш тоғи.

* * *

Ёшликнинг ҳаёллари, орзулари кексаликнинг армонлари бўлиб қоли-
шидан эҳтиёт бўл.

* * *

Аҳмоққа “ақллироқ бўл...” дедилар, “ақлли бўлмоқ...”нинг узи “аҳ-
моқлик-ку...” деган жавоб бўлди ундан.

* * *

Табиат, бу – мен!

* * *

Қарғишлар юракнинг туб-тубида ётади. Улар фақат руҳ мувозанатдан
чиққанда – ғазаблар бўлиб ташқарига отилади.

* * *

Чирик оғоч тирик оғочни чиритади.

* * *

Гудак пешонасида даҳолик ажинлари ёзиқлик.

* * *

Қумурсқани енголмадим, уни қувсам – дарахт бачкисининг учида юрибди.

* * *

Ғашимга теккан бир чивинни уриб улдираман деб, кузойнагимни синдириб олдим.

* * *

“Қачон ёлғон гапирганман...”, деди У ўз ёлғонларига яна бир қушимча қилиб.

* * *

Сой, ариқ буйларида учиб юрган турлик-турлик ниначиларни кўрсам, қўқда учиб юрган самолёт-учоқлар ёдимга тушаверади.

* * *

Ақли, илми заковатидан савдойи бўлиб қолган олим ҳосили муллигидан синиб тушган мевали дарахт шохи кабидир. Ажаб дунё – ўз бору баринг ўзинга душман.

* * *

Кунгабоқар кунга боқиб-боқиб, офтоб нурини симириб ҳосилланади. Сўнг бошини қуйи солиб сукут сақлайди. У менга ақли-заковати теран донишмандни эслатади.

* * *

Ақл-тафаккур икки қиёфада мавжуд: бунёдкорлик ва бузғунчилик. Улар бир-бирига ёв. Кураш азалий-абადий. Асрий обидалар ҳам, харобалар ҳам етарли. Инсон ва Инсоният олдида – ҳаёт ва мамот. Ҳаёт, мен сен билан биргаман! Харобаларни қазиб қадрласам-да, тирик обидаларни севаман!

* * *

Авомнинг лаққилиги – фирибгарнинг омади.

* * *

Дарахтларда шохма-шох сакраб юрган олмахон ҳам, қўқда қанот қоқиб юрган зағизғон ҳам қиш ғамини еб, егулик ёнғоқ йиғади: биринчиси ўз дарахт ковакларига йиғса, иккинчиси белгили жойларга кўмади. Эй ёш дустим! Сен ҳам гулбаҳорингда қиш қаҳратони аёзларини уйлаб қуйсанг буларди.

* * *

Қум-шағалларни пирпирак қилиб, тошларни тошларга уриб-суриб, қирғоқларни упириб-супириб, бутана-бутана лойланиб-сойланиб, шамоллари гувуллаб-увиллаб, ҳайқириб-айқириб, мол-ҳолларни думалатиб-умалатиб, тулқинлар қуй-қузиларни у ёнга отиб, бу ёнга отиб, дарахтларни ағдариб-сағдариб келаётган тоғ селига кундаланг турмоқ ёр хиёнатидан яхшироқ.

* * *

Одамзод зарурият туфайлигина табиатга қарши турмоғи жоиз. Албатта, бу иш қулидан келса?!

* * *

Бўйи бору ақли йўқ, ақли бору бўйи йўқ.

* * *

Одам, купинча, куз олдидаги нарсани кўрмайди.

* * *

Одам ўз тахайюл оти билан ўзига гўрков.

* * *

О, Худойим! Ёвуз одамни илмдан йироқ қил.

* * *

Мамлакатинг катта ва улугвор, аммо шу мамлакат ичида бир нуқта – туғилган, болагинг, ўсмирлигинг ўтган жой борки, унинг тенги йўқ.

* * *

Фикрингни пайраха қилиб ташлама. Пайраха учоққа тушиб, кул булади.

* * *

Камбағал киши эркинлиги бой-бадавлат киши эркинлигидан афзалроқдир.

* * *

Яхшилик билан ёмонлик қўшмағиз.

* * *

Шер ~~ичжасидаги~~ кийик сенинг ов-ўлжанг эмас, беҳудага интилма.

* * *

Пишиб етилган бепаён бугдойзорга бир гугурт чүпининг учқуни кифоя.

* * *

Бахтли-бахтиёр одамларгина бахтсиз, омадсиз кишиларга қараганда табиат гузалликларидан бахраманд бўла олишдек туйғуларни купроқ туядилар.

* * *

Тулки ҳам янги либосда юришни истайди.

* * *

Алифбони билмай туриб ҳам, донишманд бўлиш мумкин.

* * *

Заминда яшаяпсан, Осмонда учаяпсан, Уммонда сузаяпсан, яна нима керак сенга?

* * *

Туйганини билмаган кимса – туйганини билмаган буқа. Биринчисини ажал, иккинчисини қассоб кутади.

* * *

Ҳақиқат нима? Кўкда чақмоқ чақиши, курраи заминда тоғ кучиши, уммонда тўфон туришими?..

* * *

Шахсий манфаат – ҳаракат қуввати.

* * *

Инсоннинг бир-бирига муҳтожлиги заруриятдир.

* * *

Қанча ақлли бўла борсанг, шунча аҳмоқлигингни била борасан.

* * *

“Ҳақиқат йўли битта!” – деди устоз. “Қайси ҳақиқат йўли?” – деди шогирд.

* * *

Дустим, курсанг ҳам осмонупар бино, беҳуда қўймагил ўзингга бино!

* * *

Тарбия бу – бамисоли кучат-ниҳол, уни экиб, меҳнат ила парвариш қилиб, кейин мевасидан баҳраманд булинади.

* * *

Тақир қалб – тақир ер.

* * *

Табиий тартиб бу – зарурият.

* * *

Пул – пора ва ҳадяларга айланиб ҳукмдорлик қилаётган жамият келажаги шубҳали.

* * *

Манфаат деган улкан майдон бор. Агар шу майдон мафтункорлиги, тотти-лаззати бўлмаганида одамзод ялқовликка, лоқайдликка, дангасаликка, бепарволикка юзтубан кетарди. Ахир бу иллатлар одам аҳлининг табиатида қони билан оқади.

* * *

Болтага ҳам эгов керак.

* * *

Оқ ва қора Дунё кун ва тундек. Йўқ, оқ ва сариқ Дунё – товук тухумидек.

* * *

Бировга ёмонлик қилмай дейман, аммо у гўёки заруриятдай мажбур этади.

* * *

Таъма – гадойлик.

* * *

Давлат ишини ўз шахсий ишинг каби бажар. Қир-адирлардан ўсиб, тоғ чўққисига айланасан.

* * *

Шукроналикни билмаган киши бахтсиздир.

* * *

Қалб дардидай дард кўрмадим оғирроқ,
Чунки тандан руҳ яралмиш олдинроқ.

* * *

Даъвонг бўлса кимга, гувоҳинг бўлсин,
Гувоҳинг бўлмаса, қози не қилсин.

* * *

Инсон хотираси – кўклам булутлари. Булутларга ишонч йўқ.

* * *

Дўстингни манфаатларинг туқнаш келганда сина.

* * *

Кузгунинг орқаси қора эканлигини унутма.

* * *

Ёмғир қорга айлангани каби, виждонсиз кимса уз олган қарзидан
тонади.

* * *

Жон бераётганга – жой бер.

* * *

Ёмон шогирд йўқ, ёмон устоз бор.

* * *

Назар: ҳамма ҳаммага дўст, ҳамма ҳаммага ёв.

* * *

Чўққи қуласа, якка узи қуламайди.

* * *

Лозим пайтида адолат куч билан амалга оширилишини табиий қабул
қилмоқ керак. Ақл оти билангина улоқ чопиб бўлмайди.

* * *

Кузларинг билан куриб турганинг чала ҳақиқат.

* * *

Ҳаракат – фикр майдони.

* * *

Сукут – суратимда.

* * *

Вақт – инсоннинг эзгулик йўлида қилган юмуш-ишлари билан белгиланмоғи лозим.

* * *

Чақанинг қадрини билмаган киши ҳеч қачон давлатманд бўлолмайди. Иморатнинг пойдевори бир ғишдан бошланади.

* * *

Подачига молни қандай боқишни ўргатма.

* * *

Хазонни яшил япроқ каби севолмайсан.

* * *

Саёҳат – саёқ юриш эмас, ҳикмат изламоқдир.

* * *

Коинот – бир ёнғоқ донаси ичида.

* * *

Доно одамнинг кузи эмас, юраги йиглайди.

* * *

Заминда пайдо булган ут-аланга кукка, кукда пайдо булган чақмоқ-аланга пастга интилади.

* * *

Камбағални эмас, камбағалликни кўргани кўзим йуқ.

* * *

Панд-насихатда ҳам меъёр булгани яхши. Ортиқчаси киши ғашини келтиради.

* * *

Тухмат – сичқон тиши. Умрни кемиради.

* * *

Ака-ука, қариндошларингни узингдан узоқроқ тут, яқинроқ булишлари учун.

* * *

Соғлиқ – бевафо хотин.

* * *

Туқни туйдириб бўлмайди.

* * *

Ёшлик йуллари апрель осмони чақмоқларидек тарвақайлаб кетган, кексалик йули эса ёлғизоёқ.

* * *

Вақт – алп ислоҳотчи.

* * *

Буюк шахматчилар шахмат доскаси устида тап тортмай буюк қурбонликлар қиладилар. Нега? Улар ҳеч ким фаҳламаган, тафаккури сезимлари етмаган буюк ғалабани аниқ-тиниқ куриб туради. Керакли жойда ва ўз пайтида қилинган қурбонлик – ғалаба!

* * *

Кузни қувонтирар қояда шунқор
Ва лекин билмайсан, не ҳол, дарди бор.

* * *

Камбағалнинг донолигидан куладилар, чунки доно киши камбағал булиши мумкин эмас, деб уйлагувчилар куп.

* * *

Отам мулла Олим айтар эди: – Ақлли бул, аммо ҳаммага ақллилик қилаверма, бу бошингга бало келтириши мумкин.

* * *

Жойида адолатсизлик адолатни юзага чиқариши мумкин.

* * *

Бир дарахт меваси билан азиз булса, иккинчиси гули билан, яна бири сояси билан азиз.

* * *

Донишманднинг ҳукмдор ва аёл билан эту тирноқ булиб кетиши даргумон.

* * *

Қир-тепалик тоғ чуққиси булмоқни орзулаб, жарликка айланиб умри адо булибди.

* * *

Қулинг қиладиган ишни сўз билан қилма.

* * *

Дунёда ёвузлик яшириниб ҳукмини утказади, эзгулик эса ошкора.

* * *

Пешонам шўр, омадим йўқ, деб ўтирма. Тоғ ёнингга келмайди, унга ўзинг бор.

* * *

Яхшилик қил, аммо шайтонга қилдим деб бил.

* * *

Булут ёмғирга айланди, ёмғир жалага айланди, жала селга айланди, сел ёвуз кучга айланди, йўлидаги ҳамма нарсани супириб-сидириб оқизиб кетди. Булутни унутиб, селни гуноҳкор қилдик.

* * *

Кучлиларни ожизлар баҳолайди.

* * *

Ҳаёт ва ўлим — қўшмағиз.

* * *

Ақлсизлик доноликка ўхшаб кетади.

* * *

Ғайримантикий айтимлар ҳам бор: улганимдан улганим афзал.

Олдинга ўтмоқ учун орқада юрмоқ керак.

Умримда зағизгондай сурбет қушни қурмадим: ҳовлингга тап топтмай киради, чангакка осиб қуйган гуштни олиб қочади, товуқлар тухумини пойлагани пойлаган. У ёмон қушнига ухшайди.

Урганган йўл — қочишга яхши.

Ният — амалдан аввал.

Ғийбат — саҳро қуюни, бошландими, осмонга устун бўламан, дейди. Яхшиям, уни тарқатиб юборгучи Шамол дўстим бор.

Отинг борида отли бул.

Баҳони бозор белгилайди, одамни ахлоқ.

Энг адл дарахтлар ҳам шамол йўлларига, йўналишларига мослашиб солланади.

Дўстлик қалб қурбонликларини талаб қилади.

Соҳибжамол тустовуқ (хонтовуқ)ни овчилар гузаллиги учун эмас, гушти учун овлайдилар.

Ўғлим! Дўстингдан қарз олма, дўстсиз қолишинг мумкин! Ва... қарз бериб ҳам дўстсиз қолишинг мумкин!

Дарё тубига қум ва тошлар чука-чука, оқим шашти-қувватини пасайтиради. Сен ҳам аслида бир дарёсан. Қалбингдаги қум ва тошларни тозалаб тур.

* * *

Донишмандлар кенг водий текисликларида сокин ёйилиб оқаётган дарёга ухшайди. Истаган жойингга ундан арна-ариқлар чиқариб, боғроғлар бунёд қилишинг, унумли фойдаланиб, умрингни, ҳаётингни безашинг мумкин.

* * *

Қор учқунлари фақат олти қиррали бўлади. Бу чексиз оқ гулларнинг устаси ким?

* * *

Сувнинг шакли йўқ, у қайси идишга қуйилса, ўша идиш шаклини олади. Одам танаси етмиш фоиз сувдан иборат. Сен қайси идишдасан-у, қайси шаклдасан?

* * *

Ернинг тортиш кучи сувни энг қуйи нуқтага жойлаштирган. Инсон ақлининг қудрати шундаки, қуйи нуқтадаги сувни энг юксак тоғ доволарига ҳам олиб чиқади.

* * *

Ҳаммадан яширган сиримни Вақт очиб қуйди.

* * *

Зарурат бўлмаганда мен Вақт деган дўстимдан воз кечармидим?!

* * *

Мен ҳамма нарсани тез унутамаман ва айти пайтда ҳеч нарсани унутмайман.

* * *

Мен денгиз қирғоғида ётган оддий қумман, кўп тепкилайверма, қудратимни билмоқ истасанг, мендан бир ҳовуч ол, ҳовучингни ёп, сиқ, бармоқларингни ёриб уммонга интиламан...

* * *

Ойда меъёр бор, булутларда меъёр йўқ.

* * *

Мевали дарахтларнинг кўп гул тукканлигига ишониб бўлмаслиги каби пала-партиш, кўп ваъда берган кимсага ҳам ишониб бўлмайди.

* * *

Менинг беозор феълимга ишонма. Сув ҳам жуда юмшоқ, майин, аммо унинг селга айланмоғи ҳам бор.

* * *

Яланғоч тоғлар халқ тилида “етимтоғ” деб аталади. Етимтоғларда на булоқнинг, на дарахтнинг, на гиёҳнинг тайини бор. На ёқимли феъли, на ширин сүзи, на гүзал қиёфаси булган баъзи кимсалар каби.

* * *

Бугунги қуёш кечаги қуёш эмас.

* * *

Дуст – Сиз кашф этган бу поқ. Сувидан ташналигингизни қондирасиз ва қуриб қолишига ҳам йул қўймайсиз. Бу – Умид.

* * *

Ўрмоннинг ёмон дарахти йуқ, аммо унинг кушандаси куп. Шунингдек, Аллоҳнинг ёмон куни йуқ, бироқ уни ёмонга айлантиргувчилар куп.

* * *

Оломон – авом. Уни ақлли-донишманд ШАХСлар бошқаришга ҳақли! Боғ боғбон чақиради, унга ҳам боғбон керак!

* * *

Куз ёшидан гуллар унганда, оламини гул босиб кетарди.

* * *

Дарднинг ҳам қулоғи бор, уни куп йуқлайверма.

* * *

Қашқир билан ит бир ялоқни ялади. Зур келгани шу.

* * *

Дарёнинг туби тинч бўлса, юзидаги қат-қат ажинлар қаёқдан?

* * *

Ақл – кундуз қуёшимиз, тунда ойимиз ва... яна қуёшимиз ҳамдир.

* * *

Парвози баланд қушлар чўққиларда устувор, парвози баланд қалблар офтоб ила баробар.

* * *

Бойлигинг ошди – хотиржамлигинг адашди.

Оддий бозорда ҳеч кимга кераксиздек туюлган арзимас нарсаша-ашё ҳам кимгадир зарур бўлиши мумкин. Танангиздаги бир мўйнинг ҳам узурни-вазифаси бор десам, ишонинг.

Табиий тараққиёт жуфтликда.

Бир қум заррачасининг ҳам сояси бор. Ростнинг ёлғони.

Бировга тақлид қилиш ибрати бор, тақлид қилмаслик ибрати-чи?

Мураса – ёмон фалсафа. Аммо Одамият усиз ҳаёт кечириши мумкин эмас.

Кукда бир юлдуз учиб-кўчиб кукунга айланиб кетса, қурқ. Ҳаёт кемтиклиги бир заррадан бўлса ажаб эмас.

Душманинг бўлгани яхши, бўлмаса дўстларинг душманга айланади.

Мансаб нарвонидан юқорига кўтарилаётган кимса ҳайқирди: "Мана, ҳақиқат, адолат бор экан-ку".

Мансаб нарвонидан тушаётган кимса ҳайқирди: "Ҳақиқат, адолат йўқ-қ-қ!.."

Инсонлар жамоа-жамоага бирлашиб ҳаёт кечиришлари эҳтиёжи ҳамма замонларда бирдек. Аммо улар манфур тўдаларга айланиб қолмаслиги муҳим. Қашқир галаси ҳар қандай бақувват отни ҳам маҳв эта олишини биламан.

Рақибларим менинг қайроқтошлигимни билмайдилар-у, юзимга па-лағда тухумни отгани отган.

Дарёнинг асл манбаи – булоқлари бўлмаса, у қуриб қолишга маҳкум. Чунтагиндаги қаппайган ҳамёнингнинг ҳам қисмати шундай.

* * *

Кичкина пона каттакон ғулани қоқ ёриб ташлаши аниқ, аммо понага ҳам болта зарби керак.

* * *

Бир ҳақиқатни англадим: кузи курдан қалби кўр кўп экан.

* * *

Донишмандлар йул курсатади, аммо нодонлар у йулда ишни ҳал қилади.

* * *

Акиллаган итдан кўрқма, жим ётган итдан кўрқ.

* * *

Айтганнинг оғзи ёмон, йиглаганнинг кузи.

* * *

Пул – шайтон. Аммо бу шайтонсиз яшаб кўр...

* * *

Очлик Озод қушни қафасга киритади.

* * *

Бойлик – донга тўлиб пишган бугдой бошоғи. Унутма, бошоқдаги донлар бир донадан ўсиб-унган.

* * *

Карни кар дема, кўрни кўр. Халқнинг ҳар айтимида минг маъно му-
жассам: кар эшитганини, кўр тутганини қўймас экан.

* * *

Яқин янтоқ тикони билан гапиради.

* * *

Авлиё ҳассаси билан булоқ очиб, сув етаклаб, боғ кўкартирган экан.

* * *

Дўст Худонинг исмида яширинган.

* * *

Инсон сулаги илон ўлдирар.

* * *

Кургинг келмайдиган “дуст”га қарз бер.

* * *

Бошга чопаверманг... Шарқ табобатчилари бош оғриси давони аввал товодан бошлаганлар.

* * *

Яқин маррага етиш учун узоқ йўл босиб утиш керак.

* * *

Отнинг зоти-зотдорлигини йўлдан сўра!

* * *

Бури авлодидан бўлмиш ит бугун суяк пойлаш билан овора.

* * *

Марднинг ёнида номард бор, туғрининг орқасида уғри бор.

* * *

Донишманддан сўрадилар:

– Узоқ умр кечириб, ёмон яшаган яхшими ёки қисқа умр кечириб, яхши яшаган яхшими?

Донишманд жавоб берди:

– Сермазмун умр кечириб, яхши яшаганга не етсин!

* * *

Инсониятни саодатманд этгувчи манзилларга етакловчи тафаккур олдида ҳамиша таъзимдаман! Нечун боғимдаги сархил дарахтларни парваришсиз қолдиришим керак? Уммонда азот буй курсатган, кемаларни хавф-хатардан огоҳ этгувчи қояни нечун қадрламаслигим керак?

* * *

Халқ чўнтаги хазина – бойлик. Унга кўз тикмаган, қўл чўзмаган НАФС топилармикин?

* * *

Эй дуст! Музга ўхшаб қолибсан: Иссиқ бўлса эрийсан, аёз бўлса қотасан.

* * *

Эй дуст! Масхара бўлмай десанг, ишни тантана қилиб бошлама, самарали яқунлаб, тантана қил! Гултожихурос жимгина, кузга ташланмайин ниш уради-ю, сунг бахмал-бахмал тож ёйиб, кузларни қувонтиради.

* * *

Ҳар қандай тупроқдан ҳам пишиқ-пухта, гузал, бежирим кузалар яса-
лавермайди. Эй дўст! Бу боланинг тупроғи қайдан?

* * *

Шайтон шамол ичида. У яралмишнинг ҳар нуқтасида ҳозир нозир.

* * *

Нотаниш фариштадан таниш шайтон афзал.

* * *

Бир тулки етти буруни етаклайди.

* * *

Кузи олазарак буқаламунни айбламайман. Тевараги тула душман ахир.

* * *

Инсоният ялли ҳалокатга учраб, қирилиб кетса ҳам ҲАЁТ давом
этади. Ҳаёт – бу ҲАРАКАТ. Ҳаракат Ҳаётнинг доясидир.

* * *

Қутирган селда оқиб кетаётган одам ақл-ҳуши билан қирғоққа интила-
ди. Омон қолиш мумкин. Аммо танасида куч-қудрати бўлмаса-чи? Фақат
ақлгагина суяниб яшаб бўлмайди.

* * *

Марҳумлар тирикларнинг кўзларини очади.

* * *

Сир тутмоқни кўзгудан ўрганмоқ керакка ўхшайди. Унга ўзингни сол-
санг кўрсатади, аммо сен ҳақингда ҳеч кимга лом-лим демайди.

* * *

Эй дўст! Унутма! Кўкламда ҳамма дарахтлар ям-яшил япроқ ёзади,
аммо кўзда ҳар хил сарғаяди. Инсон умри ҳам шундай.

* * *

Қўзғун бурунинг оғайниси, аммо у ўзининг улжасини дарахт ус-
тида ейди.

* * *

Осмон қушининг ови ерда.

* * *

Юкингни замон елкасига ташлама, Ўзинг кўтар. Дарахтнинг ҳосили ҳам ўз елкасида.

* * *

Хору хаслар ҳамиша пуртана-тўлқинларнинг уркачига миниб олади.

* * *

Қоронғиликда ҳам нур бор. Уни фақат қалб кузи билан кўрасан.

* * *

Ўғрилиқ ҳам бир касаллик, бироқ унинг тиббий давоси бормикан?

* * *

Тоғ дарахтлари нима учун бардошли, мустаҳкам? Чунки улар шу шароитда яшашга кўникма ҳосил қилган. Кўникма – бу маҳкумлиқ. Лекин маҳкумлиқнинг ҳам ҳосили бор!

* * *

Ёшлигимдан “бўлмайди” деган сузни ёмон кураман. Ҳаётда ҳамма нарса бўлади.

* * *

Сув бўлмаган жойда дарахт бўлмайди, дейдилар. “Йўқ!” – дегим келади уларга, дарахт бўлмаган жойда сув бўлмайди.

* * *

Қози бўлсанг, энг аввало, болаларингга қозилиқ қил.

* * *

Барча дарахт чиқарар япроқ,
Мева бермас барчаси бироқ.

* * *

Тоғларнинг бағрида ноёб хазина,
Лекин ҳаммасида хазина дема.

* * *

Чинни кўрсатаман деб, этагингни очиб қўйма.

* * *

Дустингни ғазаби чиққанда сина.

* * *

Бўри одамга тик қарамай, ёнлаб қарайди. Ёнлаб қарайдиган кимсани
курсам, бури эсимга тушади!

* * *

Энг хавфли одам – ўч-интиқомини болаларингдан оладигани.

* * *

Ишониш қийин: бури камбағалнинг уйига қуй ташлаб кетибди. Лекин
мен ишондим!

* * *

Порахурлар қуйга ухшайди. Қуйни қулингдан ем бериб ургатсанг,
эргашиб юраверади.

* * *

Фикр қил, жасорат отин мин, амалга ут.

* * *

Бандаргоҳда узоқ қолган қайиқ чирийди.

* * *

Жийда гулининг қуюқ ҳидидан бошим айланиб кетди. Меъёр қадрини
англагандай булдим.

* * *

Ҳеч нарса сир эмас, битта Аллоҳ сир!

* * *

Бир камбағал айтган экан: Ишонган товўғим қўшнимнинг катагига туғади.

* * *

Ёшлигимни бой бериб қуйибман, энди уни излаяпман!

* * *

Бир минарга от берма.

* * *

Омадли овчига чўлоқ кийик йўлиқар.

* * *

Қудуққа қочиб тушдим, бошимдан қум ёғилди.

* * *

Иккинчи дарахтим ҳосил бермай туриб, ҳосил бериб турган биринчи дарахтимни кесиб қуйибман. Воҳ!..

* * *

Комилликка эришиш... Эверест чуққисига чиқиш эмас!

* * *

Жасорат бевақт келадиган улимни енгади!

* * *

Қурқув юрагимнинг бир чеккасида яшайди, жасорат тафаккуримда!

* * *

Ҳамма билан ҳамфикр бўлиш... тушунуксиз фалсафа!

* * *

Табиат қурғоқчилигидан эмас, одамзод қалби қурғоқчилигидан қурқаман.

* * *

Бир қошиқ асал тандан жонни чиқариши мумкин, бир ҳўплам сув жонни асрашга қодир.

* * *

Одам ва Омад қўшмағиз. Қўшмағиз яхлит ва... яхлит ҳам эмас.

* * *

Ўзинг экиб-устирган дарахтнинг меваси ширин.

* * *

Оппоқ қорнинг қурти ичида, у ҳам қуртлайди.

* * *

Табиат уз-узига боғбон.

* * *

Қушлар – ҳам деҳқон, ҳам боғбон.

* * *

Тилдан келгани қўлдан ҳам келса, ҳеч бир кимса гадо бўлмай, султон булар эди.

ИККИНЧИ ДЕРАЗА

* * *

Фалсафа – ўзлик орқали дунёни ўқиш ва ўқишдир.

* * *

Фалсафа – ўқ илдизли ҳикматона фикр дарахти.

* * *

Куп йиллар буйдоқ юрган файласуф уйланди. Уйланган кунининг эртасига дўстларига деди:

– О, фалсафа манбаи – Аёлда экан!

* * *

Менга бир файласуф дўстим деди: Файласуф дустларим куп эди, аммо менинг файласуфга айланганим тан олинганидан кейин, улар мендан юз ўгирдилар.

* * *

Тарбия боши – ибрат.

* * *

Менинг душманам йўқ... ўзимдан бошқа.

* * *

Гузалик ақлдан устун!

* * *

Кемалар учун лойқа сув эмас, саёз сув хавфли.

* * *

Қўрқувни билмаган кимса кучли бўлишга қодир эмас.

* * *

Ҳақиқат ҳар кишининг узидадир.

* * *

Абадият йўқ нарса, у фақат тафаккурдагина мавжуд.

* * *

Бу дунёда бирор нарсада ҳаққим борми менинг?.. Ҳаракат қил-моқликдан бошқа...

* * *

Дарахт қобиқ-пўстлоғининг ичида ҳаёт бор. Шунинг учун қизишти-шон уни чуқигани-чуқиган.

* * *

Бир осмон қалдироқ бору, ёмғирдан дарак йуқ.

* * *

Йул йуқолмайди, йул йуқотилади.

* * *

Тоғлардан йўналиб, сўнг қуриб қолган сойни қарғама, ҳозир унинг суви денгизда.

* * *

Ўзинг, машаққатли меҳнатинг эвазига экиб-тикиб олган ҳосилинг текин, сотиб олганинг қиммат.

* * *

Ақл ва тажриба қушнинг икки қаноти. Қанотлар соғлом, бақувват бўл-са ва улар жуфтликда бирдек эркин парвоз қилса, ҳар қандай қуш ҳам, тимсолимиздаги инсон ҳам доғда қолмайди.

* * *

Ёшлиқда қилинган хатолар, кексалик хотираларида азобга айланиши мумкин.

* * *

Кўп мансабдорлар курсига пайнаги билан ўтқазилиб қўйилган тухумга ўхшайди: расмана, кеккайган, оп-п-оқ, лекин палағда.

* * *

Улкан мансаб курсиларига чиқиш йўли тоғ чуққиларига чиқиш йўлига монанд. Уларда ягона ва тўғри йўлдан чиқиш имкониятлари йўқ.

* * *

Инсон ер юзида катта маърақада юрибди. Унинг утириб-туришини кўринг.

* * *

Вақт бамисоли кўринмас соя, у умрингни адо қилади. Вақтни дўстга айлантириб, ўзига хизмат қилдиргувчилар ҳикмат кишилари дидир

* * *

Пул жозибаси — каклик иродасини ўз ранг-суратлари билан сеҳрловчи кубра илоннинг жозибаси монанддир. Авраниб қолиш фалокати ҳалокатга олиб келиши мумкин.

* * *

Инсон танаси табиатдан узилган кунни хасталикларни қабул қила бошлайди.

* * *

Менга бир табиб деди: — Май косаси ичида жилоланиб турган қуёш алдамчи қуёшдир. У сенинг оғзингга ботишидан сақлан.

* * *

Инсон энг яқин одамини энг орқада куради.

* * *

Дўстнинг энг ёмони дўст сирини очувчисидир.

* * *

Илонни йўқлама, йўлингдан чиқади.

* * *

Умумруҳият инқироzi — жамият инқироzi.

* * *

Табиат кексаймайди, чунки у абадий ҳаракатда.

* * *

Ўз уйинг — ўлан тушагинг олисдан ҳам яқин куринади.

* * *

Дарё тулқинлари ҳамиша янги.

* * *

Қаноат барча синоатлардан ҳам қиммат, ҳам арзон.

* * *

Дарё оқади, йўл юради, мул юради, пишади — тозаланади, покланади, одам ҳам дарёга ўхшайди: юради, туради, пишади, покланади, ҳалолланади... фақат одамда эътиқод мақоми таянч нуқта бўлмоғи керак.

* * *

Гуноҳини бўйнимга олиб айтаманки, дангасалик, ялқовлик инсонни бахтсиз қилувчи касаллик билан бир қаторда туради.

* * *

Қилич қинида қолиб кетса, занглайди. Бориб-бориб чирийди... қилич қинида қолиб кетсин, зангласин, чириб-чириб битсин!

* * *

Одамзод бошига тушган азоблар, изтироблар, уқубатлару кулфатлар бахт қулфининг калитини қўлингизга тутқазса, ажабланманг! Калитни олинг, қулфга солинг, уни бурашда иккиланманг!

* * *

Эр хўрлиги – ер хўрлиги.

* * *

Қул кузнинг душмани.

* * *

Заҳардан бол тайёрлаш мумкин эмасдир, аммо болдан заҳар тайёрлаш мумкин.

* * *

Кексаликни қанчалик бўяб-бежамайлик, у барибир мушкулот даври. Уни донишмандлик, собитлик билан муносиб кутиб олмоқ кучли, иродали кишиларга хос.

* * *

Ҳақ мавжуд ҳақиқат ёлғиз – ёлғиз бўй курсатади.

* * *

Иймон бу – қалбадаги синмас-букилмас, бузилмас, айнимас эътиқод!

* * *

Муҳаббат боғи – ҳаё гуллари билан гўзал, ифорли, тотли, маъноли, яшовчан ва улуғвор!

* * *

Бу чиройли қуш... бунча хунук сайрайди.

* * *

Бахт – севги. Севги севган-севилган билан севгили.

* * *

Болани овутиш осон, алдаш қийин.

* * *

Ош-таоминг ёмон чиқса, қозонинг айбдорми?

* * *

Поклик, бу – ҳалолликдир.

* * *

Болалик майдони, бу – оила хонадони майдони. Унда қандай туп сурилса, кейин ҳам ушандай давом этади, фақат тажриба ошади.

* * *

Оилада биргина бемор булса, ҳамма бемор.

* * *

Жаноблар! Жужаларни нега фақат она товуклар боқиши керак? Ота бўлмиш хўрозлар қаерда?

* * *

Оилани бошқариш – Давлатни бошқаришдан мушкул.

* * *

Гала-гала каптарлар орасида пари-фаришталари бор эмиш, уюм-уюм илонлар орасида донишмандлари бор эмиш...

* * *

Курпанг қадрини қиш келганда биласан.

* * *

Ўзим қандай булсам, болам шундай булди.

* * *

Туманга қараб уқ отма, болангга тегади.

* * *

Эй дуст! Инсон қуш эмас, қаноти йуқ. Аммо чин муҳаббат унга қанот болиши мумкин.

* * *

Муҳаббат бодом болиб қийғос гуллади. Энди у мева тугиши керак. Лекин қиш ҳали этагини йиғиб олгани йуқ. Севги дарахтининг гул ёйгани эмас, ҳосил бергани ҳисоб.

* * *

Ақл – мевали дарахт, эҳтирос – унинг гули.

* * *

Тан қарилиги – кўнгил қарилиги эмас.

* * *

Оқар сувнинг орти тоза, муҳаббатли одамнинг қалби.

* * *

Қиз бола – қояда униб чиққан латиф чечак. Унга ҳамма интилади, уни ҳамма эркалагиси, ҳидлагиси, узгиси келади. Беҳаё шамолларни айтмайсизми? Унинг куйлаги этагини ҳуда-беҳудага тортқилагани-тортқилаган.

* * *

Ҳар қандай ўтли муҳаббат ҳам фақат никоҳ билан гузал ва яшов-чандир.

* * *

Бола билан бойликнинг кечи йўқ.

* * *

Бола белда, хотин йулда, дуст қаерда?

* * *

Ёмғир жалага, жала селга айлангани каби ўтли муҳаббат – ўтли нафратга айланиши ҳеч гап эмас.

* * *

Тонгда Қуёшга юз очган Намозшомгул шомда этак ёпишни ҳам билади.

* * *

Маърифатли аёл нақадар гузал. Дағал, қупол, шарм-ҳаёсиз, ғазаб отига минган аёл нақадар хунук.

* * *

Онам урмакда ҳар хил жиҳозлар тўқирди, мен эса ёзипман, болаларим иккисини бирдек олиб борса эди.

* * *

Зардоли ниҳолини экишдан олдин унинг қандай данакдан чиққанини билиш керак: аччиқ мағизлими, чучук мағизлими? Билмасанг, ниҳол дарахтга айланиб, мева берганидан сунг пушмон қиласан. Айниқса, мағизни хуш кўрадиганларга қийин булади. Шурданакни яхши кўрганларга ундан ҳам. Агар болани шу зардоли ниҳолига қиёсласак... яна-да қийин.

* * *

Ҳар қандай дарахт икки хил – патта ва уқтомирга эга бўлади. Ер юзалаб усувчи патта томир билан куп яшаб булмайди. Билъакс, уқ томир қанча чуқур кетиб, мустаҳкам жойлашса, дарахт шунча гуллаб-яшнайти, ҳосил беради. Оила бир дарахтга менгзалса, аёл унинг уқ томиридир!

* * *

Фақат узини ҳақ деб билган аёл эртакка ухшайди.

* * *

Шундай чиройли гуллар борки, уларни исласанг, заҳарланасан. Шундай чиройли аёллар борки, уларга яқинлашсанг, умринг хазон бўлади.

* * *

Аёлни фақат лаззатланиш манбаи сифатида курганлар нақадар бахтсиздир.

* * *

Гўзал аёл – куйдирги.

* * *

Аёл – бамисоли буқаламун. Бир зумда турли-туман ҳолатга кириши мумкин.

* * *

Ёмғир ёққанда турли хил гиёҳлар гуркираб ўсса, бу ернинг тоза эканлигидан. Одоб-ахлоқли, шарм-ҳаёли аёл – эр ва оила шарафи.

* * *

Аёл – муҳаббат ётоғида чинакам гўзал.

* * *

Аёл дарахт соясига ухшайди: урмонда қадри кам, саҳрода ардоқли.

* * *

Кунгабоқарни Қуёшгули дегим келади. У вафодор, садоқат маликаси бўлиб туюлади менга.

* * *

Аёл – ҳаётнинг бутана ҳовузида ўсгучи нилуфаргул!

* * *

Азиз аёллар! Ўз уйи-хонадонида ором, ҳузур-ҳаловат топмаган эркак кучага интилади.

* * *

Қирғизнинг оқ утовида қора айтим эшитганим бор: — Энг яхши аёл ҳам шайтон қармоғи.

* * *

Аёл макри — эри ва хушторини бир қудукдан сув ичдиради.

* * *

Хонимлар! Булбул чиройи билан эмас, қалб овози — куй-нағмалари билан машхур.

* * *

Боғдаги дарахтларнинг қишдан соғ-омон чиққанлигини баҳор келганда, хотиннинг қандайлигини камбағалликда билиш мумкин.

* * *

Чин вафодор аёлларни шарафлайлик, гулчамбарларга фақат уларгина лойиқдир.

* * *

Эркак ва аёл жуфтлашмоғи зарурият. Бу ерда миямизга тинимсиз сингдириладиган ахлоқ қонунлари чекинишга мажбур.

* * *

Бу кимса учун муҳаббат ширин анор эди. Унинг шарбатини шимиб-шимиб, пучоғини кучага итқитиб юборди.

* * *

Муҳаббат куклам келиб, кузда кетадиган қалдирғоч эмас. Тагин қайтадиган, тагин кетадиган...

* * *

Эркак эркак билан, аёл аёл билан никоҳ қилинмоғи... бу даҳшат... бу сунгги залолат... бу сунгги разолат... Бу ёруғ дунёга янги пайғамбар керак бўлиб қолди, шекилли.

* * *

Алп отадан, зот онадан.

* * *

Болалари оғзига дон ва сув бераётган ота-она қушларни кўп кўрдим. Аммо ота-она қушлар оғзига дон ёки сув тутаятган бола қушларни ҳали кўрганим йуқ.

* * *

Она қорнидаги эгизак бир-бирига душман!

* * *

Кукламни бировнинг бусағасидан қидирма.

* * *

Катта уйқу – кичик улим.

* * *

Аёл қалби гоҳ ойна, го. олтин, гоҳ темир, уларни ут – оташда қиздирмай, эритмай узинг истаган бирор шаклга келтиришинг маҳол.

* * *

Аёл юраги, айтиш жоиз бўлса, ҳам моддий, ҳам руҳий қулф, уни бузиб эмас, ўз калити билан очмоқ керак!

* * *

Аёл ғазаб оташига келганда маст туяга ухшайди: қуринган нарсани топтаб-янчиб ташлайман, дейди.

* * *

Дунёдаги барча эрли аёллар эрларидан етарлича норози. Лекин улар ўта назокатлилик ва устамонлик иддаолари ила ўз норозиликларини ошкор этмайдилар.

* * *

О-о... бу аёлнинг сочлари бир қалинки, улар орасига тариқча ақл ҳам суқилиб киролмайди.

* * *

Гуллар бор – чиройлию ифори йуқ, гуллар бор – ифори мул-у, чиройи йуқ. Улар аёл аҳлини эслатади.

* * *

Кўп мушукни кўрдим – ақлли, кўп итни кўрдим – вафодор, кўп аёлни кўрдим – на ақлли, на вафодор.

* * *

Эрсиз хотин – эгасиз дала, дейдилар. Шундаймикин?

* * *

Жимгина кулала бўлиб ётган илондан, жимгина сени кузатиб ётган итдан, жимгина сен билан яшаётган аёлдан эҳтиёт бўлганинг маъқул.

Отдай кучли, итдай чидамли – чайир, тошбақадай сипо... шайтон хотин.

Одамзоднинг туғрисида эгриси купдек туюлади менга. Бамисоли урмон дейсиз... эгри-бугри ўсгучи дарахтлари мул – кулдек.

Сув сувсизликдан ўлди.

Ит ҳурган ҳовлидан қўқма.

Ёмғирдан шалаббо – чопонинг оғир,
Лекин уни ечиб отмайсан ахир.

Дарахт дарахтга суявдир.

Дунё лулилар аробасида.

Ғариблик куксини айласа ҳам чок,
Лули кузларини қўрмадим ғамнок.

Ёзилган шиор:
Бизнинг жамиятда ўта бойлар ҳам, ўта камбағаллар ҳам бўлмайди!
Ёзилмаган шиор:
Бизнинг жамиятда ўта ақиллилар ҳам, ўта ақли қосирлар ҳам бўлмайди!

Тузатиб бўлмайдиган хато – тузалмас дард.

Фил қасоскор, қашқир тажовузор, хотин жафокор... Узинг нобакор бўлсанг.

Орифлар учун йўл адоғи қабр-қабристон эмас.

* * *

Демишлар:

Пул улсин, пулсиз кун улсин.

* * *

Демишлар:

Ақча қуйнимда, шайтон буйнимда

* * *

Эшитдим: Туғмаганники бир армон, туққанники минг армон.

* * *

Эшитдим: Бола – минг бир бало

* * *

Тула-тукис, бахтли-бахтиёр умр булмайди, бахтли дақиқалар,
кунлар, ойлар, йиллар ёр булган умр булади.

* * *

Меҳр-оқибатни қишлоқ-овуллардан излаб кўринг, агар улар шаҳар
нуқсини олиб улгурмаган булса.

* * *

Бу олам тараққиёти асослари болалар ўйинларидан бошланган.

* * *

Оғзи шаллақи хотин – палағда тухумнинг сассиғи.

УЧИНЧИ ДЕРАЗА

БИР ҚУТОН ҚҮЙ

Улкан, тик жарнинг шундоқ ёқасида даштнинг буталаб кетган буйдор янтоғи гуллаб-яшнаб усиб турганлиги сурув сардори Серканинг назаридан четда қолмади. У салобат билан сеҳрли, жозибали қўнғироғини жаранг-журунглантиб, шошганча янтоққа ташланди. О-о-о... ташланди-ю, жарга қулади. Қўнғироқ жаранги оламини тутди. Жаранг-журунг... Жаранг-журунг... қандай илоҳий садо, қандай жозиб... Сурув Серка ортидан бир-бирини қувиб-суриб, итариб жарга отилди. Барчаси бирдек ҳалокатга учради.

Оломон... оломон... сенинг шу сурувдан – бир қутон қўйдан нима фарқинг бор?! Инсоният, оломонга айланишингдан қўрқаман.

МОМОЖОН МАТАЛЧИ

Аёлим Ойгулхон Амударёнинг шундоқ бўйида жойлашган Шўрохон қишлоғида туғилиб ўсган. Бир йили Шўрохонга бордик. Амударё бўйига чиқдик. Амударё қўлмак-қўлмакларга айланиб ётар эди. "Box-x!" – деб юборди Ойгулхон, – Амударё қани? Пишқириб оққан Амударё?.. Параходлар гувиллаб қатнаган Амударё?.."

Ойгулхон ута қўнгилчан, йиғлаб юборди. Мен тушундим. Қўзларимни четга бурдим... У бироздан кейин ўзини қўлга олиб, сўзлай кетди:

– Онамнинг онасини, яъни бувимни Моможон маталчи, дердилар. Мен қўлларига танқа(қўмғон)да сув қуярдим. Шариллатиб қуяр эканман-да... нуқул дакки эшитардим: "Намунча шариллатиб қуясан, сувни исроф қиласан, оз-оздан қўй-да..."

Мен ҳам бидиллардим: "Эна, бунча уришаверасиз, сув ҳам тугайдими, анна, Амударё ошиб-тошиб ётибди-ку... қишлоғимизни босай-босай деб турибди".

Энам: "Ҳа, сув тугайди, илон ҳам тупроқни меъёрида ялайди, тупроқ сувга қараганда кўп-ку..." дерди.

Оҳ, Энажоним, маталчи эмас экан, ҳикматчи экан, донишманд экан!

ҚИШЛОҚДОШЛАРИМ

Ў, қишлоқдошларим! Ў, қоялари қалдироқдай қарсиллаб ётган тоғлар улуси – элим! Қизиқ феълларинг бор: қаерда булоқ бўлса, ўша булоқ қошига қатор-қатор иморатлар соласан, данғиллама уйлар, таг-тугли молхоналар қурасан, дов-дарахтлар экасан, боғу роғлар яратасан, мангу яшайдигандек. Булоқнинг қуриб қолишини хаёлинга ҳам келтирмайсан...

Ў, қишлоқдошларим! Ў, қоялари қалдироқдай қарсиллаб ётган тоғлар улуси – элим! Бу ишингдан бир маъни-маъно туйди юрагим. Айтайми? Айтаман, лекин сенга эмас... Инсониятга айтаман!

Инсоният, атом хавфи, ваҳимаси билан нафас олаётган Инсоният! Ақли улуг Инсоният! Пароканда бўлиб яшашга, тутуриқсиз, омонат ҳаёт кечиришга ҳақинг йуқ сенинг. Англаяпсанми, ҳақинг йуқ! Ўзинга ишон! Ҳаётга ишон! Булоқлар бошига данғиллама уйлар қур, мол-ҳолларингга мўл-кенг оғилхоналар сол, дов-дарахтлар эк – боғу роғлар ярат! Менинг катта қишлоқдошларим – Инсоният!

ЭЙ, СЕЛ!

Эй, Сел! Бунча ҳовлиқасан, бунчалар қутуриб шошиб-тошасан? Қорли тоғлардан, мангу булоқлардан пайдо булган Сой қирғоқларини бузиб борасан, нав-ниҳолларни, дов-дарахтларни қупорасан, тошларни думалатасан! Йулларингда дуч келган нарсани ялмоғиздай ямламай ютаман, дейсан. Ўясан, ўпирасан, сой балиқларини-ку аллақачон этакларга элтиб ташладинг. Элнинг қанча қуй-қузисини, от-уловини хасдай оқизиб кетдинг. Ўҳ, ваҳший, неча-неча бешикларни оқизиб кетдинг. Бешиклар бўш эмасди...

Эй, Сел! Сен қанчалик қутуриб оқмагил, қанчалик шовқин-ғалаён солиб, ҳайқириб довул қоқмагил, барибир сенинг йўлинг қисқа, умринг қисқа. Ҳа, худди шундай. Чунки сенинг замининг йуқ, чунки сенинг манбаинг йуқ. Чунки сен ўткинчи қора булутлардан пайдо булгансан фақат.

Қадимий Сойларда эса... тагин мангу булоқларнинг зилол сувлари мавж уриб оқади, чунки уларнинг мангулик замини – манбаи буюк, пойдор тоғлар бор!

СУВ ЗАРРАЛАРИ...

Сув зарралари... томчилар... Дара ичида димиқиб кетишди. Улар аста-аста, оҳиста-оҳиста бир ерда тўплана бошлашди... Ниҳоят... Олга! Қояни ёриб, ёруғ оламга отилиб чиқишди. Ассалом, Озодлик!

«Сув зарралари... томчилар... ирмоқ бўлиб бирлашишди. Ирмоқ... ирмоқ... дарёга айланишди. Дарё йўл юрди, мўл юрди. Бу оламда ҳамма нарсанинг чек-чегараси бор. Дарё ҳам чарчади. Аста-аста, оҳиста-оҳиста аввал ирмоқларга, кейин томчиларга, зарраларга айлана бошлади. Сўнгги заррами, томчими... босиб ўтган йўлларига сўнгги бора қаради: то ота макон, она макон Қоягача буюк ўрмон, боғлар ям-яшил бўлиб, гуллаб-яшнаб ётар эди. Шивирлади: – Яшасин, Озодлик!

БУРИБОСАР ИТ

Бурибосар ит занжирда эди. У занжирни узгудек ҳар тарафга юлқинар, важоҳат билан ҳар қандай кимсани қопмоқчидек, истаган мол-ҳолни ғажиб ташлагудек буларди. Уни қуйиб юбордилар. У итялоқ турган жойга югурди...

Бурибосарнинг бу ҳолатини кўриб, кўп мансабдорларни эсладим.

ҲИНДИСТОНДА

Ҳиндистонни кезиб юрдим. Ҳиндистон тўтиларини кўрмоқ учун бир ўрмонга бордим. Чиндан, бу ерда тўтилар кўп экан. Улар шундай ранг-баранг, чиройли – кўзлар қамашади. Ақл шошади, овозларининг ўзи аломат, улкан бир куй-қўшиқ. Бундай шафқатсиз гузаллик олдида бир тункага ўтириб қолдим.

ИТЛАР

Итлар одамларнинг ҳовли, қўрғонларига бегоналарни яқинлаштирамайди, бой-давлатмандларнинг бойлигу хазиналарини қуриқлайди, чўпонларнинг сурув-сурув, қўтон-қўтон қўйларини ҳимоя қилади, лекин эвазига суяк билан сийланади! Уларнинг егулиги шу ахир!

ҚАДИМ-ҚАДИМДА

Қадим-қадимда бир қавм бўлган экан. Бу қавм аҳли бир-бирлари билан ёвликда яшар эканлар. Қушни бир қавмни ҳеч қандай қавм енга олмас экан. Кунлардан бир куни душманлар бирлашиб, ўша қавмнинг енгилмаслик сирини билиб олмоқчи бўлишибди. Ва қавм ичига айғоқчи юборишибди.

Айғоқчи бориб, қайтиб келиб, бу қавмни енгиб бўлмайди, — дебди ва сирни ошкор қилибди: Сир жуда оддий экан. Бутун бир қавм бир тандирда нон пиширишиб, бир дастурхонда ейишар экан.

ДАЛА-БОҒИМДА

Дала-боғим ўртасида чунқайиб, нимагадир қилт этмай тикилиб утирган бир мушукни куриб қолдим. Унча эътибор бермадим. Ўз ишларим билан машғул бўлдим. Чамаси, уч соатлар утди. Ногаҳон кузларим яна ўша утирган мушукка тушди. Шу пайт у бир сакради... ва кўрдимки, бир дала сичқонини тутиб олди. Оҳ, дедим узимга узим, мушукнинг сабр-тоқатига қойил қолиб, қорин қайғуси нималарга қодир эмас.

ОЛМАХОН

Олмаҳон қиш ғамини еб, ёнғоқ йиғиб, қуришиб утирган эди, қора қарға тумшугида бир ёнғоғи билан унинг устидан учиб ўтиб қолди. Қарғага кузи тушган Олмаҳон: “Ҳой, кел, ёнғоқ ўйнаймиз, сенинг ёнғоғинг битта экан, мана, қара, меники куп, ютиб олишинг мумкин”, деди. Қарғанинг ўйи бузилди. “Хўп, қағғ...” деб оғиз очган эди, ёнғоғи Олмаҳон олдига тўп этиб тушди. “Кетавер, — деди Олмаҳон қарғага, — мен биринчи бўлиб ютиб олдим, яна ёнғоқ топган-тутганда келарсан...”

ҲАҚҚУШ

Ниҳоят, 65 ёшим арафасида Нурота тоғларининг Қоратов тизмалари дараларидаги қуюқ ёввойи боғларда мен Ҳаққушни кўрдим. Ниҳоят, деганимнинг сабаби эл ичида бу қушни ҳаққуй деб аташади ва ҳеч кимга қуринмайди, уни куриб бўлмайди, деган ақида юради. Ҳаққушлар бир жуфт эди, учиб бораётиб сайрар эди, шундан уларнинг ҳаққуш эканлигини билдим. Ғоят хушҳол бўлдим. Шерикларимга ҳақиқат қушини қуриш мумкин, дея ҳазиллашдим.

ЎЗИГА-ЎЗИ

Мен туғилиб ўсган қишлоқда Сайд деган ута ужар, ўзбилармон, фақат ўзимнинг билганим тўғри, дегувчи бир киши бўларди. У бод касалига йўлиқди ва ўзини ўзи даволамоқчи бўлди. Тик тандирга бозиллаган ўрик дарахтидан мўлгина чўғ қилиб ёйди. Устига сой бўйида ўсиб ётадиган ёввойи пиданаялпиз пояларини йиғиб келиб тушади... лой тайёрлаб қуйди... Аёлини чақирди, тандирга кирди, завжасининг “ҳай-ҳай”ига қарамай, тандир оғзини бўғзигача суватди, ярим соатдан кейин хабар олишини тайинлади. Аёли кўрқа-писа йигирма дақиқа утар-ўтмас қайтиб келди... Эр бўлмиш ўлиб ётарди. Одам ўз билимсизлиги, фаҳм-фаросатсизлиги, ўзбилармонлиги билан ўзига-ўзи гўрков, деганлари шу бўлади.

ЭГА

Узоқ йиллар бир ташландиқ, ҳеч кимса эътибор қилмаган бир парча жойни тозалаб, гуллар, нав-ниҳоллар экиб, боғча қилиб қўймоқчи бўлдим. Иш бошлаганимнинг иккинчи куни “эга”си етиб келди...

КЎРМАЙ ТУРИБ

Болалигимда Михлибой чулоқ деган қўшнитоб киши бўларди. У яхшигина тошиморатлар қуларди. Пойдеворни одам бўйича кўтариб олгандан кейин унинг устига чиқиб олар ва ўғилларига юқорига тош отишни буюрарди. Гап шундаки, отилган тошлар кўзлаган жойига мос келмай қолса, у пастга қайтарилиб, зарб билан отиларди. Бақирик эшитиларди: “Ҳой, Музаффар, тошни мослаб от, жойига тушсин!” “Мен девор устини кўрмасам, у ерга қанақа тош мос келишини қаяқдан биламан”, – дерди Музаффар. “Кўрмай туриб бил-да”, тагин бақирарди ота... Ўғил бориб-бориб, “кўрмай туриб бил...” ишни урганиб кетди.

ОЙДИН БУЛОҚ

Осмонни қоп-қора булут босди. Булут шиддатли ёмғир-дул ёғди. Ёмғир кўз очиб юмдирмас жалага айланди. Жала тўс-тўфонли сел бўлиб, йўлидаги неки бор оқизиб, ҳамма томонни ўпириб-супириб, этакларга пишқириб йуналди. Йўлида бир ойдин булоқ бор эди. О, жуда гузал эди у. Билқиллаб-қилқиллаб қайнаб ётарди. Одамлару паррандаю даррандалар ундан баҳраманд эди. Сел булоқни кўмиб ташлади. Очилмас алпозда кўмиб ташлади. Бироқ Ойдин булоқ тагин кўз очди. Устидаги тош-шағалларни итқитиб юборди. У Ёвузликка эмас, Эзуликка хизмат қилади, ахир!!!

ДАЛА ЙҮЛИДА

Отам мулла Олим айтган эди:

Дала йўлида бир киши билан ҳамроҳ бўлиб қолдим. Кетар эканмиз, бир жуфт буғдой бошоғи йул четида ётганлигини иккимиз ҳам кўрдик. Мен бепарво ўтиб кетдим, шеригим эса уларни эгилиб олди-да, кафтлари орасида уқалаб, донларини чунтагига солиб қўйди. Йулда давом этдик. Кўп ўтмай кўнглим озди. Аммо ҳамроҳим бардам-бепарво ҳалиги буғдой донларини чайнаб-эрмаклаб кетарди.

БУЛОҚ БОШИДА

Болалигимда отам билан тоғда чўпонлик қилар эдим. Бир куни икков булоқ бошида ўтирардик, беихтиёр сувга тупуриб юборибман. Сувга тупурма, болам, деди отам, ҳаром бўлади. Оқиб кетаётган сув бир тупукдан ҳаром бўладими, дедим мен. Ҳа, деди отам, ҳамма ҳаромлик бир тупукдан бошланади.

ЗАҒИЗҒОН

Умримда зағизғондай сурбет қушни кўрмадим: ҳовлингга тап-топтмай киради, чангакка осиб қуйган гўштни олиб қочади, товуқлар тухумини пойлагани пойлаган. У ёмон қушнига ухшайди.

УМР

Болалик – дарёнинг Бош булоғи.

Ёшлик – Бош булоқлар қушилуvidан пайдо бўлиб, дарёга айланган шиддат.

Балоғат – кенг, текис водийга тушиб, салобат билан чуқур ва сокин оқаётган дарё.

Кексалик – чулу саҳро қумликларига тақалиб, кичрайиб, ҳорғин йул босаётган ва оқибат ё бўғланиб, ё ерга сингиб кетаётган ўша дарёнинг сўнгги бир қатра суви.

Ҳаммаси ўз жойида ва пайтида гўзал, қадрли, ардоқли, орзули, армонли, ачинарли УМР!

ЖАВОБ

Дўстим Қозоқбой Йўлдошдан бир куни сурадим: Сиз Сирдарё буйида туғилиб ўсгансиз, унда неча бор чўмилганингизни эслайсизми?

Қозоқбой Йўлдош деди: Бир дарёда бир марта чўмилиш мумкин.

АЙИҚ

Айиқ дарахтни силкитаётганда ўз қудрати, кучига, душманини маҳв этаётганда ўткир тирноқларига, қопқонга тушиб қолса... одам зотига ҳам ишонади.

БУРГУТ

Бургут тоғнинг энг баланд чуққисида тин олиб турибди. Бир қарашда у мудроқ, дунёдан беҳабар. Аммо эй дўст, унутма, ўша Бургут бу Маконда: қайси алқор қайси булоққа сув ичиш учун тушди, қайси сувсар қайси бутанинг тагида тимирскиланяпти, қайси илон қайси фотмақушни ё читтакни пойлаяпти, қайси каклик галаси қайси дара-камарда ёйилиб юрибди, тоштурғай қайси тошқоянинг тушига уя қуйган, тоғқаптар қаёққа учиб-бориб келяпти, қайси курсичқон қаерда ин қазияпти, ола тулки нега ўйноқлаяпти, арлони бурининг тунги нияти нима... ҳамма-ҳаммасини куриб-билиб ўтирибди. Сен эса, эй дўст, Бургутни ухлаяпти, деб уйлайсан. Императорлар, подшоҳлар, президентлар, қироллар, донишмандлар ўша Бургутга ухшайди!

ОДАМ БОЛАСИ

Одам боласи кўпроқ кўзи куриб турган нарсага ишонади. Кўз ҳам алданиши мумкинлигини эса ҳаёлига келтирмайди.

Ер юзасидаги энг баланд тоғ – Эверест. Эверест европаликлар атамаси. Маҳаллий халқ – непалликлар уни Жамолунгма, ҳиндлар эса Сагартматха дейишади. Аслида, энг баланд ва катта тоғлар океанлар тубида жойлашган. Сув усти ва сув остидаги қисми ҳам ҳисобга олинса, энг баланд тоғ Гадай оролларидаги Мауна Кеа тоғи бўлиб чиқади.

ИККИ ШАҚАЛ

Күрдимки, икки шоқол бир улакساني талашиб, улар-тирилариға қарамай, остин-устун бўлиб олишарди. Қулоқларини диккайтириб пойлаб утирган Тулки улжани “шап” олди-ю, ўрмонға кириб кетди. Қиссадан ҳиссани ўзинг чиқар.

ЧУМОЛИГА

Чумолига дедим: – Қорнингнинг тайини йуқ, бунча чопганинг чопган, югургилаб, кучаниб-уртаниб дон ташиганинг-ташиган.

Чумоли деди: – Тириклик қориннинг катта-кичиклиги билан улчанмайди.

ЖУМАГУЛ МОМО

Қайнонам Жумагул момонинг тез-тез қайтариб турадиган бир гапи буларди: “Йиқилганни турғазма, ўзи турсин”.

ОШИҚ БУЛОҚ

Ошиқ булоқ бўлдим, қояни ёриб чиқдим, ошиқ дарёға айландим, йулимни боғ-роғларға айлантирдим, уммонға қушилдим, оҳим кўкка урлайди.

ИККИ ҲҒИЛ

Бир бойнинг икки ҳғли бор эди. Бир ҳғли отаси берган мерос бойликка нуқул қўй-қўзи олиб, чорвасини бойитди. Иккинчи ҳғил турли-туман кучатлар сотиб олиб, боғ яратди. Кунлардан бир кун юртни ёв босди. Улар биринчи ҳғилнинг қўй-қўзисини бирорта қолдирмай еб битирди, туёқ қолмади. Ёвлар иккинчи ҳғил боғининг меваларини ҳам еди, шарбат қилиб ичди, аммо дарахтлар ўша-ўша қолаверди. Ёв юртни ташлаб кетиб, кўклам келиб боғ яна гуллаб-яшнади...

ОИЛА

Ажаб сир-синоатлар: тоғ ичидан емирилар экан. Узбеклар ташқи ҳовли билан бирга ички ҳовлини ҳам бекорга қуришмаган. Ичкарида Оила асралган.

БИР ҚОЗИ ДУСТИМ

Бир қози дустим бор эди. Қуноққа чорлади. Ҳовлининг бир четидаги супа-сурига жой қилинган, шоҳона курпачалар ёзилган, дастурхон тўкин. Майи ноб ширин сувдай оқди. Мезбоннинг кайфи ошди. Ҳайқирди: – Мен эркин одамман! Уй деразаси шартта очилди ва хотини буйинини чузиб: "Нима?.." деди. Эр ҳам шартта жавоб қайтарди. – Мен эркин қулман, – деяпман.

ҚАЛДИРҒОЧЛАР

Қалдирғочлар икки хил уя қуришади. Биринчиси, кўпчилик қуриб, кўзи пишиб кетган ярим ой шаклидаги очиқ-сочиқ уя. Унга илонлар урмалаб чиқиши мумкин, полапонлари ерга тушиб кетиши ҳеч гап эмас. Иккинчиси, ҳамма томони ёпиқ, фақат ота-она қалдирғочларнинг ўзлари кириб-чиқадиган оғизлигина уя. Назаримда, иккинчи ошён соҳиблари ҳаёт хавф-хатарларини анча-мунча бошларидан кечирган, тажрибали, эҳтиёткор қалдирғочлардир. Бу қалдирғочлар менга ота-онамни эслатиб туришади.

БОЙ ЙИГИТ

Бир бой савдогар йигит камбағал қизга ошиқ бўлиб қолди. Унга кўнглини изҳор этди. Қиз рад жавобини берди. Йигит ошиқлигини исботлаш учун қизнинг кўз ўнгиде бир қопчиқ пулни ёқиб юборди.

– Энди ишондингми? – деди қизга йигит.

Қиз деди:

– Бу ишинг бойлигингдан, албатта. Лекин шунча пулни меҳнат қилиб топганингда, ёқмас эдинг. Демак, пулни меҳнатсиз топгансан. Қолаверса, пулнинг қадрига етмай, ёқиб юборган одам менинг қадримга етармиди?! Йигит тилини тишлаб қолди.

ЧУПОН

Бир кўтон кўй бир жаранг-журунгли кўнғироқли така – серка этагида: у кўйиб берсанг тоққа етаклайди, кўйиб берсанг чулу саҳрога олиб кириб кетади, кўйиб берсанг жарга бошлаб, калла ташлатиб, ҳалокатга учратади... Демак, кўйга чупон бўлмоғи – зарурият. Демак, чупон қулида таёқ бўлмоғи ҳам зарурият!.. Пайғамбаримиз бекорга чупонни қадрламаган экан-да?!

ОЛТИ-ЕТТИ ЁШИМДА

Олти-етти ёшимда онам билан бугдой анғиззорларида машоқ терардик. Йиққанларимизни онам этагига солиб, шамол чорлаб, қўлларида шопирар, қизғиш сара бугдой доналарига қандайдир меҳри ийиб тикиларди, шивирларди: “Баракангиз бир донада, билмайман, қай донада...” Бугун онам йуқ. Менинг ҳам умрим илвираб турибди. Бугдойнинг ҳам, умрнинг ҳам баракаси онам қўлларида экан.

МОРОЛ

Морол – кийик илон инининг оғзига тумшуғи-оғзини тиқиб, қандайдир, худди магнит темирни тортгандек илонни тортиб олади. Ейди. Унинг кўзларининг ўткирлиги шундан. Соғ танага ҳам идрок ва куч керак!

ОТАМ

Отам мулла Олим мени тушида бир неча бор курганлигини айтар эди: “Доим оқ от миниб юргансан...” Ажаб...ажаб... Мен ҳаётимда куп оқ машинада юрдим!

НИҲОЛ

Боғинг қанча бўлса ҳам, қандай бўлса ҳам ниҳол эк, дарахтга айлан-тир, пайти келиб ёқмаса кесиб ташлаш қийин эмас. Улар ҳеч булмаса ўчоғингга ўтин бўлиб, қозонингни қайнатади.

ЧУПОН

Ўзбекистоннинг энг баланд нуқтаси Ҳазрати Султон чуққиси йулида Филон деган қишлоқ бор. Шу қишлоқ кексаларидан бир гап эшитдим: “Зар пинҳон, зан пинҳон”, яъни заринг ва завжангни пинҳон тут!

СИРТЛОН ИТ

Бўри арлони билан ит қанжиғи қушилуvidан сиртлон ит дунёга келади. Сиртлон итим бор, деб унга қўйларингни куп ишонаверма. У истаган пайтда бўриларни сурувга бошлаб келиши мумкин.

ҚУМУРСҚАЛАР

Дала-даштларда қумурсқа уясини, ҳаётини кузатганмисиз? Қумурсқалар бетиним меҳнат қилади. Уясига дон-дун ташийди – эртанги кун ғамида. Уларнинг аҳиллиги ҳайратли, ибратлидир. Уларни куп бор кузатиб, куп бор одам зотидан ҳафсалам пир бўлгани рост!

БИР СУДЬЯ

Оҳ, деди бир судья, фалончи қўлимга бир тушса эди. Демак, бу судьяга қонуннинг аҳамияти йўқ.

ҚУЁН

Қуён ҳамиша таҳликада яшайди. Аммо ишқдан баҳраманд пайт бу таҳликани унутади. Оёқ-қулларини кукка кутариб роҳатланади. Бўрига эса шу лаҳза керак...

БИР ҚАРИНДОШ

Туғилиб усган қишлоғимга боргандим, бир қариндошим менга дийдиё қилиб қолди: “Камбағалман. Танам соғ, ақлим жойида, бу камбағаллик менга қайдан ёпишди?”

Беихтиёр тилимдан чиқиб кетди: “Тананг соғ, ақлинг жойида бўлса, нега камбағалликни бўйнингга оласан?”

ҚАШҚИРЛАР

Қашқирлар қутонга оралаганда қуйларнинг семиз-ориғини ажратиб ўтирмайдилар. Уларнинг феъли менга баъзи дунё сиёсатчиларини эслатиб юборади.

ЭРКАКЛАР

Эркаklar аёлларни маккорликда куп айблайдилар. Уларнинг феъл-атвори “сирли сандиқ” булганлиги учун ҳам шундай қиладилар. Ҳолбуки, маккорликда аёллар эркаklar олдида ип эшолмай қоладилар. Вафосадоқатда ҳам шундай.

ЧАВАНДОЗ

Минг чавандоз кўпқари тўдасига кириши, от суриши мумкин, аммо бир чавандоз ундан улоқни олиб чиқади ва маррага элтади. Бу оламнинг қизиғи шунда.

ЧИРКАЙ

Чиркай – пашша миттигина, аммо қулоқ остида ингичка товуш чиқариб, лаҳзада бирор жойингизни чақиши нақадар ёқимсиз. У худди галамис касга ухшайди.

ТУРТИНЧИ ДЕРАЗА

ИЛМ

Йигирманчи аср бошларида бобом Суюнбой Бухоронинг Мир Араб мадрасасида ўқирди. У бир езда қишлоғи Накуртга таътилга келди. Қарангки, Суюнбой келган куни отаси Мирзабой эл-улуснинг казо-казо пешволарини чорлаб, зиёфат бераётган экан. Меҳмонхона тўрида Нурота музофотидан келган Шайх қўр тукиб, тасбеҳ угириб сўзламоқда эди. Суюнбой: "Ассалому алайкум", – деб кириб келди. Ва бирдан... Суюнбойнинг юзи-кузига кузи қадалган Шайх ўрнидан туриб кетди! Мирзабой Шайхга: "Ўтиринг, утиринг, бу – менинг ўғлим", – деди. Шунда Шайх:

– Мирзабой, мени ўрнимдан сизнинг бойлигингизу молу мулк, давлатингиз турғазгани йўқ, ўғлингизнинг юзи-кузига ёзилган илми турғазиб юборди! – деган экан.

НИХОЛ ҚАДРИ

Отам Олим, Олимнинг отаси Суюн, Суюннинг отаси Мирзабой, Мирзабойнинг отаси Норбой. Норбойнинг энг катта ўғли Нурмуродбой минг-боши. Ана шу Нурмуродбой ўз боғида бир қанча чорикорни ишлатаётган эди. Чорикорлардан бири "воҳ" деб юборди. Унинг бошига етиб келган Нурмуродбой ҳалиги чорикордан, нима бўлганини суради. Чорикор деди:

– Қўлимни кесиб олдим.

– Ҳа, – деди Нурмуродбой, – ҳечқиси йўқ, тузалиб кетади, мен бирор ниҳолни кесиб юбордингми, деб ўйлабман.

ДЕҲҚОНБОЙ БОБОМ

Бобом Деҳқонбой ўт-оловли ёшлик йилларининг ажойиб бир кунида, тоғ бағридаги бўри уясига кириб борди. Макон эгалари овга чиқиб кетишган, аммо уларнинг болалари бир-бирларининг пинжига бош суқишиб ётишган экан. Деҳқонбой бўри болаларини овулга олиб келди. У ўз тенгдоши бўлган отам Олимга мақтанди. Лекин Олим унинг қилигидан ранжиб, ўз ғазабини бир сўзда ифодалади:

– Аҳмоқсан!

Тоғлиқлар учун оғир бўлган бундай сўзни ўз акасининг ўғлидан кутмаган Деҳқонбойнинг кузлари чақнаб деди:

– Аҳмоқдирман, аммо қўрқоқ эмасман!

ДУСТЛИК

Мен дустликни қандай тушунаман?

Қоратоғнинг қоқ белида Накурт қишлоғи билан Ухум қишлоғини туташтирувчи ёлғизоёқ йўл бор. Накурт – Самарқанд вилоятига, Ухум – Жиззах вилоятига қарашли. Накуртда ўзбеклар, Ухумда тожиклар яшайди.

Ухумликлар бозор-учарини ҳар бир ойда шу суқмоқ йўл орқали икки минг метр баландлик – тоғ ошиб – Накуртдан ўтиб, Сарой қишлоғида жойлашган Жумабозордан қилишарди. Улар бозорга келиш учун бир кун аввал, яъни шанба куни саҳармардон туриб, от, эшак-уловларга миниб, йўлга тушарди. Минг машаққат билан тоғ ошар ва Накуртга келиб, мулла Суюнбойнинг укаси бобом Деҳқонбойникига қўнардди. Деҳқонбой қўй ёки серка сўйиб, уларнинг иззатини жойига қўярди. Эртаси кун улар тагин тонгда туриб, бозорга йўл оларди. Куни билан бозор-учарини қилиб, пешиндан сўнг ортга қайтарди. Табиийки, яна машаққатли йўл. Деҳқонбойникига етганларида кеч бўлиб қоларди. Довондан тезроқ ошиб ўтиш учун шошилиб кетаётганида, бирдан уларнинг олдида Деҳқонбой бел бўлиб турарди. “Қани, уловдан тушинглар, чой тайёр, куни билан чарчагансиз, бироз дам олиб, кейин йўлга тушасиз”, деб ҳоли-жонига қўймай уйига бошларди.

Кунлардан бир куни – олмалар ғарқ пишганда – етти-саккиз қоп олмани эшакларга юклаб отам, Деҳқонбой бобом ва мен – тўққиз ёшли бола – доvon ошиб, Ухумга йўл олдик. Ухумдан Қизилқумга – ҳозирги Арнасойнинг қадимги жойларида яшайдиган қозоқ чўпонлар ёнига бораётган эдик. Мақсад – олмани қўй-қўзиларга айирбошлаб келиш эди.

Ухумдан ўтарканмиз, қандайдир пастқам тош кулбадан ўткам овоз янгради: “Ҳой, Деҳқонбой, Олимбой! Қани, уловларни тўхтатинг, эшаклардан тушинг, чой тайёр!”

У ёқ-бу ёққа қарамасимиздан, уч-тўрт одам пайдо бўлди-ю, эшакларни боғлашга тушиб кетди. Бобом қозоқ оғайнилариникига шошаётганимизни айтган эди, улар дов қараш қилди... Қўй сўйилди, шўрва тортилди, кўк чой бостирилди.

Хуллас, қорин тўқ, қайғу йўқ.

“Ана энди йўлларинг бехатар бўлсин”, деди бир оқсоқол ва бизга жавоб берди.

Қозоқ чўпонлар ўтовида ҳам кўп сийлов кўриб, олмамизни қўй-қўзиларга алиштириб, учинчи кунми, тўртинчи кунми, изимизга қайтдик. Ухумга кириб келганимизда, ёнғоқзор остидаги супада ўтирган ўша кунги қадрдонлар – янаям кўплашиб олдимизга бел бўлиб чиқди. Яна меҳмондорчилик, яна сийлов...

Болалигимда бундай воқеаларга кўп гувоҳ бўлганман.

Бугун отам ҳам, бобом ҳам йўқ. Ухумлик оқсоқоллар ҳам дунёдан ўтиб кетган. Аммо мен ўша тожик оғайниларнинг болаларини, невараларини топганман.

КЕКСАЛАР ВА ЁШЛАР

Обод, фаровон, гуллаб-яшнаб турган бир мамлакатда тахтга янги утирган подшоҳ ўзини дўсти-душманга бир курсатиб қуйиш, керак бўлса, ёшлар ишончини мутлоқ қозониш учун уларга алоҳида, яъни, мамлакат уртасини қоқ бўлиб оқиб ўтувчи дарёнинг чап қирғоғидан қулай ва гўзал жойни танлаб, қалъа қуришга фармон берибди. Подшоҳ амри вожиб. Қалъа тайёр. Барча ёшлар эски қалъадан янги қалъага ёппасига кучиб ўтишибди. Миннатдорчиликнинг чеки йўқ! Яшасин шоҳ!

Эски қалъада фақат кексалар қолишибди. Ёшлар қалъаси кундан-кун гуркирабди. Эски обод қалъа эса кундан-кун харобага айлана бошлабди, маҳобатини йўқота борибди. Туйлар тинибди, ҳофизлар тори янграмабди, қаҳ-қаҳлар эшитилмай қолибди, кучалар бум-бўш, ҳатто тунлар шамлар, чироқлар ёқилмай қолибди. Мамлакатнинг донишманд бир шоири бор экан, хонанишинга айланибди, мунглиғ-мунглиғ ашъор битаркан-у, аммо ҳеч бир кимсага ўқимас экан.

Асрлар оша гуллаб-яшнаб келаётган, аждодлари, ота-боболарининг беқиёс мероси бўлган таянч қалъа бундай таназзулга юз тутаётганлигини кутмаган подшоҳ бирдан ҳушёр тортибди. Аъёнларини чорлабди, бу таназзулнинг боисини сурабди. Аммо ҳеч кимдан тайинли жавоб ололмабди. Ногаҳон подшоҳнинг шу мамлакат овозасини қачонлардир оламга ёйган шоир эсига тушиб қолибди ва сурабди.

... Шоири замон оламдан ўтганми?

Йўқ, – дейишибди, – аъёнлар, – шоир тирик, лекин ашъор айтмагайдир...

Шоир тирик бўлса, ашъор айтмаслиги мумкин эмас! Олиб келинглар!..

Шоир шоҳга таъзим қилган булди ва бирор сўровни ҳам кутмай, "Ёшларни кексалардан, кексаларни эса ёшлардан айро тутманг, шоҳим!" – деди.

ЁМОНЛИККА – ЁМОНЛИК, ЯХШИЛИККА – ЯХШИЛИК

Сурхондарёнинг очик дашт-қирларида, чулу саҳроларида утов тикишади. У ҳатто қиш кунлари ҳам йиғиштириб олинмайди, фақат кигиз, олачалари бир чеккага тахлаб қуйилади.

Қай бир йили... қиш аёзлари тугаб, куклам келиб, чупонлар одатларича утовларга кучиб чиқишди. Бир чупон ўз утовига йул-йўлакай бир кади сут ҳам кўтариб келди. Уни бир ёнга қўйиб, утовнинг ичига кирди. Қараса, бир кигиз ўрами чети-ичида илон болалари бир-бирига чирмашиб ётибди. Ота-она илон яқин атрофларда куринмасди. Чупоннинг бир шумлиги тутди. Илон болаларини бир четроққа яшириб, ўзи ўғринча қараб турди. Қаердандир она илон пайдо бўлди, қаради, болалари йўқ, уёққа-буёққа билонглаб судралди, топмади...

Сут тўла кадига кўзи тушди. Унга чузилиб, заҳарини тўқди – заҳарлади. Зум ўтмай яна қайгадир йўқолди. Бундан фойдаланган чупон илон болаларини тагин ўз жойига қўйди. Шу пайт иккита илон пайдо бўлди. Чупон тахминича, она илон ота илонни бошлаб келди. Болаларини кўрди. Ва бирдан... Она илон кади тарафга қараб интилди, унга яқинлашиб, ичидаги заҳарланган сутни тўкиб юбормоқчи бўлди, лекин уددасидан чиқолмади.

Э, воҳ!.. У бирдан ўзини унга-чапга ташлаб-ағанаб қумга булана кетди... Сўнг кадига чузилиб тушиб, сутни ифлослантирди. Токим бу сутни ҳеч ким ичмасин, дегандек... Кейин кўнгли жойига тушгандек, ота илон билан болаларини қаергадир бошлаб кетди.

Ёмонликка-ёмонлик, яхшиликка-яхшилик, деганлари шумикан!

ЧҮПОННИНГ ДУСТЛАРИ

Боботоғнинг Соролқа дарасида бир чупонга қуноқ булдим. Унинг иккита бўрибосар зотли ити бор эди. Иккаласи ҳам айиқ келбатли. Иккисининг ҳам қулоқ ва думлари кесилган.

Чупондан уларнинг қулоқ ва думлари нима учун кесиб ташланганлигини сурадим.

Чупон менга мутафаккирона жавоб берди.

– Бўрибосар ит чупоннинг энг содиқ дўсти. Содик дўст доим хушёр ва зийрак бўлиши лозим. Узун қулоқлар шалпайиб, эшитиш қобилиятини сусайтиради. Ҳатто қулоқ тешикларини беркитиб қўяди. Ит фақат кўзларига ишониб қолади. Кўзларнинг эса хиралашуви ҳам бор. Бурилар кўзларни бемалол алдай олади... Итларнинг алданмаслиги – кўтоннинг омонлиги. Думга келсак, узун дум тез чопишга ҳалақит беради, итлар бўриларни қувганда ўз ўтмишдошларидан чаққонроқ, чапдастроқ бўлиши керак. Қолаверса, бўри ит думини бир тишлаб олса, уни узиб ташламасдан ёки суғуриб олмасдан қўймайди. Бу – кони азоб. Хуллас, дўстлик қурбонликлар ҳам талаб қилар экан.

РАЗОЛАТ

Эҳтимол, ҳамма нарсанинг чегараси бордир. Аммо одамзод разиллигининг чек-чегараси йўқ. Ҳисор томонларда Кўганли ота деган мазористонга дуч келдим. Шу ерлик улуғлардан бу мазорнинг нима учун “Кўганли ота” деб аталишини сурадим. Улар шундай жавоб беришди:

– Қадамингиз қайрилмасин! XX асрнинг энг даҳшатли бир воқеаси бизнинг қишлоқда юз аталмиш уруғ бошида рўй беради. Юзликлар Бухоро амири Музаффар зулмига қарши бош қутаради. Бунга жавобан амирнинг шахсан ўзи лашкар тортади. Қишлоқнинг ўн икки ёшлисидан энг кекса эркагу аёлига қарамай қулга олинадилар ва қўйлар каби кўганланандилар – арқонларга тизим қилиб боғланадилар. Уларнинг барча болаларини эса бир ерга, яъни шу мазористон ўрнига йиғиб, дустама қилиб ётқизиладилар, устларига кигиз, олачалар бостириладилар! Сўнг... “чавондоз”ларга фармон бериладилар: юзлаб отлар болалар устида ўйнайдилар. Бу ҳол ота-оналар кўз унгида. Сўнг... ота-оналарни ҳам бир-бир қиличдан ўтказишади.

Тагин бир ҳолат: ўндан ошиқ от болалар устига бостириб бормайди. Орқаларига тисралиб, “чавондоз”ларини устларидан улоқтириб ташлаб, дуч келган томонларга қочишади...

Одамзод ва ҳайвон... Менинг кўзларимдан ёшлар тирқираб отилди.

ҲОСИЛ ПОШШО

Зап замонлар утган, зап замонларда зап одамлар ўтган. Улардан қизиқ-қизиқ воқеалар, ибратли сабоқлар, мурод-мақсадли уғитлар, йулингиздаги ғовларни бартараф қилгувчи ҳикматлар, ишлар қолган.

Қоратоғнинг Можрим дарасида қадимда бир қавм яшарди. Бу қавмга Ҳосил деган киши пошшо эди. Қавм пошшоси. Мансаб-мартаба доим эъзозли. Уни сақламоқ-асрамоқ учун, зотларким, ҳеч нарсадан тап тортмаган, ҳар қандай ҳимматдан ёки ёвузликдан қайтмаган.

Бир кун Ҳосил пошшо машварат ўтказар эди. Бутун қавм йиғилган. Ҳосил пошшо гапирар эди:

– Атрофда ўғри, қароқчилар купайган, улар истаган пайтда кунмитунми демай қавмнинг мол-мулкига, қиз-жувонлар, бола-бақраларига хавф солиши мумкин. Эгалик қилиши мумкин. Ҳамма эрлар-эранлар доим ҳушёр бўлмоқлиги лозим. Луқмангнинг оғзинга киргани ҳисоб, ташдаги бировники.

– Ота! – деди суюкли куёви Ражаббой, – Нуқул ваҳима қиласиз, тошқўргонимиз мустаҳкам бўлса, ундан зоғ ҳам учиб киролмайди, товўқларимизнинг тухумига ҳам дахл қилолмайди.

– Шундайми? – деди Ҳосил пошшо ва қиличини қинидан суғуриб олди-ю... куёвининг калласини шартта узиб ташлади!

Ҳосил пошшо – масъул пошшо.

Машварат давом этди...

Мен Ҳосил пошшонинг авлодлари билан танишман.

ЧИРАНИШ

Ужарлик, беҳуда чираниш одамни шарманда қилади, кулгига қолдиради. Туркистон тоғларида Суюнбой Қора домладан бир нақл эшитгандим. Билмаганлар билсин, Сор деган қуш бор, эпсиз-уқувсиз, кўполгина бир қуш. Кунлардан бир кун Сор чўққида қуниб ўтирган экан, ёнидан Лочин учиб утибди.

– Ҳой, Лочин, – дебди Сор, – нега мунча ҳовлиқиб, у ёқдан бу ёққа, бу ёқдан у ёққа учасан? Мана, мени қара, қанчалик учқур, чаққон бўлсам ҳам чўққида тин олиб ўтирибман, ўзи сен чаққонми, менми?..

– Буни исботлашнинг йули осон, – дебди Лочин, – баҳслашиб утирмай, ким олдин унта каклик тутса – бари аён бўлади-қуяди.

Иккаласи икки дарага учиб кетибди. Шомга яқин яна учрашибди.

Тагин Сор гап бошлабди.

– Ишларинг қалай, Лочин, ҳали ҳам у ёқдан бу ёққа ҳуда-беҳуда учиб юрибсанми, қанча каклик тутдинг?

– Тагин битта тутсам, унта бўлади, – дебди Лочин. – Ўзинг қанча тутдинг?

Шу пайт чўққи тарафдан бир какликнинг азот сайраши эшитилибди.

– О, Лочин, – дебди Сор, – мана шу сайраётган какликни тутсам, тўққизтаси қолади.

ЮГУРДАК БОЛА

Оқтовнинг бир дарасида мўмингина овчи яшар эди. Лекин бефаҳмроқ эди. У қайси элдандир лўлиларга эргашиб келиб қолган етимча болани ўзига тозидай ов-улжасини териб юрадиган югурдак қилиб олди. Бориб-бориб овчи унга милтиқ отишни ургатди. Овчиликнинг хумори ёмон. Қурулнинг хумори ёмон. "Шогирд" милтиқнинг танҳо эгаси бўлишни истаб қолди. Унинг кузлари устозига вақт-бевақт, жо-бежо боқадиган бўлди. Бир овда... тонг қоронғусида тоғ сукунاتини бузиб ўқ қарсиллади. Овчи югурдакнинг пойида жон берди.

Аллоҳ-Аллоҳ, ўз ишининг оқибатини чуқур уйламайдиган, билмайдиган кимсалардан ўзинг асра!

ИСРОФГАР

Қай бир йили кузда сурхондарёлик ука – дўстим, катта бой – мулк соҳиби, машҳур овчи Ҳабибулло, унинг севимли бир жияни ва бошқа уч-тўрт ошна Ҳисор тоғларининг Осмонталаш томонларига овга чиқдик. Ҳориб-чарчаб Қирқ Арча камарида қўр туқдик, гулхан ёқиб дам олдик. Ҳабибуллонинг жияни гугурт чақиб сигарет тутатди. Ҳабибулло ялт этиб жиянига қаради.

– Жи-и-ён, – деди у, – қани ёнимга кел-чи.

Жияни ўрнидан ирғиб туриб, унинг ёнига бориб чўккалади... Бирдан Ҳабибулло жияни юзига шапалоқ тортиб юборди. Ҳаммамиз донг қотиб қолдик.

– Эй, инсофсиз исрофгар, – деди Ҳабибулло, – олов гуруллаб ёниб турган жойда ҳам гугурт ёқадими? Овлоқ тоғларда юрган бўлсак...

ОРАЧА ҚИЛГАНГА...

Ёзги ҳовлимда супа устида дам олиб ётардим. Тонг энди отганди. Тўртта майна чуғурлашиб, жанжаллашиб кетишди. Тўрталаси гўёки жикқамушт бўлишди. Бир-бирини уюлиб турган сомон устига ағдаришди. Учишиб деворга қўнишди. Бу ерда ҳам жанг давом этди. Бирдан қўшним ҳовлисининг девори устида қўниб турган зағизғон улар уртасига шувуллаб учиб тушди – орани ёриб ўтди. У гўё: “Бас қилинглар жанжални!” дегандек эди. Майналар жанжални яна давом эттирди. Зағизғон яна орача қилди. Майнанинг бири бирдан зағизғонни қувлашга тушди. Бирпасдан кейин иккинчиси уларнинг ортидан қувди. Кейин учинчиси... Мен уйланиб қолдим: “Орача қилган одамга олти мушт” деганлари шумикин?..

БЕШИНЧИ ДЕРАЗА

* * *

Бир ижодкор умрида, тақдирида маълум ва номаълум бир адабиёт жам булиши мумкин.

* * *

Дўппи-дўппи тилло йиғмадим, дўппи-дўппи буғдой йиғдим. Дўст изладим – дўст топдим. Йўқотганларимни ҳам айбламадим, ўзимни айбладим. Хокисор бўлдим, одамлар кулишди, мағрур бўлдим, одамлар эгилишди. Эгилганга эгилдим, мағрурга мағрур бўлдим. Кулган билан кулишдим. Йиғлаган билан йиғлашдим. Олтинни кўрса фаришта ҳам айнир экан, олтинни кўрдим... аммо сабр-қаноат туйдим, шунга куч-қувват топдим. Эл билан беллашмадим, эл билан тиллашдим, эл билан эллашдим.

Дўрмондаги ҳовлимнинг ташида, ташландиқ, анчайин жойни тозалаб, тартибга келтириб, боғ яратдим. Мана, йилларким, унда минг туп терак, қоратоллар, йигирма тупдан ошиқ гилос, ёнғоқ, олма, беҳию шафтолилар, ўрик, жийда, дўлана, наъматак, анжир, анор, олча, қаролилар, узумнинг ҳар хил навлари гуллаб-яшнаб, мева бериб ётибди. Бир туп мажнунтолим росмана катта мажнунтолга айланган. Чорбоғ адоғидаги қоратолларнинг қуюқ сояси тагига сўри ўрнатганман. Бу сурида кўп устозлар, дўстлар, қадрдонлар, узоқ-яқиндан келган меҳмонлар давра қуришган: ўзим кўклам бошланиши билан то биринчи қор ёққунча боққа чиқиб, сўрини макон тутаман. Ўқийман, ёзаман, ётаман-тураман... ҳаммаси шу ерда. Энг асосийси, бу ерда табиат билан биргаман – диллашаман, тиллашаман, сирлашаман. Боғим – бутун бир олам! Чорбоғдаги ҳар лаҳзалик ҳаёт сирларга тула...

* * *

Богда фақат булбул сайрамайди... Асал болни бир гулдангина йигмайди. Адабиётда кечмиш булган ҳар лаҳзалик илҳомнинг ҳам манбаи шундай.

* * *

Одатда улкан шаҳарларнинг уртасидан уларни қоқ ёриб, қирғоқларни обод этиб улкан дарёлар оқади. Шу каби улуғ санъаткорларнинг ижоди ҳам халқ юрагининг жон томиридан жой олади.

* * *

Ёзишдан олдин яшаш керак, деган экан бир адиб. Дарҳақиқат, шундай. У шоирми, носирми, санъаткорми – ким бўлмасин, ижод майдонида от суришдан аввал, албатта, муайян бир йўлни босиб утиши, ҳаётий тажриба соҳиби бўлиши шарт. Булоқ кўзидан отилиб чиқаётган сув не-не машаққатли йўлларни босиб, не-не тошларни ёриб чиққанлиги учун ҳам тотлидир.

* * *

Менинг меҳр-муҳаббатим Нурота тизма тоғларининг Қоратоғ силсиласидаги Бешбармоқота ва Паррандозота қояларига муҳрланиб қолган. Мен кўнгил манзараларини кўриш истагида бу олис тоғ бағрига тез-тез бориб тураман. Гарчи Ўзбекистонимнинг гузал пойтахти Тошкент шаҳрида кўп йиллардан буён яшасам-да, жуда-жуда соғинаман уша муҳр — уша кўнгил сийратини. Бир кўкламда борганимда: дилором осмонда бир қизғиш-қизил булут-шафақ чумоли тизимларидай булутлар оралаб, урмалаб-ялтиллаб сузиб ўтди. Юрагим ҳаприқиб кетди. Тошдан-тошга урилиб, уларни бир-бир ошиб ўтаётган тоғ булоғининг бир қалқим сувидек қалқиб кетди юрагим. Тошкентга шеър ёзиб қайтдим:

Қорамтир, қонталаш, қумлар тусида,
Қути ўчган, малла, қизил булутлар,
Қандайдир ваҳмкор хил-хил булутлар,
Шошқин тўпланмоқда чўққи устида.

Улар қўршаб олди чўққини мутлақ,
Бир нохуш ниятга буткул шайланди,
Ўргимчак уяси — тўрга айланди,
Қоп-қора ҳалқада чўққи бош-оёқ.

Бирдан ҳайқираман: — Қайдасиз, қайда,
О, шамол биродар, о, чақин-чақмоқ?
Қайдасиз, дўстларим, қайда, қалдироқ?
Булутларни чўққи устидан ҳайданг!

Ғамбода ҳайқирик осмонни тутар,
Булутлар тўзғишиб пар каби йитар.
Чўққи жилмаяди, кўраман аниқ,
Мен унга қадрдон, мен унга яқин.

* * *

Кундаликдан: 1993 йил, 23-25 ноябрь. Ўзбекистон Президентининг Буюк Британия ва Шимолий Ирландия бирлашган қироллигига расмий-амалий ташрифида делегация сафида Лондонда булдим. Сафаримизнинг учинчи куни тунда туш кўрдим. Бешбармоқота ва Паррандозота қоялари қаршисидаги ям-яшил салтанат – яйловда отам билан мол боқиб юрибман. Тош кокилли дўнглик тевараги бойчечакларга тула эмиш. Уларни бир-бир суяр эмишман. Бойчечакларни узмасдан қўлларим билан сийпалар, эркалар эмишман. Ўтлаб юрган сигирларни қувдим... қувдим... еб қўймасин, деб отамга қарар эмишман. Бошим узра оппоқ булут пайдо бўлди. Унга талпиндим... учдим... оппоқ булутга қараб учдим... бирам ҳузур қилиб учдимки, уйғониб кетгач ҳам узоқ шу кайфият беланчагида ётдим...

Чин шоир таржимондир. У қалб аталмиш китобни таржима қилиб эл-улусга, инсониятга узатади. Сафарлар, юрт кезишлар бу китобни тўхтовсиз бойитиб, мавжлантириб боради. Елкасида сафар халтаси бўлмаган шоир қалби – китоби жуда зерикарли. Аммо зинҳор унутмаслик керакки, ўша қалб – китобнинг Ватани бор, Шеърнинг Ватани бор. Шеър Ватансиз бўлмайди!

Зомин. Ўриклисой. 2007 йил 24 июль куни мен Зоминнинг Уриклисой дарасида, маҳаллий аҳолининг атамаси билан айтганда, камарида эдим. Ўриклисой тугул, бутун Зоминни – Амир Темур ўз тузукларида йигирма етти давлат қаторида рақам қилган Зоминни Оврупанинг кибор аҳли ҳам, амриқолик эркин дунёчилару олифта оломони ҳам, Африқони қуятуринг, Осиёнинг қисик кўзли қавми ҳам билмайди. Аммо Ўзбекистон Давлатининг таъби нозик шоирлари, хусусан, кейинги даврнинг устоз ва ёш-яланг шоирлари яхши билади. Зомин Ўзбекистоннинг энг сўлим жойи – Туркистон тизма тоғларининг бир булагидир – бетимсол маскан – қалин арчазор билан қопланган ям-яшил гуша.

Эрта турдим. Этни биров жунжиқтирувчи ҳаво. Арчазор, ўт-алаф ва гулўтлар бўйига тўйинган ҳаво танамни яйратиб юборди. Керишиб, тўйиб-тўйиб нафас олдим. Ҳаводан ёмғир ҳиди келарди. Ёмғир ёгса керак, деб ўйладим.

Ҳақиқатан ҳам, шундай бўлди. Тушликка яқин Такали чўққи гирдини турлик рангдор булутлар қоплай бошлади. Аммо Такали чўққи учлари ёришиб турди. Кўп ўтмай бу ёруғлик ҳам булутларга сингиб кетди. Булутлар қуюқлаша бошлади. Тагин кўп ўтмай, кўрғошин тусли булутлар қора булутларга айланди. Бутун Ўриклисой осмонини қоплаб олди. Момоқалдироқ гумбурлади. Чақмоқ чақди. Даралар ичи қарсиллади. Аввал ёмғир томчилади. Сўнг улар шиддатли жалага айланди.

Жала шу даражада қуя бошладики, юракларга ваҳм тушди. Ўриклисой лойқа сувга тўлиб-тошди. Сел келди. Бўтана сел. Дов-дарахтлар аллақандай қорайди. Айниқса, арчалар... аллақандай... тулишгандек. Чамаси, йигирма-йигирма беш дақиқа ёққан жала бирдан тинди. Ҳамма тараф ҳеч нарса бўлмагандек ёришиб кетди. Фақат майсалар, гиёҳлар баргларида, арчалар, учқатлар, ирғайлар, зирқлар, қарағайлар, қорағатлар, терақлар, қоратоллар, итбурунлар, акаслар, мажнунтоллар япроқларида қизчалар сирғаларининг кўзларидек томчилар ялтиради. Ҳаво таъриф қилиб бўлмайдиган даражада тозарди.

Нимагадир юрагим ҳаприқиб кетди. Бақиргим, ҳайқиргим келди... Шу юртнинг шоириман! Ва беихтиёр ҳайқирдим ҳам: яшасин адабиёт, яшасин шеърят! Яшасин ҳақиқат!

* * *

Чин деҳқон уруғни аввал саралаб олиб, кейин ерга сепеди. Чин ижодкор қоралаганларини саралаб, сунг китобхонга тақдим этади. Ҳар иккисига ҳам пала-партишлик зиён келтиради.

* * *

Нон мазали, чиройли булиши учун хамирни обдон пиштадилар. Асарнинг ҳам "хамири"ни қиёмига етказиб, тобга келтириб ёпиш ва сунг халқнинг дастурхонига узатиш керак.

* * *

Ҳар қандай Ватан адабиётининг шонли саҳифаларини ташкил этувчи омиллардан бири, шубҳасиз, халқ тарихидир. Халқ тарихидан холи адабиёт ҳаргиз улкан адабиёт бўлолмайди. Ҳар бир истеъдод соҳиби биттадан тарихий асар яратганида ҳам халқимизнинг буюк тарихи тикланган бўлур эди.

* * *

Она тилисиз халқ – чироғи учган халқ.

* * *

Халқимизнинг феълда азал-азалдан табассумга, ҳазил-мутуйбага, қаҳқаҳага, бир сўз билан айтганда, кулгига учлик бор. Кулги билан беморни даволаганлар, керак бўлса, душманни жазолаганлар. Кулги – ҳам даво, ҳам жазо!

* * *

Танқидчиларимиз баъзи шоирларимизни очикдан-очиқ "йиглоқи"ликда айблаганлар. Улар шуни унутмасинларки, Абу Али ибн Синонинг айтишича, йиғи дардни олади! Шундай шоирларимиз утганларки, "йиглаб" бутун бир авлоднинг, эл-юртнинг дардини олганлар.

* * *

Халқ тақдири билан қисматини боғламаган ижодкор – сув юзидаги купик.

* * *

Нон – муъжиза. Лекин одам нонни ҳар куни тановул қилгани боис буни унутган. Унутмаганлар файласуфдир.

* * *

Тарих – халқ зиёлиларининг виждони билан ёзилади.

* * *

Тарих – донишманд ота. У фарзандларини муносиб яшашга, қодир ҳаёт кечиришга ургатади.

* * *

Тоифлик олим дўстим Абдурахмон Марғилоний бир суҳбатда менга шундай деди: "Инсон ҳур тугилади, шундай экан, ҳур яшаб, ҳур улмоғи керак. У фақат Аллоҳнинг қули! Ижодкорга ҳуррият – зарурият. Эркин яшаб, эркин ижод қилган шахсда ўз калимасига эғалик аъмоли буюк бўлади. Ҳуррият бор жойда – масъулият бор! Агар жамият, туғрироғи, унинг тепасидагилар ижодкорнинг, яъни шоиру адибу олимнинг тилини зўрлик ила боғласа – халқ тилини кесган, қулоғига қум қуйса – халқ қулоғини беркитган, кўзини кўр қилса – халқ кўзини уйган бўлади!"

* * *

Шоир – қалб билан ҳунарманд зот. Шоирнинг бойлиги – қалб аталмиш илоҳа. У дунёнинг хазиналарини кўриб кўрмайди, унинг рангларини, манзараларининг гўзалликларини, яхшилик, эзгуликларини кўради, туйғуларини, оҳангларини эшитади, тинглайди. Масалан, бугун Қўёшнинг, Ойнинг, юлдузларнинг моддий жисм эканликларини билгани ҳолда, ёрнинг юзини уларга ўхшатади, менгзайди. Ёки тоғлар абадий деб ёзади шоирлар, ҳолбуки, геологлар аллақачон уларнинг абадий эмаслигини исботлаб беришган.

Эй, чексиз бойлик, мол-мулк эгалари, такаббурлар, киборлар, "ана, шоир келаяпти", деб масхараомуз тиржайгувчи каслар... юрагингиз оғрийди сизнинг, кузларингизда ғам-ғусса кўраяпман. Қалбингизни йўқотиб қўйганлигингизни кўраяпман. Аммо мен кечирувчан Дўстман. Яратувчининг яратикларини йўқотмаслик учун кечиримли бўлишим керак, мен бури эмасман, бўрилар кечиримли бўлишмайди. Чин шоирлар ичида мен ҳам бир шоирман! Навоий менинг бобом эмас, Отам бўлади!

* * *

Шоирнинг қалб кўзлари тун қушларининг кўзларидек ўткир.

* * *

Коинот ўзининг изчил табиий қонуниятига эга ва ана шу кўз илғамас қонуният бўйича ҳаракат қилади. Ер аталмиш Сайёрамиз шу Коинотнинг ўн саккиз минг олаmidан бири. Замин – Коинот ичидаги ажиб бир Коинотдир. Чунки унда биз билган энг ақлли мавжудот – Инсон яшайди. Эҳтимол биз, айтайлик, қуш тилини тушунмаслигимиз учун инсон энг ақлли мавжудот, деяётгандирмиз. Эҳтимол, қушлар биздан кўра ақллидир? Тушунчаси бойдир? Битта қалдирғочнинг Ғарбу Шарқ йўлларини боғлаб учишини... мулоҳаза қилинг. Балки, илон идроки инсон заковатидан кучлидир? Ахир, зилзилани бу жонивор инсондан олдин сезишга қодир-ку!.. Хуллас, сезги-сезимлар, туйғулар йўлини тутган Инсон – ижодкор ХХI аср тараққиёти билан юзма-юз келиб турибди. У бугун нималар ҳақида ўйлаётир? Қандай туйғуларга ошно? Дилини тилига кўчира олаётирми? У кўнгил шоирими, туйғулар, ҳис-ҳайратлар куйчисими, ижтимоий ҳаёт акс-садосига эшми? Ёки оддий турмуш – тирикчилик “куйчиси”ми?

Шоир кимлиги ҳақида узоқ гапириш мумкин. Бу мавзуда Шарқда айтилмаган гап қолмаган ҳисоб. Ғарб ҳам бу борада ундан заррача ортда эмас. Бирда шоир самовий либосида кўринса, бирда давр жандасида намоён бўлади. Кайковуснинг “Қобуснома”сую Буалонинг “Шеър санъати”га қайта бир мурожаат қилиб кўринг... Ҳарқалай, муқаддас манбаларда ишора этилганидек, шоирлар ҳақида гап кетса, сукут сақлаган маъқул. Ва лекин шоирларнинг сукутга тоби йўқ. Милён-милён шеърлар, дostonлар... нималар ҳақида ёзилмади? Бу дунёда қанча тил бўлса, барчасида шеър ёзилади. Қанча тиллар изсиз йўқолди, қанчаси улик тилга айланди. Бироқ уларда битилган... инсониятга дахлдор битиклар ҳамон яшаб келади. Демак, чин шеър – шоир умрига, ижодкори умрига тенг эмас.

* * *

Гапни қотириб гапир, бўлмаса тийил.

* * *

Шоир! Сафар халтанг доим дўстинг бўлсин.

* * *

Қобилиятли шоир... Истеъдодли шоир... Даҳо шоир... Вақт аталмиш донишманд Ота уларни белгилайди.

* * *

Тухум уғриси – зағизгон, фикр уғриси – қушиқчи шоир.

* * *

Бетиним қушиқ куйлаш ёки уни бетиним тинглаш, бетиним рақс тушиш ёки бетиним уни кўриш ақлни заифлаштиради. Фикрлашга тўғаноқ бўлади. Бир қатим нурнинг ҳам сояси бор.

* * *

Шоир, энг аввало, муҳаббат кишисидир.

* * *

Шоир руҳи озод бўлса – шеър ободдир.

* * *

Эй шоир аталмиш! Битикларингда фақат “гул... гул... гул...” деб ёзсан. Ҳолбуки, бу оламда минг-минглаб ўз оти-номига эга гуллар, чечаклар бор. Ҳар бирини ўз исми билан атасанг-чи?!

* * *

Ўрганиб – ўргатамиз,
Ўргатиб – ўрганамиз.

* * *

Куруқ тункадан наққош ажойиб санъат асари яратиши мумкин, аммо у утинчига оддий тараша.

* * *

Тандирга бир хил нон ёпсанг ҳам турли-турли чиқаверади. Турли-турли булгани яхши.

* * *

Қанча-қанча назмбоз, насрбоз шаввозлар узларини ижодкор, саънаткор санашиб, тегирмонларининг дулида дон-дунлари йўғ-у, аммо уларнинг тошини айлантириб ётишибди.

* * *

Шеърбозга ширбоз куп яхши қофия экан-да...

* * *

Ўзгаларни тинглашни билган киши донишмандга айланса ажабланманг.

* * *

Қорни оч кишига фалсафа суқма.

* * *

Болалигимда ўзимга-узим суз бергандим: мен шундай яшайки, тилим фикримдан илгарилаб кетмасин.

* * *

Чексиз сон — юлдузларга дахлдор. Қалбим назарида, юлдузлар икки хил: ўз ўрнини ўзгартириб тургувчи — сайёралар, ўз ўрнини ўзгартирмайдиган собит юлдузлар. Собит юлдузларга қараб денгизчи ўз кемасининг йўли-йўналишини аниқлайди. Сахрода ёки ўрмонда адашиб қолган доно сайёҳ ўз манзилига туғри йўл топади.

Собит юлдузлар — менинг донишманд устозларим!

* * *

Меҳнат – менинг чин дустим. У билан мириқиб суҳбатлашаман.

* * *

Иштиёқсиз сайраётган каклик – иштиёқсиз қалам тебратаётган қаламкашга ухшайди.

* * *

Даҳолар билан ҳайратланишнинг ўзи бўлмайди, уларни ўқиш ва ўқиш керак! Булоқнинг ҳаётбахш сувига тикилиб утиравермайсан-ку?!

* * *

Таржимон улуғ актёр Шукур Бурхон каби салоҳиятга эга бўлмоғи лозим. Шукур Бурхон Отеллони британ сахнасидан ўзбек сахнасига “таржима” қилди. Шундай таржима қилдики, уни муаллиф бўлмиш Шекспир ўқиганда, ҳайратидан таржимон кўксига бош қўйиб йиғларди.

* * *

Унутилган ҳар бир сўз – янги.

* * *

Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билик” асарида “ййлойкун” деган сўз – атама бор. Бу календар, дегани. Қандай гузал, пухта ифода: Йил+Ой+Кун – ййлойкунга айланган. Бизнинг суяксиз тилимиз эса “календар”га боғланиб қолган.

* * *

Бўғдой уруғи қанча эски булса, кўклаб чиқиши шунча кеч бўлади. Суяги қотиб қолган боланинг илм-фанга ҳавас-ихлоси ҳам шундай.

* * *

Яхши Китоб – итоаткор олам.

* * *

Яхши таомни излаб топиб, тановул қиламиз. Яхши китобни ҳам яхши таомдай изласак эди.

* * *

Китоб уқишга ҳам феъл-атвор мойиллиги керак.

* * *

Китобхон бор, китобийгар бор, китоб билан жавонбезар бор. Чин китобхон китобнинг безакларига кўп ҳам эътибор беравермайди. Унинг бутун эътибори китобнинг маъно-моҳиятида бўлади.

* * *

Турлик халқларнинг фольклори: дostonлари, эртаклари, мақол-маталлари, айтимлари ўртасида ўхшашлик, бир тўқималиклар кўрсам, уларни айбламайман, аксинча, хурсанд бўламан. Бу қадим-қадим замонлардан халқларнинг туб илдизлари чатишиб кетганликларидан, қон-қариндошлик, биродарлик, борди-келдилик ришталари узунлигидан дарақдир.

* * *

Биз ўтмишга ота-боболаримиз шажараси тарихи, ўғитлари, тажриба амалиётлари билан боғланамиз, келажак билан эса невара-чевараларимиз ва китобларимиз орқали.

* * *

Ижодкор — табиатнинг китобхони бўлмоғи лозим.

* * *

Китоб — тоғ чашмаси. Мен ундан ичиб, чанқоғимни бостириб яшайман!

Кукдан Таврот, Инжил, Қуръон карим – самовий китоблар тушгани бор гап. Заминда яратилган яхши китоблар уларнинг акс-садосидир.

Адабиёт – эзгуликка, олий мақсадларга дахлдор. У бепаён сахро оралаб оқиб бораётган улкан дарёдир. Бу дарё аҳамияти таъриф-тавсифга сигмайди, сарҳад билмайди.

Инсон танасида, туғрироғи, юзида ҳар қандай совуққа чидамли бир ашё бор. Бу – Куз. Инсон ҳаётида ҳар қандай совуққа чидамли бир Дуст бор. Бу – Китоб. Китобнинг Куздан афзаллиги шундаки, у иссиққа ҳам бирдек чидамли, собит.

Боғда ҳар хил дарахтлар, гуллар ўсганига не етсин. Улар бир-бирини чанглаб, серҳосил усади. Кутубхонамдаги яхши китоблар, улуг китоблар менинг ақлу тафаккуримни чангловчи дарахтларим, гулларимдир.

Минглаб донишмандларнинг китобларини, ҳикматларини ўқидим. Хулосани ўзим чиқардим.

Болаларимни ўқитаману ўзим ҳам ўқийман.

Мен ўзимга отилган тошлардан ижод иморатимга пойдор пойдевор қуриб, қалам тебратиб келаётган шоирман.

* * *

Қозоқбой Йўлдошев деган профессор бор. У Мустақиллигимиздан кейин янги “Адабиёт” дарсликларига асос солди. Мен мухтарам профессорнинг номини эшитган булсам-да, ўзини танимас эдим. Кунлардан бир кун менга олтинчи синф дарслигини олиб келишди... Мен хайратдан ёқа ушладим... Биронта унвони булмаган шоир ҳам дарсликка кирадими, деб. Мустақиллик шарофати бу, шукр. Аслида, адабиёт унвон билан белгиланмайди. Шеърият унвон билан белгиланмайди. Унвон билан белгиланмаган адабиётга шарафлар бўлсин!

* * *

Тарих ҳақиқати — ютуқ ва хатоликлар тузатиш ва олға интилиш билан бетакрор. Асосийси эса, ижодкор шу тарихий жараёндаги ўрнини англаши, бошқа маслакдошлар муваффақиятларини инобатга олган ҳолда уларнинг нуқсонларини тузатиш имконига эга бўлишидир.

* * *

Оноре де Балзак ёзади: “Мамлакат тафаккури бутун мамлакат демакдир!” Тафаккур эса, албатта, Адабиёт билан боғлиқ. Адабиёт равнақи миллий тафаккур равнақи демакдир! Адабиётга паст назар миллат келажагига паст назар билан қарашдир. Тафаккур тараққиётига эътиборсизлик ўз вақтида Туркистоннинг парчаланишига, алал-оқибат мустамлакачилик чангалида қолишга олиб келди. Буни ҳеч вақт унутмаслик керак. Яна шуниси ҳам борки, то шу кунга қадар техник тараққиёт нимага эришган булса, унинг асосларини, аввало, Адабиёт яратган.

Бу Адабиёт, дастлаб, она алласи-ю қушиқларда, эртақлар ва афсона-асотирда, ривоятларда, кейин халқ дostonларида намоён булган. Албатта, унинг замини илоҳий китоблардир. Шунинг учун ҳам Адабиётга табаррук деб қараш керак.

Инсон XX асрда Коинотга қадам қўйди. Аммо Адабиётнинг қаҳрамонлари минг йиллар олдин Ойда кезганлари чин-ку, уммонлар тагида сайр қилганлари ҳақиқат-ку?! Адабиёт — хаёлот чексизлиги... Инсон тафаккурининг яратувчилик даҳоси...

Адабиёт — бадий нафосат! У одамларнинг одатий таъбидан минг чандон баланд. Чинакам бадий асар — ахлоқ, маърифат, эзгулик маёғи, бир сўз билан айтганда, Илоҳнинг пайғомини дилларга етказиш!

* * *

Кейинги йилларда узбек адабиётида “модерн” деган атама пайдо булди. Бу атама туғилиши билан, кап-катта ёзувчиларимиз, олимларимиз, шоирларимиз “ҳазрат Али зулфиқори”ни яланғочлади. Нима эмиш, бизнинг адабиётга “модерн” ёт эмиш.

Аср-асрлар оша Инсон боласи сут ичиб келади. Сутнинг доридармонлигию малҳами, фойдалиги ҳақида баҳс этиш ортиқча. Аммо мен сут ичсам бошим оғрийди, қон босимим кўтарилади. Хўш, мен уни ичаверишим керакми? Йўқ! Бу шаккоклик саналиши жоизми? Йўқ! Мени уз эркимга қўйинг! Мен оппоқ сутга қарши исён кўтараётганим йўқ-ку!

Болалигимда дўппи кияр эдим. Кейин улғайдим: шапка-кепкага ўтдим, кейин шляпа, кейин турли халқларнинг турли-туман бош кийимларини (гоҳ ишқибозлик, гоҳ урф тарзида) кийиб юрдим. Мана, ёшим улғайди, силлиқ бошим тагин дўппиталаб бўлиб қолди. Дўппига қайтдим. Балки... бугунги ёш ижодкорларимиз боши ҳам... бир куни менинг бошимдек дўппиталаб булар... Ёки... биласиз, Нурота тизма тоғлари икки силсиладан ташкил топган – Қоратов ва Оқтов. Улар бағридаги кўплаб кўзга ташланмас қишлоқларда бир ўйин бор. Болалар икки тарафга бўлинади. Ва улар... курашмайди, ёқа бўғишмайди, силтаб тортишмайди, қочмайди, қувмайди... лакалув айтишади! Лакалув – икки ёки тўрт сатр – ҳозиржавоблик билан айтиладиган шеър тури. Айтишувда қайси тараф енгилса... ақли ожиз ҳисобланади. Ғолиб тараф мағлубларни масхаралайди. Кучли бўлишга ундайди... мен ҳам болалигимда кўп лакалув айтганман. Доим ғолиб бўлганман. Лекин мен ғолиб эдим деб, бугун ҳам лакалув айтиб, ёзиб юришим жоизми? Хуллас, бир сўз билан айтганда, мен “модерн...”ни Ҳаёт, Тараққиёт, Тафаккур силжишлари билан боғлиқликда кураман.

* * *

Кунларнинг бирида илк куклам осмонида чақмоқлар чақишини кузатдим. Қарсиллаб гоҳ у бурчда, гоҳ бу бурчда чақинлар чақмоқда. У гоҳ тарвақайлаб ушиб кетган дарахт шохларига, гоҳ тасаввуримизда болаликдан муҳрланиб қолган юҳо-аждарҳога ухшар, гоҳ ёйилиб оқаётган дарё тармоқларига-ирмоқларига менгзар, гоҳ-гоҳ сочларини ҳилпиратиб учган алвасти шаклини олар, қандайдир узун найзасимон тиллар, ўтли қиличсимон сермашлар... Хуллас, бир-бирига ухшамас ёйилмалар – чақинлар эди. Мен биламанки, улар то ергача етади, баъзи ҳолларда одамларни, жонзотларни, дарахтларни уриб кул қилади, жойларда хандақча-ўймалар ясайди, ҳатто қудуқсимон ўра ҳосил қилади.

Менинг хаёлларим куклам осмонидан адабиёт майдонига кўчади. Бу майдонда минглаб, юзлаб, ўнлаб турли-туман сийрат ва суратларда чақмоқлар пайдо бўлади. Бир қарашда ҳаммаси бир-бирига ўхшаш, лекин диққат-эътибор билан қарасангиз, бир-бирига асло ўхшамайди!

* * *

Ҳар бир миллат шоири қалбининг гузаллиги, эзгулиги ўзгача, шеърининг фусуни ўзгача! Чин адабиёт, чин шеърят юракдан яратилган бўлса – умумбашарийлик касб этган бўлса – у инсониятники! Ҳар қандай тамаддун даврида ҳам Қалб ва тафаккур ҳосилалари яшайди.

* * *

Бугун Замон ва Вақт шитоби, талаби бошқачароқ. Эртага янада бошқачароқ бўлади. Техник тараққиёт ривож... каттакон Заминни кичрайтириб юборди. Карвонлар йиллар оша кезган йўлларни бир қадам қилиб қўйди. Лекин она Сайёрамизнинг қай бир пучмоғида чўпон бола қўйнида парча нон билан китоб олиб юрганини, денгиздаги балиқчи йигит маъшуқасига шеър ўқиётганини, деҳқоннинг бўз боласи қўшиқ хиргойи қилиб далага дон сочаётганини унутишга ҳаққимиз йуқ. Кунгилдан кучаётган Сўзни унутмайлик.

Заминга, инсониятга уч бошли аждар каби оғзидан ўт пуркаётган салтанат эмас, нима кўрса ямламай ютаётган очофатлар эмас, "қўҳна қитъа" ёки "эркин дунё" эмас, маданияти, адабиёти, санъати, қадриятлари, бир сўз билан айтганда, одамийлиги, иймон-эътиқоди ва бағри бутунлиги билан азиз ва мутабар булган халқлар, миллатлар ойдинлик улашади. Инсон деган номни шарафлайдиган шулар! Яратганни тан олмайдиган техник тараққиёт эмас, илоҳ мўъжизалари қошида ҳайрат бармоғини тишловчи шеърят керак инсонга.

* * *

Суз кунгилда унади, улғаяди ва шу асно руҳни кукка юксалтиради. Бироқ бунга ҳамманинг ҳам салоҳияти етмайди. Кунгил ошиғи булган зотгина бунга қодирдир.

* * *

Саррин шаббодалар билан сирлашган, юксак қоядаги чечак билан эллашган, шамолларда уйноқлаб учиб тушаётган олча гуллари ила тиллашган, жилдираб оқаётган ирмоқлар билан сузлашган, саҳродаги қум зарраларидан фикр уқаётган қалб ҳамма нарсага қодир...

* * *

Асл шоир самовий қалб эгаси, сирлар соҳибқирони. Уч жаҳонни бир жаҳон этгувчи афсункор юрак соҳиби – Шоир. Ул жаҳон: Қукдир, Ердир, Ер остидир.

* * *

Шеърят моҳиятан ҳис-туйғу, кечинмалар тарзи. Кунгилдагини ифода этиш, уни акс эттириш шоирга оғир. Жуда оғир. Бу илоҳий тилсимга қоришган қора меҳнат. Ёлғизлик. Бедорлик. Аммо шоирнинг оғир меҳнатини енгиллатувчи бир куч бор, уни илҳом дейдилар. Илҳом укпаридек ўз қанотида тоғларни олиб учади, уммонларни кафтида тутади. Заминни кўкка, кўкни япроққа айлантиради.

Шоир ва илҳомга, унинг бирлигига, бир қалб эгаменлигига балли!

* * *

Муҳаббатни шоир ўз бошидан кечирмоғи лозим. Шундагина у бу туйғу нима эканини билади ва унинг моҳиятини англаб етади. Севгининг куч-қудратини ва унинг нималарга қодир эканини теран мушоҳада қилади. Менинг наздимда, муҳаббат шундай туйғуки, у дашт турғайдик кўкда, бир нуқтада муаллақ туриб, ўз куйи билан юракни “тарс” ёриб юборади. Қиёқни уммонлар бошига кутариб, қуёшга талпинтиради. Чувалчангни аждаҳога айлантиради, аждаҳони қул этади. Шоир ҳамиша ошиқ.

Ошиқлигим шоирлигимда!

Шоирлигим ошиқлигимда!

* * *

Дунёдаги барча инсон шоир бўлиб туғилганида... Инсоният мутлақ бошқа йулдан кетган булар эди. Урушлар, жанглар, савашлар, бойлигу мол-мулкка қул бўлишлар, элни қиришлар, босқин ва юрт талашлар, юраккача бўлган чегаралар таг-томири билан қуриб битар эди.

Бу разолат, залолат ва қабоҳатларга ботган дунё чаманзордай гуллаб-яшнади.

Афсус, бу дунё шоирлар қулида эмас. Олам кунгил кишилари йўригига юрмас... инсон ҳам улар қулидан тутмас...

* * *

Қушиқни шеърсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Бу санъат суз замирида дунёга келади. Баъзи матни савиясиз, бачкана қушиқларни тинглаб, сузга маъсулият билан ёндашмаганларга ҳайф, дегиси келади кишининг.

Буюк устоз Алишер Навоий даврида қандай қушиқлар куйланган экан? Уша давр ҳофизлари қандай қушиқлар айтган экан? Улар ҳам маънисиз қушиқлар айтганмикан? Замонбоп, замонига мослашиб, буқаламундек турланиб, тусланиб, шоирлари шеърлар битганмикан?

Ҳа, ҳамма замонда ҳам турли созлар бўлган, турли шеърлар ёзилган, турли қушиқлар айтилган. Аммо йиллар, асрлар, қиргин-барот замонлар, пасту баланд давронлар оша қуёшу ою юлдузлар, кечаю кундузлар билан бизга нималар етиб келди? Қайси қушиқлар мерос қолди? Қайси матнлар маънавиятимиз хазинасидан жой олди? Улар Навоийнинг асл ғазаллари, Навоий замонасидаги ҳофизларнинг асл куйлари...

Мен бугунги қушиқчиликка, унинг сузлари ва куйларига баҳо беришга ожизман.

Суз ҳақида “Эй дуст”да битилган бир сатр:

“Суз – инсофдан улуг, исрофдан – хор!”

* * *

Инсон яралибдики, то сунгги нафасигача изланади, интилади, талпиниб яшайди. Табиийки, мағлубиятлар ҳам уни четлаб утмайди. Шоирликнинг ҳар бир мағлубияти ғолибликка олиб чиқувчи битта зинадир! Хусусан, мен жуда кўп мағлуб бўлиб, ғолиб чиққан шоирман!

Тан-жисм мағлубияти – руҳ мағлубияти эмас. Руҳни баланд кутаринг, шоирлар! Руҳ парвози аслликка йул очади!

Эй дуст!

Мени изламагил Ер ҳаётдан,

Ўз қавми-туримни кетганман ташлаб.

Учиб юрибман Руҳ салтанатида

Румий, Бедил, Навоийни... қуёшлаб!

* * *

Шоирнинг фожеаси нимада? Асл шоирлар фожеаси уларнинг тирикликдаги моддий фожеаси: уз замонидан олға кетиб қолишида. Шу боис улар ҳақоратланган, таҳқирланган, ёмон отлиқ қилинган, зиндонларга ташланган, дорларга осилган, дарёларда чўктирилган, оловларда ёндирилган...

Балки бу фожеа шоирнинг асл бахтидир... Асл улим – асл мангуликдир, эҳтимол...

Мен адабиётни, хусусан, шеърятни, албатта, чин шеърни юлдузлар чақнаган тимқора осмонга қиёслайман. Қандайдир сирли, фараҳбахш. Унинг умри инсон умри эмас. Кишилиқ тарихи бошланганидан буён у мавжуд. Ва уз жозибаси билан дилларга уйғоқлик бағишлаб келади. Шоирман, деб кукрагига урган инсон мана шу тарозининг шайинига чидамоғи шарт. Бу тириклик оламида шоирлар кўпдек туюлади. Ва лекин чин шоир жудаям оз. Қўлига қалам тутган ҳар бир инсон ёки нимадир қоралаган киши ва ёхуд ун саккиз ёшга кирган ҳар бир усмир шоир булавермайди. Шоир бу – Гомер, шоир бу – Яссавий, шоир бу – Румий, шоир бу – Навоий, шоир бу – Бедил, шоир бу – Юнус Эмро, шоир бу – Байрон, шоир бу – Шекспир, шоир бу – Гёте, шоир бу – Умар Хайём, шоир бу – Ҳофиз, шоир бу – Есенин... Шоир бу – тоғлар кўксини ёриб чиқиб оқаётган булоқ. Шоир бу – бепоён саҳродаги қудуқ. Шоир бу – осмон зулматидаги ой шуъласи, шоир бу – чангалзордаги тулиб-тошиб куйлаб, кукка қараб ибодат қилаётган булбул, шоир бу – уммонлар қаърини ёриб чиққан қиёқ... Мен шундай тушунаман шоирни.

Бу оламнинг ибтидоси йўқ... Эҳтимол, интиҳоси ҳам... Ибтидонинг шу пайтгача ҳеч ким аниқ изоҳини бера олмаган, бера олмайди ҳам. Ибтидо бу чексизликдир. Ибтидода сарҳад йўқ. Лекин инсон пайдо бўлдики, ривожга юз тутди. Ривож тараққиёт сари юз бурди. Тараққиёт бизнинг асрга келиб инсон қадамини коинотга етказди, у чексизликда қанот қокди. Чексизликда инсон орзуси бор, умиди бор. Моддий дунё руҳ, десам ишонасизми? Бу оламни Яратган ҳам руҳ. У борлиқни узидан бино этди. У оламлар жавоҳиридир. Шу маънода чин инсон руҳият салтанатида яшайди. Бу салтанатда илк китоблар (Илоҳий китоблар) руҳият китобларидир. Эҳтимол, жаҳон тараққиётига китоблар сарвардир – мен бунга шубҳа қилмайман. Дунё қайси цивилизацияга, тамаддунга етиб бормасин, уни китобсиз тасаввур қилиш қийин. Китобдан бебаҳра одам харсангтош тагида қолиб кетган гиёҳдир.

* * *

Ажиб йиллар утиб кетди. Болаликдан усмирликка, усмирликдан балоғат ёшига утиш баробарида ҳаммаси хотирага айланиб бораверади: жушқин ва қувноқ кунлар, кенг осмонли қир-адирларнинг ҳавоси, тупроқ кучалар... Улар юракка муҳрланади, абадий муҳрланади. Шоирнинг энг катта бойлиги ҳам болалик хотиралари бўлса керак. Буёғи – катта ҳаёт...

* * *

Ижодкорларнинг халқимиздан қарзи кўп. Назаримда, руҳ ва қалб эшлигидаги образлар ҳали яратилмади. Қуруқдан-қуруқ таъриф-тавсиф этиш, маддоҳлик – бу шеърят эмас. Ҳозир адабиётимизда шунақа бир авлод пайдо бўлдики, улар ўзларини қушиқчи шоир ниқоби остига яширмоқдалар. Энди ижодкорларимиз юрак армонидаги чақмоқларни кашф этишлари лозим.

* * *

Техник тараққиёт дунёни турли фожеаларга гирифтор қилиши мумкин. Буни Ғарбнинг ҳозирги аҳволи – маънавий қиёфаси курсатиб турибди. Дунёни гузаллик эмас, Шарқ муҳаббати кутқариб қолади. Муҳаббат – бу илоҳий назардир. Ота-онага, ёрга, дўсту Ватанга муҳаббат – бу аввало юксак маънавий тарбияни талаб этади. Демакки, шарқона тарбияни. Навоий шунинг учун ҳам буюқдир. Чунки унинг барча асарлари маънавий тарбия асосига қурилган.

Шарқ муҳаббатини бутун дунёга ёйиш лозим. Биз ҳам бу йўлда баҳоли қудрат хизмат қила олсак қанийди.

ОЛТИНЧИ ДЕРАЗА

БИР СУЗ

Сахрода Хизр кетаётган экан, икки чўпон йулиқибди. Хизр: – Бир сўз айтаман, ким бир қўй беради? – дебди.

– Э, – дебди, биринчи чўпон, – бир сўзга ҳам бир қўйми? Мен бермайман, – деб қўйларини уй (чуқурлик-жарлик)га ҳайдаб кетибди.

Иккинчи чўпон: – Мен бераман, айт, – дебди.

– Ўйда эмас, қирда ёт, – дебди Хизр.

Ўша куни тун бўйи шаррос ёмғир ёғибди. Ўйда ётган биринчи чўпонни бутун суруви билан сел оқишиб кетибди. Қирда ётган иккинчи чўпон уз суруви билан омон қолибди.

ОРҚАГА ҚАРАЙВЕРМАНГ...

Болалик дўстим, қайтмас йилларимнинг қадрдон сирдоши Олтибой, ёдингдами? Бир куни тоққа овга чиқдик. Сен қирағай мерган эдинг, бир алқорни қувиб, унинг билан изма-из чуқур дарага тушиб қолганимизни сезмабмиз. Даранинг бизга бетма-бет тарафи зов – тубсиз жарлик экан. Алқор куз олдимизда қайгадир йуқолди, одатда уларнинг овчи билмайдиган сирли йуллари бўлади... Бизнинг тушиб келган қоялар тарафга қайтишимиздан узгачорамиз қолмади, қайтишга тараддудландик. Мен беихтиёр бурилиб орқамга – зовга қарай бошладим. Шунда сен юрагимни ёргудек бақирдинг: "Орқангга қарама, қарайверма, деяпман, қарайверсанг бошинг айланиб, жарга тушиб кетасан. Ҳув, чуққига қара – ўшани кўзла, ўшанинг ёнидан ўтамин!.."

Дўстим, ёдингдами? Мен асло унутолмайман. Ахир, қандай унутай?! Сенинг ўша сўзларингни, ҳар қалай сўзма-сўз булмаса-да, шоир дўстларимга тез-тез такрорлаб тураман: – Шоир дўстларим! Орқангизга қарайверманг, тубсиз жарлик бор – бошингиз айланиб тушиб кетишингиз ҳеч гап эмас, олдингизга қаранг, ҳув чуққига қаранг, ўшани кўзланг. Ўшандан ошиб ўтишимиз керак!

РИВОЯТ ВА ҲАҚИҚАТ

Утган замонлардами ёки бизнинг кунлардами, билмадим, лекин ҳарқалай бир тухумфуруш бўлган экан. У бозордаги бошқа тухумфуруш ҳамкасбларидан ҳар бир оппоқ тухумни ўн тийиндан сотиб олиб, уларни буягач, яна ўн тийиндан пуллар экан. Кунлардан бир куни бу мантиқсиз жумбоққа ҳайрон тухумфурушлар ундан сурабди: — Эй ҳамкасб, бу нима қилиқ? Ҳар бир оппоқ тухумни биздан ўн тийиндан сотиб оласан, уларни ҳар хил рангга буяб, тагин ўн тийиндан сотасан. Зарар бўлса бордир, аммо фойда йуқ. Қанақа тухумфурушсан? Тухумфурушлар номига иснод келтиряпсан...

Шунда ҳалиги тухумфуруш: — Фойда-мойдангизни билмайман, аммо эл ичида рангли тухум сотадиган тухумфуруш, деган алоҳида номим бор, — дебди.

Эй! Ўз халқи йулида йулини айро солган, ном чиқариш учунгина қалам йўнган шеърфурушлар, назмбозлар, аскиябоз-қофиябозлар, сизга шуҳрат керак бўлса, менга келинг, шуҳратимни берай ёки Геростратдек замон Артемидаларини ёқинг! Геростратдан нимангиз кам ахир сизнинг?!

1986 йил

ХОТИРА

Ёшинг утган сайин болалигинг яқин келаверади. Кечмишинг азиз ва муқаддас туюлаверади. Ҳар қалай, менда шундай.

Бобом Суюннинг олис тоғлар орасидаги сирти ҳатто лойшувоқ қилинмаган ибтидоий тош кулбаси ёдимда муҳрланиб қолган. Унда менинг болалигим утган. Айниқса, узун қиш кечалари... Учоқда заранг, зардоли, қорабодом чуғи ловиллайди, бир чеккасида чойидиш-қумғон сокин шигиллайди. Бобом (энам аллақачон дунёдан ўтган), мен, отамнинг ёлғиз укаси Тиловқобил чўққа оёқ тоблаб ўтирамин. Бобом еттинчи лампа ёруғида "Ҳикмат"ни ўқийди. Қариндошлар, қушни дараларда яшовчи овчилар, йилқибоқарлар, чўпонлар Бедил, Машраб, Хувайдо, Қул Хожа Аҳмад, Сўфи Оллоёр тингловчилар тез-тез бу ўчоқ бошига йиғилишиб туришади...

Мен шоирман. Болалигимнинг муқаддас бу хотираси менга қанчалик азиз, қадрдон бўлмасин, қалбимга сирли, романтик кайфият, ҳаяжон бахш этмасин, аммо бугун бобомнинг тош кулбасида яшай олмайман.

1986 йил

ТИРИКЛИК

Онамнинг отасини – менинг бобомни уста Мамадали дер эдилар. Уста Мамадали эртаю кеч устахонасида темирчилик қиларди: ўроқ, теша, кетмон, пойтеша, белўроқ, темирқозиқ, узанги... кўпроқ отларга тақа ясарди. У ҳеч тиниб-тинчимасди. Бундай тиниб-тинчимаслиги қариганда баттар кучайди. Шунда ўғил-қизлари: “Ота, булди, шунча ишлаганингиз етар, энди Сиз ҳам бундоқ роҳат қилиб дам олинг, устахонангизни йиғиштиринг!” – дейишди бир куни йиғилиб келишиб.

Бобомнинг фиғони фалакка чиқди: – Мени “ўл” демоқчимисизлар, ахир, ишламасам ўлиб қоламан-ку!.. – Кейин... мум тишлаб қолган фарзандларини қуриб, юмшагандек бўлиб гапини давом эттирди: – Менинг дилимни хуфтон қилаверманглар, устахонам билан ишларинг булмасин, ростини айтяпман, мен ишга суяниб қолганман, тириклигим – шу меҳнатимда.

“Тириклигим – шу меҳнатимда”. Мен у пайтлар бу сузлар маъносига тушунмагандим. Бобомнинг чуқиб кетган кўзларига жовдираб қараб турардим. Лекин бугун биламан, тунларни тонгга улаб нималарнидир қоралаганимда гоҳи ғамгин, гоҳи шодумон ҳайқиргим келади: “Тириклигим – шу меҳнатимда!”

1986 йил

сХ

ЖЕ

КАШФИЁТ

Ақл танга сарвардир.

Алқисса, бир каланги олим кашфиёт яратди. Оламшумул. Унинг овозаси Урусиядан Амриқо қадар, Амриқодан Олмония, Фарангистон, Андалуз қадар, Ҳиндистондан Миср, қадим Турон ерларидан Туркия қадар, Туркиядан Маккаю Мадинаю Юнонистон қадар етиб борди. Ҳазил гапми, Ҳиндистон майнаси Ўзбекия иқлимига мослашиб улғайибди, беҳад купайибди. Ҳолбуки, олим бир жуфт майнани Бобур салтанат этган мамлакатдан унинг асл, киндик қони тукилган ватанига қачонлардир олиб келиб қуйиб юборган...

Гумон имондан ажратар, гумонимиз йуқ. Олимга олиб келиш енгил кўчмаган. Энг аввало, майналар “фалон” пул булиши керак. Ҳарқалай ҳинд ҳукумати уларни текин томошага бермаган. Қолаверса, узоқ йул: Деҳли – Москов – Шош. Чумчуққа ҳам дон, ҳам сув керак, булар-ку майна. Айниқса, тайёрада келтирилган – самода соф ҳаво ҳам бағоят зарур. Кўкда қанот ёйиб юрган қушларни қафасга киритиш ёки турхалтага солиш ўйинчоқми?..

От бўлса, майдон чикора. Олим бу кашфиёти учун шон-шуҳрат гулларига бурканди. Урусия ҳукумати катта бахшишнома жорий этиб, халқ уртасида иззат-икром ила унга топширди: “Яшасин ҳинд майнасини Ўзбекия иқлимига мослаштирган қушлар қироли, замонамизнинг буюк олими Фалончи Фалончиевич!”.

Суянишган – йиқилмас. Каланги олим Ўзбекия тупроғига тез-тез ташриф буюрадиган бўлди. Ёз кунлари, айниқса, узум пишиғи. Ахир тукин-сочин фаслда гала-гала майналарни токзорлардан топиш қулай-да!

Очнинг ақли – қорнида. Олим майналарини боғбонлар ва айниқса, уларнинг зумраша болалари “гала-гала”, “ҳо-о-о...” деб палахмонда кесак отиб, темир-терсак, тунукалар осилган сим дорларни силкитиб, шақир-шуқурлатиб қувлаётганда ҳайрон бўлиб, елка қисиб, кўкда текис учиб дарахтларга қўнаётган “малика”ларига хушнуд қўл силкитарди...

Кўрган бошқа, эшитган бошқа. Энди қиссадан ҳиссани кўрганлардан тингланг.

Бу кашфиёт дунёга келганда Ўзбекия боғларида, лофи билан айтганда, Сомон йўли юлдузчаларидек булбуллар мўл эди. Уларнинг

"чаҳ-чаҳ"и бани одамни сел қиларди. Куп утмасдан булбуллар изсиз йита бошлади. Беш-олти йилдан сунг қирилиб битишди. Бунн юраги доимо уйғоқ кексаларгина пайқадилар. Аммо улар ҳам булбулларни очкуз, олғир, ваҳший майналар қираётганлигидан беҳабар эдилар. Ҳа, Амриқою Фарангистон ҳам, Ҳиндистону Туркия, Андалузу Олмония ҳам, Юнонистону Маккаю Мадинаю Миср ҳам хабарсиз эдилар. Боҳабар булганда нима? Вақт утганди. Ўзбекия булбуллариға ҳеч ким ёрдам беролмасди. Барча саъй-ҳаракатлар учиб кетган қушнинг ортидан отилган укдай фойдасиз. Довруғи дoston каланги олим эса дунёдан утганди. Омин! Ишин оқибатин билмаганға эрк берма, танграм!

Олам бор, келгунча то рузи маҳшар,
Одамзод кашфиёт ишқи-ла яшар.
Ўзбекия юртин булбулларидек
Кашфингдан қирилиб битмагил, башар!

1990 йил

МАЙМУНЛАР

Биринждан ясалган учта маймун ҳайкалчаси. Зил-замбил таглик устида симга қуниб турган қалдирғочлардек олдинма-кетин жойлашган.

Биринчиси оғзини, иккинчиси кузларини, учинчиси қулоқларини қуллари билан маҳкам беркитиб олишган.

Буюк ҳайкалтарош иши – Хитой ҳикматлари асосида яратилган. Ҳаммаси тушунарли: оғзим, тилим бор, лекин гапиришим мумкин эмас; қулоқларим эшитади, лекин эшитмайман; кузларим кўради, лекин кўрмайман, курганим йўқ... агар эшитсам... агар курсам... агар сузласам... шу оғир биринж таглик билан туширадилар – зарбага дош берадиган бошим эса аллақачон танасидан учиб кетган.

Бу ҳайкалчалар менинг ёзув столида туради. Деярли бир умр ҳамроҳ. Деярли бир умр мен ижод қиламан. Ёзганларим УЙҒОНИШ ҳақида. Унинг азоблари, алал-оқибат оромлари хусусида. Одатим: овоз чиқариб ёзаман. Барча сир-асрорларимдан маймунлар хабардор, ишончим комил.

Маймунларнинг эшитишларини, уларнинг қуришларини, сўзлашларини истайман. Ахир мен золим тўра, золим ҳоким, золим шоҳ, золим мустабид, золим мустамлакачи эмасман-ку.

Йўқ, маймунлар ҳамон гапирмайдилар, кўрмайдилар, эшитмайдилар.

Алҳазар! Маймунсифат кимсаларга қалбим шундай нидо қилади:

Бирор эл сафида бўлсанг сен агар,
Уша элнинг шури қурибди, жигар!

1990 йил

ОЛТИН УСТИДА

1988 йил дўстларим – қозоқ шоирлари билан Зарафшон шахрига ва унинг теварагидаги хўжаликларга учрашувлар ўтказиш учун бордик. Маълум-машҳур ва сирли маскан... Бизни бир жамоа хўжалигининг бош раҳбари ўз уйида меҳмон қилди. Бирин-кетин қадаҳ сузлари жаранглади. Ҳамма гапирди. Шеърлар ўқилди. Латифалар айтилди. Қадим-қадимий узбек-қозоқ ҳазил-мутойибалари...

Тун оғиб қолгач, мезбон ўтиришни қасамёд қилгандек тантанавор якунлади:

– Азиз дўстлар, Навоий ва Абай издошлари! Зарафшон, яъни олтин улкасига хуш келибсизлар! Сизлар бахтли оқинларсиз – Зарафшон олтинининг устида ўтирибсизлар.

Мен беихтиёр уй ичини кузата бошладим. Икки тахмонда уч-тўрттадан ранги учган кўрпа. Тахмонлар ўртасида ойнаси синган эски кийим жавони. Ерга икки олача ва пати чиққан битта гилам тўшалган. Деворда тулкитумоқ осигилиқ. Пойгакда эса яғир пўстаклар...

Мезбон, кейин билишимча, жамоа хўжалигининг куп йиллик раҳбари, ҳамон оғиз кўпиртириб гапирарди:

– Ҳа, ҳа, ишонаверинглар, тагларингда шундоқ ғуж-ғуж олтин!..

Саҳар турдим. Ҳовлига чиқдим. Бепоеъ саҳро осмонида юлдузлар рostaкам олтинлардек товланарди. Қўрага кўзим тушди. Айғоқчилардай санадим: ўн учта кўй. Сал нарида байтал ва қулуни. От оёқ қоқиб, пишқириб кўйди.

Ўй-хаёлларимда кўргошиндек қуйилиб қолган сузлар акс-садо берди: "Сизлар Зарафшон олтинининг устида ўтирибсизлар... Ҳа, ҳа, ишонаверинглар, тагларингда шундоқ ғуж-ғуж олтин..."

Нимагадир хўрлигим келди. Ўша куни ён дафтарчамга битганим ушбу:

Э, гумроҳ, кузларинг очиб қара, боқ,
Бил, юлдуз нимадир, нима шамчироқ.
Тишларинг қўртларга емшик бўлибди,
"Тилло" деб отингдан тушмайсан бироқ.

ГУЛБОЙ ЧУПОН

Зомин тоғларининг Такали чўққиси атрофида бир чупонни учратдим.
У билан жуда суҳбат қургим келди. Гапга солдим.

– Отинг нима?

– Гулбой.

– Бу қўтон кимники?

– Азим оға, мен сизни биламан. Сиз биздан Олий Мажлисга депутат бўлгансиз. Айтаверайми, бу қўтон Зоминнинг янги бойларидан бириники...

– Ҳа-а... ойлик бериб турадимиз?

– Утган йили бир кал улоқ берганди...

Гулбойнинг кўзларида кувлик учкунлари ялтиллади.

– Бир йил боқдим бойнинг молини,
ҳақиқа бир кал улоқ берди,
кал бўлса ҳам такача эди,
тез улғайсин дедим-у бичдим,
серка бўлди такачам менинг.
Бойдан хафа бўлиб ўлайми,
ўша урвоқ такачам бугун
бошлиқ булган бойнинг молига,
етаклайди минг қўй-эчкисин.
Қўнгироғи жаранг-журунг...
жаранг-журунг...
Шунақа-да бизнинг такача.

Мен қойил қолиб, чаппак уриб, кулиб юбордим. Гулбой тагин қирғизча талаффузда давом этди.

Қўрангга минг эчкинг
келсин чувалиб,
Қўйнингга олганинг
уйдан чиқсин буралиб.

Мен Гулбой билан ушандан буён ака-ука – дўстман.

БИР ҚУШЧА...

Кунлардан бир куни Абдулла Орипов қизиқ воқеани айтиб қолди: Бир адабий анжуманда, Навоий айтганидек, шоир юрагининг бир нуқтасида бир қушча булади, у доим сайраб туради, мазмунида гап булди. Эртаси куни бир шоир булмиш ишхонамга кириб келди ва “Абдуллажон, туни билан юрагимга қулоқ солиб ётдим, қуш сайрамади-ку, ҳеч эшитмадим”, деди. Мен ўзимни кулгудан тиёлмадим. Юрагида қушча йўқлигини тан олиш ҳам мардлик. Аслида ҳам ўша шоирман деб юрган кимсанинг юрагида шоирлик қушчаси йўқ эди.

ТАСБЕҲ

Ҳозир тасбеҳ куп. Хилма хил. Кузни олгувчи, чиройли тасбеҳлар. Улар узоқлардан олиб келинади. Ва, айниқса, Арабистон тасбеҳлари қўлма-қўл. Баъзиларидан ажойиб ҳидлар анқийди. Сандал дарахтидан ясалганда. Уларни кўриб, беихтиёр отамнинг тасбеҳлари ёдимга тушади.

Отам, гарчи нафақага чиққунча чўпонлик қилган бўлса-да, эски мусулмонлик мактабида ўқиган, кўп саводли, Қуръони каримни лавҳдан туширмай бежавотир ўқийдиган, Яссавий, Навоий, Бедил, Сўфи Оллоёр, Машраб, Ҳувайдо китобларини севиб мутолаа қиладиган нозиктаъб, мулла инсон эди.

Эътиқодига қойил қолмасдан илож йўқ. Бу тасбеҳидан ҳам аён. Тасбеҳ қўлбола. Уни ҳазориспанд (исириқ) ҳосили – мевасидан – думалоқ доналаридан ўзи ясаб олганди. Улар қўлида айланаверганидан сип-силлиқ бўлиб кетганди. Нур тушса ялтирарди.

Бу тасбеҳ бугун менинг ижодхонамда сақланади. Қуръон тушмайдиган лавҳ ҳам.

КУЛБА

2007 йил Жанубий Кореянинг машҳур Кванжу шаҳрида бутун-жаҳон шоирлари анжуманида қатнашдим. Мезбонлар бизни бир тоққа сайрга бошлашди. Тоғ дараси қоялар, чуққилар баробар бамбукзор. Тўрт тараф жаннатмонанд. Турфа гуллар ифори анқийди. Антиқа қушлар сайрайди. Булоқлар шилдираб оқиб ётибди. Ҳайратимизнинг чеки йуқ. Биз фақат оғочлардан тикланган япончами, хитойчами, корейсчами бир чоғроқ, ихчам кулба олдида тўхтадик. Кулбанинг тўрт тарафидан тўрт тарафга эшик очилган. Ажабо, кулбанинг тўрт эшиги ҳам булар экан-да?

Изоҳини тезда эшитдик. Қайси бир асрда бир император утган экан. Унинг донишманд, ҳақпарвар, адолатпарвар шоир дусту – вазири булиб, сарой ишларида ҳамиша унга елкадош экан. Маслаҳати билан юрт обод, халқ ҳаёти фаровон экан.

Улуғ шоирнинг саъй-ҳаракатлари, арзандалиги бошқа вазирларга, амалдорларга ёқмас экан. Бир куни улар тупланишиб, ҳар хил бўҳтонлар тўқиб, императордан шоир дўстини саройдан четлатишни талаб қилишибди. Агар талаблари бажарилмаса, ҳукуматдан кетишларини рукач қилишиб, дағдаға қилишибди.

Хуллас, императорнинг шоир вазирни саройдан четлатишдан бошқа иложи қолмабди... Ва саройдан узоқда бўлмиш тоғлар орасидаги ушбу кулбани қурдириб, уни шу ерга бадарға қилибди.

– Дўстим, – дебди император, – Сен бориб яшайдиган кулбанинг тўрт эшиги бор. Тўрт тарафи ҳам йул. Тўрт тарафи ҳам мамлакатга очиқ. Озод ва эркин яша. Озод ва эркин шеърларингни ёз. Императорлик мартабаси қанчалик оҳанраболик, шарафлик бўлмасин, у иложсизлик, маҳкумлик мартабаси ҳам. Мен Сени донишманд-сиёсатчи, ўткир ақл соҳиби, ардоқли дўстим бўлишингга қарамасдан саройда сақлаб қололмадим. Эзгулик, Ҳақиқат ҳамиша ҳам адолатсизлик устидан ғалаба қилавермайди!

Адолат шундай куч-қудратки, унинг олдида императорлар, қироллар, подшоҳлар, султонлар ҳам титраб-қақшайди. Сен адолат пешвосисан.

Саройда битта эшик бўлади, шу эшиқдан кирасан ва шу эшиқдан чиқишга маҳкумсан.

Сен саройдан гузалроқ, ҳашаматлироқ саройда яшайсан.

Сен Озодлик, Эркинлик, Адолат ва Шеърят вазири бўл.

Мен узоқда бўлсам ҳам сенга суяниб яшайман.

Шундан буён бу кулба “Шеърят вазири” кулбаси деб аталар экан.

Менинг хаёлимда беихтиёр Алишер Навоий ва Ҳусайн Бойқаро қисмати жонланди.

ОТ КУЗИ, ИТ ҚУЛОҒИ

Отнинг кузи вафодор, итнинг қулоғи. Бир тун отхонада от билан ит бирга тунашди. Ярим кечада ит туриб кетди, отга деди:

– Бир нарса “гуп” этиб тушди...

– Ташвишланма, – деди от, – шифтда ургимчак тўридан игнанинг учидек бир қийқим узилиб ерга тушди!

Чин ижодкорларнинг ҳам кузию қулоқлари шундай булади.

ЁР-ЁР

Бир подшонинг ун бир хотини бор экан. Подшо узоқ жангу жадалга – урушга кетибди. Ўнтаси ҳижрон азобига чидай олмай дунёдан ўтибди. Бири эса шеър ашъор туқиб, қушиқ куйлаб вақтини ўтказибди. Ҳар куни ҳар хосхонада... “ёр-ёр” туқибди. Ўшандан “ёр-ёр” қолган эмиш.

СИБИЗҒА

Ривоят: Бир чупон йигит йилқичининг қизини севиб қолибди. Аммо унга ўз дил сўзларини айта олмабди. Уйлаб-уйлаб сибизғани кашф қилибди ва юрак сўзларини унинг ёрдамида айтиб, севгисини изҳор қилибди...

Ҳар бир чолғунинг яратилиши – Ишқ билан боғлиқ булса керак...

РИВОЯТ

Машраб бир гала итни эргаштириб, қабристон четидан ўтиб борарди. Бир ҳашаматли гумбазли қабрдан нидо келди:

– Машраби девонага бунча тавалло нечун?..

Машрабдан дарҳол жавоб қайтди:

– Гурда ётган мурдаларга гумбази тилло нечун?

ЕТТИНЧИ ДЕРАЗА

ТУҒДОНА ДАРАХТИ

Ривоят қилишларича, тўғ қўйнидаги юртларнинг бирига ёв юриш қилганда хабарчилар барча қишлоқ, овул одамларини хатардан огоҳ этиб, жангга чорлайди. Одамлар шу атропофда ўсадиган дарахтдан калтаклар ва чуқморлар ясаб, Ватан учун ҳаёт-мамот жангига киришади. Ҳатто қариялару болалар ҳам қўлларида новдаларни байроқ каби бошлари ўзра баланд кўтариб, ҳайқирганча жангчиларга мадад беришади. Биргалашиб ёвни бутунлай мағлуб этган эл, оғир кўнларида мадад бўлган дарахтни эъзозлаб, туғдона-байроқ дарахт, деб атади. Ҳовлимга киришда ана шу туғдона дарахтининг бир тупи қад кўтарган. У дарахтлар ичида муқаддас, камёб ҳисобланади, ўзи жуда қаттиқ, мустаҳкам. Тикка ўсади. Сершоҳ. Барглари арратиш, қиррадор. Меваси данакли. Туғдона ёғочидан ясалган дўмбира садолари инсонга бекиёс куч-ғайрат, шижоат, ором бағишлайди.

Туғдонамга қараб турибман. Бўйи уйим томларидан ошибди. Икки минг иккинчи йил Хисор тоғларидан икки туп кўчатини олиб келган эдим.

Ёнма-ён эқмоқчи бўлдим. Аммо қандай қилиб?.. Гап шундаки, туғдоналар тоғларда, қарсиллаган қоя-тошларда ўсади. Бу Дурмоннинг текис, соз тупроғида ўсармикин? Бир фикр келди: бирини шундоқ одатий ниҳоллар каби экаман, иккинчисини ерни кенгроқ доира шаклида олиб, чуқур қовлаб, атропофига тошу шағаллар, қўмлар солиб экаман. Кенжатоё уғлим Қамолитдинга маслаҳат солгандек бўлдим. У ҳайрон бўлиб турди.

Эқдик. Мен ниҳолни ўшлаб турдим. Қамолитдин чуқурларни тўлдирди, тепкилади. Во ажаб? Қўклам келиб, ёзга ўтиб соф тупроққа эқкан ниҳолимиз қуриб қолди. Тошу шағал, қўмлар солиб эқкан ниҳолимиз эса барқ ўриб ўсиб кетди. Бу эқтимол, тасодифдир, аммо тасодиф ҳам заруриятга тобемикан?..

ЙУЛДА

Болаликдан азиз дўстим, фалсафа фанлари доктори, профессор Бахтиёр Тураевнинг отасини Омонхон Тура дердилар. У киши уткир суз-ли, илмли, ҳозиржавоб, одамохун бир инсон бўлиб, аҳён-аҳёнда шеър-лар ҳам битарди. Мен Омонхон Туранинг хонадонида икки йилча яша-ганман. У кишининг қизиқ-қизиқ одатлари ҳам бор эди. Бир кун...

Омонхон Тура икки боғ бедани эшагига ортиб келаётган эди. Олди-дан бир таниши чиқиб қолди ва сўради:

- Эшон бобо, нима олиб келяпсиз?
- Шолғом...
- Шолғом эмас, беда-ку.
- Ҳа, қуриб-билиб турсанг, нимага сўрайсан?

ТАЪНА ВА ЖАВОБ

Уғлим Оловиддиннинг оёғига тикан кирибди. Тиканни онаси олиб ташлаш учун игна билан уринар, Оловиддин эса йиғларди. Жаҳлим чиқиб кетди.

– Бобонг мулла Суюн ун турт ёшида минг чавандоз қатнашаётган кўп-кари ичидан улоқни “Ҳайт!” деб олиб чиқиб, Муҳаммад туқсабонинг бир ботмонлик ҳукизини олган. Сен бобонг ёшида кузларингдан шурва тукиб утирибсан...

Оловиддин йиғидан шартта тўхтади.

– Узингиз-чи, узингиз, – деди у ғазаб билан, – шоир Бобур ун икки ёшида бир юртга подшоҳ бўлган. Сиз қирқ ёшга кириб ҳам юришингизни қаранг...

БИР ВАЗИРЛИҚДА**1**

Котиба бир қучоқ қоғозни Вазирнинг столидан олар экан, эркаланибгина сўрабди:

- Вазир жаноблари, турт унсурни биласизми?
- Ҳа, биламан, нимаиди?
- Билсангиз, айтинг-чи?
- Ҳа, мени синамоқчимисан, Таннозхон? Ҳаво, тупроқ, олов, сув...
- Бешинчисини ҳам биласизми?
- И-е, бешинчиси ҳам бормикан?
- Бор-да, бешинчиси мана бу қоғоз булади!..

2

– Вазир жаноблари, – деди котиба, – қоғозлар жуда уйилиб кетди, уларни ташлаб юборсам бўладими?

– Ҳа, бўлади, – деди Вазир линагини бузмай, – фақат улардан нусха қўчириб қўйишни унутма.

БИР ЙИҒИЛИШДА

– Бурилар чорвага катта зиён етказмоқда. Бу йиртқичларга қарши ҳамма жойда кураш олиб бориш керак...

– Бури Пайғамбар ити. Қутонни поклагувчи. Илгарилари кунғирот (уруғ номи) қўтонига бури ораласа, “менинг қўшхонамга омад кулиб боқди”, деб бир кўйни нимталаб қўшни чупон-чулиққа тарқатишган.

– Ҳар бир ўлдирилган бури учун овчиларга мукофот тайинладик...

– Ҳой-ҳой, нима деяпсиз... Бури галаси азиз-авлиё жойларни зиёрат қилиб, савобталаб юради-я...

– Сиз кексалар, ёмонликдан ҳам яхшилик ясайсизлар... Хўп-п... яна бирор яхши фазилатини айтинг-чи...

– Айтаман. Арлони бури ўлса, урғочиси – она бури бегона нарларга илакишиб юрмайди, ўлган жуфтига содиқ қолади...

– О, буниси зу-ў-р экан. Демак... уларни самолётдан қиришни тўхтатамиз...

БОЛА ҚАЛБИ

Бола қалби ёлғонни, алдовни кутаролмайди. Бозорда ота-бола асал сотар эди. Отаси ярим соатга боласини қолдириб, қаергадир кетди. Бола олдида бир харидор келди ва асал нарҳини суради. Бола отаси ўргатган нарҳни айтди. Харидор асал олмасдан ўз йўлига кета бошлади. Бола “асалимдан олинг, жуда ширин...”, деди жовдираб. “Асал булгандан кейин ширин бўлади-да”, дея харидор йўлида давом этди. Бола хиёл ўйланиб турди-да, киши орқасидан чопди. Етиб олиб, деди: – Бизнинг асал ҳамма асалдан ширин, биласизми, отам унга шакар ҳам қўшган...”

КОМИЛАХОН НЕВАРАМ

Ёмғир ёғаяпти, чакмоқ пар-пар чақаяпти. Буни кўрган неварам Комилахон: “Азим до-о-до, – деди, – қаранг-қаранг, ёмғир чироқ ёқаяпти.”

ДАВРАДА

Маишатбоз даврага бир оқил йигит кириб қолди.

– Эй, май ичмайдиган, наша тортмайдиган, “ҳалигидай...” донишманд бола, – деди уни масхаралаб давра кимсалари, – ақлли бошингни бу майиноб билан ювмасимиздан, бир сўз айт-чи, нима учун ичамиз?

Вазиятни тез фаҳмлаб олган оқил йигит деди:

– Ҳамма айтилган яхши сўзлар учун!

Ичиб юборишдилар, маишатбозлик давом этди. Оқил йигит кетишга қулай фурсатни кутди. Буни сезган даврабоши: – Кетмоқчи булаяпсан, аммо тагин бир қадаҳ сузи айт-чи, энди нима учун ичамиз?

– Ҳамма айтиладиган яхши сўзлар учун!

Давра аҳли қийқириб ичишди. Оқил йигит даврадан сирпаниб чиқиб кетди.

ДИЙДОРЛАШУВ

Қирқ макиённинг Даканхуроzi бир дона дон топиб олди. “Қурқ-қурқ”лаб уларни ёнига чорлади. Товуқлар йиғилишиб келишган заҳоти... Даканхўроз донни намойшкора ютиб юборди.

– Бу нима қилганингиз, бирортамизга ҳам донни раво кўрмадингиз, чорлаб нима қилардингиз, – гина қила кетди товуқлар.

– Буни “дийдорлашув” дейдилар, – деди Даканхўроз керилиб.

СУЗ

Халқнинг сузидан келиб чиқадиган маъноларга қаранг. Унинг пардаланиб, сайқалланиб истеъmolга киришига қаранг. “Фалончи... ишни пишаки (мушук) қилди”. Демак, қандайдир киши бир иш қилган-у ортидан из ҳам, ис ҳам чиқармаган. Уни ҳеч ким кўрмаган, билмаган. Одатда, мушук ҳожат чиқариш учун аввало ерни озроқ бўлса-да кавлайди ва ҳожат ушатади. Сунг уни оёқлари билан кумиб, устини ёпиб ташлайди.

Ёки: “Лайча кучукнинг ишини қилибсан-да...”

Демак, кимдир бир иш қилгану ҳамма ундан хабардор, овоза булиб кетган. Лайча кучук илиққан пайтида унинг орқасидан унлаб итлар ошкора эргшиб юришганлигини ким кўрмаган?

MUNDARIJA

Nevaralarim uchun hikoyalar

Keragatosh kakliklari.....	4
Ona kaklik.....	7
Kaklik dushmanlari	8
Alqorlar	10
Alqorlarning cho'poni.....	13
Shoxdor.....	15
Ov ishtiyoqi.....	17
Alqorqamoqda.....	19
Odam bo'lmish.....	21
Bo'n bolasi.....	22
Adashish.....	24
Tillaburamashox (qissa).....	26
Sahro o'rtasida to'ntarilib yotgan toshbaqa (hikoya).....	37

Nasriy qayirmalar

Birinchii deraza.....	43
Ikkinchi deraza	78
Uchinchi deraza.....	89
To'rtinchi deraza	101
Beshinchi deraza.....	109
Oltinchi deraza.....	131
Yettinchi deraza	142

МУНДАРИЖА

Невараларим учун ҳикоялар

Керагатош какликлари.....	149
Она каклик.....	152
Каклик душманлари.....	153
Алқорлар.....	155
Алқорларнинг чўпони.....	158
Шохдор.....	160
Ов иштиёқи.....	162
Алқорқамокда.....	164
Одам булмиш.....	166
Бўри боласи.....	167
Адашиш.....	169
Тиллабурамашох (қисса).....	172
Саҳро ўртасида тўнтарилиб ётган тошбақа (ҳикоя).....	183

Насрий қайирмалар

Биринчи дераза.....	189
Иккинчи дераза.....	225
Учинчи дераза.....	236
Тўртинчи дераза.....	248
Бешинчи дераза.....	256
Олтинчи дераза.....	278
Еттинчи дераза.....	289

Адабий-бадий нашр

Азим Суюн

ЕТТИ КИТОБ
(танланган асарлар)
4-китоб

Тугдона

(Наср)

Муҳаррир *Ойдиннисо*
Бадий муҳаррир *Муродхон Бурҳонов*
Техник муҳаррир *Хосият Ҳасанова*
Мусахҳиҳ *Ирода Умарова*
Саҳифаловчи *Сурайё Раҳмедова*

Нашриёт лицензияси рақами AI № 290. 04.11.2016
2019 йил 28 декабрда босишга рухсат этилди.
Бичими 60x100 $\frac{1}{16}$. Агial гарнитураси.
Офсет босма. 20,81 шартли босма табоқ. 20,87 нашр табоғи.
Адади 3000 нусха. 1-рақамли буюртма.
Баҳоси шартнома асосида.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг
Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа
ижодий уйида чоп этилди.
100128 Тошкент, Лабзак кучаси, 86.

Телефонлар: (371) 241-25-24, 241-83-29
Факс: (371) 241-82-69

www.gglit.uz info@gglit.uz

24.300 e

16+



ISBN 978-9943-6106-3-7



9 789943 610637